

JWX2678
YORQINJON ODILOV

SOTSIOLINGVISTIKA ATAMALARINING
IZOHLI LUG‘ATI

JWX2678



JWX2678

JWX2678

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASINING DAVLAT
TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI,
ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

YORQINJON ODILOV

**SOTSIOLINGVISTIKA
ATAMALARINING
IZOHLI LUG‘ATI**

TOSHKENT – 2025

UO‘K: 87’27
KBK 81.2-4
O-29

Yorqinjon Odilov. Sotsiolingvistika atamalarining izohli lug‘ati.
– T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2025. – 344 bet.

ISBN: 978-9910-01-609-7

Ushbu lug‘at O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va unga ilova qilingan “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 139-sonli “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturini amalga oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar doirasida O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida tuzildi. Lug‘at sotsiolingvistik tadqiqotlarda faol qo‘llanib kelayotgan 900 ga yaqin atamani qamrab olgan. Lug‘atga kirgan atamalar tilshunoslikka oid lug‘atlar, tadqiqotlar hamda internet nashrlaridagi ishonchli manbalarga tayangan holda izohlangan.

“Sotsiolingvistika atamalarining izohli lug‘ati” tilshunoslar, doktorant va mustaqil tadqiqotchilar, pedagog-o‘qituvchilar, filologiya fakultetining bakalavriat va magistratura talabalari, umuman, sotsiolingvistika bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K:87’27

KBK 81.2-4

Mas‘ul muharrir:

Nizomiddin Mahmudov – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Abduvahob Madvaliyev – filologiya fanlari nomzodi, professor;

Shoira Usmonova – filologiya fanlari doktori, professor.

Ushbu lug‘at O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Ilmiy kengashining 2025-yil 28-maydagi 6-bayonnomasi asosida nashr etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN: 978-9910-01-609-7

© **Yorqinjon Odilov, 2025;**

© **«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2025.**

SO‘ZBOSHI

Til tadqiqi har jihatdan to‘kis bo‘lishi uchun sof lingvistik aspektdagina ish ko‘rishning kamligi bugun shu fan mutaxassislarining hech biriga sir emas. Shu bois zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda boshqa fanlar yutuqlaridan ham foydalanilmoqda. Ana shunday urinishlarning samarasi sifatida tilni uning egasi bilan o‘rganishga yo‘naltirilgan kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, pragmalolingvistika kabi sohalar rivoj topmoqda va bu sohalar tilga, an’anaviy strukturalizmdan farqli ravishda, til egasining faol ta’siriga muvofiq doimiy harakatdagi, o‘shish-o‘zgarishdagi hodisa sifatida yondashmoqda, bunday mazmundagi tadqiqotlarda kognitologiya, psixologiya, kulturologiya, etnologiya, sotsiologiya singari fanlar xulosalaridan foydalanilmoqda hamda til tadqiqida avval ko‘z tushmagan jihatlar o‘rtaga chiqmoqda.

Sotsiolingvistika ham ana shunday qo‘sh soha ta’sirlashuvi – tilshunoslik va jamiyatshunoslik kesishgan nuqtada paydo bo‘lgan kenja sohalardan biri. Uilyam Brayt sotsiolingvistikaning tutash sohalar negizida paydo bo‘lganligini obrazli xulosalab, uni etnolingvistika va psixolingvistikaning singlisiga o‘xshatgan edi. Ijtimoiy tilshunoslik deyish ham mumkin bo‘lgan bu soha o‘z tadqiqot yo‘lini tilning asoslarini jamiyatdan, lisoniy hodisalarni asoslovchi materiallarni ijtimoiy hodisalardan qidirish, tildagi o‘zgarishlarning sabablarini ijtimoiy-siyosiy omillardan izlashdan boshlagan edi. Bu haqida so‘z ketganda olimlar fransuz tilshunoslari dastlab shunday mazmundagi ilmiy puxta qarashlarni ilgari surganligini tilga oladilar.

Tabiiyki, bugungi sotsiolingvistikaning tadqiqot qamrovi g‘oyat kengaygan. Tilni sotsiolingvistik jihatdan o‘rganishni maqsad qilgan ilmiy maktablar shakllangan, bu jihatdan Amerika sotsiolingvistika maktabi, nemis sotsiolingvistika maktabi, chex sotsiolingvistika maktabi, rus sotsiolingvistika

maktabi va boshqalar ma'lum. Mazkur ilmiy maktablarni tilni ijtimoiy ta'sirchan, ijtimoiy shartlangan hodisa sifatida o'rganishdek umumiy qarashlar birlashtirib turadi, biroq ular ijtimoiy-lisoniy munosabatlarning ichki xususiyatlarini aniqlash-tirishda farqli yondashib ish ko'radilar.

Zamonaviy sotsiolingvistika tilni inson va jamiyat, inson va ijtimoiy institutlar, shaxs va davlat, shaxs va ijtimoiy qoidalar munosabatida bajaradigan vazifalari nuqtayi nazaridan o'rganmoqda. Shuningdek, til qonunchiligi, tillarning huquqiy maqomi, davlat tili, rasmiy til, ishchi til, millatlararo muloqot tili, globallashuv sharoitida milliy tillarga xalqaro tillarning ta'siri, xalqaro tillar ta'siri sharoitida milliy tillarning raqobatbardoshligini oshirish, terminologiyani milliy lashtirishda sotsiolingvistik tadqiqotlarning o'rni kabi masalalar bilan faol shug'ullanilmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda davlat tilini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning barchasi til siyosatining amaliy tomoni bilan bog'liq. 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5850-sonli Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Unda Atamalar komissiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: 1) ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy muomalaga kiritish; 2) o'zbek tiliga kiritilayotgan yangi atamalarni qonunchilik hujjatlariga tatbiq etish va amalda qo'llashning huquqiy muammolarini o'rganish, ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash; 3) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida atamalarning qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlash choralarini ko'rish; 4) yangi so'z va atamalarni qo'llash sohasida boshqa tillarning qoidalari tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish; 5) respublika ijro etuvchi hokimiyat organlariga atama-

shunoslik masalalari bo'yicha ko'rsatmalar berish; 6) respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari markaziy apparatlarida jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi atamalar bo'yicha ishchi guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Umuman, sotsiolingvistika jadal rivojlanayotgan tilshunoslik sohasidir. U tilning ijtimoiy xususiyatlari, til va jamiyat munosabati, til vaziyati singari dastlabki tadqiqot obyektlarini bugungi globallashuv sharoitida ilg'or lingvistik usullar asosida qayta ko'rib chiqmoqda. Shuningdek, til siyosati, davlat tili va milliy tillar munosabati, davlat tilida ish yuritish, til ma'naviyati, til qonunchiligi, lisoniy mo'ljallash, lisoniy rejalashtirish singari tushunchalarni tadqiq qilish yo'lida ishonchli ildamlamoqda.

Albatta, sotsiolingvistik tadqiqotlarning ko'payishi va puxtalashishida terminologik apparatning shakllanganligi muhim. Avval tilshunoslikka oid lug'atlarda muayyan miqdorda sotsiolingvistik tushunchalar izohlangan, shunday ishlardagi tavsiflardan tadqiqotlarda foydalanib kelingan. Keyinchalik sotsiolingvistikaning rivojlanishi bilan bu sohaning tushunchalari ko'paydi, til va jamiyat munosabati bilan bog'liq yangi tushunchalar farqlandi hamda muayyan atamalarga birlashtirildi. Shu tariqa sotsiolingvistikaning terminologik apparati shakllandi, alohida sotsiolingvistika atamalarining lug'ati tuzildi. Xususan, rus tilshunoslari jamoasi tomonidan tuzilgan "Sotsiolingvistika terminlari lug'ati", mualliflardan birining bildirishicha, ijtimoiy tilshunoslikda asosiy, sotsiolingvistik matnlarda eng ko'p qo'llanadigan terminlarning tizimlashtirilgan tavsifini taqdim etuvchi birinchi lug'atdir. Ayni lug'atda xorijiy hamda rus sotsiolingvistikasining tajribasi hisobga olingan. Biz ham mazkur lug'atning eng yaxshi yutuqlaridan foydalandik.

Ta'kidlanganidek, sotsiolingvistika – tilshunoslik va jamiyatshunoslikdan rivojlangan lingvistika sohasi. Unda lingvistik tahlillar – birlamchi, bu aniq. Sotsiolingvistik tahlillarda jamiyatshunoslikka oid tushunchalardan ham foydalaniladi. Ayni jihat sotsiolingvistikada jamiyatshunos-

likda qo'llanadigan atamalar yoki ularga yaqin terminlarni paydo qildi. Sotsiolingvistik tadqiqot usullarini ifodalovchi so'rovnomalar, intervyu, test, kuzatish kabi atamalarda shuni ko'rish mumkin. Shuningdek, har ikki soha tushunchalaridan tarkib topgan birikma terminlar ham sotsiolingvistikada ko'plab shakllangan. Masalan, *ijtimoiy dialekt, lisoniy ijtimoiylashuv, lisoniy jamoa, lisoniy hamjamiyat, til vaziyati, lisoniy o'zlik, ilk ijtimoiylashuv tili, aholining lisoniy tarkibi, jamiyatning lisoniy manzarasi, tilning ijtimoiy-tarixiy tipi* kabilar.

Yana shunday atamalar guruhi borki, ular etnografiya, siyosat, huquq va boshqa sohalardagi tushunchalar bo'lib, tilshunoslik tushunchalari bilan birikib, turli sotsiolingvistik tushunchalarning atamalariga aylangan. *Etnik ko'pchilik tili, etnik ozchilik tili, etnolekt, etnolisoniy assilyatsiya, til siyosati, til siyosati obyektlari, demokratik til siyosati, til huquqi, til qonunchiligi, huquqiy jargon, huquqiy maqomli til, diaspora tili, diplomatiya tili* kabilar shunday xususiyatli atamalardir. Atamalarning ayni xususiyatlarga sohibligi tilning ijtimoiy munosabatlar, etnosiyosiy jarayonlar bilan jips bog'liqligi sabablidir, sotsiolingvistika esa ayni bog'liqliklarni ham o'rganadi.

O'zbek tilshunosligida sotsiolingvistik mazmundagi izlanishlar o'tgan asrning 50-yillaridan keyin paydo bo'lganligini e'tirof etish joiz. Til va jamiyat, jamiyatning tilga ta'siri, adabiy tilni me'yorlashtirishda til jamoasining lisoniy ehtiyojlarini hisobga olish kabi mavzulardagi maqola yoki monografik ishlar, sotsiolingvistika nomi ostida bo'lmasa-da, dunyo yuzini ko'rgan. 2000-yillarga kelib esa sotsiolingvistika nomi ostida tadqiqotlar maydonga kela boshladi va hozirgi kunga kelib ancha-muncha dissertatsiyalar, monografiyalar hamda maqolalar yozildi. Ammo sotsiolingvistika atamalarining lug'ati tuzilmagan, o'zbek tili bo'yicha tadqiqotlarda boshqa tillardagi lug'atlardan imkon qadar foydalanilar edi. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari dasturiga sotsiolingvistika fani kiritilgandan keyin esa talabalarda sotsiolingvistika atamaları izohlangan manbaga ehtiyoj yanada oshdi.

“Sotsiolingvistika atamalarining izohli lug‘ati” ana shu hayotiy ehtiyojni hisobga olgan holda hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalardan kelib chiqib tayyorlandi. Mazkur lug‘at o‘zbek lug‘atchiligida sohaga oid ilk leksikografik ishdir. Lug‘atni tuzishdan oldin sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlar o‘rganildi, lingvistik terminlar lug‘atlari ko‘rib chiqildi va imkon qadar mavjud lug‘atlardagi ijobiy natijalardan foydalanildi. Unda o‘zbek va dunyo sotsiolingvistikasida foydalanilayotgan atamalarni qamrab olishga harakat qilindi.

“Sotsiolingvistika atamalarining izohli lug‘ati”-da 900 ga yaqin atama izohlangan. Lug‘at so‘zligini shakllantirishda atamalarining imkon qadar o‘zbekcha bo‘lishiga e‘tibor berildi, faqat o‘zbekcha muqobili topilmaganda yoki muqobil atama sotsiolingvistik tushunchaning ma‘nosini ifodalay olmagandagina xorijiy atamaning o‘zi berildi. Bunday yo‘l tutishdan imkon qadar o‘z so‘zlarimizni atama sifatida qo‘llash mumkinligini bildirish, sotsiolingvistik tadqiqotlarda o‘zbekcha atamalarining qo‘llanishiga imkon berish maqsad qilindi. Masalan, sotsiolingvistikada bilingvizm degan tushuncha bor va u “muayyan mamlakatda (odatda, ko‘p tilli) ikki tilning kamida muloqot vositasi sifatida amal qilishi” ma‘nosini bildiradi. Biz umumlingvistik termin bo‘lgani uchun ayni terminning o‘zini olib qo‘ya qolishimiz mumkin edi, ammo tilimizda bu tushunchani ifodalaydigan so‘z bo‘lganligi sababli bunday qilmadik. “Bo‘lgan” deyshimizga o‘zbek adabiyoti tarixida ikki tilda ijobiy qilgan shoirlarni zullisonayn shoir, she‘riyatda shunday an’anani zullisonaynlik deyilgani bois bo‘ldi. Garchi ayni istiloh arabcha bo‘lsa ham, harholda, o‘zbek tili egalari uchun bilingvizm yangi tushuncha emas. Hozirgi o‘zbek tilida bu sotsiolingvistik tushunchani *ikkitillilik* so‘zi bimalol ifodalay oladi, shuning uchun xorijiy *bilingvizm* termini anglatadigan tushunchani *ikkitillilik* atamasiga biriktirdik (albat, uning fanda ommalashishi – vaqt masalasi). Bu *mono-*

lingvizm uchun *birtillilik*, *polilingvizm* uchun *ko'ptillilik* soʻzlarini atama oʻlaroq birlashtirishga yoʻl ochdi. Umuman, lugʻat soʻzligini belgilashda xorijiy terminlarning milliy muqobillariga imkon berildi.

Sotsiolingvistikada “til kontakti” tushunchasi bor. Bu tushuncha, umuman, “yonma-yon hududlarda yashagan yoki xalq xoʻjaligining turli jabhalarida hamkorlik qilgan xalqlarning tillari oʻrtasidagi lisoniy oldi-berdi jarayoni”ni bildiradi. Mazkur tushuncha uchun *til aloqalari*, *tillar aloqasi*, *tillar ta'sirlashuvi* muqobillari topildi, ammo ayni terminologik tushuncha uchun *tillar ta'sirlashuvi* atamasi birlashtirildi. *Til aloqalari*, *tillar aloqasi* deyish toʻgʻridan toʻgʻri kalka boʻlardi, qolaversa, “aloqa” qismi tillarning bir-biridan soʻz olib yoki soʻz berishdan iborat taʼsir qilish jarayonini ifodalay olmaydi. Shu bois tillar taʼsirlashuvi atama sifatida tanlandi. Biz til taʼsirlashuvi deyishimiz ham mumkin edi, ammo bunda taʼsirlashuv birtomonlama ifodalangan boʻlardi. Yana lugʻat ichida taʼsirlashuvning tabiatidan kelib chiqib, *birtomonlama ta'sirlashuv hamda ikkitomonlama ta'sirlashuv* atamaları farqlandi. Agar lisoniy jarayon bir tilning soʻz berishi va ikkinchi tilning soʻz olishidan iborat boʻlsa, terminologik tushunchaga *birtomonlama ta'sirlashuv* atamasi birlashtirildi. Agar lisoniy jarayon taʼsirlashayotgan tillarning ham soʻz olib, ham soʻz berishiga asoslansa, terminologik tushunchaga *ikkitomonlama ta'sirlashuv* termini birlashtirildi.

“Sotsiolingvistika atamalarining izohli lugʻati” mu-taxassislariga moʻljallanganligi sababli unda sotsiolingvistika tushunchalarini batafsil izohlash, mohiyatini aniqlashtirish maqsad qilindi (leksikografik izohlarning hajmdorligi – shunday tutum natijasi), bir umumiy tushunchani izohlash bilan chegaralanilmadi, balki uning ichki turlarini koʻrsatish, bu tur atamalarining oʻzaro farqli xususiyatlarini koʻrsatib berish yoʻlidan borildi. Masalan, “davlatning til hayotiga maqsadli taʼsir qilishining mafkuraviy chora-tadbirlari”ni bildiradigan *til siyosati* tushunchasi bor, bunday siyosatning bir necha koʻrinishlari ham mavjud va ular tabiatiga koʻra bir-biri-

dan farq qiladi. Shuni hisobga olib, lugʻatda *til siyosati* atamasi bilan birga, *xolis til siyosati*, *noxolis til siyosati*, *qattiq til siyosati*, *yumshoq til siyosati*, *konservativ til siyosati*, *liberal til siyosati*, *milliy yoʻnalgan til siyosati*, *baynalmilal til siyosati*, *ichki til siyosati*, *tashqi til siyosati* atamalari ham izohlandi. Yoki *diglossiya*, *jargon*, *til qonunchiligi*, *til vaziyati*, *lisoniy jamoa*, *lisoniy birxillik*, *lisoniy harxillik*, *ijtimoiylashuv tili* kabi atama guruhlari misolida ham shuni koʻrish mumkin.

Maʼlumki, terminshunoslikda terminlarning koʻp maʼnoli boʻlishi, maʼnodoshlik, variantlilik kabi hodisalar maʼqullanmaydi. Bularni bartaraf etish maqsadida u yoki bu soha terminlari tadqiqiga bagʻishlangan ishlarda turli takliflar ishlab chiqiladi va buni maʼqullash kerak. Shunday boʻlsa ham terminologik tizimlarda zikr etilgan holatlar uchrab turadi. Xususan, tilshunoslik terminologiyasida ham koʻpmaʼnoli, variant terminlar maʼlum darajada bor. Masalan, *leksika* ham “tilning lugʻat tarkibi”ni, ham “lugʻat tarkibini oʻrganadigan tilshunoslik boʻlimi”ni bildiradi. Yoki *sinonimiya* – *maʼnodoshlik*, *omonimiya* – *shakldoshlik*, *antonimiya* – *zid maʼnolilik* juftliklari ham variant terminlardir. Bu jihatdan tilshunoslarning *maʼnodoshlik*, *shakldoshlik*, *zid maʼnolilik* soʻzlarini atama sifatida qoʻllashlarini maʼqullash kerak. Sotsiolingvistika atamalari ichida ham koʻp maʼnoli (ikki-uch maʼnoli) – lari oz boʻlsa-da bor. Masalan, ikkitillilik hodisasining individual, jamoaviy va milliy koʻrinishlarini farqlab yondashish, bir terminologik tushunchani ikkinchisidan aniq farqlash natijasida koʻp maʼnoli deyiladigan atamalar shakllandi. Atama sonini koʻpaytirgandan koʻra ularni bir atamaning maʼnolari tarzida izohlash maʼqul koʻrildi.

“Sotsiolingvistika atamalarining izohli lugʻati”da sotsiolingvistik tushunchalarning mohiyati yaxshiroq anglanishi, muayyan sotsiolingvistik tushunchaning boshqa sotsiolingvistik tushunchadan farqi aniq tasavvur qilinishi uchun atamalarga qiyosiy havola qilish usuli qoʻllandi. Masalan, tilning yashash shakllaridan biri *hududiy dialekt deb* ataladi. Uning tabiatiga maʼlum maʼnoda oʻxshamaydigan tilning boshqa yashash shakllari ham bor va u *adabiy til* va *ijtimoiy dialekt*dir.

Lugʻatda bir-biriga maʼlum maʼnoda zid boʻlgan atamalarning leksikografik izohidan soʻng qiyoslamalar berildi. Masalan:

HUDUDIY DIALEKT Muayyan hudud aholisining tarixan shakllangan, kishilarning ijtimoiy-lisoniy ehtiyojlarini ifodalashda foydalanilayotgan va tilning eng keng tarqalgan yashash shakllaridan biri. U adabiy tildan fonetikasi, leksikasi, talaffuz tarzi, grammatikasining oʻziga xosligi bilan farq qiladi va koʻpincha maʼlum bir viloyat, shahar yoki qishloqqa xos boʻladi. Milliy til dialektlardan rivojlanadi. Sotsiolingvistikada dialekt konkret lisoniy jamoaga xizmat qilayotgan ijtimoiy hodisa sifatida oʻrganiladi.

Qiyos: *adabiy til, ijtimoiy dialekt.*

Yoki:

IJTIMOY DIALEKT Tilning ijtimoiy tabaqalanishi natijasida yuzaga keladigan shakli, jamiyatning muayyan qatlamiga xos til koʻrinishi va u shu qatlam aʼzolari nutqida yashaydi. Ishchilar, ziyolilar, talabalar yoki qishloq aholisi tilida fonetik, leksik va grammatik jihatdan farq qiluvchi unsurlar hisoblanadi. Ijtimoiy dialektlar milliy tilning bir koʻrinishi boʻlsa ham, umumadabiy leksikadan ijtimoiy xoslangan soʻz va iboralardan tashkil topishi bilan farq qiladi. Masalan, shifokor nutqi bilan harbiyning nutqi leksikasi va ifoda tarziga koʻra farq qiladi. Shifokor nutqida ogʻir-vazminlik, harbiy nutqida esa tezlik, keskinlik ustuvor.

Qiyos: *adabiy til, hududiy dialekt.*

Atamaning lisoniy xususiyatidan kelib chiqib, qiyoslamada bir, ikki, uch atama oʻquvchiga qiyoslab koʻrish uchun tavsiya qilindi. Shuningdek, bir-biriga yaqin maʼnoli yoki yondosh tushunchali atamalarning leksikografik izohidan soʻng tegishli atamaning maʼnosi bilan tanishish foydali boʻlishini bildirish maqsadida “Qarang:” tarzidagi eslatma berildi. Masalan, *esperanto* atamasining maʼnosi bilan tanishib boʻlgandan soʻng bunday tillar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish maqsadida *sunʼiy til, volapyuk, tokipona* kabi sunʼiy til koʻrinishlari haqida maʼlumotga ega boʻlish foydali. Kuzating:

ESPERANTO [*esper.* *esperi* – umid qilmoq] 1887-yilda polshalik koʻz shifokori L.L.Zamenhof tomonidan yaratilgan

sun'iy til. Esperanto tili leksikasi ko'plab Yevropa davlatlari adabiy tillarida keng tarqalgan yunon-lotin so'zlari asosida shakllantirilgan. Esperanto tilining grammatik qurilishi juda sodda, u morfologiya va so'z yasashning 16 qoidasidan iborat. Shu bois boshqa sun'iy tillarga qaraganga ko'proq ommalashgan.

Qarang: *sun'iy til, volapyuk, tokipona.*

Lug'atda faqat Yevropa tillariga xos asoslardan hosil bo'lgan atamalar yoki atama qismlarining etimologik ma'nosi berildi. Masalan, *surjik, kajun, trasyanka, pijin* kabilar. Agar atama birikma shaklida bo'lganda va uning muayyan qismi yunoncha, fransuzcha yoki boshqa til so'zi hisoblanganda ham etimologik ma'lumot berildi. Masalan, *geterogen lisoniy jamoa, geteromorf lisoniy jamoa* kabi atamalarda "geterogen", "geteromorf" qismlari bo'yicha etimologik ma'lumot berildi. Masalan:

DIPLOMATIYA TILI [*fr.* diplomatie < *yun.* diploma – ikki buklangan qog'oz varag'i + tili] Davlatlararo munosabatlar va siyosiy muzokaralar amalga oshiriladigan, shunday munosabatlar ifodasi bo'lgan diplomatik hujjatlar rasmylashtiriladigan til. Mazkur atama diplomatiyada xalqaro qonunchilikka muvofiq bir yoki bir necha tilning ma'lum bir huquqiy maqomini bildiradi. Bunday maqom tilga xalqaro munosabatlarda ishlatilish imkonini beradi. Xalqaro tashkilotlar o'z faoliyat xarakteridan kelib chiqib, diplomatiya tilini rasmiy va ishchi til sifatida belgilaydi. Masalan, YXHT faoliyatida ingliz, ispan, italyan, nemis, rus, fransuz tillari rasmiy va ishchi tillar sifatida tanlangan.

Qiyos: *diplomatik til 2. Qarang:* *boshqariladigan muloqot sohalari.*

Asli arabcha yoki forscha so'zlar o'zbek tili egalariga tushunarli bo'lgani va o'zbek tilida uzuallashganligi sababli ularning etimologik ma'nosi qayd qilinmadi. Sifat turkumiga mansub atama-so'zlarga etimologik izoh berilmadi.

Muallif O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Sotsiolingvistika bo'limi ilmiy xodimlari Mirzohid Tursunov hamda Feruza Ravshanovaga "Sot-

siolingvistika atamalarining izohli lug‘ati”ni nashrga tayyorlash jarayonidagi texnik ishlarni bajarishdagi yordami uchun minnatdorchilik bildiradi.

Til va jamiyat hamisha o‘sish-o‘zgarishdagi hodisalardir, ular o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadigan sotsiolingvistika ham jadal rivojlanayotgan soha. Tadqiqotdan tadqiqotga til va jamiyat munosabatining ilgari ko‘z tushmagan jihatlari aniqlanmoqda, sotsiolingvistika fani esa yangi xulosalar bilan rivojlanmoqda. U tilning ijtimoiy xususiyatlari, til va jamiyat munosabati, til vaziyati singari dastlabki tadqiqot obyektlarini bugungi globallashuv sharoitida ilg‘or lingvistik usullar asosida qayta ko‘rib chiqmoqda. Shuningdek, til siyosati, davlat tili va milliy tillar munosabati, davlat tilida ish yuritish, til ma‘naviyati, til qonunchiligi, lisoniy mo‘ljallash, lisoniy rejalashtirish singari tushunchalarni tadqiq qilish yo‘lida ishonchli ildamlamoqda.

Bularning barchasi “Sotsiolingvistika atamalarining izohli lug‘ati”ni muntazam to‘ldirib, takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Mazkur lug‘at o‘zbek lug‘atchiligidagi dastlabki leksikografik ish bo‘lganligi sababli unda mulohazatalab o‘rinlar bo‘lishi mumkin, atamalarning tanlanishi va izohlanishida bahsli o‘rinlar bo‘lishi tabiiy. Shu bois muallif lug‘atga nisbatan mutlaq mukammallikni da’vo qilmaydi va uni takomillashtirish yuzasidan bildiriladigan fikr-mulohazalarni samimiy qabul qiladi.

Lug‘at bo‘yicha bildiriladigan takliflarni quyidagi manzilga yuborishingizni so‘raymiz:

100060, Toshkent shahri Mirobod tumani Shahrisabz ko‘chasi 5-uy. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

Elektron manzil: yorqinjonodilov@gmail.com

A

ADABIY TIL Milliy tilning badiiy soʻz ustalari, ijodkorlar, filolog-mutaxassislar tomonidan ishlangan, sayqal berilgan, maʼlum meʼyorga solingan, ogʻzaki va yozma shakllari rivojlangan, uslubiy tarmoqlangan, adabiy meʼyorlari barqarorlashgan hamda universallashtirilgan, qoʻllanishi majburiylashtirilgan va xalqni birlashtirishdek ijtimoiy vazifani bajarishga qodirlashtirilgan yashash shakli. Adabiy til milliy til zaminida yuzaga keladi va uning oliy shakli hisoblanadi. U “standart til” tushunchasini ham, “meʼyorlashgan til” tushunchasini ham qamrab oladi.

Qiyos: *standart til, meʼyorlashgan til.*

ADABIY TIL MEʼYORLARI Maʼlum bir milliy tilning standartlashgan shakliga xos boʻlgan lisoniy normalar. Tilning ogʻzaki hamda yozma shakliga birday tegishli bunday meʼyorlar talaffuz, imlo, leksik, grammatik va uslubiy qoidalardan tashkil topadi, adabiy tilning har qanday sharoit hamda vaziyatda toʻliq, toʻgʻri va maqsadga muvofiq amal qilishini taʼminlaydi. Adabiy til meʼyorlarida jamiyatning nutqda nimaga yoʻl qoʻyish mumkin-u nimaga yoʻl qoʻyish mumkin emasligidek lisoniy tutumi, tilga ongli munosabati aks etadi.

Qiyos: *umumtil meʼyorlari.*

ADABIY TILNI XALQCHILLASHTIRISH Muayyan mamlakat aholisi qoʻllayotgan til bilan shu mamlakat aholisiga xizmat qilishi lozim boʻlgan adabiy til oʻrtasida katta farqlanish yuzaga kelganda adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish taqozosi bilan amaldagi lisoniy meʼyorlarni soddalashtirish. Tilning ogʻzaki va yozma shakli vaqt oʻtishi bilan jiddiy oʻzgarib ketganda yoki adabiy til bir-ikki dialekt asosidagina

shakllantirilib, boshqa dialektlar imkoniyatlaridan foydalanilmaganda jamiyatda adabiy tilni xalqchillashtirish harakati boshlanadi. Bunday jarayonlar grafika, fonetika, leksika va sintaksis doirasida bo‘lishi mumkin.

Qiyos: *adabiy tilning barqarorlashganligi.*

ADABIY TILNING BARQARORLASHGANLIGI Tilshunos-mutaxassislar, yozuvchi-shoirlar hamda so‘z ustalari tomonidan adabiy tilni qo‘llash bilan bog‘liq ishlab chiqilgan talaffuz va imlo, leksik-grammatik me‘yorlardan mamlakat aholisining doimiy foydalanishi natijasida bu lisoniy me‘yorlarning turg‘un hamda o‘zgarmas holga kelib qolganligi, til me‘yorlarining puxtaligi sababli ijtimoiy o‘zgarishlarga ta’sirchan emasligidek sifati. Har qanday adabiy til o‘z lisoniy me‘yorlarini to‘liq va to‘g‘ri shakllantirmay turib bu sifatga ega bo‘la olmaydi. Har qanday til me‘yorlashganda qoidalari o‘zgarishsiz saqlanadi va uzoq vaqt amal qiladi.

Qiyos: *adabiy tilni xalqchillashtirish.*

ADABIY TILNING ME‘YORLASHGANLIGI Tilshunos-mutaxassislar, yozuvchi-shoirlar hamda so‘z ustalari tomonidan til taraqqiyotining muayyan bosqichida adabiy tilga xos orfoepik, orfografik, leksik, grammatik va uslubiy me‘yorlarning, imlo hamda punktuatsiya tamoyillarining ishlab chiqilganligi, ayni paytda, til tizimi va uning ishlatilishida muayyan qoidalarning, normalarning shakllanishi va ularning umumiy ravishda tan olinishi jarayoni. Adabiy tilning bu jihati ma’lum bir shevalar hamda dialektlarning fonetik, talaffuz, leksik-grammatik xususiyatlarini asos qilib olib amalga oshiriladi va jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilinadi. Davlat, ilmiy muassasalar yoki til siyosati organlari tomonidan rasmiy tasdiqlangan normativ hujjatlar orqali mustahkamlanadi.

Qarang: *til me‘yorlari.*

ADABIY TILNING UMUMMAJBURIYLIGI Tilning jamiyat a’zolari uchun yagona, me‘yorga solingan hamda barcha uchun tushunarli bo‘lgan muloqot vositasi sifatida xizmat qilishida namoyon bo‘ladigan jihati; aholining qayerda ya-

shashidan qat'i nazar, foydalanuvchilar uchun yagona va birxilligini ko'rsatuvchi xususiyati. Adabiy tilning bu sifati tilning qo'llanishi tartibga solib turiladigan sohalarida yuzaga chiqadi. Adabiy tilning umummajburiyligi ma'lum ma'noda uning keng yoyilishiga sabab bo'ladi, aholini bir til ostida birlashtirishga yordam beradi.

Qiyos: *adabiy tilning universalligi.*

ADABIY TILNING UNIVERSALLIGI Tilning o'zi xizmat qilayotgan jamiyat a'zolarining hududiy va ijtimoiy mansubligi, qaysi soha vakili ekanligidan qat'i nazar, birdek tushunilish, birdek qo'llanish, umumiy foydalanilish xususiyati; til jamoasining barcha a'zolari uchun umumiy muloqot vositasi sifatida xizmat qilishi. U shu xususiyati bilan rasmiy hujjatlar, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, ilmiy va adabiy sohalarida ishlatilib, til jamoasini birlashtiradi va etnik yoki mintaqaviy farqlarni ham yumshatadi. Masalan, o'zbek adabiy tili O'zbekistonning turli hududlarida (Xorazm, Farg'ona) yoki diasporada yashovchi o'zbeklar uchun umumiy tushunarli til sifatida universallikka ega.

Qiyos: *adabiy tilning umummajburiyligi.*

ADGERENT SOTSIOLINVESTIKA [*lot.* ad – qarab + haerere – yopishmoq + sotsiolingvistika] Til va nutq hodisalarini jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, aholining ijtimoiy turmushi, shaxslararo ijtimoiy aloqalar bilan shartlangan til faktlari sifatida o'rganadigan sotsiolingvistik tadqiqot sohasi. Shuningdek, tilning ijtimoiy rolini o'rganishda boshqa fanlarning metodologiyasi va tushunchalariga tayanib, til va jamiyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni tahlil qiladi. Masalan, O'zbekistonda o'zbek tilining ijtimoiy nufuzi va etnik identifikatsiyaga ta'sirini o'rganishda psixolingvistika yoki madaniy antropologiya usullaridan foydalanish adgerent sotsiolingvistikaga oid tadqiqot bo'lishi mumkin.

Qiyos: *ingerent sotsiolingvistika.*

ADRESANT [*nem.* adressant – yuboruvchi] Nutqiy jara-yonda adresatga qarata so'zlayotgan yoki fikr bildirayotgan

kishi, soʻzlovchi. Adresant nutqiy jarayonda muayyan ijtimoiy qoidalar doirasida harakat qiladi. Shu bois sotsiolingvistikada bu tushunchaga muloqot payti muayyan xabarni oʻzi shakllangan jamiyatda barqarorlashgan ijtimoiy odob, tutumlar doirasida ifodalovchi, aniq ijtimoiy mavqedagi faol muloqot ishtirokchisi sifatida yondashiladi.

Qiyos: *adresant*.

ADRESAT [*nem.* adressat – oluvchi] Nutqiy jarayonda adresant nutqini tinglayotgan, soʻzlovchi nutqi qaratilgan shaxs; tinglovchi. Sotsiolingvistikada adresat tushunchasiga muloqot vaqti muayyan xabarni oʻzi shakllangan jamiyatda barqarorlashgan ijtimoiy odob, tutumlar doirasida qabul qilyotgan, aniq ijtimoiy mavqedagi muloqot ishtirokchisi sifatida yondashiladi. Oʻz navbatida, muloqot payti namoyon boʻladigan aniq ijtimoiy rol egasi sifatida ham tushuniladi. Negaki adresatning ijtimoiy, madaniy, etnik xususiyatlari muloqotning shakli, uslubi va mazmuniga taʼsir qiladi. Uning yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi, taʼlim darajasi va madaniyati soʻzlovchining tildan foydalanishi (masalan, rasmiy yoki norasmiy nutq, dialekt yoki jargon) va kommunikativ niyatiga taʼsir qiladi.

Qiyos: *adresat*.

ADSTRAT [*lot.* ad – qoshida, yonida + stratum – qatlam, toʻshalgan narsa] Turli tillarning bir hududda uzoq vaqt amal qilishi, yonma-yon qoʻllanishi sharoitida birining ikkinchisiga taʼsiri holati. Bunda bir til, masalan, mahalliy aholi tiliga yoki mahalliy aholi tili ikkinchi tilga kuchli taʼsir koʻrsatadi, ammo hech biri toʻliq assimilyatsiyaga uchramaydi yoki yoʻq boʻlib ketmaydi. Masalan, Oʻzbekistonning Samarqand yoki Buxoro viloyatlarida oʻzbek va tojik tillarining oʻzaro taʼsiri adstratga misol boʻladi, buning natijasida oʻzbek tiliga tojikcha soʻzlar (masalan, “dasturxon”) va aksincha, tojik tiliga oʻzbekcha elementlar kirib kelgan.

Qiyos: *substrat, superstrat*.

AHOLINING ETNIK TARKIBI Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida yashovchi kishilarning

milliy yoki etnik guruhlariga ko'ra taqsimlanishi, aholining etnik kelib chiqish holati. U aholini tashkil etuvchi guruhlarning foizi yoki soni bilan ifodalanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining etnik tarkibi 2021-yilgi holatga ko'ra quyidagicha: o'zbeklar – 29,2 mln., 84,4%; tojiklar – 1,7 mln., 4,9%; qozoqlar – 821 ming, 2,4%; qoraqalpoqlar – 752,7 ming, 2,2%; ruslar – 720,3 ming, 2,1%; qirg'izlar – 291,6 ming, 0,8%; turkmanlar – 206,2 ming, 0,6%; tatarlar – 187,3 ming, 0,5%; koreyslar – 174,2 ming, 0,5%; ukrainlar – 67,6 ming, 0,2%; ozarlar – 41,2 ming, 0,1%; beloruslar – 18,5 ming, 0,1%; boshqa millatlar – 426 ming, 2,1%.

AHOLINING IJTIMOIIY TARKIBI Muayyan mamlakat fuqarolarining kasbiy, diniy, yosh, lavozim kabi ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra farqli ekanligi, aholining shunday ijtimoiy belgili kishilardan iborat bo'lishi. O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy tarkibi turli etnik guruhlardan (o'zbeklar, qoraqalpoqlar, tojiklar, qozoqlar va boshqalar), shahar va qishloq aholisidan, turli kasb egalari (dehqonlar, ishbilarmonlar, davlat xizmatchilari), yosh guruhlari (yoshlar, keksalar) va iqtisodiy tabaqalardan (o'rta sinf, kam ta'minlangan qatlamlar) iborat. Globallashuv va shaharlashuv ta'sirida bu tarkib doimiy o'zgarib boradi.

Qiyos: *aholining etnik tarkibi.*

AHOLINING LISONIY TARKIBI Muayyan mamlakat yoki uning biror hududi aholisining til ko'rsatkichlari: faqat ona tilini bilishi, ona tili bilan birga ikkinchi (uchinchi) tilni ham bilishi, shaxs hayoti va faoliyatida qaysi tilning (ona tili yoki ikkinchi tilning) birlamchi ekanligi va boshqalar bo'yicha taqsimlanishi. Lisoniy tarkib jamiyatning etnik xilma-xilligi, tarixiy rivojlanishiga ko'ra, hozirgi vaqtda globallashuv ta'siriga qarab ham shakllanadi. O'zbekiston jamiyatining lisoniy tarkibi o'zbek va qoraqalpoq tillarining rasmiy tillar sifatida qo'llanishi, rus tilining poytaxt hududida keng tarqalganligi, tojik, qozoq va boshqa tillarning shahar va qishloqlarda mavjudligi bilan belgilanadi.

Qiyos: *aholining ijtimoiy tarkibi.*

AKADEMIK JARGON Ma'lum bir ilmiy doira yoki akademik sohada shu ilmiy doira yoki soha egalari tomonidan qo'llanadigan, yuqori darajada ixtisoslashgan maxsus yoki professional terminlardan iborat til shakli. Bunday jargon, odatda, ilmiy maqola hamda ma'ruzalar, dissertatsiyalar, monografiyalar va boshqa akademik yozuvlarda uchraydi. Akademik jargon "paradigma", "empirik", "diskurs", "konseptual" kabi so'zlar, murakkab jumlar, fakt va dalillarga asoslangan ifodalar ko'proq kuzatiladi. Bunday tildagi matnlar mohiyatini nomutaxassis kishilar tushunavermaydi.

Qarang: *sotsiolekt, argo, sleng, oddiy so'zlashuv.*

AKKOMODATSIYA [*lot. accomodatio* – moslashuv] Sotsiolingvistikada: muloqot jarayonida suhbatdoshlar o'rtasidagi ijtimoiy masofani yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish maqsadida til vositalarini ongli ravishda moslashtirish strategiyasi. U konvergensiya (suhbatdosh tiliga, urg'usiga, lahjasiga yoki uslubiga moslashish orqali do'stona munosabat va tushunishni kuchaytirish, masalan, toshkentlik kishi viloyatlik suhbatdoshga moslab shevaga yaqinroq gapirishi) va divergensiya (o'z til xususiyatlarini ataylab saqlab qolish yoki yanada ajratib ko'rsatish orqali ijtimoiy masofani ta'kidlash, masalan, bir guruh yoshlarning kattalar bilan ataylab o'zlariga xos jargon ishlatib gaplashishi). Akkomodatsiya muloqot xulqining harakatdagi vositasi bo'lib, u til orqali ijtimoiy pozitsiya, munosabat va guruhga mansublik ifodalanishi mumkinligi ko'rsatiladi.

Qarang: *divergensiya 2, konvergensiya 3.*

AKROLEKT [*yun. akros* – oxirgi; eng uzoqdagi; oliy, yuqori + *lectos* – nutq, so'zlashuv] 1. Kreollashuvdan keyingi davrda muayyan kreol til bilan unga asos bo'lgan tilning leksik ta'sirlashuvi natijasida yuzaga kelgan til varianti. Bazilekt va mezolektdan farqli ravishda akrolektga standartlashganlik xususiyati xos. Bunga uning jamiyatning ziyoli qatlami tomonidan qo'llanishi sabab bo'ladi, aholi orasida katta ijtimoiy mavqeli til sifatida tushuniladi. Ba'zan

akrolekt “saroy tili” sifatida “omma tili” sanaladigan bazilektga qarama-qarshi qo‘yiladi. Kreollashuvning yakunlanishi jarayonida akrolekt leksifikator til (kreollashuv jarayonida so‘z bergan til)ga yaqinlashadi. Masalan, Gvianadagi akrolekt shunday bo‘lgan, u hozir standart ingliz tilidan qariyb farqlanmaydi.

Qiyos: bazilekt, mezolekt.

2. Asosan rasmiy sohalar (davlat boshqaruvi, ta’lim, omma-
viy axborot vositalari)da ishlatiladigan, lesik-grammatik jihatdan me’yorlashgan til shakli. Ko‘pincha ijtimoiy elita, boshqaruvchi qatlam vakillari, o‘qimishli sinf yoki shahar aholisi nutqida namoyon bo‘ladi.

Qiyos: rasmiy til.

AKROLEKT EGASI 1. Akrolektda so‘zlashadigan kishi yoki jamoa. Sotsiolingvistik adabiyotlarda ko‘proq ziyoli qatlam vakillari akrolekt egalari sifatida qayd qilinadi. Bunday til egalari o‘zi so‘zlashadigan tilning leksik-grammatik me’yorlarini puxta egallagan, tilning uslubiy ifoda imkoniyatlaridan to‘la xabardor bo‘ladi.

Qiyos: til egasi. **Qarang:** akrolekt, adabiy til.

2. Sotsiolingvistikada: asosan, tilning ijtimoiy nufuzli, standartlashgan yoki oliy shaklidan foydalanuvchi shaxs yoki guruh. Masalan, O‘zbekistonda o‘zbek adabiy tilini mukammal biladigan va uni rasmiy nutqda, yozma hujjatlarda yoki ilmiy muhitda qo‘llaydigan shaxs (masalan, olimlar, o‘qituvchilar, davlat xizmatchilari) akrolekt egasi hisoblanadi. Akrolekt egalari tilning nufuzini oshirishda va uning ijtimoiy funksiyalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Qarang: adabiy til.

AKSENT [*lot.* accentus – ohang; urg‘u] 1. Ona tilidan boshqa tilda so‘zlayotgan shaxsning ikkinchi til yoki xorijiy tilning adabiy talaffuz me’yorlaridan chekinish holati. Ikkinchi til yoki xorijiy til, ayniqsa, katta yoshda o‘rganilganda so‘zlovchida aksent yaqqol seziladi.

Qarang: interferensiya.

2. Sotsiolingvistikada: shaxs nutqidagi fonetik va prosodik xususiyatlar (talaffuz, urg‘u, intonatsiya) bo‘lib, u so‘zlovchining hududiy, etnik, ijtimoiy yoki madaniy kelib chiqishini namoyon qiladi. Ko‘pincha shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasini, masalan, qaysi hudud vakili ekanligi (Xorazm yoki Farg‘ona aksenti), etnik guruhi (O‘zbekistonda tojik yoki rus aksenti) yoki ijtimoiy sinfini ko‘rsatadi. Aksent ijtimoiy-salbiy bahoga, kamsitishga yoki, aksincha, guruh ichida sadoqat tuyg‘usini mustahkamlashga olib kelishi mumkin. Masalan, Toshkent aksenti bilan boshqa hududlar aksentlari ijtimoiy muhitda farqli baholanadi.

Qarang: interferensiya.

AKSILTIL Maykl Xallidey tomonidan kiritilgan termin bo‘lib, ijtimoiy begonalashgan guruh a‘zolari o‘rtasida foydalanadigan til ko‘rinishi. Aksiltil egalari uchun tushunarli, boshqalar uchun tushunarsiz bo‘ladi va bu til shaklidan foydalanish bilan begonalarni suhbatdan uzoqlashtirish maqsad qilinadi. Odatda, uyushgan jinoiy guruhlar, narkokartel a‘zolari, ko‘chmanchi guruhlar tomonidan qo‘llanadi. Argodan faqat leksik birlik emas, o‘ziga xos gap qurilishi mavjudligi bilan farq qiladi.

Qiyos: argo, jargon.

ALIFBONI ALMASHTIRISH Sof lisoniy ehtiyoj yoki ijtimoiy, siyosiy va boshqa omillar talabi bilan bir yozuv tizimidan boshqa yozuv tizimiga o‘tish. Yozuv tarixida mavjud alifboni tilning tabiatiga muvofiq tushmaganligi sababli almashtirish ham, ijtimoiy-siyosiy ta’sirlar tufayli almashtirish ham uchraydi. Ko‘pincha til siyosati, milliy o‘zlikni anglash, madaniy yangilanish yoki global integratsiya maqsadlarida amalga oshiriladi. U alodlar o‘rtasida til tanqisligi yoki ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Ayni paytda, tilning ijtimoiy vazifalari va etnik o‘zlikni anglashga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qiyos: alifboni takomillashtirish, yozuv islohoti.

ALIFBONI TAKOMILLASHTIRISH Vaqt o‘tishi bilan til egalarining ijtimoiy-lisoniy ehtiyojlarini qondira olmay

qolganligi sababli tilning yozuv tizimini yanada samarali, qulay va zamonaviy qilish maqsadida mavjud alifboni tegishli o'zgartirishlar kiritib maqbullashtirish. Alifboning ichki tuzilishi (masalan, harflar shakli, fonetik moslik, yozuv qoidalari) ni takomillashtirishdek harakatlar tilning ijtimoiy va texnik sohalarida qo'llanishini osonlashtirish, ta'limda yagona standartlarni joriy etish va global integratsiyaga moslashishga xizmat qiladi. Alifbo juz'iy o'zgartiriladimi yoki jiddiy tuzatiladimi, baribir, jamiyatda buni ma'qullaydigan va ma'qullamaydigan qatlam yuzaga keladi.

Qiyos: alifboni almashtirish, yozuv islohoti.

ALLOETNONIM [*yun.* allos – boshqa; har xil + ethos – qabila, elat, xalq + onyma – nom, ism] Bir etnik guruh yoki xalqqa boshqa etnik guruh yoki xalq tomonidan berilgan nom; etnos nomining boshqa etnos tomonidan atalishini anglatadigan nom. Ko'pincha alloetnonim o'sha guruhning o'zi ishlatadigan etnonimidan farq qiladi. Alloetnonimlarni qo'yishda geografik, tarixiy, madaniy yoki lingvistik omillarga asoslaniladi. Ba'zida ijtimoiy-salbiy baholangan yoki xalqni kamsitadigan darajada ham shakllangan bo'ladi. Masalan, sart alloetnonimi.

Qiyos: etnonim, allotoponim.

ALLOLEKT [*yun.* allos – boshqa; har xil + lectos – nutq, so'zlashuv] Muayyan tilning me'yorlashgan shaklidan farq qiluvchi mahalliylashgan varianti. U dialekt tushunchasiga juda yaqin, ammo kichikroq miqyosdagi, ya'ni mahalliyroq nutq variantidir. Ma'lum hudud, mahalla yoki kichik jamoa doirasida ishlatiladi. Allolektlar o'rtasidagi farqlanish ularda so'zlashuvchilarning bir-birini tushinishiga to'siq bo'lmaydi. Rus sotsiolingvistikasida mazkur atama o'rnida *tilning hududiy varianti*, *hududiy dialekt* atamaları ham qo'llanadi. Ammo *allolekt* atamasi tilning hududiy variantlaridan boshqa umumadabiy me'yordardan farq qiladigan til shaklini ham ifodalashi jihatidan ayni atamalardan ko'ra kengroq tushunchali hisoblanadi.

Qiyos: ijtimoiy dialekt.

ALLOTOPONIM [*yun.* allos – boshqa; har xil + topos – joy,

o‘rin + onyma – nom, ism] Muayyan joygashu hududda yashovchi aholi vakillari tomonidan emas, boshqa hududda yashovchi xalq vakillari tomonidan berilgan nom. U mahalliy aholining o‘zi ishlatadigan nomdan farq qiladi. Masalan, qozoqlar “Almati” ataydigan toponimni o‘zbeklar “Olma-ota” atashi allotoponim hisoblanadi. Allotoponimlar ko‘pincha tillar ta’sirlashuvi, mustamlakachilik, migratsiya yoki madaniy ta’sir natijasida yuzaga keladi. Masalan, “Toshkent” so‘zi o‘zbek tilida avtotoponim sifatida qaralsa, rus tilida “Ташкент” yoki ingliz tilida “Tashkent” tarzida ishlatilishi allotoponim hisoblanadi. Allotoponimlar sotsiolingvistika da tilning ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda qo‘llanishi, etnik o‘zlikni anglashdagi xizmatini o‘rganishda muhim.

Qiyos: avtotoponim.

AMALIY SOTSIOLINGVISTIKA Muayyan mamlakat yoki uning biror hududidagi tillarning turli ijtimoiy-demografik sharoitlarda amal qilishi, rivojlanishi va o‘zaro ta’sirlashuvining ijtimoiy muammolarini hal qilishda mavjud sotsiolingvistik tadqiqotlar natijalaridan amaliy foydalanishni o‘rganadigan sotsiolingvistika bo‘limi. Masalan, bir yozuv tizimidan ikkinchi yozuv tizimiga o‘tishning ijtimoiy oqibatlari, muayyan tilning rasmiy yoki davlat tili maqomini olishi bilan shu tilda ish yuritishda yuzaga keladigan real muammolar bo‘yicha tadqiqotlar olib boriladi.

Qiyos: nazariy sotsiolingvistika.

AMBOGLOSSIYA [lot. ambi – atrofida, ikkala tomonida + yun. glossa – til] Bir tilning turli qo‘llanish darajasidagi dialektlari o‘rtasidagi munosabat, shunday shevalarning bir til ichida amal qilishi. Mazkur sotsiolingvistik tushuncha ikki til munosabatiga asoslangan bilingvizmga, adabiy til va dialektlar munosabatiga asoslangan diglossiyaga o‘xshab ketadi. Ammo diglossiyada bir til shaklining to‘la kuch bilan, faol ishlatilishi, boshqasining nofaol bo‘lishi uni amboglossiyadan farqlab turadi. Amboglossiyada tilning ikkala shakli ham cheklangan holatda bo‘ladi. Bilingvizmdan ham shu jihatiga ko‘ra ajralib

turadi. Amboglossiya atamasi A.Karlinskiy tomonidan sotsiolingvistik tadqiqotlarga tatbiq qilingan.

Qiyos: bilingvizm, diglossiya.

AMERIKA SOTSIOLINGVISTIKASI Amerika Qo‘shma Shtatlari olimlari tomonidan til va jamiyat, til va madaniyat, til va nutq sotsiologiyasini o‘rganish asosida shakllangan sotsiolingvistika maktabi. Amerika sotsiolingvistikaning shakllanishida K.Zfeuty, U.Labov, Ch.Fergyuson, U.Brayt, R.Mils, K.Klakxon, D.Xayms, J.Hampers, J.Fishman singari olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutgan. Shuningdek, Ijtimoiy fanlar ilmiy tadqiqot kengashi qoshidagi Sotsiolingvistika qo‘mitasi ham AQSH sotsiolingvistikasining shakllanishida jiddiy rol o‘ynagan. Amerika sotsiolingvistikasi dalil va kuzatishlarga asoslanadi. Tadqiqotchilar haqiqiy suhbatlarni yozib olib, ularni tahlil qiladi. Masalan, bir so‘zning turli talaffuzlarini eshitib ko‘rib, ijtimoiy sinf yoki hududga bog‘liq xulosalar chiqariladi. Umuman, tildagi farqlar ijtimoiy qatlamlarga bog‘liq tarzda tahlil qilinadi.

Qiyos: fransuz sotsial tilshunoslik maktabi.

ANTROPOLOGIK LINGVISTIKA Amerika tilshunosligida Shimoliy Amerikaning tubjoy aholisi tili va madaniyatini o‘rganish natijasida shakllangan fanlararo yo‘nalish. Tilshunoslikning bu sohasida tadqiqot obyektiga etnografik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan yondashib, lingvistik xulosalar chiqariladi. F.Boas, E.Sepir, B.Uorf tadqiqotlari asosida shakllangan antropologik lingvistikaning o‘rganish obyekti, asosan, kichik til jamoalari. Antropologik lingvistika etnografik ma‘lumotlar asosida ish ko‘rishi bilan nutq etnografiyasiga yaqinlashadi, ammo uzuallashgan holatlarga diqqat qilishi bilan undan farqlanadi.

Qiyos: antroposentrik tilshunoslik, nutq etnografiyasi.

ANTROPOSENTRIK TILSHUNOSLIK Tilni inson omili asosida o‘rganishni maqsad qilgan, har bir til alohida dunyoni ko‘rish tarzi sifatida qaraladigan lingvistik paradigma. Unda til inson tafakkuri, madaniyati, ruhiyati va

tajribasining ajralmas qismi sifatida ko‘riladi, til nafaqat muloqot vositasi, balki insonning dunyoni qanday anglashi va ifodalashi bilan bog‘liq konseptual tizim sifatida tahlil qilinadi. Antroposentrik tilshunoslik til tadqiq tarzlarining shakllanish iyerarxiyasida qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur tilshunoslikdan keyin turadi. U o‘z ichida tadqiqot yo‘nalishlari turlicha bo‘lgan sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik singari sohalarni birlashtiradi. Hozirgi vaqtda antroposentrik tilshunoslikning ayni sohalari ichida yana bir necha ichki sohalar, masalan, sotsiopsixolingvistika, etnopsixolingvistika, sotsiopragsmatika kabilar shakllanmoqda.

Qiyos: antropologik lingvistika.

ARALASH IKKITILLILIK 1. Shaxsning ona tili bilan birga ikkinchi tilni ham birday bilishi va qo‘llashidan iborat individual ikkitillilik ko‘rinishi. Bunda bilingv ongida ona tili va ikkinchi til teng huquqli kommunikativ tizim sifatida turadi, so‘zlovchi nutqni tushunish va umumlashtirishda ona tili va ikkinchi tilni aralashtirib yubormaydi. L.V. Shcherba bunday kommunikativ tizimni “ikki nomli bitta til” deb atagan.

Qiyos: individual ikkitillilik, individual diglossiya.

2. Bir ijtimoiy sharoitda har doim ham bir xil imtiyoz yoki huquqqa ega bo‘lmaydigan ikki tildan muqobil foydalanish, ikki tilni har doim bir xil darajada mukammal bilmay turib ham ularni o‘rni bilan qo‘llayverish. Masalan, bir til (ko‘pincha ona tili) yuqori darajada egallangan bo‘lsa, ikkinchi til undan kamroq darajada egallangan bo‘ladi, ammo ikkalasi ham bir xil muloqot vaziyatlarida ishlatilaveradi.

Qiyos: jamoaviy ikkitillilik, jamoaviy diglossiya.

3. Ikki tilning bir-biriga ta’siri natijasida yuzaga keladigan nutqiy holat. U shaxs yoki jamoaning ikkala til birliklarini aralash qo‘llashida kuzatiladi, ko‘pincha migratsiya, ko‘ptillilik muhitida sodir bo‘ladi. Masalan, so‘zlovchi A til leksikasi yoki grammatikasini B tilda ishlatadi. U ko‘pincha norasmiy muloqotda, ayniqsa, yoshlar orasida tarqaladi. Bu holat til-

ning o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligidek xususiyatini ko'rsatadi, ammo adabiy me'yorlarga putur yetkazadi.

Qarang: umumadabiy me'yorlar.

ARALASH LISONIY JAMOA Turli tillarda so'zlashuvchi, etnik tarkibi har xil, aralash nutq, kod almashtirish yoki til o'zgarishlari sodir bo'ladigan kishilar guruhi. Bunday jamoalarda ikki va undan ortiq til aralash qo'llanishi kuzatiladi yoki kishilar har xil ijtimoiy vaziyatlarda turli tillardan foydalanadi. Aralash lisoniy jamoalar ko'pincha ko'p millatli hududlarda, migratsiya sharoitida yoki tarixiy til ta'sirlari sababli shakllanadi. Bu jamoalar til kontakti, bilingvizm va til o'zgarishlarini o'rganishda muhim obyekt hisoblanadi. Ayrim sotsiolingvistik adabiyotlarda bir tilning turli lahja va dialektlarida so'zlashadigan, turli sotsiolektlardan foydalangan kishilar guruhiga nisbatan ham aralash lisoniy jamoa atamasi qo'llanadi.

Qiyos: gomogen lisoniy jamoa.

ARALASH TIL 1. Lug'aviy tarkibi boshqa til manbalari, grammatik qurilishi boshqa til qoidalari asosida shakllangan til ko'rinishi. Bu atama ikki yoki undan ortiq tillar unsurlari birlashib, yangi, o'ziga xos til shakllangan holatni ham bildiradi. Sotsiolingvist P. Muysken Ekvador Respublikasida qo'llanadigan tilni shunday til sifatida ko'rsatadi. Bu tilning lug'at fondi ispan tili leksemalari, grammatik qurilishi kechua tili qoidaloriga asoslangan. Sotsiolingvistikada bunday tillar *geterogen tillar* deb ham yuritiladi. Aralash til odatda uzoq muddatli til kontaktlari natijasida yuzaga keladi va unda bir tilning grammatik tuzilishi, boshqa tilning esa leksikasi ustunlik qilishi mumkin. Bunday tillar ko'pincha ikki tilda erkin so'zlashuvchi jamoalarda paydo bo'ladi.

Qiyos: sof til.

2. Millatlararo muloqotda yordamchi til sifatida xizmat qiladigan kontakt tilning bir ko'rinishi, gibrid til. Ayrim aralash tillar minimal lug'at tarkibli, beqaror hamda soddalashtirilgan grammatikali bo'ladi, shuning uchun ham potensial pijinlar hisoblanadi. Masalan, svahili tili Afrikaning sharqiy

qismida turli etnik guruhlar o'rtasidagi muloqot uchun aralash asosli yordamchi til sifatida rivojlangan.

Qiyos: pijin.

ARALASH SHEVA O'zida bir necha mahalliy shevalarning xarakterli xususiyatlarini qamragan, shu sababli bir necha mahalliy shevalar o'rtasida oraliq mavqeni egallagan dialekt. U odatda ko'p tilli jamiyatlarda, shaharlashuv yoki til ta'siri kuchli bo'lgan hududlarda yuzaga keladi va bunday shevaning hududiy qamrovi boshqa mahalliy shevanikidan kattaroq bo'ladi. Aralash sheva ijtimoiy guruhlarining o'z tiliga bo'lgan munosabatini, mavqe farqlarini va identitetini aks ettiradi. Aralash sheva ba'zan tilni soddalashtirishga xizmat qilsa, ba'zida til me'yorlarining buzilishi sifatida baholanadi.

Qiyos: dialekt, interdialekt.

AREAL TILLAR [*lot.* area – maydon, kenglik + tillar]

1. Geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan, genealogik jihatdan turlicha bo'lsa-da, uzoq vaqt davomida o'zaro til ta'siri ostida bo'lgan tillar. Bu tillar bir hududda yashovchi xalqlar orasida doimiy aloqa, savdo, urf-odat va madaniy almashinuv natijasida fonetika, leksika, sintaksis yoki morfologiyasida umumiy xususiyatlarga ega bo'lib boradi. Areal tillar til ittifoqlari (masalan, Bolqon tillari ittifoqi, Markaziy Osiyo tillari) doirasida o'rganiladi va ular orasidagi o'xshashlik genealogik qarindoshlik emas, balki kontakt natijasida yuzaga keladi. Masalan, o'zbek, tojik, qozoq, rus tillari Markaziy Osiyoda bir hududda uzoq yillar birga yashab, ba'zi til xususiyatlarini bir-biridan o'zlashtirgan.

Qarang: Bolqon tillari ittifoqi.

2. O'zining asosiy paydo bo'lish, asosiy tarqalish hududidan boshqa hududda qo'llanayotgan tillar. Masalan, Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi rus tili, sobiq Chexoslovakiyadagi nemis tili areal tillar hisoblanadi. Mazkur tillarning bu mamlakatlarda qo'llanishi etnik rus yoki etnik nemislarning u yerlarda yashab qolishi bilan bog'liq.

Qiyos: etnolekt 2, 3.

AREAL TILSHUNOSLIK [*lot.* area – maydon, kenglik + tilshunoslik] Lisoniy hodisalarning muayyan hudud va kenglikda qanday tarqalganligini, tillararo yoki dialektlararo munosabatlarni, muayyan lisoniy xususiyatning hududiy bo‘linishini lingvistik geografiya usullari yordamida o‘rganadigan tilshunoslik sohasi. Bunday tadqiqotlar natijasida tillar, dialektlar va ularni qo‘llaydigan areal jamoalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlashuv maydonlari ma’lum bo‘ladi. Areal lingvistika atamasi M.Bartoli hamda J.Viddasi tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan.

Qiyos: lingvistik geografiya.

ARGO [*fr.* argot – jargon] Biror to‘da vakillari-ning yashirin tili, shunday tilda fikr almashish shakli, uslubi. Argolar adabiy tildan, asosan, leksikasi, qisman yasali-shiga ko‘ra, boshqa sotsiolektlardan yashirin xususiyatli ekanligiga ko‘ra farqlanadi. O‘g‘rilar argosi, mahbuslar argosi, otarchilar argosi kabi. Masalan, *dori* so‘zi giyohvandlar nutqida “afyun”, “giyohvandlik moddasi” ma’nosidagi so‘zdir. Yoki *ligavi* (militsiya), *bedana* (to‘pponcha), *atanda* (qoch, qochib qol) – o‘g‘rilar argosi; *vishka* (o‘lim jazosi) – mahbuslar argosi kabi. Qilmishni sir tutish maqsadida yasaladigan bunday til birliklari argotizm, argotik so‘zlar deb ataladi.

Qarang: sotsiolekt, jargon, professionalizm.

ARGOTIZM [*fr.* argot – jargon + isme – termin yasovchi qo‘shimcha] Normal jamiyatga ijtimoiy begona hisoblanadigan guruhlar vakillari o‘rtasida yashirin muloqotni ta’minlash maqsadida qo‘llanadigan noadabiy so‘z va iboralar. Ular yashirin ma’noli bo‘lgani sababli boshqalarga tushunarsiz bo‘ladi. Argotizmlar guruh ichida muloqotni osonlashtiradi, fikrni maxfiy saqlash imkoniyatini yaratadi. Ko‘pincha undan o‘g‘ri va bezorilar, mahbuslar, ko‘cha yoshlari va boshqa faoliyati yopiq guruhlar foydalanadi.

ASOS TIL Sotsiolingvistikada: pijin yoki kreol tillarning shakllanishida fonetik, leksik va grammatik jihatdan asosiy

manba bo‘lib xizmat qilgan til. Bunday vazifani bajargan til *bazis til* ham deyiladi, asos til egalari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ustun millat bo‘ladi. Vazifasi jihatidan leksifikator tilga o‘xshash, biroq har qanday tillarga so‘z bergan tilni emas, pi-jin va kreol tillarning yuzaga kelishiga lug‘aviy manba bo‘lgan tilni bildirishi bilan oddiy leksifikator tildan farqlanadi.

Qiyos: leksifikator til.

ASOSIY MULOQOT SOHALARI Tilning funksional rivojlanishi uchun muhim imkoniyatlarni taqdim etuvchi kommunikativ tarmoqlar. Asosiy muloqot sohalarida til egalarining katta qismi muntazam ishtirok etganligi, muayyan vazifaviy uslublarda bunday muloqot sohasining asosiy shakli bo‘lganligi sababli tilning vazifaviy va struktur rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘lim tizimi, OAV singari tilning qo‘llanishi tartibga solib turiladigan, davlat darajasida moddiy va qonuniy qo‘llab-quvvatlanadigan sohalar asosiy muloqot sohalaridir. Har qanday rasmiy muloqot sohasi asosiy muloqot sohasi bo‘la olmaydi.

Qiyos: boshqariladigan muloqot sohalari.

ASOSIY TIL 1. Jamiyat hayotining turli jabhalari va maishiy munosabatlarda asosiy muloqot vositasi sifatida amal qiladigan, ijtimoiy munosabatlarda boshqa tillarga nisbatan ko‘proq afzal ko‘riladigan til. Bunday til vazifasini ko‘p hollarda davlat tili yoki rasmiy til bajaradi. Jamiyat a‘zolarining yashash va ishlash sharoitidan kelib chiqib, asosiy til o‘zgarishi mumkin. Masalan, migratsiya sharoitida ishlovchilar asosiy til sifatida o‘z ona tilini emas, ular yashayotgan va ishlayotgan hududdagi titul millat tili yoxud millatlararo muloqot tilini tanlashlari mumkin.

Qarang: davlat tili, rasmiy til.

2. Ikkitillilik yoki ko‘ptillilik sharoitida yashaydigan shaxs kundalik hayot va ijtimoiy munosabatlarda foydalanadigan birlamchi tili. Bu ma‘nodagi *asosiy til* atamasida “funksional birlamchi til” tushunchasi ta‘kid oladi. Har ikki ma‘noda *asosiy til* atamasi *dominant til* atamasiga ma‘nodosh bo‘ladi.

Qiyos: yordamchi til, vositachi til.

AVTOTOPONIM [*yun.* autos – o‘zi, o‘zim + topos – joy, o‘rin + onyma – nom, ism] Ma‘lum bir geografik obyekt, joy yoki hududning mahalliy aholi yoki etnik guruh tomonidan o‘z tilida berilgan asl nomi va u boshqa tillarda ishlatiladigan allotoponimlardan farq qiladi. Avtotoponimlarning ma‘nosida mahalliy madaniyat, tarix yoki geografik xususiyatlar ifoda topadi. Masalan, “Toshkent”, “Samarqand” yoki “Farg‘ona” kabi nomlar o‘zbek tili avtotoponimlari, ammo ular rus tilida “ТАШКЕНТ”, ingliz tilida “Tashkent” tarzida allotoponim sifatida ishlatiladi. Sotsiolingvistikada avtotoponimlar etnik o‘zlikni anglash, tilning etnoramziy vazifalarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Qiyos: allotoponim. **Qarang:** tilning etnoramziy vazifasi.

AYNAN O‘ZLASHTIRISH Jamiyat a‘zolarining lisoniy ehtiyoji sababli o‘zga til birliklarini (asosan, so‘z va terminlarni) manba tilda qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish. Bu tip o‘zlashtirish ko‘pincha jamiyat a‘zolari tomonidan til sofligiga putur yetkazuvchi jarayon sifatida baholanadi va etnik o‘zlikni anglash sharoitida salbiy qabul qilinadi. O‘z navbatida, uning zamonaviy texnologiyalar sharoitida muloqotni osonlashtirish, ko‘ptillilik muhitida umumiy tushunchani shakllantirishga xizmat qilishdek ijtimoiy ahamiyati ham bor.

Qiyos: kalkalab o‘zlashtirish.

2. Sotsiolingvistikada: alohida shaxs yoki jamoaning muayyan tilni, uning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini to‘liq va aniq o‘zlashtirishi jarayoni. U shaxs yoki jamoaga aynan o‘zlashtirilgan tildan ona tilidek foydalanish imkonini beradi va odatda ko‘p tilli muhitda, migratsiya sharoitida yoki ta‘lim orqali yuz beradi. Masalan, O‘zbekistonda rus tilini o‘zbek oilasida o‘sib, biroq uni maktab va ish muhitida mukammal o‘zlashtirish aynan o‘zlashtirishdir. Aynan o‘zlashtirish hodisasi tilning ijtimoiy integratsiya, etnik identifikatsiya jarayonidagi o‘rnini o‘rganishda muhim sotsiolingvistika tushuncha hisoblanadi.

Qarang: bilingvizm, lisoniy layoqatlilik, tillar ta‘sirlashuvi.

AYOLLAR NUTQI 1. Faqat xotin-qizlar ishtirokida amalga oshadigan muloqot, xotin-qizlarning monologik va dialogik suhbat shakli. U ko‘pincha leksik tanlovi (hissiy to‘yingan so‘zlarning ko‘pligi), intonatsiyasi (melodik ohangi), kommunikativ niyati (hamkorlikka yo‘nalganligi) va ijtimoiy moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy sotsiolingvistika ayollar nutqining jamoada mehr-oqibat, hamjihatlik va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash xususiyati, erkak jinsi vakillari tomonidan “nojiddiy nutq” deb qaralishi sabablariga ko‘p diqqat qaratmoqda.

Qarang: gender tilshunoslik.

2. Ayol jinsiga mansub shaxslar nutqida qo‘llanishga xoslangan nutq shakllari. Masalan, o‘zbek tilida ayollar erkaklarga qaraganda hissiy-baholovchi leksika va erkalash shakllarini ko‘proq qo‘llaydilar, texnik terminologiya va noadabiy leksikani kamroq ishlatadilar. Ayollar nutqi nutq ijtimoiy farqlanishining alohida ko‘rinishidir. Ayollar nutqining bu ma‘nodagi o‘ziga xosliklari o‘zbek tilining sistem tuzilishiga ta’sir qilmaydi, faqat nutqiy xarakter kasb etadi. Biroq ayrim tillarda, xususan, chukchalar tilida ayollar, erkaklardan farqli ravishda [ch] va [r] o‘rnida [ts] talaffuz qiladi va bu farqlanish o‘sha tilning sistem xususiyati hisoblanadi.

Qiyos: erkaklar nutqi.

B

JWX2678

BADIIY USLUB Voqelik hamda fikrni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo‘l bilan tinglovchi/o‘quvchiga estetik ta‘sir etuvchi til yashash shakli. Unda milliy hamda adabiy tilning barcha imkoniyatlaridan foydalaniladi. Boshqa vazifaviy uslublar ijtimoiy hayotning biror sohasi doirasida chegaralanadi, badiiy uslub esa inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Shu bois unda ilmiy, rasmiy, publitsistik hamda so‘zlashuv uslublarining xususiyatlari seziladi.

Qiyos: rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub.

BAHOLASH 1. Alohida shaxs yoki jamoaning turli til vositalari orqali ifodalangan fikrning ijtimoiy qabul qilingan me‘yorlarga muvofiq yoki muvofiq emasligi bo‘yicha munosabati. U til egalarining ijtimoiy maqomi (masalan, o‘qituvchi, rahbar, jamoa a‘zosi), ijtimoiy roli va nutqiy sharoit (rasmiy yoki norasmiy muhit)ga bog‘liq holda shakllanadi. Masalan, shaxsning diplomatik nutqda keskin-qo‘pol nutq shaklidan foydalanishi ijtimoiy me‘yorga zid, noprofessionallik deb baholanadi va salbiy reaksiya paydo qiladi. Baholash tilning ijtimoiy vazifalari, etnik o‘zlikni anglash va til jamoasidagi munosabatlarni tushinishda muhim.

Qarang: milliy nigilizm, lisoniy nigilizm, ijtimoiy maqom.

2. Shaxs yoki jamoada o‘zi foydalanadigan til bo‘yicha shakllangan munosabat. Bunday munosabat, masalan, bilingvning o‘zining ikkinchi tilni bilish darajasini yaxshi yoki yomon deb hisoblashida, shuningdek, jamoaning o‘zi foydalanayotgan tilni nufuzli yoki nufuzsiz til deb bilishida namoyon bo‘ladi. Shaxs va jamoaning o‘z nutqi va tiliga beradigan bahosi boshqalarning o‘sha nutq va tilga bahosidan farq qilishi yoki qilmasligi mumkin.

Qarang: milliy nigilizm, lisoniy nigilizm, milliy xudbinlik.

BARQAROR LISONIY JAMOA 1. O‘zi so‘zlashadigan milliy tilni to‘la egallagan, shu tilni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkin qo‘llay oladigan aholi guruhi. Bunday lisoniy jamoa vakillari bir tilda muqim muloqot qilish malakasiga egaligi bilan ajralib turadi, ular asosiy til ko‘nikmalarini oilada – ajdoddan avlodga tarzida o‘zlashtiradi.

Qiyos: nobarqaror lisoniy jamoa.

2. Umumiy til yoki nutq shakllari (dialekt, standart til) asosida birlashgan, ijtimoiy, madaniy va kommunikativ aloqalari uzoq vaqt davomida o‘zgarishsiz saqlanib turadigan kishilar guruhi. O‘zbekiston sharoitida o‘zbek tilining mahalliy dialekti avlodlararo o‘zgarmay ishlatilishi yoki muayyan tashkilotda o‘zbek tilining standart shaklidan (masalan, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida) muntazam foydalanilishi barqaror lisoniy jamoaga misol bo‘ladi. Bunday jamoa til siyosati, etnik o‘zlikni anglash va madaniy an‘analarni saqlash bilan yanada mustahkamlanadi. Globallashuv ta‘siri yoki migratsiya sharoiti barqaror lisoniy jamoaga ta‘sir qilishi mumkin.

Qarang: til siyosati, etnik o‘zlik.

BAYNALMILAL TIL SIYOSATI Ko‘p millatli davlatda barcha tillarning tengligini ta‘minlashga, biron-bir tilga imtiyoz berish orqali boshqa tillarni qo‘llashni cheklab qo‘ymaslikka asoslanadigan til islohoti. Shuni unutmaslik kerakki, til siyosatining o‘ta baynalmilalligi shu tillarga chet so‘zlarning hisobsiz kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Masalan, Vyetnamda shunday til siyosati olib borilgan, shu bois termin yasashda chet tillar (ayniqsa, xitoy va g‘arb davlatlari tillari) unsurlaridan keng foydalanilgan.

Qiyos: milliy yo‘nalgan til siyosati.

BAZILEKT [*yun.* basis – asos + lectos – nutq, so‘zlashuv] 1. Umumiy tilshunoslikda: turli ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sirlar sababli o‘zining avvalgi asl asosidan, tarixiy leksik-grammatik manbayidan uzoqlashib, boshqa til xususiyatlarini o‘zlashtirgan dialekt. Bazilekt atamasi bu ma‘noda tilning etnoijtimoiy o‘zligidan begonalashgan holatini bildiradi.

Qiyos: regiolekt.

2. Sotsiolingvistikada: kreol tilining keyingi taraqqiyot davrida unga asos bo'lgan til bilan ta'sirlashuvi natijasida yuzaga keladigan til shakli. Bazilektdan, akrolekt va mezolektdan farqli ravishda, kreol tilli jamoaning savodli bo'lmagan qatlami foydalanadi. U ba'zan "omma tili" sifatida akrolektga – "saroy tili"ga qarama-qarshi qo'yiladi. Bazilekt bu ma'noda, umum, rasmiy til me'yorlariga eng kam mos keladigan, ammo til egalari tomonidan kundalik turmushda qo'llanadigan til shaklini bildiradi.

Qiyos: akrolekt, mezolekt.

BEGONA TIL Muayyan til jamoasi uchun yot hisoblangan, shu til jamoasining ona tili yoki asosiy muloqot tili bo'lmagan har qanday til. Mazkur atama bir ma'muriy-siyosiy hududda yashovchi turli millat vakillaridan birining ikkinchisi tiliga bo'lgan munosabatiga nisbatan qo'llanadi. Sotsiolingvistik jihatdan begona til ko'pincha o'rganiladigan ikkinchi yoki uchinchi til sifatida qaraladi va u ta'lim, migratsiya, globallashuv yoki iqtisodiy-siyosiy omillar ta'sirida qo'llanadi. Masalan, o'zbek tilini ona tili deb biladigan shaxs uchun ingliz yoki rus tili begona til sifatida qabul qilinadi.

Qiyos: ona tili, milliy til.

BEVOSITA KUZATISH USULI Sotsiolingvistik tadqiqot o'tkazayotgan shaxsning tadqiqot jarayonida bevosita muloqot ishtirokchisi sifatida qatnashib, ijtimoiy muhim liasoniy ma'lumotlarni to'plashiga asoslanadigan amaliy metod. Tadqiqotchining muloqot jarayonida bevosita ishtirokchi maqomida turishi uning axborot beruvchilar muloqot xulqiga ta'sirini minimallashtirishiga, o'ziga kerakli sotsiolingvistik ma'lumotlarni tabiiy bir tarzda olishiga, tili o'rganilayotgan aholi guruhlarini turli kundalik vaziyatlarda ichkaridan bilishiga imkon beradi. Tadqiqotchi muloqotda to'liq ishtirokchi (so'zlovchi yoki tinglovchi), kuzatuvchi-ishtirokchi (nafaol tinglovchi), ishtirokchi-kuzatuvchi (nafaol so'zlovchi), to'liq kuzatuvchi (uchinchi shaxs) rolida sotsiolingvistik ma'lumot yig'adi.

Qiyos: korrelyativ tahlil usuli.

BEVOSITA TA'SIRLASHUV Yonma-yon hududlarda tarixan qo'ni-qo'shni bo'lib yashagan xalqlarning tillari o'rtasidagi lisoniy oldi-berdi jarayonlari, odatda, ikki til, dialekt yoki madaniyat vakillarining yuzma-yuz, jonli muloqoti orqali til unsurlari almashinuvi, o'zaro ta'sir qilishi. Masalan, o'zbek-tojik, o'zbek-qirg'iz tillari ta'sirlashuvi kabi. Vaqt o'tishi, ijtimoiy fikrlarning o'zgarishi, siyosiy-iqtisodiy omillar ta'siri bilan tabiiy til aloqalari to'xtashi yoki cheklanishi mumkin. Masalan, keyingi o'n yillikda yuz bergan geosiyosiy voqealar oqibatida rus-ukrain tillari ta'sirlashuvi deyarli to'xtadi.

Qiyos: bilvosita ta'sirlashuv.

BEYSIK-INGLIZ [British American Scientific International Commercial English – qisqartma nom] O'tgan asrning 30–40-yillarida ingliz tiliga asoslanib yaratilgan xalqaro sun'iy til va shu tilni yaratishga yo'naltirilgan loyiha. Ingliz tilining grammatik qonuniyatlari soddalashtirgan holda saqlangan, lug'at tarkibi sezilarli darajada qisqartirilgan mazkur sun'iy til 850 ta leksema (shundan 600 tasi ot, 150 tasi sifat, 100 tasi boshqa so'z turkumlariga mansub)dan tashkil topgan. U XX asrning yarmigacha faol targ'ib qilingan bo'lsa ham keng tarqalmagan. 1930-yilda ingliz tilshunosi Ch.K.Ogden tomonidan ishlab chiqilgan. Xalqaro texnik hujjatlarda, aviatsiya, diplomatiya va turizmda qo'llab ko'rilgan.

Qarang: sun'iy til.

BIDIALEKTIZM [*lot.* bi – ikki + *yun.* dialektos – sheva, lahja] Shaxsning muayyan milliy tilning ikki dialektini teng darajada bilishi, bir vaqtning o'zida ikki dialektdan fikr ifodalashda foydalana olish malakasini egallaganligi. Masalan, katta shaharlarga ko'chib kelgan aholi vakillari o'z dialektida ham, katta shahar dialektida ham so'zlasha oladi. O'zbekiston sharoitida Toshkentga boshqa viloyatdan ko'chib kelgan aholi vakillarining poytaxt lahjasida ham so'zlashish malakasini egallagiligini bidialektizm sifatida ko'rsatish mumkin.

Qarang: diglossiya.

BILINGV [*fr.* *bilingue* < *lot.* *bi* – ikki + *lot.* *lingua* – til, nutq] 1. Ikki tilda birday so‘zlasha biladigan va tinglab tushuna oladigan odam, zullisonayn. Bilingvlarning birinchi tili ona tili bo‘ladi, u ilk bolalikda o‘zlashtiriladi. Bunday til ko‘pincha etnik kelib chiqishga bog‘liq bo‘ladi. Bilingvning ikkinchi tili ona tilidan keyin o‘rganilgan til hisoblanadi va bunday tilni aniq maqsadga ko‘ra egallaydi. Bilingv muloqot talabidan kelib chiqib, birinchi til yoki ikkinchi tildan foydalanadi, ikkinchi tilni ko‘pincha ish-o‘qish jarayonida ishlatadi. Oilaviy va boshqa maishiy munosabatlarda ona tilidan foydalanadi.

BILINGVIZM [*lot.* *bi* < *bis* – ikki, ikki tomonlama + *lot.* *lingua* – til, nutq] *ayn.* ikkitillilik. Xorijlik tilshunoslarning ilmiy asarlarida bu atama keng qo‘llanadi, ammo o‘zbek tilida *ikkitillilik* atamasi mazkur tushunchani atay oladi.

Qarang: ikkitillilik.

BILINGVLASHUV Insonning ikkinchi tilni o‘rganish, to‘la egallash jarayoni, shaxsning ikkita tilda so‘zlashish va tinglab tushunish malakasini o‘zlashtirishi. Bilingvlashuv jarayoni tabiiy o‘zlashtirish va maxsus o‘zlashtirish yo‘li bilan yuz beradi. Tabiiy bilingvlashuv jarayoni shaxsning ikki tilli muhitda yashashi, bevosita ikki tilli muhit ishtirokchisi bo‘lishi bilan yuz beradi. Maxsus o‘zlashtirish yo‘li bilan bilinglashuv esa ikkinchi tilni mutaxassis yordamida o‘rganish hisoblanadi.

Qarang: ikkitillilik, ko‘ptillilik.

BILVOSITA TA’SIRLASHUV Bir-biridan geografik jihatdan uzoqda yashaydigan xalqlarning tillari o‘rtasidagi lisoniy oldi-berdi jarayoni. Bunday til aloqalari iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalardagi institutsional munosabatlar vositasida amalga oshadi. Ko‘pincha bunday oldi-berdida – bir tildan ikkinchi tilga lisoniy o‘zlashtirishda o‘rtada vositachi til turadi. Masalan, XX asrda Yevropa xalqlari tilidan o‘zbek tiliga so‘z olishda rus tili vositachi bo‘lgan.

Qiyos: bevosita ta’sirlashuv.

BIR ETNOLEKTLILIK Migratsiya sharoitida yashovchi etnik guruh faoliyatida titul millat tilidan shakllanadigan etnolektning amal qilishi. Bunda muloqot jarayoni, asosan, yagona etnik guruh til shaklida amalga oshadi, ammo bunday lisoniy vaziyat kam kuzatiladi. Masalan, AQSHda yashovchi afroamerikaliklarning ingliz tilining o'ziga xos varianti hisoblangan "African American Vernacular English (AAVE)"da so'zlashishi bir etnolektlilikka misol bo'ladi.

Qiyos: ko'p etnolektlilik.

BIR MILLATLI DAVLAT Hududida faqat bir millat vakillari yashaydigan mamlakat. Dunyoda bir millatli davlat juda siyrak kuzatiladi. Mutaxassislar Islandiyani ana shunday mamlakat sifatida ko'rsatadilar. Bunday davlatlarda, ko'p millatli mamlakatlardan farqli ravishda, til bilan bog'liq muammolar deyarli kuzatilmaydi. Davlat til siyosatining diqqati til sofligiga qaratiladi.

Qiyos: ko'p millatli davlat.

BIR MILLATLI JAMOA Faqat bir millat vakillaridan tashkil topgan, umumiy til, madaniyat, an'ana va tarixiy tajribaga ega kishilar jamoasi. U bir til (ko'pincha standart yoki mahalliy dialekt)ning hukmron bo'lishi, etnik o'zlikni anglashning kuchliligi bilan ko'p millatli jamoadan farq qiladi. Bir tilli jamoaning ayni xususiyatlari ijtimoiy birlashuvni mustahkamlashga ham yordam beradi. Bir millatli jamoa nafaqat sotsial guruh shaklida, balki katta bir xalq tarzida ham yashashi, faoliyat ko'rsatishi mumkin. Bu jihatdan mutaxassislar Islandiyani ko'rsatadilar.

Qiyos: ko'p millatli jamoa.

BIR TILLI JAMOA Jamiyat hayotining turli sohalarida faqat bir tildan foydalanadigan, bitta tilda muloqot qiladigan kishilar guruhi; barcha a'zolari o'zaro muloqotda yagona tilni qo'llaydigan jamoa. Bir tilli jamoalar, asosan, markazdan uzoq hududlarda istiqomat qiladi, ularning faoliyatida ko'pincha ikkinchi tildan foydalanishga ehtiyoj bo'lmaydi. Bunday jamoada til nafaqat aloqa vositasi, balki umumiy madaniyat, dunyo-

qarash va qadriyat ifodasi sifatida ham xizmat qiladi. Bunday jamoalarda til birligi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi, madaniy merosni o'zgartirmay saqlaydi.

Qiyos: ikki tilli jamoa, ko'p tilli jamoa.

BIR TILLI LISONIY VAZIYAT Bitta til turli vazifaviy uslublarda yoki koyne, dialekt, professional leksika kabi shakllarda amal qiladigan til muhiti; muayyan jamoa, jamiyat yoki mintaqada faqat bitta tilning (adabiy til yoki sheva) hukmron bo'lib, boshqa tillar yoki nutq shakllaridan qariyb foydalanilmaydigan sharoit. Mutaxassislar faqat Islandiyada bir tilli lisoniy vaziyat mavjudligini ta'kidlaydilar. Mazkur tushuncha adabiyotlarda *endogloss til vaziyati* ham deyiladi.

Qiyos: bir tilli lisoniy vaziyat.

BIRINCHI TIL 1. Yer yuzida paydo bo'lgan, insoniyat qo'llagan ilk, dastlabki til. Evolyutsion psixologiya bo'yicha mutaxassis K. Atkinson boshchiligidagi bir guruh olimlarning fikricha, jamiyat a'zolari foydalangan birinchi til bundan ellik-yetmish ming yil avval Afrikada yuzaga kelgan va hozirgi tillarning barchasi o'sha qadimgi tildan kelib chiqqan.

Qiyos: sun'iy til.

2. Bola ilk bor so'zlashishni o'rgangan, nutqi chiqqan til. Asosan, ona tili tushunchasiga teng kelsa ham, ba'zan bu tushunchalar o'zaro mos tushmaydi. *Ona tili* atamasida ko'proq shaxsning "ajdodlari tili, shaxsga yaqin bo'lganlarning tili" tushunchasi, *birinchi til* atamasida shaxsning "tillarni egallashdagi tartibi, ilk o'zlashtirilganligi" tushunchasi ta'kid oladi. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan birinchi tilga shaxsning etnik identifikatsiyasi, madaniy o'zligi va muhiti chuqur ta'sir qiladi.

Qiyos: ikkinchi til.

3. Funktsional jihatdan bilingvning birinchi o'zlashtirgan, ilk lisoniy malakalari egallangan tili. Shu ma'noda mutaxassislar birinchi til tushunchasini ona tili tushunchasidan muloqot uchun zarur lisoniy malakalarning maxsus o'zlashtirilishiga ko'ra farqlaydilar. *Birinchi til* atamasi jamiyat a'zolarining turmushi va faoliyatida qay-

si tildan ko‘proq foydalanishini ko‘rsatishda, kundalik muloqotda asosiy ishlatiladigan til haqida fikr yuritilganda qo‘llanadi. Til siyosati va lisoniy muhit birinchi tilning saqlanishi yoki zaiflashishiga ta‘sir qiladi.

Qiyos: chet til.

BIRTILLILIK 1. Shaxsning faqat bir tilda muloqot qilish, ish yuritish malakasini egallaganligi, monolingvizm. Birtillilik ko‘pincha markazda uzoq hududlarda ko‘p kuzatiladi va bunga ikkinchi tilni egallashga qariyb ehtiyoj sezilmaganligi sabab bo‘ladi. Birtillilik va ko‘ptillilik hodisalari o‘zaro bog‘liq, ammo qat‘iy emas: jamiyatda birtillilikning ustun bo‘lishi shu jamiyatdagi alohida kishilarning ikkitilliligi yoki ko‘ptilliligini istisno qilmaydi va, aksincha. Umumtilshunoslikda monolingvizm deb ataladi.

Qiyos: individual ikkitillilik, individual diglossiya.

2. Muayyan ijtimoiy-siyosiy uyushma, davlat yoki hududda faqat bitta tilning rasmiy, kundalik yoki madaniy muloqot vositasi sifatida amal qilishi, aholi tomonidan yagona tilning aniq muloqot vaziyatiga muvofiq tanlanishi. Birtillilik ijtimoiy birlashuvni kuchaytirishi mumkin, biroq ko‘ptillilik sharoitida lisoniy harxillikka xavf sifatida ham tushuniladi.

Qiyos: milliy ikkitillilik, yalpi ko‘ptillilik.

BIRTOMONLAMA BILINGVIZM 1. Bilingvizm sharoitida yashovchi ikki xalqdan faqat bittasining ikkala tilda ham muloqot qilish malakasiga egaligi, ikkinchi til egalarining birinchi tilni bilmasligi holati. Masalan, Rossiya Federatsiyasidagi aksar milliy respublikalarning mahalliy aholisi o‘z ona tili bilan birga, rus tilidan ham erkin foydalanadi, ammo shu hududdagi rus millati vakillari mahalliy aholi tilida erkin va maqsadga muvofiq muloqot qila olmaydi.

Qiyos: ikkitomonlama bilingvizm.

2. ayn. nofaol ikkitillilik.

BIRTOMONLAMA TA’SIRLASHUV Geografik jihatdan uzoqda yashagan bir xalq tilidan boshqa xalq tiliga lisoniy birliklarni qabul qilishdan iborat jarayon. Tillar ta’sirlashuvi

tarixida birtomonlama lisoniy munosabatga kirishishning har xil sabablari bo‘lgan: 1) rivojlangan xalqlar tilidan yoki kam rivojlangan xalq tiliga tarzida bo‘lgan; 2) yangi diniy an‘analarning tarqalishi sababli yuz bergan. Masalan, islom dini va unga oid an‘analarning yoyilishi bilan o‘zbek tiliga arab tilidan so‘zlar qabul qilingan, biroq o‘zbek tilidan arab tiliga so‘z o‘tishi kuzatilmagan.

Qiyos: ikkitomonlama ta’sirlashuv.

BIRYOZUVLILIK Muayyan mamlakat hududida bir til uchun rasman bitta yozuvning qo‘llanishi. Biryozuvlilik avvaldan shakllangan bo‘ladi yoki til islohotlari natijasida jamiyat hayotining keyingi bosqichlarida joriy etiladi. Keyingi holat til egalari yalpi bir yozuvda ish yuritish malakasiga ega bo‘lganda yuzaga keladi. O‘zbek xalqi tarixida uzoq yillar arab grafikasiga asoslangan biryozuvlilik amal qilib kelgan. Yoki XX asrning 2-yarmida ham kirillitsaga asoslangan biryozuvlilik joriy bo‘lgan.

Qiyos: qo‘shyozuvlilik.

BIZNES JARGONI [*ing.* business – ish, mashg‘ulot + jargon] Ishbilarmon va biznes vakillari tomonidan tijorat, iqtisodiyot, moliya, marketing yoki korporativ muhitda qo‘llanadigan, maxsus so‘zlar, iboralar va terminlarga boyligi bilan ajralib turadigan, umumiste’ moldagi so‘zlarning adabiy til-dagidan farqli ma’nolarda qo‘llanadigan til shakli. U ko‘pincha soha mutaxassislari o‘rtasida aniq va qisqa muloqotni ta’minlash uchun ishlatiladi va boshqalar uchun odatda, tushunarsiz bo‘ladi. Biznes jargoni globallashuv ta’sirida ingliz tilidan olingan atamalar hisobiga tarkibiy kengaymoqda. Masalan, o‘zbek biznes muhitida “brending”, “KPI” (key performance indicators – asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) kabilar biznes jargoni sifatida keng tarqalgan.

Qarang: sotsiolekt, argo, sleng, oddiy so‘zlashuv.

BOBO TIL Muayyan tillarning paydo bo‘lishi uchun asos, manba bo‘lib xizmat qilgan, ammo o‘zi hozirgi kunda aloqa vositasi sifatida ishlatilmaydigan til. Odatda bir tilda gapla-

shadigan xalq qandaydir tarixiy sabablar bilan qabilalarga bo‘lib, turli tomonlarga tarqalishi va bu qabilalarning bir-biridan aloqalari uzilishi natijasida shu qabilalarning tili bobo tilidan uzoqlashadi va mustaqil til sifatida shakllanadi. Bugungi turkiy tillarning bobo tili – qadimgi turkiy til.

Qarang: leksifikator til.

BOLA NUTQI Bolaning tug‘ilgandan boshlab bosqichma-bosqich shakllanadigan og‘zaki muloqot qilish qobiliyati, bolaning yoshiga mos rivojlanayotgan shaxsiy nutqi. Bunday nutq tovushlar chiqarish, so‘ng sodda so‘zlar, keyin ixcham jumlar shaklida shakllanadi va bu ko‘p jihatdan atrof-muhit, ota-ona bilan muloqot, eshitish qobiliyati va aqliy rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Bola nutqi tilni o‘rganishning asosiy vositasi sifatida shaxsning ijtimoiylashuvi va bilim olish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Qiyos: ilk ijtimoiylashuv tili, keyingi ijtimoiylashuv tili.

BOLALAR TILI Sakkiz-to‘qqiz yoshgacha bo‘lgan bolalarning nutqiy faoliyati, shu yoshdagi bolalarga xos so‘z va iboralardan iborat nutq shakli. U bolalarning fikrlash xususiyatlariga bog‘liq qator xususiyatlarga ega: taqlid so‘zlarning ko‘p qo‘llanishi, gap bo‘laklari tartibining nomuntazamligi, yangi yasalmalarga boyligi kabilar. Bunday nutq bolaning jismoniy-aqliy rivojlanishiga muvofiq tarzda o‘zgarib boradi. Ayniqsa, shaxs sifatida ijtimoiylashishi bilan bola nutqi jiddiy takomillashadi. Masalan, dastlab mashina uchun “di-did”, it uchun “vov-vov” kabi lisoniy variantlar ishlatiladigan til shakli. Tilning fonetik, leksik, grammatik va pragmatik jihatlarida namoyon bo‘ladi. Bolalar tili uchun sodda fonetika, oddiy va takroriy leksika, o‘ta qisqa va sodda jumla tuzilishi, onomatopeya va o‘ziga xos so‘z yasalishi xos. Bunday xronolekt bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanish bosqichiga mos keladi va bu ularning tilni o‘zlashtirish jarayonini aks ettiradi.

Qiyos: yoshlar tili, kattalar tili.

BOLQON TILLARI Bolqon yarimorolidagi mamlakatlarda amal qiladigan bolgar, makedon, xorvat, sloven, alban, serb, chernogor, rumin, yunon kabi tillar. Ular hind-yevropa tillari oilasiga kiradi. Mazkur tillar amal qiladigan mamlakatlar avval Usmonlilar sultonligi tasarrufida bo'lganligi sababli bu tillarga usmonli turk tilining ta'siri kuchli bo'lgan. Ayniqsa, lug'at tarkibiga usmonli tili vositachiligida umumturkiy so'zlar ko'p o'zlashgan. Bolqon tillarining sotsiolingvistik xususiyatlari juda rang-barang va murakkab bo'lib, bu hududda ko'ptillilik, etnik va diniy xilma-xillik, tarixiy jarayonlar va siyosiy o'zgarishlar tilni qanday ishlatilishini, evolyutsiyasini va jamiyatdagi ahamiyatini belgilaydi.

Qarang: Bolqon tillari ittifoqi.

BOLQON TILLARI ITTIFOQI Genetik qarindoshlik jihatidan emas, balki bir umumiy makonda uzoq muddatli ta'sirlashuv natijasida rivojlangan tipologik xususiyatlari bilan ajralib turadigan Janubi-sharqiy Yevropa tillari uyushmasi. Bolqon tillari ittifoqiga hind-yevropa tillar oilasining slavyan, roman, alban, yunon guruhlariga mansub bolgar, makedon, serb-xorvat (qisman), sharqiy roman, alban, hozirgi yunon tillari kiradi.

Qarang: tillar ittifoqi.

BOSHLANG'ICH IKKITILLILIK 1. Alohida shaxslarda aniq maqsadga ko'ra ona tili bilan birga boshqa tilda ham so'zlashish va ish yuritish malakalarining shakllanish bosqichi. U odatda bolalik davrida tez shakllanadi. Oilada milliy tili, maktabda ikkinchi tilda so'zlashish ham boshlang'ich ikkitillilikni yuzaga keltiradi.

Qiyos: individual ikkitillilik.

2. Turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy ta'sirlar natijasida jamiyat a'zolari orasida biron-bir tilning ikkinchi til sifatida asta-sekin amal qila boshlashi, jamoaviy ikkitillilikning dastlabki yoyilish bosqichi. Ko'ptillilik muhitida, masalan, ikki tilli oilalarda yoki turli tillar ishlatiladigan jamiyatlarda (masalan, Toshkentda o'zbek va rus tillari muhitida) yuzaga keladi.

Qiyos: jamoaviy ikkitillilik.

BOSHQARILADIGAN MULOQOT SOHALARI

Tilning muayyan yashash shaklidan foydalanish maxsus qoidalar, me'yorlar orqali tartibga solinadigan, ishtirokchilarining tildan foydalanishida iyerarxik munosabat amal qiladigan, umuman, tashqi yoki ichki ijtimoiy nazorat asosida faoliyat ko'rsatadigan faoliyat doirasi. Masalan, qanday axborot qaysi tilda tarqatilishi oldindan belgilanishida kuzatiladi. Yoki siyosiy bayonotlar berish ham boshqariladigan muloqot sohasiga misol bo'ladi. Muloqot sohasini bunday boshqarishdan muloqotning bir maromda kechishini ta'minlash ham maqsad qilinadi.

Qiyos: boshqarilmaydigan muloqot sohalari.

BOSHQARILMAYDIGAN MULOQOT SOHALARI Tilning muayyan yashash shaklidan foydalanish maxsus qoidalar, me'yorlar orqali tartibga solinmaydigan, lisoniy faoliyat tashqi yoki ichki ijtimoiy nazoratga bo'ysunmaydigan, ishtirokchilarning tilni qo'llashida iyerarxik munosabat amal qilmaydigan erkin muloqot shakli. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda kishilarning bir-biriga izoh yozib, hatto haqoratlab bahslashishida yoki jamoat transportida notanish kishilarning tasodifiy suhbatida namoyon bo'ladi. Oilaviy munosabatlar, do'stlar davrasidagi tildan erkin foydalanish ham misol bo'ladi.

Qiyos: boshqariladigan muloqot sohalari.

D

DASTURLASH TILI Kompyuter, planshet, telefon kabi elektron qurilmalarni dasturlashda ishlatiladigan formal til bo‘lib, bunday til matematik algoritmlarga asoslanadi. Birinchi dasturlashtirilgan mashinalar yaratilganidan beri sakkiz mingdan ortiq dasturlash tili (shu jumladan, ezoterik tillar ham) yaratilgan. Zamonaviy dasturlash tillarida ko‘p tilli “Unicode” belgilaridan (Delphi 2006, C#, Java, Rust) keng foydalaniladi. 2000-yillargacha dasturlash tillarida AQSH standarti asosida qabul qilingan 7 bitli ASCII kodirovkasidan foydalanilgan.

Qarang: sun‘iy til.

DAVLAT BOSHQARUVI TILI Muayyan mamlakatni boshqarish, idora qilishda foydalaniladigan til shakli. Bunday til vazifasini asosan davlat tili va rasmiy tillar bajaradi, bunda tilning rasmiy uslubidan foydalaniladi. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tili vazifasini o‘zbek adabiy tili bajaradi. Juda kam holatlarda davlat tili yoki rasmiy tildan boshqa til ham davlat boshqaruvi tuzilmalarida “xos til” sifatida qo‘llanishi mumkin. Masalan, Afrikadagi ayrim mamlakatlarda davlat tili o‘rnida fransuz tili davlat boshqaruv tili sifatida amal qiladi.

Qarang: boshqariladigan muloqot sohalari, akrolekt.

DAVLAT TILI Davlat ramzi sifatida maxsus qonun bilan vakolatlangan, muhofazasi va rivojlanishi huquqiy kafolatlangan, aholining asosiy qismi so‘zlashadigan, qonunchilik, ta’lim-tarbiya, sport, tibbiyot, harbiy ish, soliq-bojxona faoliyati, matbuot va televideniya, xullas, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida qo‘llanishi majburiy bo‘lgan til. Uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha: 1) davlat tili yagona bo‘ladi; 2) davlat va davlatchilik ramzi hisoblanadi; 3) mamlakat aholisining asosiy qismi so‘zlashadi; 4) maxsus qonun bilan vakolatlanadi, muhofazalanadi,

rivojlanishi kafolatlanadi; 5) davlat va jamiyat hayotining barcha jabhasida amal qiladi.

Qiyos: rasmiy til, ishchi til, mahalliy til.

DAVLAT TILI TALABLARI 1. Irqi, millati, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, fuqarolarning qonunan belgilangan rasmiy tilni lozim darajada bilish va qo'llashga qo'yiladigan lisoniy mezonlar. Masalan, fuqaroligi bo'lmagan kishilarga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini berishda davlat tilini muloqot qilish darajasida bilish talab qilinadi. Bunday talablar mutaxassislik bo'yicha ishlash huquqini olishga ham tatbiq etiladi. Xususan, Latviyadagi rus maktablarining o'qituvchilari latish tilini yuqori darajada bilish uchun imtihon topshirishlari kerak. Davlat tili talablari tilning maqomini mustahkamlash, milliy birlikni ta'minlash va til madaniyatini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqiladi hamda qonuniy asosda tartibga solinadi.

Qarang: umumadabiy me'yorlar.

2. Adabiy tilning imloviy, uslubiy, leksik-grammatik, grafik va punktuatsiya qoidalari, atamalarni to'g'ri qo'llash va matnda mantiqiy xatoliklarga yo'l qo'ymaslik bilan bog'liq qoidalari. Bu talablar odatda davlat boshqaruvi, hujjat yuritish, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, sud-huquq tizimi va boshqa rasmiy sohalarida davlat tilidan foydalanishni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Qarang: til me'yorlari.

DAVLATLARARO MULOQOT Ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasida ularning rasmiy vakillari ishtirokida milliy hamda xalqaro masalalar yuzasidan bo'ladigan muloqot shakllaridan biri. Davlatlararo muloqot oldindan rasman kelishilgan tillarda yoki ularning birida, ko'pincha xalqaro tillarda o'tadi. Masalan, TDTda turkiy tillar, MDH doirasidagi yig'inlarda rus tili davlatlararo muloqot tili sifatida ishlatiladi.

Qiyos: millatlararo muloqot.

DAVLATNING TILGA MUNOSABATI Hukumatning o‘z hududida amal qiladigan tillarga nisbatan yondashuvi, ularning maqomiga nisbatan tutgan yo‘li, davlat tomonidan tilga nisbatan olib boriladigan siyosat, huquqiy tartibotlar va amaliy choralar majmuyi. Tilning jamiyatdagi mavqeyini belgilaydigan, uning saqlanishi, rivojlanishi hamda qo‘llanish darajasiga ta‘sir ko‘rsatadigan bunday munosabat: 1) yagona davlat tili/rasmiy til (masalan, O‘zbekistonda o‘zbek tili); 2) qo‘sh rasmiy til (masalan, Qoraqalpog‘istonda o‘zbek va qoraqalpoq tillari); 3) shtat yoki mintaqa rasmiy tili (masalan, Bengaliyada bengal tili); 4) rasmiy maqom berilmagan, ammo davlat idoralari tomonidan qo‘llanishi rag‘batlantirilgan til (masalan, Kamerun pijini); 5) “bardoshli” til (masalan, muhojirlar tili); 6) tiyib turilgan til tarzida bo‘ladi. O‘zbekiston hukumatining hududidagi tillarga munosabati quyidagicha belgilangan: davlat tili, mahalliy til, xorijiy til, noaniq maqomli til (masalan, rus tili).

Qarang: til siyosati, til islohoti, huquqiy maqomli til.

DEMOGRAFIK KO‘RSATKICH Ma‘lum bir etnik guruhning umumiy soni, jins-yosh tarkibi, shuningdek, shahar va qishloq aholisi soni va boshqa xususiyatlar haqidagi ma‘lumotlar. Odatda demografik ko‘rsatkichlar aholini umumiy yoki xususiy ro‘yxatga olish natijalari hisoblanadi. Masalan, aholini xususiy ro‘yxatga olish sotsiologvistiklar tomonidan dala tadqiqotlarida yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida bo‘lishi mumkin. Har ikki xil demografik ma‘lumotlardan sotsiologvistik maqsadda ko‘p foydalaniladi. Demografik ko‘rsatkichlar muayyan til yashash shaklining kuchini yoki biron-bir hududdagi ikkitillilik darajasini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Qarang: til egalarining yosh bo‘yicha farqlanishi.

DEMOGRAFIK NOTENG TIL VAZIYATI Turli tillar egalari yashaydigan davlatda kishilar so‘zlashadigan tillardagi aholi sonining jiddiy nomutanosibligi yoki miqdoriy farqning juda katta bo‘lishi. Bunday vaziyatda

ayrim tillar ko'pchilik tomonidan ishlatiladi va ustun mavqega ega bo'ladi, boshqalari esa ozchilik tiliga aylanib, cheklangan sohalarda qo'llanadi. Masalan, Ispaniyada aholining 70,6 %i ispan tilida, 18,3 %i katalon tilida, 8,1 %i galliy tilida, 2,4 %i bask tilida so'zlashadi. Mazkur miqdoriy ko'rsatkichlar yaxlitlashtirilsa, quyidagicha ko'rinish oladi: ispan tili va katalon tili – 71% x 18%, ispan tili va galliy tili – 71% x 8%. Demak, bu yerda demografik noteng til vaziyati amal qiladi. O'zbekistonda ham demografik noteng til vaziyati shakllangan. Ma'lumotlarga ko'ra, 28-29 million odam o'zbek tilida muloqot qiladi.

Qiyos: demografik teng til vaziyati.

DEMOGRAFIK TENG TIL VAZIYATI Turli tillar egalari yashaydigan davlatda kishilar so'zlashadigan tillarda aholi sonining o'zaro mutanosibliigi yoki miqdoriy farqning uncha katta bo'lmasligi, til jamoalarining son jihatdan taxminan teng yoki muvozanatli bo'lgan holati. Masalan, Niderlandiyada fransuz va flamand tillari rasmiy tillar sifatida amal qiladi. Aholining 39,1 %i fransuz tilida, 50,7 %i flamand tilida so'zlashadi. Bu miqdorni yaxlitlaydigan bo'lsak, proporsiya 40x50 ko'rinishini oladi va bu sotsiolingvistikada demografik teng til vaziyati hisoblanadi.

Qiyos: demografik noteng til vaziyati.

DEMOKRATIK TIL SIYOSATI Muayyan mamlakatda tilni tanlash, tilni qo'llash, tildan foydalanish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda, umuman, lisoniy hayotni boshqarishda keng aholi ommasining ehtiyojlarini hisobga olgan holda belgilanadigan chora-tadbirlar. Bunday til siyosati, asosan, biron-bir tilga davlat yoki rasmiy til maqomini berishda, alifbo hamda yozuv bilan bog'liq islohotlarda, adabiy tilni shakllantirishda, o'tkir lisoniy muammolarni hal qilishda yoki rasmiy idoralarga murojaat qilish tilini belgilashda yaqqol kuzatiladi. Demokratik til siyosatining asosiy maqsadi – jamiyatda tillararo tenglik, madaniy xilma-xillik, ijtimoiy birdamlik va

fuqarolarning lisoniy kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Bu yondashuv fuqarolarning o‘z ona tilida ta‘lim olish, muloqot qilish va huquqiy himoya topish huquqlarini ta‘minlaydi. Mazkur tushunchani *xalqchil til siyosati* deb ham atash mumkin.

Qiyos: nodemokratik til siyosati.

DESTRUKTIV TIL SIYOSATI Muayyan ma‘muriy-siyosiy makonda biror til (yoki shu til hududiy varianti)ning qo‘llanishini cheklash orqali o‘sha til (yoki shu til hududiy varianti)ni rivojlanishdan to‘xtatishdan, hukumat darajasida tiyib turishdan iborat xatti-harakatlar. Bunday tutum til lug‘at tarkibini boyitmaslik, ilmiy terminologiyani rivojlantirmaslik va boshqa shakllarda ham namoyon bo‘ladi. Mutaxassislar XVI asrdan Fransiyada fransuz tilining hududiy variantlariga nisbatan shunday munosabat ko‘rsatilganligini qayd qiladilar.

Qiyos: konstruktiv til siyosati.

DIALEKT [*yun.* dialektos – lahja, sheva] 1. O‘z ichida bir necha shevalarni qamragan, viloyat yoki katta shaharlar aholisi foydalanadigan milliy til yashash shakli. Bunda bir dialekt vakillari hududiy mansubligiga ko‘ra birlashadi. Masalan, Toshkent dialekti, Pekin dialekti. Ayrim lingvistik adabiyotlarda dialekt va lahja teng tushunchalar sifatida baholansa ham ularni farqlash lozim. Masalan, Farg‘ona dialekti bir necha katta-kichik qishloq shevalarini o‘zida birlashtirsa, bu dialekt yana boshqa o‘xshash dialektlar bilan birga qarluq lahjasini shakllantiradi.

Qiyos: sheva, regiolekt, adabiy til.

2. Milliy til tarkibidagi bir necha sheva va dialektlarni o‘zida jamlagan tilning yashash shakli, lahja. Bu ma‘noda o‘zbek tilining qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalari farqlanadi. Qarluq lahjasi shevalari Toshkent, Farg‘ona vodiysida, Jizzaxdagi tegishli hududlarda tarqalgan. O‘g‘uz lahjasi shevalari Xorazm viloyati, Buxoroning ayrim o‘g‘uz shevali tumanlarida tarqalgan. Qipchoq lahjasi shevalari O‘zbekistonning juda katta hududida, ayniqsa, qishloqlarda ko‘p tarqalgan.

Qiyos: sheva, lahja, regiolekt, adabiy til.

3. Ma'lum bir tilning turli hududiy yoki ijtimoiy guruhlarning orasida shakllangan talaffuzi, lug'at tarkibi va grammatikasi bilan farqlanadigan varianti. Sotsiolingvistika dialektlarni til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda muhim vosita sifatida ko'radi. Dialektlar orqali jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, til nufuzi va muloqotdagi farqlar aniqlanadi, lisoniy harxillik va ijtimoiy guruhlarning madaniy xususiyatlarini tahlil qilish imkoni bo'ladi.

Qarang: jargon, argo, sleng.

DIALEKTAL AREAL ma'lum bir sheva yoki lahja, ularga xos fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlar tarqalgan hudud. Masalan, so'z boshida kelgan k tovushini g tarzida aytishdek dialektal xususiyat Xorazm viloyati va Buxoro viloyatining ayrim tumanlarida kuzatiladi. Shu ma'noda ana shu hududlar dialektal areal hisoblanadi. Turli dialektal areallar o'zaro chegaradosh bo'lishi, ba'zan ularning o'rtasida aralash xususiyatli lahjalar ham uchrashi mumkin. Dialektal areal dialektologik xaritalar yordamida belgilanadi va bu hududiy tildagi o'zgarishlarni o'rganishda muhim hisoblanadi.

Qiyos: dialektal muhit, izoglossa.

DIALEKTAL KONTINUUM [dialektal + *lot.* kontinuum – uzluksiz] Sotsiolingvistikada: muayyan hududda bir-biridan kichik farqlar bilan ajralib turuvchi, kichikdan kattaga tarzida birlashuvchi shevalar jamini ifodalaydigan atama. Qishloq shevalaridan tuman va shahar shevalari tarzida tashkillanadigan dialektal kontinumda fonologik, leksik-semantik va grammatik farqlanishlar kattalashgani hamda muntazamlashgani sari ular bir-biridan shunchalik ko'proq farqlana boradi. Umumman, tilning bu tarzda bo'linishida qo'shni sheva yoki dialektlar minimal farqlanadi, ammo "dialekt zanjiri"ning bir-biridan uzoq bo'g'inlari o'rtasidagi farqlar tobora ko'payadi.

Qarang: dialektal muhit.

DIALEKTAL MARKAZ Ma'lum bir sheva yoki dialektga xos xususiyat, lisoniy hodisa paydo bo'lgan, ma'lum

bir dialektning rivojlanishi va keng tarqalishida asosiy rol oʻynagan, shevaviy xususiyatlar eng aniq saqlanib qolgan hudud; dialektal xususiyat hamda hodisalarning boshqa dialektlarga tarqalish nuqtasi, yaʼni izoglossalarning yaqinlashish joyi. Dialektal markaz, odatda, siyosiy, madaniy yoki iqtisodiy jihatdan nisbatan kuchli, nufuzli joy boʻlib, uning til shakllari koʻpincha boshqa hududlarga ham taʼsir koʻrsatadi. Hozirgi kunda koʻp hollarda dialektal markaz vakillari vazifasini tuman yoki shahar markazi aholisi bajaradi.

Qarang: dialektal muhit, dialektal areal, izoglossa.

DIALEKTAL MEʼYORLAR Muayyan dialektal muhitga xos boʻlgan, shu dialekt egalari nutqida qoʻllanishi meʼyorlashgan, boshqa dialektlar va adabiy tildan fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik-uslubiy jihatlari bilan farqlanadigan milliy til normasining bir koʻrinishi. Bunday meʼyorlar tilning zaxiraviy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi va mutaxassislarining ongli aralashuvisiz tabiiy tashkillanadi.

Qiyos: umumtil meʼyorlari 2.

DIALEKTAL MUHIT Muayyan shevaga xos liasoniy vositalar tabiiy tashkillanib amal qiladigan, shu sheva vakillari kundalik soʻzlashadigan va noadabiyliigi bilan xarakterlanadigan shevaviy sharoit; kishilar oʻzaro muloqotda, asosan, biror mahalliy dialekt yoki lahjada soʻzlashadigan ijtimoiy-geografik areal. Dialektal muhit bolaning tilni oʻzlashtirishida muhim, chunki ilk nutqiy tajribalar aynan shunday muhitda egallanadi. Qolaversa, dialektal muhit tilning tirikligini, madaniy xotira va milliy merosning saqlanishini taʼminlaydi.

Qarang: dialektal kontinuum.

DIALEKTIZM [*yun.* dialektos – sheva, lahja] Maʼlum bir hududga xos boʻlgan, shu hududda yashovchi aholi nutqida qoʻllanadigan til birliklari. Dialektizmlarning fonetik, leksik, semantik, frazeologik, grammatik koʻrinishlari farqlanadi. Masalan, *shoti, koʻkayini kesmoq* kabi. Jamiyat aʼzolarining sanoatlashuv jarayonlarida faol ishtirok etishi nati-

jasida dialektizmlar oʻrnini asta-sekin umumadabiy soʻzlar egallaydi. Hozirgi shaharlashuv sharoitida dialektizmlar hududiy mansubliknigina emas, shaxsning ijtimoiy maqomiga ishora qiladigan vositaga ham aylanmoqda.

Qarang: qoʻllanishi chegaralangan leksika.

DIALEKTOLOGIYA [*yun.* dialektos – sheva, lahja + logos – fan, taʼlimot] Muayyan tilning sheva va lahjalarini, ularning fonetik, leksik-semantik va grammatik oʻziga xosliklarini, bunday sheva xususiyatlarining tarqalish areallarini oʻrganadigan tilshunoslik sohasi. Sotsiolingvistika uchun sheva hamda dialektlarda yuz berayotgan oʻzgarishlarga ijtimoiy-iqtisodiy omillarning qay darajada bogʻliqligini aniqlash muhim. Yoki ommaviy axborot vositalarining shevalarni adabiy tilga yaqinlashtirishi yoki adabiy tilga shahar shevalarining taʼsiri masalasi ham sotsiolingvistikani qiziqtiradi.

Qiyos: areal tilshunoslik.

DIASPORA [*yun.* diaspora – tarqalish, yoyilish] Oʻz vatani-dan tashqarida, boshqa mamlakatlar yoki mintaqalarda yashayotgan, ammo oʻz milliy, etnik yoki madaniy oʻziga xosligini saqlab qolgan kishilar jamoasi; bir xalqning yoki etnik guruhning turli tarixiy, siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy sabablarga koʻra oʻz vatani tashqarisida doimiy yoki vaqtincha yashaydigan qismini ifodalovchi tushuncha. Masalan, “oʻzbek diasporasi” – Oʻzbekistondan tashqarida – Rossiya, AQSh yoki boshqa mamlakatlarda yashaydigan va oʻzbek madaniyati, tili yoki anʼanalarini saqlab qolgan oʻzbeklar jamoasini bildiradi. Sotsiolingvistika diaspora muhitida ona tilining saqlanishi, oʻzgarishi yoki yoʻqolishi hodisasini ilmiy muammo sifatida oʻrganadi.

Qiyos: etnik guruh.

DIASPORA TILI Oʻzi tugʻilib oʻsgan mamlakatdan tashqarida yashovchi etnik guruh, umuman, boshqa davlatga koʻchib borib, oʻsha yerda yashovchi millat vakillari qoʻllaydigan til. Masalan, Amerika Qoʻshma Shtatlarida oʻzbek, qozoq, qizgʻiz diasporalari shakllangan. Ular millatlararo mu-

loqotda ingliz tilidan foydalanadi, ammo o‘zaro muloqotda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz tillaridan foydalanadi. Diaspora tiliga o‘sha yerdagi titul millat tilining ta’siri kuchli bo‘ladi. Ijtimoiy kuchli tillarning bosimi ostida ikki-uch avloddan keyin diaspora tili unutilishi ham mumkin. Diaspora tilida chet so‘zlarning qo‘llanishi ko‘p uchraydi va shaxs o‘z lisoniy muhitiga qaytgach, chet so‘z va iboralar qo‘llanishdan qoladi.

Qiyos: etnolekt.

DIAXRON SOTSIOLINGVISTIK TAHLIL Tilning ijtimoiy jihatdan qanday o‘zgarishini vaqt o‘qi bo‘ylab o‘rganadigan, til va jamiyat munosabatini tarixiy dinamikada tahlil qiladigan yondashuv. Unda etnik hamda ijtimoiy guruhlar tilni qanday qo‘llagani, bu qo‘llanishlar qanday o‘zgarigani aniqlanadi. Masalan, shahar va qishloq hududlarida so‘zlashish tarzlarining o‘zgarib borishi, kishilarning bir til yoki dialektdan boshqasiga qanday o‘tgani, til siyosatining qanday shakllangani, tilga ijtimoiy munosabatning qay tarz o‘zgarishi o‘rganiladi. Bu yondashuvda tarixiy manbalar, matnlar asosida ish ko‘riladi, til o‘zgarishining lisoniy jihatlari sotsial, siyosiy va madaniy omillar bilan bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Masalan, “falonchi aka” shaklida murojaat qilish odatining “o‘rtoq falonchiyev”, “falonchi falonchiyevich”ga o‘zgarishi, keyin yana “falonchi aka” tarzida murojaat qilishga o‘tilishi dinamikasi diaxron sotsiolingvistik tahlil orqali aniqlanadi.

DIFFUZIYA [*lot.* diffusio – tarqalish, yoyilib ketish] Sotsiolingvistikada: jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida yaqin qarindosh tillarning bir-biridan leksik, grammatik yoki talaffuz shakllarini o‘zlashtirish jarayoni; so‘z, talaffuz tarzi, grammatik shakl va boshqalarning bir hududiy, ijtimoiy yoki etnik guruhdan boshqasiga tarqalishi. Bunday diffuz holatlar muntazam tillar ta’sirlashuvida yuzaga keladi, ya’ni odamlar o‘zaro muloqot qilgani sari til unsurlari bir guruhdan boshqasiga o‘zlashadi. Bunda qarindosh tillar egalarining yonma-yon yashashi yoki ijtimoiy-madaniy aloqalarining izchilligi asosiy omil bo‘lib

xizmat qiladi. Ko'pincha siyosiy nufuz, madaniy ta'sir, ta'lim tizimi yoki OAV bu jarayonni tezlashtiradi. Sotsiolingvistika diffuziya tildagi o'zgarishlarning qanday omillar ta'sirida va qanday tezlikda tarqalishini ko'rsatib beradi.

Qiyos: so'z o'zlashtirish.

DIGLOSSIYA [*yun.* δυο – ikki + γλωττα – til] 1. Shaxsning bir tilning ikki yashash shaklida so'zlasha olishi, nutqiy vaziyat taqozosi bilan bir til shaklidan ikkinchi til shakliga erkin o'tib ketishi. Masalan, Toshkent shevasida gapirayotgan shaxs beixtiyor o'zi tug'ilib o'sgan hudud shevasida so'zlasha boshlaganda yoki shahar shevasida so'zlayotgan kishi qishloq shevasida gapira boshlaganda diglossiya namoyon bo'ladi. Sotsiolingvistikada bir tilning ikki yashash shaklidan foydalanishni diglossiya sifatida tushunish, shu tarzda bilingvizmdan farqlash ma'qul ko'riladi. Amerikalik tilshunos Ch.Fergyson bu atamani til egalarining muloqot paytida bir tilning ikki shaklidan foydalanish hodisasiga nisbatan qo'llagan.

Qiyos: individual ikkitillilik.

2. Ko'ptillilik muhitida shakllanadigan noteng ikkitillilik. Bunda odatda bir til yuridik maqomli, boshqasi huquqiy maqomsiz, biri umumqo'llanishli, boshqasi tor qo'llanishli bo'ladi. Masalan, Fransiyaning sobiq mustamlakalarida fransuz tili juda tor doirada (kam sonli ziyolilar orasida) ishlatiladigan, rasmiy maqomsiz yordamchi til sifatida qo'llanadi, aksincha, aholining asosiy qismi so'zlashadigan milliy tillardan biri asosiy til sifatida amal qiladi. Bu ma'noda ikkitillilik atamasiga sinonim bo'ladi.

Qiyos: milliy ikkitillilik.

DIN TILI 1. *ayn.* vahiy tili.

2. *ayn.* diniy til.

DINIY TABU Muayyan diniy aqida yoki e'tiqodga ko'ra, biron-bir narsani yeyish-ichish, u yoki bu xatti-harakatni qilish-qilmaslikka qo'yilgan taqiq, cheklov. Masalan, islom dini amal qiladigan jamiyatda cho'chqa go'shtini yeyish, aroq

ichish tabulangan. Sotsiolingvistika shunday tabu natijasida tilda paydo boʻladigan soʻz va iboralarni oʻrganadi. Masalan, oʻzbek jamiyatida ham aroq ichish sharʻan man qilingani uchun til egalari orasida uning nomini yashirin atashdek tutum, “oqsoqol”, “oq choy”, “obizamzam”, “qurib ketkur”, “anavi” singari ifodalar shakllangan.

Qarang: etnik tabu, sotsial tabu, lisoniy tabu.

DINIY TIL Diniy yoʻriqlar bayon etiladigan, tushuntiriladigan, shuningdek, diniy asarlar yoziladigan til. Hozirgi kunda bunday til vazifasini koʻplab tillar bajaradi. Tillarning bunday vazifani bajarishga qodirlashishi shu tilda diniy faoliyat yuritadigan, diniy masalalarni tushuntiradigan mutaxassislar xizmati bilan boʻladi. Shu jihatdan oʻzbek tilining diniy til vazifasini bajarishga qodirlashishida oʻzbek tilli ulamolarning xizmati katta. Diniy arkonlar qaysi tilda yaratilgan boʻlsa, diniy tilda oʻsha til oʻzlashmalari uchraydi. Oʻzbek diniy tilida arabiy ifodalarning koʻpligi shu bilan bogʻliq.

Qiyos: din tili 1.

DIPLOMATIK TIL 1. *ayn.* diplomatiya tili.

2. Muayyan subyektiv munosabat birmuncha yumshatilgan tarzda yoki kosa tagida nimkosa qabilida ifodalanadigan til, ehtiyotkor, muloyim, aniqligi yuqori va siyosiy jihatdan muvozanatli boʻlgan rasmiy muloqot shakli. Rasmiy uslubi yaxshi rivojlangan, iqtisodiy-siyosiy terminologiyasi shakllangan tillar bunday til vazifasini bajara oladi. U soʻzlarni sinchkovlik bilan tanlash, ziddiyatdan qochish, neytral ohangni saqlash va har bir iboraning koʻp maʼnoli talqinini oldindan hisobga olish orqali ajralib turadi.

Qiyos: diplomatiya tili. **Qarang:** rasmiy til, boshqariladigan muloqot sohalari.

DIPLOMATIYA TILI [*fr.* diplomatie < *yun.* diploma – ikki buklangan qogʻoz varagʻi + tili] Davlatlararo munosabatlar va siyosiy muzokaralar amalga oshiriladigan, shunday munosabatlar ifodasi boʻlgan diplomatik

hujjatlar rasmiylashtiriladigan til. Mazkur atama diplomatiyada xalqaro qonunchilikka muvofiq bir yoki bir necha tilning ma’lum bir huquqiy maqomini bildiradi. Bunday maqom tilga xalqaro munosabatlarda ishlatilish imkonini beradi. Xalqaro tashkilotlar o‘z faoliyat xarakteridan kelib chiqib, diplomatiya tilini rasmiy va ishchi til sifatida belgilaydi. Masalan, YXHT faoliyatida ingliz, ispan, italyan, nemis, rus, fransuz tillari rasmiy va ishchi tillar sifatida tanlangan.

Qiyos: diplomatik til 2. **Qarang:** boshqariladigan muloqot sohalari.

DISFEMIYA [*yun.* dys – yomon, salbiy + phēmí – so‘zlam, aytmoq] Muayyan narsa-hodisa, belgi-xususiyat yoki harakat-holat haqidagi tushunchani ijtimoiy-lisoniy qoidalar qo‘pol va dag‘al deb baholaydigan, madaniylik quyushqoniga nomuvofiq deb hisoblaydigan tarzda ifodalash, shunday qo‘llashdan iborat nutqiy hodisa. Masalan, kundalik ijtimoiy munosabatlarda *yoshi katta*, *yoshi ulug‘* deyilishi mumkin bo‘lgani holda *qari* so‘zini qo‘llash disfemiya. U g‘azab, nafrat, kamsitish yoki kinoyali nutqda ko‘p uchraydi. Disfemiya sotsiologiyada tilning ijtimoiy chegaralari, etik me‘yorlari va ijtimoiy guruhlarda farqli qo‘llanishini tahlil qilish maqsadida o‘rganiladi.

Qiyos: evfemiya.

DISFEMIZM Muayyan narsa-hodisa, belgi-xususiyat yoki harakat-holat haqidagi tushunchani ijtimoiy-lisoniy qoidalarga zid, dag‘al va madaniylik quyushqoniga nomuvofiq ifodalaydigan so‘z va iboralar. Masalan, o‘zbek jamiyati homilador ayolga nisbatan *bo‘g‘oz* so‘zini qo‘llashni ijtimoiy-lisoniy me‘yorlarga zid deb biladi. Tilshunoslikda bu tushuncha *defemizm* deb ham ataladi. Disfemizm kishini tahqirlash, kamsitish, obro‘sizlantirish kabi maqsadlarda qo‘llanadi. Disfemizm shaxs yoki til jamoasining madaniyatlilik darajasini ham ko‘rsatadi.

Qiyos: evfemizm.

DISKURS [*lot.* dis – tarqalish, ajralish + *currere* – yugurmoq, harakat qilmoq] Jamiyat aʼzolarining ijtimoiy, madaniy, aqliy, ruhiy xususiyatlari voqelanadigan, shaxs yoki jamoaga xos sotsiomadaniy yoki etnomadaniy jihatni namoyon etadigan matn, nutq akti. Agar nutq sotsiomadaniy yoki etnomadaniy kontekstni namoyon etmasa yoki ijtimoiy-madaniy kontekstsiz voqelansa, uni diskurs deb boʻlmaydi. Odatda diskurs ijtimoiy shartlangan boʻladi, shu bois sotsiolingvistikasi matn diskursiv tuzilishining ijtimoiy omillari qiziqtiradi. Ayniqsa, siyosiy mazmunli diskurslarni sotsiolingvistik jihatdan oʻrganish dolzarblashmoqda.

Qarang: ijtimoiy omillar, sotsiomadaniy omillar, etnomadaniy omillar.

DIVERGENSIYA [*yun.* dis- / di- ikki, ikkita + *lot.* *vergere* – yoʻnalmoq, egilmoq] 1. Jamiyat hayotining muayyan davrida til egalarining bir-biridan hududiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan uzoqlashishi tufayli ular qoʻllab kelgan til shakllari (masalan, shevalari)ning ham bir-biridan uzoqlasha, kuchli farqlana borishi. Jamiyat hayoti bilan jips bogʻliq bu jarayon bir milliy til (hududiy dialektlarning divergensiyasi) doirasida ham, turli tillar oʻrtasida ham kuzatiladi. Lisoniy divergensiya jarayonlari keyinchalik tilning mustaqil idiomlarga boʻlinishi yoki mustaqil tillarning shakllanishiga olib keladi. Masalan, yagona sharqiy slavyan-qadimgi rus tili (XIV–XVI asrlar)dan rus, ukrain, belorus tillari yuzaga kelgan va bugun ham bu tillar oʻrtasida divergensiya tobora rivojlanmoqda.

Qiyos: konvergensiya 1, 2.

2. Muloqot jarayonida soʻzlovchilarning yoki ulardan birining oʻztil xususiyatlarini ataylab saqlab qolish yoki yanada ajratib koʻrsatish orqali ijtimoiy masofani taʼkidlash, masalan, bir guruh yoshlarning kattalar bilan ataylab oʻzlariga xos jargon ishlatib gaplashishi. Bu orqali suhbatdoshlararo ijtimoiy masofa namoyon etiladi, norozilik bildiradi yoki oʻz guruhiga xoslik taʼkidlanadi. Masalan, qashqadaryolik kishi qoʻqonlik

kishi bilan suhbatda atay o‘z shevasida so‘zlab, o‘zining hududan begonaligini bildiradi. Yoki yoshlardan iborat guruh kattalar bilan muloqotda kattalarga tushunarli tilda emas, balki ataylab o‘ziga xos sleng yoki jargonlardan foydalanadi. Masalan, “U bola realda zo‘rroq!” kabi.

Qiyos: konvergensiya 3.

DUALINGVIZM [*lot.* dualis – ikki, juft + lingua – til + izm – holat, tizim ifodalovchi qo‘shimcha] Passiv bilingvizm sharoitidagi muloqot, shunday muloqot natijasida namoyon bo‘ladigan nutqiy hodisa. Bunda so‘zlovchi va tinglovchi bir-birining fikrini tushunadi, ammo suhbatdoshning tilida muloqot qila olmaydi, suhbatdoshlar uchun umumiy til bo‘lmaydi. Muloqot ishtirokchilarining har biri o‘zining ona tilida so‘zlaydi. Dualingvizmning tipik ko‘rinishi odatda qarindosh tillarning tarqalish chegaralarida uchraydi. Masalan, o‘zbeklar va qoraqalpoqlarning o‘z tillarida so‘zlashishi shunday hodisani yuzaga chiqaradi.

Qiyos: ikkitillilik, diglossiya.

DUNYO TILI *ayn.* jahon tili.

DUNYO TILLARI *ayn.* jahon tillari.

E

EGALLANGAN IKKITILLIK Shaxs yoki jamoaning o‘z ona tilida savodi chiqib bo‘lgandan keyin aniq maqsadda, ijtimoiy zarurat sababli ikkinchi tilni ham o‘zlashtirishi natijasida yuzaga keladigan bilingvizm. Ko‘pincha ta‘lim, ish, migratsiya yoki til siyosati ta‘sirida shakllanadi. U tillar qo‘llanishidagi funksional farq va ikkinchi tilni tanlashda psixologik ta‘sirning mavjudligi, maishiy-ijtimoiy ustuvorligining har xilligi bilan izohlanadi. Sotsiolingvistikada bu tushuncha lisoniy layoqatlilik, madaniy moslashuv va til siyosatining samaradorlik darajasini tahlil qilishda muhim hisoblanadi.

Qiyos: tabiiy ikkitillilik.

EKOLINGVISTIK MONITORING [ekolingvistik + *lot.* monēre – eslatmoq, diqqatni jalb qilmoq, ogohlantirmoq] Muayyan mamlakat yoki uning biror hududidagi til vaziyatining ahvoli, ko‘ptillilik sharoitida mavjud tillarning qo‘llanishi, yashashi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlarning yaratilganligi, til soffligi va u bilan bog‘liq boshqa masalalarning belgilangan parametrlarga muvofiqligini o‘rganib borish. U til muhitidagi o‘zgarishlar, xavf ostidagi tillarning himoyalaniishi, madaniy xilma-xillikni aniqlash va himoya qilishga ham yo‘naltiriladi. Bu jarayon turli hududlardagi til vaziyatlarini baholash va tillarni asrashga qaratilgan amaliy choralarni ishlab chiqishda muhim xulosalarni beradi.

Qarang: ekolingvistika.

EKOLINGVISTIK MUVOZANAT Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida amal qiluvchi til(lar)ning sofflik va u bilan bog‘liq holatlarning belgilangan talablarga muvofiqligi, lisoniy vaziyatning talab darajasida ekanligi, jamiyatda turli tillarning tabiiy, barqaror va teng huquqli yashashi ta‘minlan-

gan til holati. Tilda chet soʻzlar haddan ortiq koʻpayib, til sofligiga putur yetganda ekolingvistik muvozanat buziladi. Bunda adolatli til siyosati, koʻptillilikni qoʻllab-quvvatlovchi taʼlim tizimi va tillarga xolis ijtimoiy munosabat koʻrsatish orqali muvozanat tiklanadi.

Qarang: ekolingvistika.

EKOLINGVISTIKA [yun. οίκος – uy, turar joy + fr: – linguistique – tilshunoslik] Tillarning bir-biriga taʼsirini oʻrganish, lisoniy rang-baranglikni saqlab qolish, mahalliy tillarning yoʻqolib ketishining oldini olish kabi masalalarni oʻrganadigan tilshunoslik sohasi. Ekolingvistika tilshunoslikdagi ijtimoiy, psixologik va falsafiy tendensiyalar chorrahasida shakllangan fan sohasi hisoblanadi. Mazkur atama 1985-yilda fransuz tilshunosi K.Ajej tomonidan taklif qilingan. Bu soha ekologik lingvistika ham deyiladi.

Qarang: til ekologiyasi.

EKSPERIMENTAL SOTSIOLINGVISTIKA Sotsiolingvistikaning til va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni tajriba asosida oʻrganadigan boʻlimi. Unda soʻrovnomas usuli, intervyu, kuzatish va test sinovi orqali kishilarning turli ijtimoiy vaziyatlarda tildan foydalanish tarzlari, u yoki bu tilni tanlashi sabablari, nutqdagi oʻzgarishlarga qanday omillar taʼsir koʻrsatishi boʻyicha sotsiolingvistik materiallar toʻplanadi va tahlil qilinadi. Masalan, Oʻzbekistonda oʻzbek va rus tillariga munosabatni oʻrganish uchun turli ijtimoiy guruhlar orasida soʻrov oʻtkazish eksperimental tadqiqotdir. Eksperimental sotsiolingvistika til va jamiyat munosabati boʻyicha nazariy xulosalarni tasdiqlash, til siyosati yoki taʼlim tilini belgilash boʻyicha amaliy asoslangan takliflarni tayyorlash uchun ishonchli maʼlumotlarni beradi.

Qarang: amaliy sotsiolingvistika.

EKZOETNONIM [yun. exo – tashqarisi, sirti; tashqari, tashqarida, tashqaridan + ethos – qabila, elat, xalq + onyma – nom, ism] Alloetnonimning kengroq shakli boʻlib, bir etnik guruhga tashqi (koʻpincha geografik yoki madaniy jihatdan

uzoqda joylashgan) guruhlar yoki xalqlar tomonidan berilgan nomni anglatadi. Ekzoetnonimlar mustamlakachilik, savdo yoki boshqa global aloqalar natijasida shakllanadi. Masalan, Vengriya Respublikasida yashovchi mojar xalqning o‘zbek tilida *venger* atalishi ekzoetnonim hisoblanadi yoki “o‘zbek” xalqi uchun o‘rta asrlarda xitoy manbalarida ishlatilgan “huo-xian” yoki arablar tomonidan forslar va umuman arab bo‘lmagan xalqlarga nisbatan “ajam” kabi nomlar ekzoetnonim hisoblanishi mumkin.

Qiyos: alloetnonim.

EKZOTIK LEKSIKA Bir xalq turmush tarziga xos bo‘lgani holda boshqa xalqlar uchun g‘alati, g‘ayrioddiy hisoblangan narsa-hodisalar nomlarining jami. Ekzotik leksika ifodalaydigan tushunchalar uni qabul qilayotgan xalq turmush tarzi uchun yangi bo‘lganligi, xalq konseptual va lisoniy manzarasini boyitganligi sababli jamiyat a‘zolarida bu tip nomlarni o‘zlashtirishga nisbatan ijtimoiy toqatsizlik kam seziladi. Til tarixida *islom, muslim, zakot, ramazon* singari leksemalar, hozirgi o‘zbek tilida *mandarin, banan, apelsin, kivi* kabi so‘zlarning ommalashib ketishida shu omil muhim bo‘lgan.

Qarang: so‘z o‘zlashtirish.

EKZOTIZM [*yun. exo* – tashqarisi, sirti; tashqari, tashqarida, tashqaridan + *fr.* – isme – termin yasovchi qo‘shimcha] Boshqa millat yoki madaniyatga xos, g‘ayrioddiylik semasiga ega bo‘lgan so‘z, ibora; o‘z holicha, ya’ni tarjima qilinmay bir tilga kiritilgan ifodalar. Masalan, *kimono, sari, sushi, shi, jungli* kabilar. Vaqt o‘tishi bilan ekzotizmlardagi g‘ayrioddiylik semasi xiralashishi, unutilishi mumkin. Ekzotizmlar madaniy ta’sir, tillararo ta’sirlashuvni o‘rganishda muhim sotsiolingvistik manbadir.

Qarang: so‘z o‘zlashtirish.

EKZOTOPONIM [*yun. exo* – tashqarisi, sirti; tashqari, tashqarida, tashqaridan + *topos* – joy, o‘rin + *onyma* – nom, ism] Allotoponimning kengroq shakli bo‘lib, bir joy nomiga tashqi (ko‘pincha geografik yoki madaniy jihatdan uzoqda

joylashgan) guruhlar yoki xalqlar tomonidan berilgan nomi anglatadi. Masalan, asli “Beijing” bo‘lgan Xitoy poytaxti o‘zbek tilida *Pekin* atalishi, asli “Mojariston” ataladigan davlat nomining *Vengriya* atalishi ekzotoponimga misol bo‘ladi. Ekzotoponimlar uni qabul qilgan tilning fonetikasiga jiddiy moslashtiriladi.

Qiyos: endotoponim.

ELITA TILI [*fr.* élite – tanlangan, eng yaxshi qism + tili]

1. Jamiyatning yuqori ijtimoiy qatlami vakillari qo‘llaydigan, madaniy, siyosiy yoki iqtisodiy qudrat bilan bog‘liq bo‘lgan til ko‘rinishi. Odatda uslubiy xoslangan so‘z va iboralarga boyligi, ba‘zan xorijiy so‘zlarning ko‘p ishlatilishi bilan ishchilar qatlami tilidan ajralib turadi. Elita tili vazifasini biron-bir milliy til ham, rasmiy til ham yoki ikkinchi til ham bajarishi mumkin. Masalan, Buxoro amirligida fors-tojik tili, sobiq ittifoq davrida rus tili elita tili vazifasini bajargan.

Qiyos: akrolekt.

2. Nutqiy madaniyatning eng oliy qo‘llanish shakli. Bunday til umumadabiy me‘yorlarga benuqson rioya qilinishi, leksik-semantik boyligi, uslubiy-grammatik ishlanganligi, ilmiy dalillanganligi, mantiqiy rasoligi kabi sifatleri bilan ajralib turadi. Elita tili ko‘pincha rasmiy nutqlarda, siyosiy liderlarning chiqishlarida, yuqori darajada professionallik ta‘minlangan ilmiy ma‘ruzalarda kuzatiladi.

Qarang: jargon.

EKZOGLOSS VAZIYAT [*yun.* exo – tashqi, tashqarisi, sirti + glossa – til, lahja, so‘z + vaziyat] *ayn.* ko‘p tilli lisoniy vaziyat.

ENDOETNONIM [*yun.* endo – ichki, ichida, ichkarida + ethos – qabila, elat, xalq + onyma – nom, ism] Etnik o‘zlikni anglash jarayonida kishilarning o‘z etnosiga bergan nomi. Masalan, nemislarning o‘zlarini “Deutsch” deb atashi. Endoetnonimning yuzaga kelishi shu xalqda etnik o‘z-o‘zini anglash boshlanganligini ko‘rsatadi. Endoetnonimlar milliy o‘zlikni anglash, o‘zaro birdamlik saqlashda muhim. Ular ko‘pincha xalq tili, tarixi va an‘analari

bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Sotsiolingvistikada endoetnonimlar xalqning o‘zini qanday ko‘rishi va boshqa etnoslardan farqlanishini o‘rganishda ahamiyatli.

Qiyos: alloetnonim.

ENDOGLOSS VAZIYAT [*yun.* endo – ichki, ichida, ichkarida + glossa – til, lahja, so‘z + vaziyat] *ayn.* bir tilli lisoniy vaziyat.

ENDOTOPONIM [*yun.* endo – ichki, ichida, ichkarida + topos – joy, o‘rin + onyma – nom, ism] Muayyan joyning o‘sha yerda doimiy yashaydigan mahalliy aholi tomonidan ishlatiladigan nomi. Masalan, qo‘qonlik aholi o‘zlari yashaydigan shaharni Qo‘qon deb atashi. Endotoponim ilmiy atama sifatida geografik obyektning asl, mahalliy shaklini anglatadi. Odatda tarixiy-madaniy va lisoniy o‘ziga xoslikka ishora qilib turadi.

Qiyos: ekzotoponim.

ERKAKLAR NUTQI 1. Faqat erkak kishilar ishtirokida amalga oshadigan muloqot, erkak kishilarning monologik va dialogik suhbat shakli. Sotsiolingvistika va unga yondosh tilshunoslik sohalarida erkaklar nutqi ayollar nutqiga qarama-qarshi qo‘yib o‘rganiladi. U sotsiolingvistik jihatdan ijtimoiy maqom, rol, madaniy stereotiplar bilan bog‘liq, ko‘pincha qat‘iy ruhi, buyruq ohangli, qisqa va lo‘nda bo‘lishi hamda emotsional ifodalarning kamligi bilan tavsiflanadi. Erkaklar nutqini o‘rganish til va gender munosabatlarini tahlil qilishda muhim.

Qarang: tilning gender farqlanishi, diskurs.

2. Erkak jinsiga mansub shaxslar nutqida qo‘llanishga xoslangan, ayollar nutqida ishlatilishi ijtimoiy cheklangan so‘z va iboralar, sintaktik qurilmalar. Masalan, o‘zbek tilida jargon so‘zlar, argotik iboralar, noadabiy leksika, texnik terminologiyadan odatda erkaklar ko‘p foydalanadi, bunday nutqda ular erkin qo‘llanadi, ijtimoiy yoki etnik cheklovlar yo‘q. Ayrim tillarda bu xususiyat tizimli ko‘rinish oladi. Ba‘zi xalqlarda bu nutq shakli tilning jins bo‘yicha ijtimoiy tabaqalanishi asosida yuzaga chiqadi, shunga ko‘ra erkaklar va ayollar nutqi ayricha grammatik shakllanadi.

Qiyos: ayollar nutqi.

ESKI YOZUVLAR Ma'lum bir xalq tilini yozma shaklda ifodalash uchun uzoq tarixiy davr davomida ishlatilgan, ammo hozirda faol qo'llanmayotgan yozuv tizimlari. U tilning fonetik va grammatik xususiyatlariga mos holda shakllangan bo'lib, ko'pincha madaniy, diniy yoki siyosiy ta'sirlar asosida qaror topgan. Masalan, arab yozuvi o'zbek tilida IX asrdan – XX asrning 30-yillarigacha keng qo'llangan. Bu yozuv tizimi diniy (islomiy) ta'sir bilan kirib kelgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan xalq tili va madaniyatini yozma tarzda ifodalash va saqlashda markaziy o'rin tutdi. Sotsiolingvistik jihatdan eski yozuvlar jamiyatdagi savodli qatlamlar – ulamolar, adiblar, davlat mulozimlari orasida keng tarqalgan va bu orqali til nafaqat og'zaki, balki yozma madaniyat sifatida ham rivojlandi. Shuningdek, eski yozuvlar xalq og'zaki nutqini yozuvga moslashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan, aynan shu orqali xalq tilining tarixiy shakllari, dialektlari hamda leksik boyligi hujjatlashtirilgan.

Qiyos: qadim yozuvlar.

ESKI YOZUVLI TILLAR Eski va qadim yozuvli tillar o'rtasidagi farq ularning lingvistik tomoniga ko'ra emas, o'sha yozuv tizimining paydo bo'lish vaqtiga asosan belgilanadi, ammo aniq belgilangan vaqt chegarasi yo'q. Shunday bo'lsa ham sotsiolingvistik adabiyotlarda X–XI asrlardan XIX asr oxirigacha shakllangan yozuvlar eski yozuv, shunday yozuvli tillar eski yozuvli tillar hisoblanadi. Sotsiolingvistikada tillarning bu jihatiga lisoniy bunyodkorlik jarayonlarini tavsiflash, yozuvining paydo bo'lish vaqtidan kelib chiqib tillarni tasniflashda e'tibor beriladi.

Qiyos: yosh yozuvli tillar, yangi yozuvli tillar.

ESPERANTO [*esper.* esperi – umid qilmoq] 1887-yilda polshalik ko'z shifokori L.L.Zamenhof tomonidan yaratilgan sun'iy til. Esperanto tili leksikasi ko'plab Yevropa davlatlari adabiy tillarida keng tarqalgan yunon-lotin so'zlari asosida

shakllantirilgan. Esperanto tilining grammatik qurilishi juda sodda, u morfologiya va soʻz yasashning 16 qoidasidan iborat. Shu bois boshqa sunʼiy tillarga qaraganda koʻproq ommalashgan.

Qarang: sunʼiy til.

ETNIK BIRLIK Muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit va hududda umumiy kelib chiqish, madaniyat, til, diniy eʼtiqod va urf-odat mushtarakligi asosida vujudga kelgan, oʻzini yagona etnos sifatida anglaydigan etnik uyushma. Fanda etnik birlik shakllanishining qabila, elat va millat bosqichi farqlanadi. Baʼzan xalq elat va millat tushunchalariga tenglashtiriladi, ammo elat va millat etnik tarkibni aniq ifodalaydi. Etnik birliklar jamiyatdagi madaniy xilma-xillikni taʼminlaydi va oʻz tillari, adabiyoti va anʼanalari orqali milliy boylikka hissa qoʻshadi.

Qiyos: sotsial birlik.

ETNIK GURUH 1. Muayyan maʼmuriy-siyosiy makonda istiqomat qiladigan katta etnosning keyingi tarixiy jarayonlarda parchalanib, ajralib ketishidan yuzaga kelgan milliy jamoa. Bir etnik guruh ikkinchi etnik guruhdan shevasi, yashash tarzi, madaniyati kabilar bilan farqlanadi, guruhdoshlarini umumiy til, din, urf-odat, tarixiy kelib chiqish asosida birlashtiradi. Masalan, qozoq etnosi ichidagi urugʻlar bunga misol boʻla oladi.

Qiyos: diaspora.

2. Migratsiya natijasida hududiy jihatdan birlashgan, ammo etnik oʻzlik, til, madaniyat va etnik hayot tarzini saqlab qolgan etnosning bir qismi. Masalan, Rossiyadagi nemislar, Latviyadagi ruslar. Bu maʼnoda *etnik guruh* atamasi odatda kichik millatlar vakillariga nisbatan qoʻllanadi. Etnik guruh umumiy kelib chiqish, mushtarak madaniyat, tegishli tarixiy tajriba va yagona milliy oʻzlik egasi boʻlgan jamoa sifatida mavjud boʻladi. Etnik guruhda ham til omili muhim, ammo yagona belgilovchi jihat emas.

Qiyos: lisoniy jamoa, lisoniy hamjamiyat.

ETNIK KO‘PCHILIK Muayyan mamlakatda yashovchi xalqlar ichida ko‘pchilikni tashkil qiladigan etnos. Masalan, O‘zbekiston sharoitida o‘zbeklar etnik ko‘pchilikdir. Respublika Statistika qo‘mitasining 2021-yilgi ma’lumotiga ko‘ra, o‘zbeklar mamlakat aholisining asosiy qismi (29,2 mln. kishi)ni tashkil etadi. Ayrim mamlakatlarda bir necha xalq etnik ko‘pchilik hisoblanadi. Belgiya aholisining 60 %ini flamandlar, 40 %ini vallonlar tashkil qilgani sababli flamandlar hamda vallonlar etnik ko‘pchilik bo‘la oladi.

Qiyos: etnik ozchilik.

ETNIK KO‘PCHILIK TILI Muayyan mamlakatda yashovchi xalqlar ichida ko‘pchilikni tashkil qiladigan etnosning tili, son jihatidan ustun bo‘lgan etnik guruhning asosiy muloqot vositasi. Masalan, O‘zbekiston sharoitida o‘zbek tili etnik ko‘pchilik tilidir. Ayrim mamlakatlarda ikki va undan ortiq til etnik ko‘pchilik tili bo‘lishi mumkin. Belgiyada flamand hamda vallon tillari etnik ko‘pchilik tili hisoblanadi. Sotsiolingvistikada etnik ko‘pchilik tilining jamiyatdagi til siyosati, ijtimoiy integratsiya, til o‘zgarishi va etnik guruhlararo muloqotdagi o‘rni, boshqa tillarning holatiga ta’siri, ularni siqib chiqarishi yoki assimilyatsiya qilishi muammolari o‘rganiladi.

Qiyos: etnik ozchilik tili.

ETNIK MANSUBIYAT Shaxsning muayyan elat yoki millat vakili ekanligini ko‘rsatadigan, o‘zi va o‘zi kabilarni biologik, madaniy, tarixiy va ijtimoiy jihatdan mushtarakligini bildiradigan va ko‘pincha qanday tilda so‘zlashishiga ko‘ra farqlaydigan xususiyati. Etnik mansubiyat, odatda, umumiy til, urf-odat, din, milliy qadriyatlar va tarixiy xotira asosida shakllanadi. Kishining ijtimoiy mansubligi o‘zgarishi mumkin, ammo etnik mansublik barqaror bo‘ladi. Sotsiolingvistikada ko‘p millatli jamiyatlarda til tanlovi, muloqot uslubi, milliy-madaniy o‘zlikni anglash va tillararo munosabatlarni tahlil qilishda muhim tushuncha.

Qiyos: lisoniy mansubiyat.

ETNIK OZCHILIK O‘zining asosiy qism millatdoshlari yashaydigan ma‘muriy-siyosiy hududdan tashqarida yashaydigan, atrofidagi boshqa xalqlardan sezilarli kam bo‘lgan va etnomadaniy jihatdan qolgan aholidan farq qiladigan milliy jamoa. Ko‘p millatli davlatdagi titul millat aholisi miqdoridan kam bo‘lgan har qanday etnik guruh etnik ozchilik hisoblanmaydi. Demokratik davlatlarda etnik ozchiliklarning huquqlari, shu jumladan, milliy tili va madaniyatini rivojlantirish huquqi qonunan himoyalanaadi. Xalqaro huquqda ham etnik ozchiliklar tili va madaniyatini saqlab qolish nazarda tutilgan.

Qiyos: titul millat.

ETNIK OZCHILIK TILI O‘zining asosiy qism millatdoshlari yashaydigan ma‘muriy-siyosiy hududdan tashqarida yashaydigan, atrofidagi boshqa xalqlardan son jihatidan sezilarli kam bo‘lgan va etnomadaniy jihatdan qolgan aholidan farq qiladigan milliy jamoa tili. U minoritar til tushunchasidan faqat demografik quvvatining kamligiga ko‘ra baholanishi bilan farq qiladi. Misol uchun, Andijon viloyatining ayrim tumanlari aholisining ozchilik qismi qirg‘iz tilida so‘zlashadi. Shunga ko‘ra bu yerda qirg‘iz tili etnik ozchilik tili hisoblanadi. Bunday tillar odatda rasmiy maqomga ega bo‘lmaydi, cheklangan ijtimoiy sohalarida (oila, mahalla, diniy marosimlar) ishlatiladi va davlat tili yoki ko‘pchilik tili ta‘sirida bo‘ladi.

Qiyos: minoritar til.

ETNIK OZCHILIKLAR TILI FESTIVALI Har yili Gallivare shahrida Shvetsiyadagi kichik tillar vakillarini birlashtirish maqsadida o‘tkaziladigan tadbir. Ushbu festivalni o‘tkazish g‘oyasi 2018-yilning oxirida birinchi marta milliy ozchilikni tashkil qilgan etnos vakillarini o‘z ona tillarida badiiy chiqishlar qilish, mahorat darslari o‘tish va qo‘shiqlar aytishidan boshlangan. Gallivare shahri Shvetsiyadagi eng ko‘p kichik tillar qo‘llanadigan hudud bo‘lganligi uchun ayni festival shu yerda o‘tkazilishi odat bo‘lib qolgan.

Qarang: xalqaro ona tili kuni.

ETNIK STEREOTIPLAR [etnik + *yun.* stereos – qattiq, barqaror, o‘zgarimas + typos – iz, naqsh, qolip; zarb] Muayyan xalq haqida jamiyatda shakllangan umumiy, jo‘n va ijtimoiy ongda chuqur o‘rnashib qolgan tasavvurlar. Ular ko‘pincha ma‘lum xalqning xulqi, fe‘l-atvori yoki turmush tarzi haqidagi standart fikrlardan iborat bo‘ladi. Masalan, o‘zbeklar tafakkurida “nemislar – tartibli va tartibni sevadigan xalq”, “ruslar – haqiqatni yaxshi ko‘radigan xalq” tarzidagi tasavvurlar bor. Ammo bu hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Etnik stereotiplar jiddiy va katta voqealar sababli o‘zgarib turadi.

Qiyos: muloqot xulqi stereotiplari.

ETNIK TABU Muayyan millatning tarixiy taraqqiyoti davomida etnik omillarga ko‘ra u yoki bu ishni qilish-qilmaslik yuzasidan shakllangan taqiq, cheklov. Masalan, bir urug‘dan kelin olish, supurgini tik holatda qo‘yish kabilar etnik tabular hisoblanadi. Etnik tabu bilan bog‘liq ifodalardan kishilarning tilning sirli kuchiga ishonishidek odat sezilib turadi.

Qarang: ibtidoiy tabu, diniy tabu, ijtimoiy tabu.

ETNIK TIL Shaxs yoki jamoa mansub bo‘lgan elat, millatning ona tili. Masalan, o‘zbeklar uchun o‘zbek tili, tojiklar uchun tojik tili, qozoqlar uchun qozoq tili bu xalqlarning etnik tillaridir. Bunday til kichik etnik jamoalarni o‘z atrofida birlashtirib, katta millatning tiligacha bo‘lgan taraqqiyot jarayonlaridan o‘tadi. U nafaqat muloqot vositasi, balki shu xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, urf-odatlarini, dunyoqarashi va milliy o‘zligining ifodasi hisoblanadi. Bunday til orqali ajdodlardan avlodlarga qadriyatlar va tajribalar uzatiladi. Etnik til etnik o‘zlikni anglashning zaruriy shartlaridan biridir. Shu sababli etnik tillarni asrab-avaylash va rivojlantirish har bir xalqning madaniy merosini saqlashda muhim.

Qiyos: ona tili, birinchi til.

ETNIK O‘ZLIK Kishilarning o‘zini muayyan etnik guruh yoki millatga mansub deb bilishi, shaxsning o‘ziga bog‘liq

bo‘lmagan holda elatining madaniy, tarixiy, lisoniy va ijtimoiy xususiyatlari bilan bog‘langanligi. Masalan, o‘zbek etnik o‘zligi o‘zbek tili, o‘zbek urflari, o‘zbek taomlari va boshqa qadriyatlariga bog‘langanlikdir. U shaxsning o‘z etnik guruhi yoki elatining urf-odati, an‘analari, qadriyatlari, tili, dini va boshqa xos belgilari orqali o‘zini tanish hamda tanitish vositasidir. Etnik o‘zlik ko‘p millatli jamiyatlarda yoki migratsiya sharoitida odamlarga madaniy merosini saqlab qolishda yordam beradi.

Qarang: etnik o‘zlikni anglash.

ETNIK O‘ZLIKNI ANGLASH Etnos vakillarining o‘z etnogenezisini bilishi, o‘z eliga xos til, madaniyat, urf-odatlar, din va tarixiy ildizlarni aqlan-ruhan his qilishi. Etnik o‘zlik insonning bolalik davridan boshlab shakllanadi, avval oilada, keyin maktab, jamiyat va ommaviy axborot vositalari ta‘sirida mustahkamlanadi. Masalan, o‘zini o‘zbek bilgan inson millatini o‘zbek deb tan oladi, o‘zbek tilida so‘zlashadi, o‘zbek urf-odatlariga amal qiladi.

Qiyos: milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy o‘zlikni anglash.

ETNOGENEZ [*yun.* ethos – qabila, elat, xalq + genesis – tug‘ilish; kelib chiqish, paydo bo‘lish] Muayyan makon va tarixiy sharoitda ma‘lum bir xalqning kelib chiqishi, nasl-nasabi bilan paydo bo‘lishi. Masalan, o‘zbek etnogenezi deganda o‘zbek etnosining urug‘-qabilachilik davrlaridan boshlab etnos sifatida shakllanib bo‘lgunigacha bo‘lgan jarayon tushuniladi. “Etnogenez” tushunchasi fanga XX asrning 20-yillarida N.Y.Marr tomonidan kiritilgan.

Qiyos: filogenez.

ETNOGRAFIK GURUH Muayyan etnos (elat yoki millat) tarkibidagi kichik jamoa. U o‘ziga xos dialektal xususiyatlari, xo‘jalik faoliyati, turmush tarzi, urf-odati, oshxona madaniyati kabilar bilan boshqa etnografik guruhlardan farqlanadi. Etnografik guruh odatda bir qabila, elat yoki millatning boshqa hududga ko‘chib borib ikkinchi bir qabila, elat yoki millat bilan aralashib yashab ketishi natijasida

yuzaga keladi. Masalan, XX asrning 20-yillarigacha quramalar o'zbek xalqi tarkibida etnografik guruh bo'lgan.

Qiyos: etnolema, sotsiolema.

ETNOGRAFIYA [*yun.* ethos – qabila, elat, xalq + grapho – yozaman] 1. Xalqlarning kelib chiqishi, tarkibi, joylashishi, turmush tarzi, urf-odat va an'analari, rasm-rusumlari, moddiy, ma'naviy va ijtimoiy madaniyatini o'rganadigan fan sohasi. U antropologiya va jamiyatshunoslikning bir qismi sifatida ellarning moddiy va ma'naviy madaniyatini, ijtimoiy munosabatlarini ham o'rganadi. Etnografiya tilshunoslik bilan ham bog'liq, tilshunoslik etnografik materiallarga asoslanib etnolingvistik xulosalar chiqaradi.

Qiyos: dialektologiya.

2. Biror xalqning yoki muayyan hududdagi xalqlarning madaniyati, turmushi, urf-odat va an'alarining jami, majmuyi.

Qarang: etnografizm.

ETNOGRAFIZM [*yun.* ethos – qabila, elat, xalq + grapho – yozaman + *fr.* - isme – termin yasovchi qo'shimcha] Muayyan hududga, shu hudud vakillarining turmushiga xos bo'lgan, boshqa hudud kishilari turmushida uchramaydigan narsa-hodisalarning, milliy an'ana va urf-odatlarining nomlari. Masalan, *beshikkerti, kiryuvdi, maslahatoshi, sabziarchar, yuzochdi, kelinsalom, kuyovnavkar* kabilar. Etnografizmlar xalqning juda cheklangan madaniy o'ziga xosligini ifodalovchilari sifatida adabiy tilga kiradi. Ayrim etnografizmlar faqat hudud yoki etnik guruh so'zlari bo'ladi, ya'ni milliy miqyos kasb etmaydi.

Qiyos: etnografiya.

ETNOLEKT [*yun.* ethos – qabila, elat, xalq + lectos – nutq, so'zlashuv] 1. Muayyan hududda yashovchi etnik guruh yoki jamoaga xos tilning o'ziga xos shakli yoki varianti, shu etnik guruhlarining etnik mansubiyatini ko'rsatadigan aloqa vositasi. Etnolektga xos fonetik, leksik, grammatik yoki uslubiy xususiyatlar etnik guruhning madaniy, ijtimoiy va tarixiy o'ziga xosligini aks ettiradi. Etnolekt dialekt, jargon yoki sot-

siolekt tushunchalari bilan mohiyatan yaqin, ammo etnik identifikatsiyani aniq ifodalashi bilan ulardan farqlanadi.

Qiyos: akrolekt, bazilekt.

2. Titul millat tilining migratsiya sharoitida yashovchi etnik guruhlar qoʻllaydigan mustaqil koʻrinishi. Koʻpincha fonetik, leksik, grammatik va uslubiy meʼyorlarga amal qilinmasligi bilan titul millatning standart tilidan farq qiladi. Masalan, Germaniya turklari soʻzlashadigan nemis tili etnolekt maqomida, u Germaniya turklari qoʻllaydigan nemis tili varianti. *Etnolekt* termini birinchi marta AQSH sotsiolingvistikasida Nyu-Yorkning Buffalo shahrida yashovchi yevropalik migrantlar qoʻllaydigan ingliz tiliga nisbatan ishlatilgan.

Qiyos: diaspora tili.

3. Koʻptillilik sharoitida yashovchilar oʻrtasida muloqot vositasi vazifasini bajaradigan umumiy til. Masalan, koʻp millatli Dogʻiston ellari rus xalqi bilan birga rus tilining Dogʻiston etnolektidan foydalanadi va rus tilining bu etnolektik koʻrinishi undan foydalanuvchilarning ona tiliga aylanib boʻlgan. *Etnolekt* atamasi bu maʼnoda *tilning etnik varianti* atamasiga maʼnodosh boʻladi.

Qiyos: sotsiolekt.

ETNOLEMA [*yun.* ethos – qabila, elat, xalq + ema – tilshunoslikda lisoniy birlik nomini bildiradigan qoʻshimcha] Sotsiolingvistikada: qayerda va qanday ijtimoiy-tarixiy sharoitda yashashidan qatʼi nazar, etnik mansubligiga koʻra birlashuvchi, ayni paytda bir millatga mansubligi jihatidan boshqa millat vakillaridan farqlanuvchi til egalari. Etnolema bu maʼnoda etnik birlik tushunchasiga teng keladi, biroq etnik birlik bir ijtimoiy-tarixiy sharoitga aloqadorligi jihatidan etnolemadan farq qiladi.

Qiyos: sotsialema.

ETNOLINGVISTIKA [*yun.* ethos – qabila, elat, xalq + *fr.* linguistique – til haqidagi fan] Tilning etnik guruhlarining madaniyati, tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayotidagi oʻrnini

o'rganadigan, tilshunoslik va etnografiya fanlari ta'sirlashuvida shakllangan soha. U tilni muloqot vositasi sifatida emas, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va etnik o'ziga xosligini aks ettiruvchi madaniy kod sifatida tadqiq qiladi. Etnografizmlar, etnolektlar, tillar ta'sirlashuvi va til jamoalarining boshqa xususiyatlarini xalqning tarixi va madaniy mero-siga oid materiallarni jalb qilgan holda o'rganadi.

Qiyos: sotsiologiyatika.

ETNOLISONIY ASSIMILYATSIYA [etnolisoniy + *lot.* *assimilatio* – o'xshatish, qiyos, tenglashtirish] Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ta'sirlar sababli kam sonli xalqlarning o'z etnik tillarini yo'qotib, katta xalqlar tarkibiga singib ketishi. Bunday jarayon birdaniga bo'lmaydi, u boshqa etnik yoki milliy xususiyatlarning qisqarib borishi, etnik tilning qo'llanishdan qola boshlashi fonida yuz beradi va etnosning o'z milliy qiyofasini yo'qotishi bilan yakunlanadi. Mutaxassislar Rossiya hududida yashagan merya xalqi va uning tilini rus xalqi va tili tarkibiga qo'shib ketishini etnolisoniy assimilyatsiya hisoblaydilar.

Qiyos: tilning o'lishi.

ETNOLISONIY JAMOA O'zlarining tarixiy vatanidan tashqarida yashayotgan, vatani hamda vatandoshlari bilan tiliga ko'ra bog'langan, etnik tilini o'zi kabilar bilan muloqot vositasi sifatida ishlatishda davom etayotgan kishilar guruhi. Ularning zich yashashi, miqdoran ko'pligi, ona tilida muloqotning muntazamligi, etnik mansubiyati va tilidan og'rinmasligi kabilar bu jamoani tutib turuvchi, avlodlararo uzilishdan saqlovchi omillardir. Markaziy Osiyodagi koreys etnolisoniy jamoasining katta va kichik avlodi orasidagi uzilish ayni jihatlarning saqlanmagani sababli ro'y bergan.

Qarang: tilning hayotiyliigi, diaspora, etnik guruh.

ETNOMATN Bir millatga mansub kishilarning o'z o'tmishi, kundalik hayoti, e'tiqodi, urf-odati, an'ana va qadriyatlarini, bayramlari haqidagi muloqotida xotira yoki mulohaza shaklida namoyon bo'ladigan xulosalari. Et-

nomatn uni voqelantiruvchi kishining etnik mansubiyati, milliy-madaniy o'zligini ko'rsatadigan ishoralarsiz mavjud bo'lmaydi. Masalan, o'zbeklarning beshikto'yi haqidagi suhbatlarida bu to'y bilan bog'liq xulosalarning bir uchi o'zbek xalqi, o'zbekchilik tushunchalariga borib tutashadi.

Qarang: etnonimika, etnonim, etnotoponim.

ETNONIM [*yun.* ethos – qabila, xalq + onyma – nom, ism] Muayyan etnik birlikka shu etnos vakillari tomonidan uning etnik kelib chiqishini ko'rsatib turish, boshqa etnik birliklardan farqlash maqsadida berilgan nom. Masalan, o'zbek, qozoq, qirg'iz etnonimlari ularning etnik mansubligini bildirib turadi, ayni paytda, boshqa turkiy va turkiy bo'lmagan etnik birliklardan farqlaydi. Etnos va etnonimning bir xilligi xalqning etnik o'zligini anglaganini ko'rsatadi.

Qiyos: alloetnonim.

ETNONIMIKA [*yun.* ethos – qabila, elat, xalq + onyma – nom + ike – fan sohalari nomini yasovchi qo'shimcha] Tilshunoslikning xalq, qabila va boshqa etnik uyushmalarning nomlarini – etnonimlarni o'rganadigan bo'limi. U etnik birlashmalar nomlarining kelib chiqishi, shakllanishi, qo'llanishi va ularning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o'rnini tahlil qiladi. Tilshunoslik, etnografiya va tarix fanlari bilan bog'liq.

Qarang: etnonim.

ETNOS [*yun.* ethos – qabila, elat, xalq] Kishilar jamoasi-ning ma'lum bir tarixiy davr va ijtimoiy tuzumda tarkib topgan alohida barqaror etnik uyushmasi. Etnos etnografik jihatdan "xalq" ma'nosini anglatadi, ammo xalqqa qaraganda aniq tushunchadir. Masalan, o'zbek etnosi, qirg'iz etnosi kabi. Etnoslar rivojlanish bosqichlariga ko'ra urug'lar, qabilalar, xalqlar va millatlar tarzida farqlanadi. Har bir etnos o'ziga xos etnik yoki etnoijtimoiy belgilarga ega va ularning eng muhimlaridan biri tildir. Shu ma'noda o'zbek tili o'zbek etnosining madaniy va tarixiy o'zligini shakllantiruvchi, mustahkamlovchi va ifodalovchidir.

Qarang: etnik belgi.

ETNOSENTRIZM [*yun.* ethos – qabila, elat, xalq + *lot.* centrum – markaz + *fr.* -isme – termin yasovchi qo‘shimcha] Shaxs yoki jamoaning o‘z e‘tiqodi, an‘ana va urf-odatlarini boshqa xalqlarning e‘tiqod tizimlari, ijtimoiy axloqi va urf-odatlaridan ustun qo‘yishi, boshqalar etnomadaniyatini o‘z etnomadaniyatidan kelib chiqib baholashi, o‘z milliy an‘analarini boshqa milliy an‘analar uchun standart deb bilishiga asoslangan qarashi. U ko‘pincha ijtimoiy kelishmovchilik, murosasizlik, kamsitishga sabab bo‘ladi. Shuningdek, insonda o‘z madaniyatiga nisbatan g‘urur va sadoqat tuyg‘usini ham shakllantiradi.

Qarang: lisoniy kamsitish.

ETNOTSID [*yun.* ethos – qabila, elat, xalq + *lot.* caedere – o‘ldirmoq] Kichik etnik jamoa(lar)ning alohida etnos sifatida mavjudligini titul millat bilan majburiy assimilatsiya qilish yo‘li bilan tugatishga qaratilgan siyosat. Etnotsid genotsiddan farqli ravishda etnik guruhning jismoniy yo‘q qilinishi emas. Bunday siyosat natijasida etnik o‘ziga xosliklar: til, madaniyat, din va boshqalar barham topadi. U odatda mustamlakachilik, totalitar tuzum yoki millatchilik siyosati natijasida yuzaga keladi. Bolalarni o‘z tillarida o‘qitishga taqiqlar qo‘yish, diniy marosim va an‘analarni bekor qilish, tarixiy yodgorliklarni buzish yoki ularni boshqa madaniyatga aylantirish kabilarda namoyon bo‘ladi.

Qarang: etnosentrizm.

EVFEMIYA [*yun.* eu – yaxshi + *phemia* – gapiraman] Jamiyatda barqarorlashgan ijtimoiy-lisoniy qoidalarga ko‘ra, qo‘pol, dag‘al va madaniylik quyushqoniga nomuvofiq deb topilgan tushunchalarning nomi o‘rnida ijtimoiy-lisoniy qoidalarga muvofiq ko‘rilgan so‘z va iboralarni qo‘llash, shunday qo‘llashdan iborat nutqiy hodisa. Evfemiya insonlar o‘rtasida hurmat, ehtirom va ehtiyotkorlik bilan muloqot qilishga asoslanadi. Mazkur nutq shaklida kamsituvchi yoki qo‘pol ifodalar yumshatiladi, siyosiy va rasmiy nutqda esa ijtimoiy keskinlik kamaytiriladi. Evfemiya nafaqat nutqiy hodisa, balki jamiyatning ijtimoiy-lisoniy madaniyati darajasini ham ko‘rsatadi.

Sotsiolingvistika uchun evfemiyaning ana shu tomonlari muhimroq.

Qiyos: disfemiya.

EVFEMIZM [*yun.* eu – yaxshi + *phemia* – gapirman + *fr.* -isme – termin yasovchi qo‘shimcha] Jamiyatda barqarorlashgan ijtimoiy-lisoniy qoidalarga ko‘ra, qo‘pol, dag‘al va madaniylik quyushqoniga nomuvofiq deb topilgan tushunchalarning nomi o‘rnida ijtimoiy-lisoniy qoidalariga muvofiq qo‘llanadigan so‘z va iboralar. Masalan, o‘zbek jamiyatida *bo‘g‘oz* so‘zi o‘rnida qo‘llanadigan *og‘iroyoq*, *homilador* so‘zlari evfemizmlardir. Ba‘zan evfemizmlar haqiqatni yashirish yoki yumshatish uchun ishlatilganda muammoning noaniq ifodalanishiga olib keladi. Shu bois evfemizmlarni o‘rinli va maqsadga muvofiq ishlatish lozim.

Qiyos: disfemizm.

F

FAN TILI Ilmiy tadqiqot uchun zarur tushunchalarni ifodalay oladigan, ilmiy terminologiyasi shakllangan, ilm-fan natijalari va yutuqlarini yoritish va ommalashtirishga qodirlashgan til shakli. Har qanday milliy tilning bunday xususiyatga sohibligi adabiy me'yorlarining ishlab chiqilishi, yangi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish uchun derivatsion tizimi rivojlangan bo'lishi kerak. Fan tili olimlar, talaba-yoshlar singari ijtimoiy guruhlarining muloqoti samaradorligini ta'minlaydi, ilmiy tafakkurni shakllantiradi. Fan tili ta'lim olishda, kasbiy ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Qiyos: adabiy til, davlat tili, til vazifalarining kengayishi.

FAOL IKKITILLILIK 1. Bilingvning ikkinchi tilni ham ona tilidek tushunishi, ikkinchi tildagi har qanday matlarni mustaqil tahlil qilish malakasiga egaligi bilan tavsiflanadigan individual ikkitillilik turi. Masalan, talaba darsda ingliz tilida ta'lim olsa, ammo uyda o'zbek tilida gaplashsa, umuman, ikkala tildan turli ijtimoiy sharoitlarda to'g'ri va o'rinli foydalanasa, faol ikkitillilik hisoblanadi. Bunday xususiyatga sohiblik madaniyatlararo muloqotda qo'l keladi, shaxsni mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassisga aylantiradi.

Qiyos: nofaol ikkitillilik 1.

2. Ikkitillilik sharoitida yashovchi xalqlarning ona tili bilan birga boshqa tilni ham jamiyat hayotining barcha sohalarida erkin qo'llashi, butun jamiyat, etnik guruh yoki aholi qatlamining ikki tilni faol ishlatishidan iborat jamoaviy ikkitillilik ko'rinishi. Masalan, Kanadada ingliz va fransuz tillari rasmiy til bo'lib, davlat idoralari, maktablar va ommaviy axborot vositalari har ikki tilda faol ishlaydi. Bunday jamiyatda odamlar ikki tilda ishlashga, o'qishga va

yashashga o'rganib qolgan. Faol ikkittillilik noto'g'ri yo'nalishda rivojlansa, etnik assimilyatsiya, zaifroq tilning qo'llanishdan qolishi, yoshlarning ikkinchi tilga ko'proq moyil bo'lishi ona tiliga befarqlik kayfiyatini paydo qiladi.

Qiyos: nofaol ikkittillilik 2.

FAOL KALKA Yasalgandan keyin kalkalovchi xalq tilida ko'p va keng qo'llanadigan lisoniy birliklar. Masalan, rus tilidagi "международное сообщество" birligi *xalqaro hamjamiyat* shaklida, "уполномоченные государственные органы" birligi *vakolatli davlat organlari tarzida*, "институты гражданского общества" birligi *fuqarolik jamiyati institutlari* ko'rinishida hosil qilingan faol kalkalardir. Ularning faolligi, aslida, ifodalayotgan tushunchalarining hozirgi davrda dolzarb ekanligi bilan bog'liq.

Qiyos: nofaol kalka.

FILOGENEZ [*yun.* philos – sevuvchi, do'st + genesis – tug'ilish; kelib chiqish, paydo bo'lish] Muayyan tilning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanish jarayoni. Bu atamadan tilning paydo bo'lishi, uning evolyutsiyasi, turli tillar o'rtasidagi qarindoshlik aloqalari va ularning umumiy ildizlardan rivojlanishini o'rganishda foydalaniladi. *Filogenez* atamasi ostida tilning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi evolyutsiyasi ham tahlil qilinadi. Masalan, hind-yevropa tillarining umumiy prototildan hind-yevropa kontekstida kelib chiqishi filogenez nuqtayi nazaridan o'rganilishi mumkin.

Qiyos: etnogenez. **Qarang:** ontogenez, til evolyutsiyasi.

FONETIK INTERFERENSIYA Biron-bir xorijiy til-da so'zlayotgan shaxsning o'z nutqida o'sha til fonologik sistemasiga xos bo'lmagan nutq tovushlarini (ko'pincha ona tilidagi tovushlarni) qo'llab yuborishi, ona tiliga xos urg'ulash usulidan foydalanishi kabi ta'sirlar. Fonema, so'z urg'usi va intonatsiya bilan bog'liq interferensiyalar ko'pincha aksent sifatida qabul qilinadi. Bu tur interferensiya shaxsning ona tili yoki etnik til talaffuz tarzining

uning lisoniy qobiliyatiga chuqur o‘rnashib ketganligi sababli yuzaga chiqadi.

Qiyos: leksik-semantik interferensiya, grammatik interferensiya.

FRANKOFONIYA [*lot.* francus – franklar, fransuzlar + *yun.* phone – ovoz, tovush] Fransuz tilidan dunyo miqyosida foydalanilishini bildiradigan, uni ona tili yoki rasmiy til sifatida ishlatadigan jamoalarni birlashtiradigan atama. Sotsiolingvistikada fransuz tilida so‘zlashadigan kishilar *frankofonlar* deyiladi. *Frankofon davlatlar* atamasi fransuz tili amal qiladigan mamlakatlarni anglatadi. Ular nafaqat Fransiya, balki fransuz tilli Afrika, Kanada, Belgiya va boshqa mintaqalardagi jamoalar bilan ham bog‘liq.

Qarang: dunyo tillari, tilning funksional quvvati.

FRANSUZ-GITI KREOLI Fransuz mustamlakachiligi davrida (taxminan XVII–XVIII asrlarda) Gaiti oroli mahalliy aholisi tilining fransuz tili bilan aralashuvi natijasida shakllangan gibrid til. Turli tillarda so‘zlashuvchi afrikaliklarning fransuz mulkdorlari bilan muloqot qilish ehtiyoji ayni kreol tilni yuzaga keltirgan. U o‘zida fransuz va mahalliy aholi tili xususiyatlarini namoyon etadi, ammo afrika tillari, ispan hamda ingliz tillaridan ham muayyan unsurlarni olgan. Fransuz-giti kreoli Gaiti Respublikasining rasmiy tillaridan biridir.

Qiyos: ispan-nauatal kreol tili.

FRANSUZ SOTSIAL TILSHUNOSLIK MAKTABI

Fransuz jamiyatshunoslarining tilning ijtimoiy xoslanganligi g‘oyalari ta’sirida XIX asrning oxirlarida E.Dyurkxeym, A.Doza, G.Tard, M.Kornexo, L.Levi-Bryuel, M.Breal, A.Meye, J.Vandriyes kabi olimlar atrofida shakllangan, lingvistik tadqiqotlarini jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan tilning ijtimoiy tuzilishi o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berish asosiga qurgan tilshunoslik yo‘nalishi. Fransuz fanida A.Meyegacha ham E.Dyurkxeym, A.Doza, G.Tard, M.Kornexo kabilarning bunday mazmundagi ishlari bo‘lsa ham A.Meye tilning ijtimoiy tabiati muammosini

lingvistik faoliyatining asosi qilib olganligi va lingvistik muammolarga shunday qarashni mahkam tutgan holda yondashganligi sababli bu maktabning asoschisi sifatida tarixda qoldi.

Qiyos: Amerika sotsiolingvistika maktabi.

FRAZEOLOGIK KALKA O'zga til frazeologik birligidan qismma-qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan ibora. Masalan, *panja orasidan qaramoq* iborasi ruscha "смотреть сквозь пальцы" frazeologizmini kalkalash natijasida hosil bo'lgan. Frazeologik kalkalar tillararo madaniy va lisoniy aloqaning mahsuli sifatida oluvchi tilning yangi iboralar bilan boyishiga hissa qo'shadi. Tarjima tilida tabiiy eshitila va anglana boshlashi uning yangi tilga o'zlashuv va moslashuv xususiyatini ko'rsatadi. Noto'g'ri yoki sun'iy frazeologik kalkalar til egalarida g'ayritabiiy yoki yot taassurot paydo qiladi.

Qiyos: lug'aviy kalka.

FUNKSIONAL FAOL TIL 1. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida keng va barqaror foydalanib kelayotgan, ayni paytda qo'llanish sohalarining birlamchi tili sifatida katta ijtimoiy buyurtmani o'ziga olgan til. Odatda bunday tillarning ijtimoiy vazifalari va qo'llanish doiralari muntazam kengayadi, boshqa tillar ko'proq shunday tillardan lisoniy birliklarni o'zlashtiradi. Muayyan tilning funksional faolligi mamlakat, mintaq va dunyo miqyosida belgilanadi. Masalan, hozirgi kunda O'zbekistonda funksional faol til o'zbek tili, jahon miqyosida funksional faol tillardan biri ingliz tilidir.

Qiyos: funksional nofaol til, rasmiy til, davlat tili.

2. Bilingv hayoti va faoliyatida ko'p foydalanadigan, bilingvning asosiy muloqot vositasi bo'lgan til. Bunday til vazifasini ko'pincha ona tili yoki birinchi til bajaradi, ammo bilingvning yashash, ishlash sharoiti o'zgarganda vaziyat talabi bilan u biladigan boshqa til funksional faol tilga aylinishi mumkin. Masalan, oilaviy munosabatlar va boshqa no-

rasmiy sohalarda ona tili funksional faol til vazifasini bajarsa, bilingvning ish faoliyatida ikkinchi til faol til vazifasini oladi.

Qiyos: asosiy til, ona tili, ikkinchi til.

FUNKSIONAL IKKITILLILIK Shaxs tomonidan ikki tilning turli ijtimoiy vazifalar va kontekstlarda maqsadga muvofiq holda qo'llanish holati. Masalan, oilada ona tilidan, chet elliklar bilan muloqotda yoki faqat ishlab chiqarish sohasida asosan ikkinchi tilidan foydalanishi funksional ikkitillilikni namoyon etadi. O'zbekistonda ayrim oilalarda bolalar uyda rus tilida, maktabda esa o'zbek tilida so'zlashadi. Hindistonda kishilar hind tilini kundalik hayotda, ingliz tilini esa rasmiy va akademik sohalarda ishlatishi ham funksional ikkitillilikka misol bo'ladi.

Qiyos: aralash ikkitillilik.

FUNKSIONAL KONVERGENSIYA Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida kishilar qo'llab kelgan tillar bajaradigan o'xshash kommunikativ vazifalar sonining ortishi, shunday jarayondan iborat lisoniy hodisa. Bu borada mutaxassislar litva va polyak tillari funksional konvergentsiyasini litva tilining funksional yuki ko'payishi natijasida bu til ishlatiladigan muloqot sohalari soni bo'yicha polyak tiliga yaqinlashishi bilan izohlaydilar.

Qarang: glottogonik konvergensiya.

FUNKSIONAL NISBIYLIK NAZARIYASI Amerikalik olim D.Xayms ilgari surgan qarash. Unga ko'ra, tillarning vazifalari nisbiy va ular sotsiomadaniy omillar bois o'zgarib turadi. Masalan, muayyan funktsiya nemis tilida leksik birlik orqali yuzaga chiqsa, ingliz tilida butunlay boshqa sath birligida namoyon bo'ladi. Agar Sepir-Uorf gipotezasidan "turli tillarda so'zlashuvchi kishilar tili tufayli olamni har xil ko'radi" degan hukm anglashilsa, D.Xayms nazariyasidan "lisoniy funktsiyani sotsiomadaniy omillar belgilaydi" degan xulosa kelib chiqadi.

Qarang: lingvistik nisbiylik nazariyasi.

FUNKSIONAL NOFAOL TIL 1. Bilingv hayoti va faoliyatida kam foydalaniladigan til. Bunday til vazifasini ko‘pincha ikkinchi til bajaradi. Ammo muhojirlikda yashayotgan yoki boshqa lisoniy muhitda faoliyat ko‘rsatayotgan shaxslar uchun vaziyat talabi bilan birinchi tili funksional nafaol tilga aylanishi mumkin. Oilaviy va boshqa maishiy munosabatlarda esa bilingvning ayni funksional nafaol tili faol tilga aylanadi. Yoki chet elda uzoq vaqt yashagan o‘zbek oilasining farzandlari uchun ham o‘zbek tili funksional nafaol til bo‘ladi. Shu bois ular o‘zbekcha nutqni tushunadi, biroq o‘zining funksional faol tilida (rus yoki ingliz tilida) javob beradi.

Qiyos: yordamchi til.

2. Davlat va jamiyat hayotida keng va muntazam qo‘llanmaydigan, katta ijtimoiy buyurtmani o‘ziga olmagan til. Odatda bunday tillar katta ijtimoiy vazifalarni bajarmaydi, qo‘llanish doiralari cheklangan bo‘ladi, ko‘proq kichik jamoalarda amal qiladi. Masalan, har qanday minoritar tilni funksional nafaol til hisoblash mumkin. Yoki Irlandiya va Uelsda mahalliy tillar rasmiy maqomli bo‘lgani, madaniy o‘zlikning ramzi hisoblanishiga qaramay, kommunikativ vosita sifatida zaiflashgani sababli fuqarolar ingliz tilidan ko‘proq foydalanadilar va bu ayni mahalliy tillarning funksional nafaolligini bildiradi.

Qiyos: funksional faol til, mahalliy til.

FUNKSIONAL SOTSIOLINGVISTIKA Tillar va ularning ichki yashash shakllarining o‘zaro ta‘sirini, tilning ijtimoiy kontekstdagi roli hamda vazifalarini, tilning turli ijtimoiy guruhlar, etnik jamoalar yoki madaniy muhitlarda qanday ishlatilishini, uning ijtimoiy, madaniy va siyosiy vazifalarini, shaxsning lisoniy ijtimoiylashuvi va uning nutqda tilning bir yashash shaklidan ikkinchi yashash shakliga o‘tishining sabablarini, shaxs ijtimoiy-nutqiy portretining shakllanishi singari masalalarni o‘rganadigan sotsiolingvistika bo‘limi. U diasporada til-

ning etnolekt sifatida qanday rivojlanayotgani, ko'p millatli davlatlarda til siyosatining etnik o'zlikka ta'siri masalalarini ham tadqiq qiladi.

Qiyos: eksperimental sotsiolingvistika.

JWX2676

JWX2678

G

GETEROGEN LISONIY JAMOA [*yun.* heteros – boshqa, oʻzga; har xil + genos – kelib chiqish, paydo boʻlish] Turli sotsiolingvistik parametrlar (masalan, til, yosh, taʼlim darajasi, etnik mansubiyat) boʻyicha farqlanadigan shaxslardan tashkil topgan guruh. Masalan, bir muassasa xodimlari tarkibi tili, yoshi, taʼlim darajasi va etnik kelib chiqishi boʻyicha turlicha boʻlishi mumkin. Geterogen lisoniy jamoa koʻp tilli yoki koʻp madaniyatli muhitda shakllanadi, unda turli tillar (masalan, Oʻzbekistonda oʻzbek, rus, tojik tillari), dialektlar yoki nutq shakllari birgalikda mavjud boʻladi.

Qiyos: gomogen lisoniy jamoa.

GETEROGEN TIL VAZIYATI Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida kelib chiqishi har xil tillarning amal qilishidan iborat lisoniy holat. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Kabardin-Balqar Respublikasida rus, kabardin va qorachoy-bolqor tillarining qoʻllanishi geterogen til vaziyatini koʻrsatadi. Bunday til vaziyati etnik, tarixiy, siyosiy, madaniy omillar natijasida shakllanadi. Tillarning ijtimoiy maqomi, ishlatilish doirasi va vazifasi bir xil boʻlmaydi.

Qiyos: gomogen til vaziyati.

GETEROMORF TIL VAZIYATI [*yun.* heteros – boshqa, oʻzga; har xil + morphe – shakl] Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida morfologik yoki tipologik jihatdan nooʻxshash (masalan, biri flektiv, boshqasi agglutinativ) tillarning amal qilishidan iborat lisoniy holat. Masalan, Oʻzbekistonda oʻzbek tili – agglutinativ turkiy til; rus tili – flektiv slavyan tili; tojik tili – flektiv eroniy tillarning amal qilishi shunday til vaziyatini yuzaga keltiradi. Yoki AQShda ingliz, nemis, fransuz singari

har xil guruhga mansub flektiv tillar bilan birga polisintetik indeys tilining qoʻllanishi ham geteromorf til vaziyatini yuzaga keltiradi.

Qiyos: gomomorf til vaziyati.

GLOBAL TIL [*lot.* globus – shar, Yer shari] Xalqaro muloqot tili vazifasini bajarishga qodirlashgan, butun dunyo boʻylab insoniyat hayotining turli faoliyat sohalarida qoʻllanayotgan, koʻplab davlatlarda rasmiy yoki ikkinchi til sifatida ishlatiladigan til. Ingliz tili eng kuchli global til mavqeyiga ega boʻlayotgan tildir. Shuningdek, ispan, xitoy, arab tillari ham xalqaro biznes, diplomatiya, ilmiy tadqiqotlar, taʼlim va ommaviy axborot vositalarida asosiy aloqa vositasi boʻlib xizmat qilayotganligi sababli global til hisoblanadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va sunʼiy intellekt global tilning tarqalishini tezlashtiradi, uni yanada geterogenlashtiradi. Global tillarning keng yoyilishi lisoniy xilma-xillikni himoya qilish ishini ham dolzarblashtiradi.

Qarang: til imperializmi.

GLOBALLASHUV Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy va texnologik jarayonlarning jahon miqyosida oʻzaro aloqadorlik kasb etishi, dunyo davlatlarining shunday bogʻliqlik sharoitida faol integratsiyalashish jarayoni. Bu jarayon mamlakatlar, xalqlar va jamoalar oʻrtasidagi chegaralarni nisbiylashtirib, axborot, tovarlar, xizmatlar, gʻoyalar va madaniyatlarning erkin harakatlanishiga olib keldi. Globallashuv til, etnik oʻzlik va madaniyatga ham taʼsir qiladi. Masalan, global tillarning mahalliy tillarga faol taʼsiri natijasida ularni sof saqlash, yashovchanligini taʼminlash muammolarini keltirib chiqardi. Oʻzbekiston sharoitida globallashuv jarayonlari oʻzbek tiliga xorijiy soʻzlarning koʻplab kirib kelishi, yoshlar orasida ommaviy madaniyatning tarqalishida sezilmoqda.

Qarang: global til.

GLOTTOFAGIYA [*yun.* glotta – til, lahja; soʻz + phagos – yeyuvchi, yeb yuboruvchi] Maʼlum bir iqtisodiy-siyosiy

sharoitda o‘zaro ta’sirlashuvda bo‘lgan ikki tildan birining boshqasi ta’sirida siqib chiqarilishi yoki bir tilning ikkinchi til tarkibiga singib ketishi. Glottofagiya muayyan tilning qo‘llanishdan to‘xtab, o‘lik tilga aylanish jarayonidan oldingi holatida ham kuzatiladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasidagi hozirgi teleut tili glottofagiya jarayonini boshdan kechirmoqda, chunki u har jabhada rus tilining kuchli ta’siri ostida qo‘llanishdan qolmoqda.

Qiyos: tillarning o‘lishi, til ijtimoiy vazifalarining torayishi.

GLOTTOGONIK KONVERGENSIYA [yun. glotta – til, lahja; so‘z + konvergensiya] O‘zaro qarindosh va noqarindosh bir necha tilda leksik, morfemik va uslubiy farqlarning kamayib, umumiy, ma’lum ma’noda, o‘xshash jihatlarning shakllanishi. Bu jihatdan sotsiolingvistikada kontakt lisoniy konvergensiya va substrat lisoniy konvergensiya farqlanadi. Kontakt lisoniy konvergensiya ikki va undan ortiq tilning uzoq muddatli ta’sirlashuvi natijasida yuzaga kelsa, substrat lisoniy konvergensiya konvergent tillar (tarixiy taraqqiyot davomida birlashib ketgan ikki til) uchun umumiy bo‘lgan substrat asosida shakllanadi. Glottogonik lisoniy konvergensiyaning Bolqon tillari ittifoqi misolida ko‘rish mumkin.

Qarang: funksional konvergensiya.

GOMOGEN LISONIY JAMOA [yun. homos – teng, bir xil; o‘zaro, umumiy] Muayyan ijtimoiy jihati bilan farqlanmaydigan va bir tilda ish yuritadigan kishilar guruhi. Masalan, bir sinfda o‘qiyotgan bolalar yoshi, ma’lumotlilik darajasi, etnik mansubligiga ko‘ra bir xil bo‘lishi, bitta tildan foydalanishi mumkin. Gomogen lisoniy jamoa ko‘pincha cheklangan ijtimoiy muhitda, masalan, maktab guruhlari, mahalliy jamoalar yoki bir xil madaniy muhitda shakllanadi. Bu jamoalar tilning bir xil shakli (masalan, standart o‘zbek tili yoki mahalliy dialekt)dan foydalanadilar.

Qiyos: geterogen lisoniy jamoa.

GOMOGEN TIL VAZIYATI [yun. homos – teng, bir

xil; o‘zaro, umumiy + genos – kelib chiqish, paydo bo‘lish] Muayyan ma‘muriy-siyosiy makonda, asosan, bitta til yoki tilning bir shakli (masalan, adabiy til yoki dialekt) amal qiladigan muhit. Bunday til vaziyati ko‘pincha bir etnik guruh yoki kichik ijtimoiy jamoaga xos bo‘ladi. Masalan, O‘zbekistonning ko‘plab qishloqlarida faqat o‘zbek tilining mahalliy dialekti ishlatiladi. Bunday muhitda tilning bir xilligi ijtimoiy va madaniy birlashuvni mustahkamlashga yordam beradi, ammo tilning boshqa shakllari yoki tillarning qo‘llanishi cheklanishi mumkin.

Qiyos: geterogen til vaziyati.

GOMOMORF TIL VAZIYATI [*yun.* homos – teng, bir xil; o‘zaro, umumiy + morphe – shakl] Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida morfologik va tipologik jihatdan o‘xshash tillarning amal qilishidan iborat lisoniy holat. Bunday til vaziyatini bir til oilasi yoki bir morfologik tuzilishli tillar tashkil qiladi va ularning grammatik qurilishi o‘zaro yaqin bo‘ladi. Masalan, O‘zbekistonda o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman tillarining barchasi agglutinatív turkiy tillar, morfologik jihatdan o‘xshash. Slovakiyada chex va slovak tillari shunday xususiyatli. Shunga ko‘ra O‘zbekiston va Slovakiyadagi ayni tillar bilan bog‘liq holatni gomomorf til vaziyati hisoblash mumkin. Bunday vaziyatda lingvistik yaqinlik ijtimoiy va madaniy yaqinlikni ham mustahkamlaydi.

Qiyos: geteromorf til vaziyati.

GRAFIZATSIYA [*yun.* grapho – yozaman] Muayyan til uchun alifbo tanlash, shu tildagi tovushlar uchun harflar belgilash, tanlangan alifbo asosida imlo va tinish belgilari qoidalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq jarayon. Bu jarayonda tilshunos-mutaxassislarning xulosalariga asoslaniladi. Grafizatsiya tilning rasmiy hujjatlarda, ta‘limda yoki ommaviy axborot vositalarida qo‘llanishini ta‘minlashga yordam beradi va uning saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek tilining lotin yozuviga asoslangan alifboga o‘tishiga grafizatsiya jarayonining bir ko‘rinishi sifatida qaralishi mumkin. Bu ja-

rayon tilning yozma shaklini modernizatsiya qilish va global muhitga qo‘shilishiga yordam berdi.

Qarang: yozuv, yozuvli tillar, yozuvsiz tillar.

GRAMMATIK INTERFERENSIYA Chet tillardan birida so‘zlayotgan shaxs nutqida o‘sha tilga xos bo‘lmagan (odatda ona tiliga xos bo‘lgan) gap tuzish modellaridan beixtiyor foydalanilishidan iborat xatoliklar. Masalan, o‘zbek tili egalari rus tilida so‘zlayotganda ikkinchi darajali bo‘laklarni ega va kesim orasida qo‘llashi yoki gap egasini tushirib qo‘llashi o‘zbek tili ta‘sirida kelib chiqadigan grammatik interferensiyadir.

Qiyos: fonetik-fonologik interferensiya, leksik-semantik interferensiya.

GRAMMATIK ME‘YORLAR So‘z birikmasi, jumla va matnning to‘g‘ri tuzilishi, ularning sintaktik-semantik to‘g‘ri bog‘lanishini ta‘minlaydigan qoidalar. Morfologik va sintaktik normalardan tashkil topadigan bunday me‘yorlar jamiyat a‘zolari (ko‘pincha tilshunos)ning “nutq bunday yaratilsa, durust, nutq bunday yaratilsa, nodurust” qabilidagi munosabatini bildiradi. Jamiyatning grammatik me‘yorga nisbatan bunday munosabati yozma nutqda aniq seziladi.

Qiyos: leksik me‘yorlar.

GURUHLARARO IKKITILLILIK Ijtimoiy guruhlarining bir-biri bilan muloqotida ikki tilning amal qilishi; turli ijtimoiy, etnik guruhlar o‘rtasida muloqot zarurati bilan ikki tildan foydalanish holati. Bunday vaziyatda guruhlar o‘zlarining ona tilini bilgani holda ikkala tomon ham biladigan umumiy til (yetakchi, rasmiy, ko‘pchilik biladigan til)dan ham foydalanadilar. Masalan, O‘zbekiston sharoitida markazdagi tibbiyot muassasalari xodimlari o‘zaro muloqotda davlat tili bilan birga rus tilidan foydalanishi shunday ikkitillilikka misol bo‘ladi.

Qiyos: individual ikkitillilik.

H

HARBIY JARGON Harbiy xizmatchilar nutqiga xos boʻlgan, shu soha vakillari faoliyatida amal qiladigan, faqat ular uchun tushunarli harbiylashgan tushunchalarni anglatadigan soʻz va iboralar majmuyi. Ular maxsus soʻzlar, qisqartmalar, kodlangan soʻz va iboralardan iborat boʻladi. Bunday lisoniy birliklar harbiy sohada tezkorlik, aniqlik va maxfiylikni taʼminlash uchun xizmat qiladi, koʻproq ogʻzaki nutqda qoʻllanadi. Masalan, “GP” – granata, “KP” – komandirlik punkti. Bu kabi birliklar harbiylarning ichki birdamligini mustahkamlash, shu bilan birga, boshqa faoliyat turlaridan maʼlum darajada ajralib turish vositasi hisoblanadi. Vaqt oʻtishi bilan ayrim harbiy jargonlar xalq ogʻzaki nutqiga ham oʻtadi.

Qarang: sotsiolekt, argo, sleng.

HARBIY TIL 1. Milliy tilning, asosan, harbiy faoliyatda qoʻllanadigan, yaʼni Qurolli kuchlar, mudofaa yoki harbiy operatsiyalar kontekstida ishlatiladigan maxsus shakli, terminologiyasi. U tilning boshqa yashash shakllari va koʻrinishlaridan qisqartmalar, maxsus iboralar va atamalarni oʻz ichiga olishi, harbiy xizmat, strategiya, taktika, qurol-yarogʻ yoki harbiy tashkilotlar bilan bogʻliqligi, sohaviy tushunchalarni qisqa ifodalashga moyilligi, qoliplashgan jummalarga, buyruq mazmunli murojaatlarga boyligi, nutq tempining tezligi, tembrining balandligi bilan xarakterlanadi.

Qiyos: diplomatik til.

2. *ayn.* harbiy jargon.

HUDUDIY DIALEKT Muayyan hudud aholisining tarixan shakllangan, kishilarning ijtimoiy-lisoniy ehtiyojlarini ifodalashda foydalanilayotgan va tilning eng keng tarqalgan yashash shakllaridan biri. U adabiy tildan fonetikasi, leksikasi, talaffuz tarzi, grammatikasining oʻziga xosligi bilan farq qiladi

va ko‘pincha ma‘lum bir viloyat, shahar yoki qishloqqa xos bo‘ladi. Milliy til dialektlardan rivojlanadi. Sotsiolingvistikada dialekt lisoniy jamoaga xizmat qilayotgan ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganiladi.

Qiyos: adabiy til, ijtimoiy dialekt.

HUDUDIY IKKITILLILIK Mamlakatning ma‘lum bir hududida ikki tilning amal qilishi, asosan, ona tili va ikkinchi tildan chegaralangan hududda foydalanilishi. Masalan, Samarqand shahrida o‘zbek va tojik tillaridan, Buxoroning ayrim tumanlarida o‘zbek va turkman tillaridan, Andijonning ayrim tumanlarida o‘zbek va qirg‘iz tillaridan, Chirchiq shahrida o‘zbek va qozoq tillaridan foydalanilishi hududiy ikkitillilikka misol bo‘ladi.

Qiyos: ommaviy ikkitillilik.

HUDUDIY RASMIY TILLILIK Muayyan tilning mamlakatning biron-bir viloyati yoki shahridagina rasmiy til maqomida bo‘lishi, ish yuritish tili sifatida amal qilishi. Hududiy rasmiy tillilik sharoitida, albatta, boshqa bir til mamlakatning umumiy rasmiy tili yoki davlat tili bo‘ladi. Masalan, Hindistonning ayrim shtatlari (G‘arbiy Bengaliyada bengal tili)da yoki Rossiyaning muxtor o‘lkalarida (Tataristonda tatar tili) hududiy rasmiy (davlat) tillari bor, ammo umumhindiston va umumrossiya miqyosida asosiy boshqa rasmiy til amal qiladi.

Qiyos: yagona rasmiy tillilik, qo‘sh rasmiy tillilik, ko‘p rasmiy tillilik.

HUDUDIY SO‘ZLASHUV TILI Muayyan sheva yoki dialekt vakillari kundalik muloqotda erkin foydalanadigan, o‘ziga xos dialektal me‘yorlar asosidagina amal qiladigan milliy til yashash shakllaridan biri. Bunday til shakli adabiy tildan farqli fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Qiyos: xalq so‘zlashuv tili.

HUQUQIY JARGON 1. Huquqni muhofaza qilish, jamoat xavfsizligini saqlash, sud-tergov faoliyati kabi sohalariga oid tushunchalarning adabiy tildagidan farqli muqobillari. Masalan, ichki ishlar organlari xodimlari nutqida *tadbir*

soʻzi “yakka boshchilik yoki markazlashgan tartibda kimnidir jinoyat ustida ushlab yoki jinoyatchilikning oldini olish maqsadida uyushtirilgan maxsus operatsiya”ni bildiradi.

Qiyos: argo, sleng.

2. Huquq sohasi mutaxassislari (advokat, sudya, yurist kabilar) tomonidan ishlatiladigan maxsus til shakli. U huquqiy atamalar, iboralar va konstruksiyalarga boy boʻladi hamda rasmiy hujjatlar, sud jarayonlari va professional muloqotda qoʻllanadi. Masalan, oʻzbek huquq tilida “hal qiluv qarori”, “de-yure”, “de-fakto” kabilar koʻp qoʻllanadi. Huquqiy jargonlar tilning ijtimoiy vazifalari, rasmiy qoʻllanish xususiyatlarini kengaytiradi.

Qiyos: maxsus leksika, sotsiolekt, biznes jargoni.

HUQUQIY MAQOMLI TIL Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida shu davlat yoki hudud qonunchiligiga koʻra, davlat yoki rasmiy til maqomiga ega til. Tillarning bunday maqomni olishi shu tillarga qonun hujjatlari, davlat boshqaruvi, taʼlim va boshqa sohalarda qoʻllanishda imtiyoz beradi, ijtimoiy vazifalari kengayadi. Odatda mamlakat aholisining asosiy qismi soʻzlashadigan til huquqiy maqom oladi. Oʻzbekiston sharoitida oʻzbek tili 1989-yili “Davlat tili haqida”gi Qonun bilan huquqiy maqom olgan va rasmiy hujjatlar, qonunlar, sud jarayonlari va taʼlimda asosiy til sifatida qoʻllanadigan boʻlgan.

Qiyos: huquqiy maqomsiz til.

HUQUQIY MAQOMSIZ TIL Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida shu davlat yoki hududning qonunchiligida davlat tili, rasmiy til yoki millatlararo muloqot tili singari maqomga ega boʻlmagan, rasmiy hujjatlar, davlat boshqaruvi yoki taʼlimda ishlatilishi qonunan belgilab qoʻyilmagan til. Odatda, huquqiy maqomsiz tillar mamlakat aholisining kamchilik qismi soʻzlashadigan minoritar tillar boʻladi. Til qonunchiligida ijtimoiy vaziyat, siyosiy tuzumning oʻzgarishi, bunday til egalarining ijtimoiy mavqeyi ortishi bilan huquqiy maqomsiz tillarga yuridik maqom berilishi kuzatiladi.

Qiyos: huquqiy maqomli til.

IBODAT TILI Alloh taologa ibodat qilish vaqtida imom-xatib va namozxon foydalanadigan til shakli. Bunday til shakli qaysi din vakili ekanligidan kelib chiqib har xil bo‘ladi. Masalan, musulmonlar arab tilida, yahudiy va xristianlar qadimgi yahudiy tilida ibodat qiladi. Bunday tillarning ayrimlari faqat ibodat paytida qo‘llanganligi sababli o‘lik tilga aylangan. Masalan, eski slavyan (slavyan cherkovi) tili pravoslav cherkovining asosiy tili sifatida ishlatilgan. O‘lik lotin tili g‘arbiy nasroniylik dini tili sifatida qo‘llanadi. Ba‘zan ibodat tili (masalan, ivrit tili) taraqqiy qilib, parallel ravishda boshqa sohalarda ham qo‘llanadi.

Qiyos: din tili, vahiy tili.

IBTIDOIY TABU Mifologik dunyoqarash, xurofiy tushunchalarga astoydil ishonish natijasida u yoki bu narsaning nomiga qo‘yilgan qadimiy taqiq. Masalan, tog‘lar nomini, ba‘zi qadimgi jamoalarda vafot etgan kishining ismini, muayyan marosimlarda “yomon” so‘zlarni ishlatishga qo‘yilgan taqiq kabilar ibtidoiy tabular hisoblanadi. Ibtidoiy tabular o‘zi anglatgan tushunchalar bilan birga unutilishi ham, boshqa tushunchalar shaklida yashab qolishi ham mumkin.

Qarang: etnik tabu, diniy tabu, sotsial tabu.

IDIOLEKT [*yun.* idios – o‘ziga xos + lektos – tanlangan] Alohida shaxsga xos lug‘aviy zaxira, lisoniy odat, uning nutqiga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar; muayyan shaxsga xos bo‘lgan tilning individual ishlatilish uslubi yoki shakli. U shaxsning so‘zlash tarzi, so‘z tanlash odatlari, talafuz xususiyatlari, iboralar va hatto o‘ziga xos lingvistik odatlarini o‘z ichiga oladi. Idiolekt shaxsning yoshi, ta‘lim darajasi, ijtimoiy muhiti, kasbi va shaxsiy tajribasiga qarab shakllanadi. Har bir insonning idiolekti o‘ziga xos va bu shaxsni boshqalar

nutqidan farqlab turadi. Masalan, kimdir “zo‘r” so‘zini ko‘p ishlatadi, yana kimdir “qoyil” degan ma‘nodoshini qo‘llashni afzal ko‘radi.

Qarang: sotsiolekt.

IDIOM [yun. ἰδιωμα – til, lahja] 1. Tabiiy tilning o‘zini ham, tilning iyerarxik tarkibini tashkil etadigan milliy til, adabiy til, dialekt, so‘zlashuv tili, professional leksika va boshqalarni ham o‘zida umumlashtiruvchi sotsiolingvistik tushuncha. Ilk bor 1967-yilda D.Brozovich tomonidan qo‘llangan bu atama hozirgi sotsiolingvistik tadqiqotlarda faol ishlatiladi.

Qarang: tilning yashash shakllari.

2. Muayyan hududdagi mahalliy aholi qo‘llaydigan til ko‘rinishi. Sotsiolingvistik jihatdan bu tur idiomlar tilning milliy madaniy boyligini, hudud aholisining dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini aks ettiradi.

Qarang: hududiy dialekt.

IJOBIY IJTIMOY BOG‘LIQLIK Ijtimoiy hayotda ro‘y beradigan o‘zgarishlarning shunday lisoniy o‘zgarishlarga aloqadorligi. Masalan, maktab ta‘limining yaxshilanishi bilan o‘quvchilarning adabiy tilni bilish darajasi ortishida namoyon bo‘ladi. Yoki jamiyatda yoshi ulug‘ kishilarning ko‘payishi dialektdan foydalanuvchilar sonining ko‘payishini ta‘minlaydi.

Qiyos: salbiy ijtimoiy bog‘liqlik.

IJTIMOY AXLOQ Shaxsning o‘zi yashaydigan jamiyatda shakllangan, shu jamiyatgagina xos muomala, xatti-harakat odoblari, ayb sanalmaydigan tutumlari; jamiyat a‘zolarining o‘zaro munosabatlari, xulq-atvori va qarorlarini boshqaradigan umumiy qadriyatlar. U odamlarning bir-biriga nisbatan adolat, hurmat, mas‘uliyat va hamkorlik ruhida munosabat ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Inson hayoti davomida ijtimoiy axloqini takomillashtirib yoki yo‘qotib boradi. Har ikki holat ham uning tildan foydalanishida aniq namoyon bo‘ladi.

Qiyos: muloqot xulqi.

IJTIMOY BOSIM Jamiyat taraqqiyotining turli

davrlarida til jamoasi va uning tiliga tildan tashqaridagi omillarning kuchli, ko‘lamli va tizimli ta‘siri. Atama Y.Desheriyev tomonidan kiritilgan. Til jamoasiga ijtimoiy bosim muayyan tilni biluvchilar sonining ortishi yoki kamayishi, til egalarining sifat belgilari (yoshi, ta‘lim darajasi, ijtimoiy maqomi) o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Bevosita tilga ijtimoiy bosim turli jargonlarning, ilgari ko‘rilmagan nutq shakllarining paydo bo‘lishi va rivojlanishini rag‘batlantiradi, ma‘lum bir soha egalarining lug‘at boyligini kengaytiradi.

Qarang: ijtimoiy omillar.

IJTIMOY DIALEKT Tilning ijtimoiy tabaqalanishi natijasida yuzaga keladigan yashash shakli, jamiyatning muayyan qatlamiga xos til ko‘rinishi va u shu qatlam a‘zolari nutqida yashaydi. Ishchilar, ziyolilar, talabalar yoki qishloq aholisi tilida fonetik, leksik va grammatik jihatdan farq qiluvchi unsurlar hisoblanadi. Ijtimoiy dialektlar milliy tilning bir ko‘rinishi bo‘lsa ham, umumadabiy leksikadan ijtimoiy xoslangan so‘z va iboralardan tashkil topishi bilan farq qiladi. Masalan, shifokor nutqi bilan harbiyning nutqi leksikasi va ifoda tarziga ko‘ra farq qiladi. Shifokor nutqida og‘irvazminlik, harbiy nutqida tezlik, keskinlik ustuvor.

Qiyos: adabiy til, hududiy dialekt.

IJTIMOY DIALEKTOLOGIYA [ijtimoiy + *yun.* dialektos – sheva + logos – bilim, tushuncha] XX asrning ikkinchi yarmiga qadar muayyan tilning ijtimoiy dialektlari o‘rganilgan, tilning ijtimoiy farqlanishi muammolari ijtimoiy dialektlar misolida tadqiq qilingan tilshunoslik sohasi. Hozirgi sotsiologiyat ma‘lum ma‘noda ijtimoiy dialektologiyaning vorisidir. U ijtimoiy dialektologiyadan tadqiqot obyektining kengligi, tilning jamiyat bilan bog‘liq barcha tomonlariga diqqat qaratishi bilan farqlanadi.

Qiyos: sinxron sotsiologiyat, makrosotsiologiyat.

IJTIMOY GURUH 1. Jamiyat hayotining turli sohalarida bir-biri bilan muntazam munosabatga kirishib yashaydigan jamoa. Bunday guruh til, kasb-kor, e‘tiqod, yosh, jins va boshqa xususiyatlariga ko‘ra uyushgan kishilardan tashkil

topadi. Odamlar hayotining asosiy qismini ijtimoiy guruhlarda muloqotda o'tkazadi. Har bir ijtimoiy guruhning o'ziga xos qadriyatlari bo'ladi. Til bunday qadriyatlarning birlamchisi hisoblanadi.

Qiyos: lisoniy jamoa, lisoniy hamjamiyat.

2. Xatti-harakatlari rasmiy va norasmiy institutlar tomonidan boshqariladigan, ma'lum me'yor va qadriyatlarga ega bo'lgan, o'z xususiyatlari bilan boshqa ijtimoiy birliklardan farqlanadigan, ammo ichki ijtimoiy munosabatlariga ko'ra uyushgan kishilardan iborat sotsial birlik. Jamiyat kasbiy va diniy mansubligi, demografik va gender xususiyati va boshqa xususiyatlariga ko'ra uyushgan ijtimoiy guruhlardan shakllanadi.

Qarang: lisoniy jamoa.

IJTIMOYIY HARAKATCHANLIK Alohida shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarining jamiyat ichida bir ijtimoiy pog'onadan boshqasiga ko'chish jarayoni. Bunday harakatchanlik ijtimoiy ko'tarilish yoki pastlash tarzida kechadi hamda iqtisodiy, kasbiy, ta'limiy, madaniy va boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi. Til amaliyoti ham ijtimoiy harakatchanlik bilan bog'liq. Ijtimoiy harakatlanuvchi guruhlar ko'pincha yuqoriroq maqomdagi guruhlarining til me'yorlariga ergashishga intiladilar va bunda til ijtimoiy o'zlikni anglash vositasi, ijtimoiy maqom ifodachisi sifatida xizmat qiladi.

Qiyos: ijtimoiy qatlamlanish.

IJTIMOYIY IFODA Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida hukm surgan tuzum, mafkura, ijtimoiy odat va boshqalar ta'sirida til birliklari (ko'pincha so'z)ning ma'nosiga ustama ifoda sifatida kirib qolgan, muvofiq nutqiy vaziyatda yuzaga chiqadigan ijtimoiy belgi, biron-bir so'z ma'nosida aks etadigan sotsial jihat. Masalan, hozirgi o'zbek tilining mustaqillikkacha bo'lgan davrida *mehnat, ishchi, dehqon* so'zlari tuzum, siyosat, mafkura bilan bog'liq belgilar bilan ifoda topgan.

Qiyos: ijtimoiy sema.

IJTIMOIIY IZOLYATSIYALASH 1. Shaxs yoki guruhning jamiyatning boshqa a'zolari bilan ijtimoiy, madaniy yoki kommunikativ aloqalarini cheklash yoki uzish jarayoni. Ko'pincha ijtimoiy qo'rquv, kamsitish, geografik cheklavlar yoki til bilan bog'liq to'siqlar sababli yuzaga keladi. Bu holat etnik identifikatsiyaning zaiflashishi, til tanqisligi yoki ijtimoiy integratsiyaning pasayishiga olib keladi. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan ijtimoiy izolyatsiyalash til izolyatsiyasi bilan bog'liq.

Qarang: lisoniy izolyatsiyalash, lisoniy qurshov.

2. Vakolatli tashkilotlar tomonidan atay muayyan hudud aholisini qo'shni hududlar aholisidan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa jihatdan alohidalash, ularning turli darajadagi hamkorligini qonunan taqiqlash. Ijtimoiy alohidalanish pirovardida lisoniy yakkalanishni keltirib chiqaradi.

Qarang: lisoniy qurshov, dialektal qurshov.

IJTIMOIIY KELISHUV NAZARIYASI Tilning paydo bo'lishi haqida Demokrit, Aflotun fikrlariga tayanib, XVIII asr o'rtalarida Yevropada paydo bo'lgan lingvistik qarash. Unga ko'ra, til kishilarning borliqdagi narsa-hodisalarni qanday atashni o'zaro kelishishi natijasida vujudga kelgan. Ijtimoiy kelishuv atamasi J.J.Russo tomonidan qo'llangan. Bu qarash tarafdorlari ibtidoiy odamlar tildan foydalanish to'g'risida kelishib olgan deb ishonganlar, ammo kelishib olish uchun ham til lozimligi bu qarashning inkor qilinishiga olib kelgan. Ingliz olimi A.Smit ham bu qarashni ma'qullaydi hamda til ongli ravishda ixtiro qilingan, keyin undan foydalanishning yagona qoidalari ishlab chiqilgan, deydi.

Qarang: tilning ijtimoiy vazifalari.

IJTIMOIIY-KOMMUNIKATIV TIZIM Muayyan lisoniy hamjamiyatda til egalarining lisoniy ehtiyojlari taqozosi bilan qo'llanadigan, funksional jihatdan bir-birini to'ldiradigan va o'zaro tizimli aloqada tashkillanadigan til kodlari yoki subkodlar majmuyi. Ijtimoiy-kommunikativ tizimni tashkil etuvchilar funksional jihatdan bir-birini to'ldiradigan, tizim

a'zolari sifatida birgalikda mavjud bo'lsa ham, quyi va yuqori doiralarda foydalanilishi, jamiyat hayotining turli sohalarida qo'llanishi hamda ijtimoiy vazifalari jihatidan aniq taqsimlangan bo'ladi. Masalan, adabiy tilning ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy va h.k. uslublari o'ziga xos maxsus vazifalarga ega bo'lishi bilan birga, funksional jihatdan bir-birini to'ldirib, jamiyatning kommunikativ ehtiyoji va muloqotning barcha sohalariga xizmat qiluvchi tizimni tashkil qiladi.

Qarang: tilning yashash shakllari.

IJTIMOY KONNOTATSIYA [ijtimoiy + *lot.* connotare – qo'shimcha ma'no bilan belgilamoq] Ma'lum bir so'z yoki ibora talaffuz qilinganda til egalarida paydo bo'ladigan, shu jamiyatda umumqabul qilingan standart assotsiatsiyalar. Bunday assotsiativ bilimlar jamiyat a'zolarining uzoq yillik turmushi mobaynida ijtimoiy yoki milliy omillarga bog'liq holda shakllanadi va shu jamiyat a'zolari uchun standartlashib qoladi. Shu bois muayyan narsa yoki xatti-harakat turli jamiyatlarda turlicha ijtimoiy konnotatsiya oladi. Masalan, *asbob* so'zi duradgor uchun tesha, arra va boshqalar bilan, jarroh uchun skalpel, qisqich va boshqalar bilan, musiqachi uchun skripka, pianino va boshqalar bilan ijtimoiy shartlanadi.

Qarang: ijtimoiy sema.

IJTIMOY MANSUBIYAT Shaxsning ma'lum bir qatlam, jamoa yoki guruh vakili ekanligi, muayyan jamoa yoki guruhga xos muhitda shakllanganligi, biror kasbga, e'tiqodga mansubligini ko'rsatadigan sotsial belgi. Ijtimoiy mansubiyat biologik ham bo'lishi mumkin, bunda uning qanday oilada tug'ilganligi nazarda tutiladi. Vaqt o'tishi, turmushning o'zgarishi bilan shaxsning ijtimoiy mansubligi ham o'zgarib boradi.

Qiyos: lisoniy mansubiyat, etnik mansubiyat.

IJTIMOY MAQOM 1. Shaxsning jamiyat a'zolari bilan munosabatlarini belgilaydigan mavqeyi, ijtimoiy iyerarxiyadagi doimiy yoki vaqtinchalik o'rni, ya'ni kasbi (masalan, o'qituvchi, shifokor), ma'lumoti (oliy, o'rta), moliyaviy (badavlat, o'rtahol, qashshoq), oilaviy ahvoli (turmush qurgan, beva, yolg'iz)ni

ko'rsatadigan jihati. Ijtimoiy maqom yosh, jins, etnik va hududiy mansublik bilan ham bog'liq va bularning barchasi uning tildan foydalanishida muhim o'rin tutadi.

Qarang: ijtimoiy mansubiyat, ijtimoiy rol.

IJTIMOIIY MUHIT Inson yashaydigan va ishlaydigan, uni shaxs sifatida shakllantiradigan konkret tarixiy-sotsial, moddiy-ma'naviy sharoit. Ijtimoiy muhit ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabat va qoidalar, ijtimoiy ong va madaniyat, oila va boshqa institutlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy muhit tarixiy davr taqozosiga ko'ra shakllanadi. U tilning shakllanishi, ishlatilishi va maqomiga ta'sir qiladi, tilning geterogen yoki gomogen xususiyatlarini belgilaydi. Masalan, ingliz tili xalqaro biznes, ta'lim va internet muhitida yuqori ijtimoiy maqomga ega va turli ijtimoiy guruhlar (yoshlar, professional jamoalar) tomonidan sleng, jargon yoki boshqa tur subkod shaklida geterogen tarzda ishlatiladi.

Qarang: ijtimoiylashuv, lisoniy ijtimoiy, ijtimoiylashuv davri.

IJTIMOIIY NUTQIIY QOLIPLAR Muayyan ijtimoiy muhitda yashovchi til jamoasining umumiy muloqot tajribasini, tildan o'ziga xos foydalanish tarzlarini aks ettiradigan grammatik birliklar odatda standartlashgan yoki stereotipik nutq shakllari. U tilning ijtimoiy maqomi, foydalanuvchilarning guruhi (masalan, yoshlar, professional jamoalar, elita) va muhit (rasmiy, norasmiy, onlayn) ta'sirida shakllanadi, kishilarning yoshi, kasbi, maqomi, vaziyat va madaniy muhitga qarab bir-biridan farq qiladi. Masalan, o'zbek tilida "Assalomu alaykum", "Yaxshimisiz?", ta'limda "Ustoz, bugun mavzuni tushuntirib bersangiz" kabi qoliplar qo'llanadi.

Qarang: lisoniy jamoa.

IJTIMOIIY OMILLAR 1. Insonning biologik mavjudotdan shaxsga aylanishi, ijtimoiy odob, qoida va me'yorlarni o'zlashtirish orqali uning ijtimoiylashuvi va jamiyatga integratsiyalashuviga xizmat qiladigan sabablar. Ijtimoiy omillar shaxsning ijtimoiy ahamiyatli xislatlarini shakllantiradi.

Qarang: lisoniy ijtimoiylashuv.

2. Jamiyat a'zolarining yashash va ishlash tarzi bilan bog'liq bo'lgan, uning aqliy-ruhiy dunyosiga, xususan, tilining shakllanishi, ishlatilishi va maqomiga ta'sir o'tkazib turadigan ijtimoiy sabablar. Masalan, shaxsning ijtimoiy tabaqalanishi, hududiy mansubligi, ta'lim va bilim darajasi, yoshi va jinsi bilan bog'liq omillar. Masalan, shaxsning ta'lim darajasi uning adabiy til yoki shevadan foydalanishiga, nutqining sof, jo'yali hamda to'g'ri chiqishiga ta'sir qiladi.

Qarang: etnik omillar, etnomadaniy omillar, sotsio-madaniy omillar.

IJTIMOY QATLAMLANISH Jamiyat a'zolarining muayyan makon va zamonda turli ijtimoiy qatlamlarga ajralib yashashi, kishilarning nasl-nasabi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumotlilik darajasi, kasb-kori va boshqa xususiyatlariga ko'ra muayyan toifalarga bo'linishi. Asosan, avvalgi jamiyatlarning asosiy belgisi hisoblangan ijtimoiy qatlamlanish turli jamiyatlarda turlicha bo'lgan. Masalan, quldorlik jamiyati quldorlar va qullar tabaqasidan, qadimgi va o'rta asrlar hind jamiyati brahmanlar, kshatriylar, vayshlar, shudralar va eng past tabaqadan, o'rta asrlar Yevropa jamiyati asilzodalar, savdogarlar va dehqonlar tabaqasidan iborat bo'lgan. Turonda esa urug'-qabilaviy, kasbiy, diniy-e'tiqodiy, shajaraviy-sulolaviy mansublikdan kelib chiqib tabaqalangan.

Qiyos: tilning ijtimoiy farqlanishi.

IJTIMOY QOIDALAR Muayyan jamiyat a'zolari o'zaro muloqot va boshqa munosabatlarda rioya qiladigan ijtimoiy odoblar, o'sha jamiyat to'g'ri deb biladigan xulqiy me'yorlar. Ijtimoiy qoidalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bilan birga yuzaga keladi va inson o'z turmushining barcha jabhasida ijtimoiy qoidalar doirasida harakat qiladi. Hatto nutqiy faoliyati ham ijtimoiy qoidalar asosida kechadi. Bunday qoidalarga xilof nutq yoki fikr almashish shu jamiyat a'zolarining haqli e'tiroziga sabab bo'ladi.

Qarang: ijtimoiy axloq.

IJTIMOY ROL [ijtimoiy + *fr.* rôle – aktyor uchun yozilgan sahna matni, vazifa] Ma'lum maqomni egallagan shaxs

bajarishi kerak bo‘lgan vazifalar, shaxsning ijtimoiy maqomi doirasidagi xatti-harakatlari. Ijtimoiy maqom bilan bog‘liq fikrlar “U kim?” savoli atrofida aylansa, ijtimoiy rol bilan bog‘liq fikrlar “U nima qiladi?” savoli atrofida shakllanadi. Masalan, o‘qituvchidan dars avvalida o‘quvchilar bilan salomlashishi, dars jarayonida savollar berishi, yangi mavzuni tushuntirishi, shifokordan esa bemor shikoyatini tinglashni va shunga qarab muolaja qilishdek xatti-harakat kutiladi. Ayni xatti-harakatlar uning bajaradigan rollaridir.

Qarang: ijtimoiy maqom.

IJTIMOIIY SEMA [ijtimoiy + *yun.* sema –belgi] Muayyan so‘z yoki iboraning ma‘no qamrovida shaxsga xos ijtimoiy maqom, rol, kasb-kor, ijtimoiy kelib chiqish bilan bog‘liq jihatlarni bildirib turadigan ma‘no bo‘lakchasi. So‘zlovchi so‘z semantikasiga xos bu jihatlarni lisoniy ijtimoiylashish jarayonida, ajdoddan avlodga tarzida o‘zlashtiradi. Masalan, o‘zbek tilidagi *kelmoq*, *tashrif buyurmoq* sinonimik qatoridagi *tashrif buyurmoq* so‘zida tashrif buyuruvchi shaxsning ijtimoiy maqomi baland ekanligini bildiradigan belgi bor, *kelmoq* so‘zida esa yo‘q. O‘zbekcha muhitda tarbiyalangan inson o‘z nutqida bunday so‘zlarni farqlab qo‘llaydi.

Qiyos: ijtimoiy ifoda.

IJTIMOIIY SUBSTRAT Rus sotsiolingvistikasida: idiom (dialekt, sotsiolekt) egalarining asosiy kontingenti. Masalan, dialektning ijtimoiy substrati sifatida qishloq joylarda doimiy yashovchi keksa avlod vakillari tushuniladi. Yoshlar jargoni ijtimoiy substratiga 14 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lganlar kiradi. Umuman, tilning ostqatlamlaridan foydalanadigan guruh, qatlam.

Qiyos: sotsiolema, adstrat, superstrat.

IJTIMOIIY TABU Jamiyatning muayyan qatlami yoki toifasi orasida qilinishi, aytilishi nojoiz hisoblangan, ijtimoiy, diniy yoki axloqiy qoidalarga nomuvofiq ko‘riladigan xatti-harakat, gap-so‘z. Ijtimoiy tabular qadimdan barcha jamiyatlarda bo‘lgan. Masalan, Yaponiyada imperator va uning

oilasini muhokama etish, faoliyatini tanqid qilish ijtimoiy tabu hisoblangan. Sotsiolingvistika lingvomadaniyatda shunday mazmunli soʻz va iboralarni qoʻllash maʼqullanmasligi, bunday til birliklaridan foydalanishga qoʻyilgan sotsiomadaniy cheklolarning sabablarini oʻrganadi.

Qarang: ibtidoiy tabu, etnik tabu, diniy tabu.

IJTIMOY TARTIB 1. Jamiyatshunoslikda: kishilarning qanday yashashi, bir-biri bilan muomala-munosabat qilishi, ishlashi, oʻzini tutish kerakligini belgilab beradigan meʼyorlar. U muayyan qoida va qadriyatlar asosida shakllanadi va ijtimoiy institutlar yordamida mustahkamlanadi. Ijtimoiy tartib jamiyat aʼzolarini qoidabuzarliklardan saqlaydi, ijtimoiy muvozanatni taʼminlaydi, kimning nima vazifa bajarishini belgilaydi.

Qarang: ijtimoiy muhit.

2. Sotsiolingvistikada: til jamoasida u qoʻllayotgan yaxlit til yoki uning yashash shakllaridan foydalanishga nisbatan shakllangan subyektiv munosabat boʻlib, u lisoniy vositalarning tanlanishi, qoʻllanishini baholashda namoyon boʻladi. Ijtimoiy tartiblar kommunikativ vaziyat, til meʼyorlari, ijtimoiy maqom va qadriyatlar bilan bogʻliq.

Qiyos: ijtimoiy qoidalar.

IJTIMOY VARIATIVLIK Tildagi biror soʻz-iboraga unga ijtimoiy xususiyatlari jihatidan muvofiqlasha oladigan muqobilining mavjudligi; muayyan tushuncha uchun ijtimoiy shartlangan muqobil lisoniy birliklarga egalik. Masalan, *bormoq* soʻziga sinonim sifatida ijtimoiy shartlangan *tashrif buyurmoq* soʻzining variant sifatida til xotirasida turishi. Variativlik tilning mohiyatiga daxldor va keng maʼnoli tushuncha boʻlib, uning quyidagi turlari farqlanadi: shakliy variativlik, mazmuniy variativlik, funksional variativlik. Ijtimoiy variativlik funksional variativlikning tarkibiga kiradi.

Qiyos: situativ variativlik.

IJTIMOY XOSLANGAN TIL VARIANTLARI Jamiyatning tuzilishiga bogʻliq holda ijtimoiy qatlamlar,

ijtimoiy guruhlar vakillarining tildan farqli foydalanishi, tilni farqli qo'llashini ta'minlaydigan lisoniy ifodalar tizimi. Davr o'tishi, jamiyat o'zgarishi bilan til variantlaridagi ijtimoiy shartlanish, ijtimoiy xoslanish ham o'zgaradi. Masalan, jamiyat taraqqiyotining avvalgi bosqichida ijtimoiy xoslangan bir tip lisoniy birliklar jamiyat hayotining keyingi davrida ijtimoiy shartlanganlik belgisini yo'qotishi mumkin.

Qiyos: situativ variativlik.

IJTIMOIIY O'ZLIK Alohida shaxs yoki guruhning o'zini muayyan jamoaga mansub deb bilishi, jamoasining qadriyat-lari, normalari, tili va an'analari orqali shakllangan o'ziga xosligi. Bunda til ijtimoiy o'zlikni shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchi shaxs o'zbek millatiga yoki mahalliy jamoaga mansub ekanligini tili orqali ham namoyon etadi.

Qiyos: lisoniy mansubiyat, tilning etnoramziy vazifalari.

IJTIMOIIY O'ZLIKNI ANGLASH Shaxsning o'zini muayyan jamiyatga mansubligini bilish, muayyan sotsial gu-ruh vakili ekanligini tushunib yetish jarayoni. Bolalikning erta davridan boshlanadigan bu jarayon umr bo'yi davom etadi, o'qish va ishlash jarayonida ayniqsa faol kechadi. Til nuqtayi nazaridan bu jarayon shaxsning yoki jamoaning til orqali o'z identifikatsiyasini shakllantirishi bilan bog'liq. Masalan, O'zbekistonda o'zbek tili davlat tili sifatida milliy o'zlikni anglashning asosiy vositasi, uni qo'llash orqali odamlar o'zlarini o'zbek xalqining bir qismi sifatida his qiladi.

Qiyos: milliy o'zlikni anglash.

IJTIMOIIYLASHUV Insonning oila, bog'cha, maktab, institut va undan keyingi faoliyati davomida sotsial muhitga moslashish, undan ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni, biologik mavjudotdan muayyan etnosga mansub, muayyan til(lar)da so'zlashadigan shaxsga aylanishi. Ijtimoiylashish jarayonida tilning ishtiroki muhim, chunki ijtimoiy malaka va qoidalarning asosiy qismi til orqali egallanadi. Shaxs umr bo'yi turli ijtimoiy rollarda bo'lgani

sababli ijtimoiylashuvi ham umr bo‘yi davom etadi.

Qarang: ijtimoiylashuv tili.

IJTIMOIYLASHUV TILI Shaxsning ilk, o‘rta va keyingi ijtimoiylashuv davrlarida asosiy axborot olish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan, o‘zi kabilar bilan ijtimoiy aloqa o‘rnatish, jamiyatga qo‘shilib ketishida foydalanadigan tili. Ijtimoiylashuv tili bolalikda ona tili bo‘ladi. Keyingi ijtimoiylashuv bosqichlarida ona tili bilan birga shaxs o‘zlashtirgan boshqa tillar ijtimoiylashuv tili sifatida xizmat qilishi mumkin. O‘zbekiston sharoitida o‘zbek tili o‘zbek xalqining asosiy ijtimoiylashuv tili hisoblanadi, ayni paytda, mansubiyatni ham bildiradi. Oila ichida oddiy so‘zlashuv shakli, maktab davrida adabiy til, kasbiy faoliyatida rasmiy til (yoki professional til) ijtimoiylashuv tili ko‘rinishlari sifatida ishlaydi.

Qarang: lisoniy ijtimoiylashuv, ona tili, ikkinchi til.

ILK IJTIMOIYLASHUV DAVRI Bolaning tug‘ilganidan boshlab yetti yoshgacha bo‘lgan muddatda atrof-muhit, til, madaniyat va ijtimoiy qadriyatlar bilan birinchi bor tanishish va ularni o‘zlashtirish bosqichi. Bu davrda bola asosiy ijtimoiy me‘yorlar, xatti-harakat qoidalari, til va kommunikatsiya uslublarini o‘rganadi. Ushbu jarayonning markazida ota-ona, yaqin qarindoshlar va tarbiyachilar turadi. Oila bolaning keyingi ijtimoiylashuv bosqichidagi ishtiroki qanday kechishini belgilaydi.

Qiyos: o‘rta ijtimoiylashuv davri, keyingi ijtimoiylashuv davri.

ILK IJTIMOIYLASHUV TILI Insonning erta bolalikdan oilada dastlabki ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladigan tili; atrofidagi yaqin insonlar: ota-ona, qarindoshlar, tarbiyachilar orqali o‘rganadigan birinchi tili. Ilk ijtimoiylashuv tili bolaning ongi, tafakkuri va hissiy olami shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, bolaning til kompetensiyasi va ijtimoiy moslashuv darajasiga asos bo‘ladi. Asosan, bunday til ona tili bo‘ladi, ammo ko‘p tilli muhit-

da bunday bo‘lmasligi ham mumkin. Ijtimoiylashuvning bu bosqichida axborotlarning ona tilida o‘zlashtirishi shaxsning olamni milliy andazada idrok qilishini, ijtimoiylashuvning milliy qiyofa kasb etishini ta’minlaydi.

Qiyos: ona tili, birinchi til.

IKKI TILLI JAMOA Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli sohalarida ikki tildan foydalanadigan, ikki tilda muloqot qiladigan kishilar guruhi. Bunday jamoalarda tillar o‘zaro muqobillik, funksional yoki hududiy asosga ko‘ra ishlatiladi. Bunday til jamoalari vakillari poytaxt va katta shaharlarda istiqomat qiladi, o‘zaro muloqotda ona tili va ikkinchi til qo‘llanadi. Ikkinchi til odatda yetakchi tili yoki millatlararo muloqot vositasiga aylangan til bo‘ladi. Ikki tilli jamoa orasida ba‘zan til diskriminatsiyasi yuzaga chiqishi mumkin.

Qiyos: bir tilli jamoa, ko‘p tilli jamoa.

IKKITOMONLAMA BILINGVIZM Ikkitillilik sharoitida yashovchi ikki xalqning har ikki tilda muloqot qilish malakasini egallaganligi, ikkala tomonning muloqotda erkin til tanloviga egaligi. Masalan, Buxoroning Olot, Qorako‘l tumanlaridagi o‘zbek-turkman ikkitilliligida yashovchi aholi har ikki tilda muloqot qilish malakasini egallagan, Toshkentda o‘zbek-rus bilingvizmi mavjud.

Qiyos: bir tomonlama bilingvizm.

IKKITOMONLAMA TA’SIRLASHUV Yonma-yon hududlarda qo‘ni-qo‘shni bo‘lib yashagan yoki umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, ma’muriy-siyosiy makonda hamkorlikka kirishgan xalqlar tillari o‘rtasidagi lisoniy oldi-berdi munosabati. Masalan, o‘zbek tilining turli davrlarida o‘zbek va tojik, o‘zbek va rus tillari bir-biridan so‘z olib, so‘z bergan. Bunday ta’sirlashuv madaniyatlararo ta’sirlashuvdan boshlanadi.

Qiyos: birtomonlama ta’sirlashuv.

IKKIDIALEKTLILIK 1. Til egalarining ikki dialektida so‘zlasha olish imkoniyatiga egaligi, bir tilning ikki xil dialekti (shevasi)ni bilish va ularni turli kommunikativ vaziyatlarda faol va ongli ravishda qo‘llay olish holati. O‘zbekiston sharoitida

Toshkentda istiqomat qiladigan kishilarning o'z dialekti (masalan, Buxoro shevasi) va Toshkent shahri shevasida so'zlasha olishi bunga misol bo'la oladi. Bu jihatdan faol va nofaol ikkidialektlilik farqlanadi.

Qiyos: individual ikkitillilik.

2. Ma'lum bir mamlakat yoki uning muayyan hududida ikki dialektning muloqot vositasi sifatida amal qilishi. Ikkidialektlilik o'zi mansub bo'lgan yaxlit tilga ijtimoiy moslashuvchanlik baxsh etadi, tildagi ichki xilma-xillikni saqlab turadi. Bir makonda farqli dialektlarning birga mavjud bo'lishi egalarining hududiy-madaniy identifikatsiyani ham ta'minlaydi.

Qiyos: jamoaviy ikkitillilik, diglossiya.

IKKINCHI ONA TILI Sobiq ittifoq davrida milliy respublikalarda rus tiliga berilgan ikkinchi nom. Milliy respublikalarning mustaqillikka erishishi bilan rus tiliga nisbatan shakllangan bunday munosabat barham topdi. Lingvistik tadqiqotlar mazkur terminning faqat siyosiy-mafkuraviy ta'sirlarga ko'ra shakllantirilganligini, ona tili faqat bitta bo'lishini isbotladi.

Qiyos: ona tili, etnik til, milliy til.

IKKINCHI TIL Kishining ona tilidan keyin o'rgangan tili, keyinchalik egallangan har qanday til. U ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, millatlararo aloqaning tabiatiga qarab, shaxsning ijtimoiy, madaniy yoki iqtisodiy ehtiyojlariga ko'ra o'zlashtiriladi. Masalan, postsovet davlatlarida ikkinchi til sifatida ko'proq rus tili egallangan, Hindistonda ingliz tili ikkinchi til sifatida o'zlashtiriladi. *Ikkinchi til* atamasida shaxsning "tillarni egalash tartibi va bu tartibda ikkinchi tilning birinchi tildan so'ng egallanganligi" tushunchasi ta'kid oladi.

Qiyos: ona tili, birinchi til.

IKKITILLILIK 1. Shaxsning ona tili bilan birga yana boshqa tilni egallanganligi, shu tillarda erkin so'zlashish, fikr almashish malakasini hosil qilganligi. *Ikkitillilik* atamasi kishining ikkita har xil tilni egallanganligini bildirishi bilan individual diglossiyadan farqlanadi. O'zbekiston sharoitida

o‘zbek-rus, o‘zbek-tojik ikkitilliligi ko‘p uchraydi.

Qiyos: individual birtillilik, individual diglossiya.

2. Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida butun jamiyat yoki jamoalarda ikki tilning kamida muloqot vositasi sifatida amal qilishi. Masalan, O‘zbekiston sharoitida Qoraqalpog‘istonda o‘zbek-qoraqalpoq, qoraqalpoq-turkman ikki tilliligi; Samarqand, Buxoro, Rishton, Chust shaharlari yoki Kosonsoy, So‘x tumanlarida o‘zbek-tojik ikki tilliligi amal qiladi. OAV, ta’lim tizimida o‘zbek-rus, o‘zbek-tojik, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-qoraqalpoq jamoaviy ikkitilliligi mavud. Bunday ikkitillilik lisoniy jamoaning yoppasiga bir tildan boshqa tilga o‘tishi sharoitida ham yuz beradi.

Qiyos: birtillilik, diglossiya.

ILK ETNOLEKT Migratsiya sharoitida yashovchi birinchi avlod etnik guruh qo‘llagan titul millat tilining alohida ko‘rinishi. U o‘rta va so‘nggi etnolektlarning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Sotsiolingvistikada “Gasrarbeiterdeutsch” Germaniya sharoitidagi ilk etnolekt hisoblanadi. Uzoq davom etgan til kontaktlari, fonetika, prosodika, sintaksis va leksikadagi tizimli o‘zgarishlar tilning ilk mahalliy shaklini yuzaga keltiradi. Etnolektda turli etnos vakillari so‘zlashi mumkin, masalan, Dog‘istondagi rus etnolektda bir necha xalq vakillari, jumladan, mahalliy ruslar ham muloqot qiladi.

Qiyos: o‘rta etnolekt, so‘nggi etnolekt.

ILMIY USLUB Aniq, dalilangan xulosalarga asoslanadigan, fanniy atamalar asosida ish ko‘radigan, muayyan fikr yoki axborot aniq va mantiqiy izchillikda bayon qilinadigan til yashash shakli. Ilmiy uslubda tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalar mohiyatini ta’riflash, tavsiflash, tahlil qilish, sababini aniqlab isbotlash tendensiyasi amal qiladi. Tor soha atamalaridan foydalanilsa ham, adabiy til me’yorlariga qat’iy rioya etiladi, majhul nisbatdagi fe’l shakllari va murakkab gap qurilishidan keng foydalaniladi.

Qiyos: publitsistik uslub.

INDIVIDUAL IKKITILLILIK Shaxsning ikki tilda

soʻzlashish, ish yuritish malakasiga egaligi yoki jamiyatdagi sanoqli kishilarning, chegaralangan shaxslarning ikki tilni bilishi va ulardan turli nutqiy vaziyatlarda foydalana olishi. *Individual ikkitillilik* atamasi bu maʼnoda omma-viy ikkitillilikka zidlanadi. Shaxs foydalanadigan ikkinchi tilning oʻzlashtirilish darajasiga koʻra, individual ikkitillilikning subordinativ (muvofiqlashmagan), koordinativ (muvofiqlashgan), aralash turlari farqlanadi. Ularning har biri ikkinchi tilni turli darajada bilishni xarakterlaydi. Individual ikkitillilikning bu koʻrinishlari bilingv nutqida bir vaqtda biri boshqasidan ustun holatda yuzaga chiqadi.

Qiyos: individual diglossiya.

INDIVIDUAL KSENOLEKT Kishining ona tilidan boshqa tilni oʻzlashtirish jarayonida yuzaga keladigan, alohida shaxsga xos boʻlgan ksenolektik qoʻllash. U yaxshi egallanmagan har qanday chet tilining grammatik, fonetik yoki leksik meʼyorlariga amal qilinmay soʻzlanganda namoyon boʻladi. Koʻpincha chet elliklar bilan tasodifan yoki zarurat yuzasidan ingliz yoki boshqa tilda suhbatlashilganda ksenolekt yuzaga chiqadi. Masalan, oʻzbek tilini oʻrganayotgan chet ellikning “Men boradi bozor” tarzida gap tuzishi individual ksenolekt-dir. Bu holat shaxsning til oʻzlashtirish darajasi va ona tilining yangi tilga koʻrsatgan taʼsiri bilan bogʻliq.

Qiyos: jamoaviy ksenolekt.

INDIVIDUAL KOʻPTILLILIK Shaxsning biron-bir ehtiyoj tufayli ona tili/davlat tili bilan birga boshqa xorijiy tillarni ham bilishi, bir necha tilda muloqot qilishi, ish yurita olishi. U jamoaviy hamda umummilliy koʻptillilikdan farqli ravishda sotsiolingvistikaning bilvosita oʻrganish obyekti hisoblanadi, yaʼni mamlakatda shakllangan ikkitillilik yoki koʻptillilik muhiti kishilarning ona tilidan boshqa tillarning egallanishiga taʼsiri sifatida tadqiq qilinadi.

Qiyos: jamoaviy koʻptillilik, umummilliy koʻptillilik.

IKKITILLILIK KOMPONENTLARI Bilingvizmni

yuzaga keltirgan ikki tilning har biri. Ular ona tili va ikkinchi til bo'ladi. Ikkitillilik komponentlari bilingvizmni qaysi tillar yuzaga keltirishiga ko'ra farqlanadi. Masalan, o'zbek-tojik ikkitilliligining komponentlari o'zbek va tojik tillari hamda ularning lisoniy, psixologik, ijtimoiy va funksional jihatlari-dan iborat. Lisoniy jihati shaxsning ikki tilni qanday darajada bilishi, psixologik jihati ikkala tilga subyektiv munosabati (masalan, birini ruhiga yaqin, boshqasini rasmiy til bo'lgani uchun qo'llashi), ijtimoiy jihati ikkala tilning jamiyatdagi maqomi (yetakchi/yordamchi til ekanligi), talab va ehtiyojning darajasi, funksional jihati ikkala tilning qaysi sohalarida ishlatilishini ko'rsatadi.

Qiyos: qoldiq ikkitillilik.

IMO-ISHORA TILI Kar-soqovlar yoki nutqiy qobiliyati cheklangan shaxslar o'zaro muloqotda foydalanadigan, qo'l harakatlari, yuz ifodalari, tana holati va boshqa vizual (ko'rinarli) vositalarga asoslangan til. U og'zaki til kabi o'zining fonologik, morfologik, sintaktik va semantik tizimlariga ega bo'ladi. Imo-ishora tili har bir mam-lakat yoki mintaqada turlicha shakllanadi. Masalan, Amerika imo-ishora tili (ASL), Britan imo-ishora tili (BSL), Fransuz imo-ishora tili (LSF) kabi. O'zbekiston karlar jamiyatida O'zbek imo-ishora tili qo'llanadi. Imo-ishora tilida abstrakt tushunchalarning ifodalanishi murakkabroq va bu til egalari jamiyatning alohida qatlamini tashkil etadi. Ayrim manbalarda *jest tili* deyiladi.

Qiyos: shartli til.

INDIVIDUAL DIGLOSSIYA ayn. diglossiya 1.

INTERDIALEKT [*ing.* inter – o'rtasida, orasida + dialect – lahja, sheva]

1. Migratsiya sharoitida bir tilning turli lahjalari-da so'zlashib kelgan kichik etnik jamoalar o'rtasida aloqa vo-sitasi vazifasini bajaruvchi og'zaki til ko'rinishi. Sotsioling-vistikaga interdialekt tushunchasini P.Tradjill olib kirgan. Bu

ma'nodagi interdialekt nutq jamoasining birinchi tili sifatida barqarorlashsa, koynega aylanadi.

Qiyos: regiolet, koyn.

2. Ikki va undan ortiq sheva hamda dialektlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllangan, ularning eng umumiy, eng optimal xususiyatlarini o'zida birlashtirgan, ayni paytda, aniq bir sheva xususiyatlariga ega bo'lmagan oraliq lahja, har xil sheva vakillari muloqotda foydalanadigan umumdialekt. U muloqotni qulaylashtirish, lisoniy neytrallik talabi bilan shakllanadi. Interdialektning bu ko'rinishi ham leksik-grammatik jihatdan rivojlanib, koynega aylanishi hamda unda so'zlashuvchilarning ona tili bo'lishi mumkin.

Qiyos: koyn.

INTERFERENSIYA [*lot.* inter – o'rtasida, orasida + *ferens* (ferentis) – tutib turuvchi, tashuvchi] Ikkitillilik sharoitida shaxsning muayyan chet tilidagi nutqida ona tili (yoki birinchi til) ta'sirida kuzatiladigan xatoliklar, ona tili ta'sirida xorijiy til adabiy me'yorlariga zid ifodalarni qo'llash. Umuman, ona tili ta'sirida boshqa til me'yorlaridan chetga chiqish. Interferensiya fonetik, leksik, grammatik va stilistik xususiyatli bo'ladi.

Qiyos: etnolekt.

INTERLINGVISTIKA [*lot.* inter- – o'rtasida, orasida + *fr.* linguistique – til haqidagi fan] Turli tillarning o'zaro ta'sirlashuvi, tillararo interferensiya, ikkitillilik va ko'ptillilik muammolari, yordamchi tillar (masalan, esperanto, interlingva), axborot mashinalari tillarining yaratilishi va qo'llanishi bilan bog'liq masalalarni o'rganadigan tilshunoslik sohasi. Uning xalqaro muloqot tillari, tillararo munosabatlar, sun'iy tillarning yaratilishi, ko'ptillilik va bilingvizm muammolarini tadqiq etadigan yo'nalishlari mavjud.

Qiyos: sotsiolingvistika, lingvogeografiya.

INTERNATSIONALIZM [*lot.* inter – orasida, o'rtasida + *natio* – xalq, millat + *-alism* – sifat va holat bildiruvchi qo'shimcha] Turli tillarda shakli va ma'nosi o'xshash, xalqaro miqyosda fan, texnika, siyosat, madaniyat kabi sohalarda faol

qo‘llanadigan, lotin yoki yunon tilidan olingan xalqaro terminlar. Masalan, o‘zbek tilidagi *armiya, universitet, demokratiya* kabilar. Bunday so‘zlar xalqlar o‘rtasidagi madaniy, ilmiy va ijtimoiy aloqalar natijasida o‘zlashadi, til o‘rganuvchilarga esa yangi tilni tezroq o‘zlashtirishda yordam beradi. Internationalizmlar, ayniqsa, globalizatsiya va xalqaro integratsiya sharoitida tillar yaqinlashuvini kuchaytiradi, ko‘ptillilik va tillararo muloqotni qo‘llab-quvvatlaydi.

Qiyos: o‘zlashma so‘zlar.

INTERNET QATLAMI Internet madaniyati va raqamli savodxonlik asosida shakllangan, o‘zaro maxsus leksika, qisqartmalar, emoji, memlar, inglizcha so‘zlar bilan to‘la tilda muloqot qiladigan kishilar. Masalan, “AF” (“ajoyib darajada”), “LOL” (“kulaman”), “cringe” (“uyatli holat”), “like qil”, “story qo‘ydim”, “DM yozdim” kabi iboralar ushbu qatlamga xosdir. Internet qatlami, ayniqsa, yoshlar orasida, Telegram, Instagram, TikTok va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda faol qatnashadigan, raqamli tilni o‘zlashtirgan foydalanuvchilardir. Bu qatlam nafaqat yangi til birliklarini yaratadi, balki til me‘yorlarini o‘zgartiruvchi kuchga ham ega bo‘lishi mumkin.

Qarang: qo‘llanishi chegaralangan leksika.

INTERVYU USULI [*fr*: entrevue – uchrashuv, ko‘rishuv + usuli] Tadqiqotchining respondent bilan yuzma-yuz suhbatlashish orqali sotsiologiyistik ma‘lumotlarni yig‘ish usuli, erkin suhbatlashgan holda sotsiologiyistik ma‘lumot yig‘ish tarzi. Unda tadqiqotchi oldindan tayyorlangan savollar orqali respondentning tildan foydalanishini o‘rganadi. Yozib olingan materiallar asosida aniq tovush(lar)ning talaffuz o‘ziga xosligi, muayyan leksik birliklarni kim qanday qo‘llashi va boshqa lisoniy-nutqiy xususiyatlar aniqlanadi. Bu usul sotsiologiyistik izlanishlarda shaxs, jamoa, jamiyatning tilga bo‘lgan munosabatini o‘rganish, alohida sohalar yoki hududlar va-killarining tildan foydalanish tarzlarini tahlil qilish, til va jamiyat munosabati bilan bog‘liq yana ko‘plab masalalarni

o'rganishga tatbiq qilinadi.

Qiyos: so'rovnomasi usuli.

ISPAN-NAUATL KREOLI Lotin Amerikasidagi mahalliy aholi tili bilan ispan tilining aralashuvidan hosil bo'lgan til. Bu kreol til o'zida ispan tilining soddalashtirilgan grammatikasi va nauatl tilining leksik va fonetik xususiyatlarini o'zida birlashtiradi. Asosan, Markaziy Amerikada, Meksikaning ba'zi hududlarida uchraydi. Bu til mustamlakachilik davrida ispanlar va mahalliy xalqlar tillarining uzoq muddatli ta'sirlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Hozirgi kunda mahalliy xalqlar va aralash etnik guruhlar tomonidan foydalaniladi, rasmiy maqomga ega emas. Mintaqadagi tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim sotsiolingvistik hodisa.

Qiyos: gaiti-kreoli.

IZOGLOSSA [*yun.* isos – bir, o'xshash + glossa – til, nutq] Dialektal xaritada muayyan fonetik, leksik, grammatik yoki semantik hodisaning geografik tarqalish chegarasi va hududini ko'rsatuvchi shartli chiziq. U biror sheva birligi yoki xususiyatining qayergacha ishlatilishi va shu xususiyat qayerdan boshlab boshqa shakl yoki norma bilan almashishini ham belgilaydi. Masalan, bir necha izoglossalarning ustma-ust tushgan joylari odatda dialektlar tutashuvi yoki ajralish nuqtasi sifatida qaraladi.

Qarang: dialekt.

IZOLYATSIONIZM [*fr.* isolation – ajratilganlik, yolg'izlik] Etnik, milliy va lisoniy aloqalarni chegaralash, tiyib turishga yo'naltirilgan siyosat. Xarakteriga ko'ra etnik izolyatsiyalash, ijtimoiy izolyatsiyalash, lisoniy izolyatsiyalash kabi ko'rinishlari farqlanadi. Izolyatsionizm sharoitida bir ijtimoiy jamoaning boshqa ijtimoiy jamoalar bilan munosabatga kirishishi to'xtaydi yoki chegaralanadi. Tilshunoslikda izolyatsionizm deganda, tilni tashqi ta'sirlardan, ya'ni boshqa tillar bilan ta'sirlashuvlardan xoli qilish tushuniladi. Masalan, tarixda yopiq siyosat yuritgan davlatlar o'z tillarini chet tillari ta'siridan himoya qilish, milliy o'zlikni saqlash maqsadida lisoniy

izolyatsiya yo‘lini tutgan. Natijada, tilda leksik boyish, yangi terminlarning kirishi to‘xtaydi, ammo bunda tilning ichki imkoniyatlari ko‘proq ishga tushadi.

Qiyos: lisoniy yakkalash.

IZOLYATSIYALANGAN TIL/DIALEKT Boshqa oilaga mansub til yoki begona dialektlar bilan o‘ralgan, atrofidagi til/dialektlardan keskin farqlanadigan til/dialekt. Masalan, Ozarbayjonda avar tili dialektlari, Gruziyada chechen tilining kistin dialektlari ozar tili izolyatsiyada yashaydi. Ba‘zan sun‘iy izolyatsionizm tilni tashqi ta‘sirlardan asrashga qaratilgan bo‘lsa-da, u tilning taraqqiyotdan cheklanishi, kommunikativ imkoniyatlarining qisqarishi va sotsiolingvistik jihatdan yakkalanishga sabab bo‘ladi.

Qiyos: lisoniy yakkalash.

ISH YURITISH TILI Davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida xizmat muloqotini olib borish, hujjat almashinuvi-da doimiy foydalaniladigan til shakli. U yozma tarzda davlat tili yoki rasmiy til sifatida amal qiladi, standartlashgan birikma va jumladan ko‘p foydalaniladi. O‘zbekistonda asosiy ish yuritish tili – o‘zbek tili. Ayrim hollarda, sharoit taqozosiga ko‘ra, ikkita tilning ish yuritish tili bo‘lib xizmat qilishi kuzatiladi.

Qarang: ishchi til.

ISHCHI TIL 1. Xalqaro tashkilot a‘zolari yoki anjuman ta‘sischilari tomonidan shu tashkilot yoki anjumanning rasman muloqot vositasi sifatida tan olingan til. Bunday til bitta ham, bir necha ham bo‘lishi mumkin va uning rasmiy maqomi xalqaro tashkilot yoki anjuman ta‘sischisi tomonidan belgilanadi. Masalan, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining ishchi tili xitoy va rus tillari. Yoki biror ilmiy-amaliy anjumanning ishchi tili ham bo‘ladi. Anjumanning respublika yoki xalqaro miqyosdaligiga qarab, ishchi til bitta yoki bir necha bo‘lishi mumkin.

Qiyos: rasmiy til.

2. Muayyan mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan

kelib chiqib, davlat tili yoki rasmiy til bilan birga ma'muriy organlar faoliyatida qo'llanadigan til. Masalan, Yoqutistonda rus, yoqut, even, evenk, yukagir kabi rasmiy tillar bilan birga ingliz tili ham ishchi til sifatida qo'llanadi, unga qonunan ishchi til maqomi berilgan.

Qiyos: davlat tili.

J

JAHON TILLARI 1. Yer yuzida qadimda yashagan va hozir yashayotgan xalqlarning tillari. Jahon tillarining umumiy soni turli manbalarda 2500 dan 7000 gacha deb ko'rsatiladi. Tillarning aniq sonini belgilash murakkab, chunki tillar o'rtasidagi va bir tilning dialektlari orasidagi farqlar nihoyatda shartli. Jahon tillari ichida keng tarqalganlari (so'zlashuvchilar soniga ko'ra) quyidagilar: xitoy, ingliz, rus, ispan, hind va urdu, indonez, arab, bengal, portugal, yapon, nemis, fransuz, italyan, panjob, telugu, koreys, maratxa, tamil, ukrain va boshqalar.

Qarang: etnik til, milliy til.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida rasman qo'llanish maqomini olgan tillar: ingliz tili, arab tili, ispan tili, xitoy tili, rus tili, fransuz tili.

Qarang: millatlararo muloqot tili, milliy til.

JAMIYAT 1. Kishilarning tarixan o'zaro hamkorlik munosabatlari natijasida tarkib topgan, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyati va ularga mos keluvchi munosabatlari majmuyi. Fanda fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat turlari farqlanadi.

Qarang: ijtimoiy guruh.

2. Milliy, madaniy, ijtimoiy, lisoniy va boshqa jihatlari-ga ko'ra birlashgan kishilar jamoasi. Bu ma'noda *sotsium* atamasiga ma'nodosh. Jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar tizimi sifatida faoliyat yuritadi va unda odamlar o'zaro hamkorlik qiladi, muloqotga kirishadi va umumiy hayot tarzini shakllantiradi. Jamiyat mavjud bo'lar ekan, tilga muntazam ta'sir etib turadi.

Qarang: bir tilli jamiyat, ikki tilli jamiyat, ko'p tilli jamiyat.

JAMIYATNING IJTIMOYIY TARKIBI Jamiyatni tashkil etuvchi turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, sinflar, etnik jamoalar, kasbiy guruhlar va boshqa ijtimoiy birliklarning yig'indisi. U odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, ta'lim darajasi, kasbi, yoshi, jinsi, milliy yoki etnik kelib chiqishi, diniy e'tiqodi va boshqa omillarga asoslangan xilma-xilligini o'z ichiga oladi. O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy tarkibi ishchilar va dehqonlar, talabalar va o'quvchilar, tadbirkorlar, davlat xizmatchilari, milliy guruhlardan iborat.

Qiyos: aholining ijtimoiy tarkibi.

JAMIYATNING LISONIY MANZARASI Muayyan jamiyat a'zolari foydalanadigan tilning yoki uning biror yashash shaklining mavjud ahvoli haqida shakllangan tasavvurlar. U muayyan jamiyatda necha til yoki lahja qo'llanishi, ularning ijtimoiy mavqeyi, ahvoli, bir-biriga munosabati va boshqalar haqida bo'ladi. Ko'p hollarda bunday tasavvurlar ikki yoki uch til bilan bog'liq bo'ladi.

Qiyos: olamning lisoniy manzarasi.

2. Ma'lum bir hududda tilning ishlatilishi, tarqalishi va o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi umumiy holat. Bu tushuncha jamiyatda qaysi tillar, dialektlar yoki etnolektlar qo'llanishi, ularning ijtimoiy, madaniy va siyosiy rollari, shuningdek, til siyosati va globalashuvning ta'sirini o'z ichiga oladi. Lisoniy manzara ko'p millatli davlatlarda yoki diasporalarda, ayniqsa, murakkab bo'lib, turli tillar va dialektlarning o'zaro ta'siri, dominant tilning ustunligi yoki ozchilik tillarining saqlanishi kabi masalalarni o'rganadi.

Qarang: diaspora tili.

JAMIYATNING LISONIY TARKIBI Muayyan jamiyat ichida qaysi til(lar), dialekt(lar), etnolekt(lar)ning tarqalganligi, ularning hududiy, sohaviy taqsimlanishi va ishlatilish darajasini ifodalovchi atama. U qaysi til yoki dialektning asosiy muloqot vositasi ekanligi, qaysi til yoki dialektning etnik ozchilik yoki ko'pchilikka xizmat qilishi hamda ijtimoiy-madaniy

kontekstdagi o‘rning ko‘rsatkichidir. O‘zbekiston jamiyati lisoniy tarkibining o‘ziga xosligi uning tarixiy, geografik va etnik xilma-xilligidan, ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli tabiatidan, xususan, turkiy va eroniy tillarning tarixiy o‘zaro ta‘siridan kelib chiqadi.

Qiyos: aholining lisoniy tarkibi.

JAMIYATSHUNOSLIK Jamiyat tarkibini tashkil qiladigan alohida institutlar, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, aholi guruhlari va ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganadigan soha. U ijtimoiy odob va qoidalar, jamiyat tartiboti, shaxs va jamiyat munosablari, jamiyatda shaxsning o‘rni, shaxs shaklanishida jamiyatning roli kabilar ham tadqiq qilinadi. Jamiyatshunoslikdagi tadqiqotlar tilshunoslik uchun ham muhim. Sotsiologiyada ham bu fanning tadqiq usullaridan faol foydalaniladi.

Qiyos: sotsiologiya, sotsiologiyalik tadqiq usullari.

JAMOAVIY DIGLOSSIYA Jamiyatdagi biror ijtimoiy qatlam, guruh vakillarining turli ijtimoiy vaziyat, maqsad va kontekstlarda tilning ikki yashash shaklidan teng va keng foydalana olish malakasini egallaganligi, shu ijtimoiy qatlam yoki guruh vakillari orasida, masalan, adabiy til va biror hudud shevasini qo‘llash tarzining ommalashganligi. Ko‘pincha, ziyoli qatlam vakillari orasida shunday diglossiya amal qiladi.

Qiyos: individual diglossiya.

JAMOAVIY IKKITILLILIK Jamiyatning biron-bir ijtimoiy guruhiga xos bo‘lgan, shu guruh a‘zolarining turli ijtimoiy sharoitlarda, masalan, ta‘lim, ish yoki madaniy faoliyatida bir vaqtda amal qiladigan ikkitillilik ko‘rinishi. O‘zbekistonda o‘zbek-rus, o‘zbek-tojik yoki o‘zbek-ingliz tillari bilingvizmida kuzatiladi. Masalan, Toshkentda aholi o‘zbek tilida oilaviy va rasmiy muhitda muloqot qilsa, rus tilini biznes, ilmiy yoki xalqaro aloqalarda qo‘llaydi. Samarqand shahrida esa o‘zbek-tojik ikkitilliligi keng tarqalgan, bu yerda mahalliy aholi ikkala tilni kundalik hayotda teng ravishda

ishlatadi. Jamoaviy ikkitillilik jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlariga bog‘liq.

Qiyos: aralash ikkitillilik.

JAMOAVIY KSENOLEKT Ma‘lum bir jamoaga xos bo‘lgan, odatda, ko‘pchilik nutqida kuzatiladigan, umumiy tildan farq qiladigan, begonalik xususiyatiga ega nutq shakli. Bu tur ksenolektlar tildan jamoaviy begonalashuvni namoyon qiladi. O‘zbekiston sharoitida jamoaviy ksenolektni shaharlarda rus tilining o‘zbekcha talaffuzida ko‘rish mumkin. Masalan, rus tilini yaxshi bilmaganlar nutqida so‘z o‘rtasida keladigan “g” tovushli “ego”, “сегодня” so‘zlarini yozilganiday talaffuz qilish jamoaviy ksenolektni namoyon etadi.

Qiyos: individual ksenolekt.

JAMOAVIY KO‘PTILLILIK Jamiyatning alohida qatlami yoki guruhi o‘rtasida boshqa tillarning ona tili (yoki davlat tili) bilan birga amal qilishi, kishilarning jamoa bo‘lib bir nechta tildan bir vaqtda ijtimoiy, madaniy yoki professional nutqda faol foydalanish, ish yurita olish malakasiga egaligi. Masalan, Toshkentda o‘zbek tilini davlat tili sifatida, rus tilini biznes va ta‘limda, ingliz tilini esa xalqaro aloqalar va zamonaviy ta‘limda qo‘llaydigan jamoalar shakllangan, ular O‘zbekistonning ko‘p madaniyatli va ko‘p tilli tabiatini aks ettiradi. Mazkur tushuncha individual ko‘ptillilikdan farqli ravishda sotsiolingvistikaning bevosita o‘rganish obyekti hisoblanadi.

Qiyos: individual ko‘ptillilik, umummilliy ko‘ptillilik.

JARGON [*fr.* jargon – safsata] Muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruhning, asosan, o‘ziga xos leksikasi bilan umumso‘zlashuv va mahalliy dialektlardan farq qiladigan, og‘zaki tarzda yuzaga chiqadigan tili. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi va shu muhitda yashovchilar manfaatiga xizmat qiladi. Masalan, talabalar jargoni, harbiylar jargoni. Bunday jargonlarni aniq terminlarga ega kasb tili bilan aralash-tirmaslik lozim. Masalan, *sirpandi*

(ketdi), *strelka* (uchrashuv) – yoshlar jargoni; *dodasi* (biror narsaning zo‘ri) – ko‘proq bozorchilar jargoni. Jargonlar qaysi ijtimoiy guruh orasida paydo bo‘lsa, o‘sha guruh uchun tushunarli bo‘ladi.

Qarang: sotsiolekt, argo, sleng.

JARGONIZM Muayyan ijtimoiy, kasbiy yoki madaniy guruhlar tomonidan qo‘llanadigan, jamoaviy jargonlarni shakllantiruvchisi sifatida ishlatiladigan o‘ziga xos so‘z yoki ibora. U faqat o‘sha guruh a‘zolari uchun tushunarlilik bilan umumiy tildan farq qiladi, tilning maxsus sohasi yoki kontekstida (masalan, biznes, harbiy, ilmiy, yoshlar slengi) ishlatiladi va muloqotni tezlashtirish yoki guruh ichidagi o‘ziga xoslikni ta’kidlash uchun xizmat qiladi. Jargonizm til egalarining qaysi ijtimoiy guruh vakili ekanligi, ayni paytda, boshqa ijtimoiy guruhga begonaligini ko‘rsatib turadi.

Qiyos: argotizm, ekzotizm.

JO‘N TIL VAZIYATI Faqat bir til amal qiladigan lisoniy muhit. Sotsiolingvistikada *oddiy, sodd*a til vaziyati deyiladigan bunday lisoniy muhit bir tilli lisoniy vaziyatdan farqlanadi. Jo‘n til vaziyatini shakllantirgan tilning sheva va dialektlari bir-biridan jiddiy tafovut qilmaydi. Masalan, ko‘plab arab davlatlarida shunday til vaziyati amal qiladi, chunki arab tilining adabiy varianti so‘zlashuv tilidan qariyb farqlanmaydi. Jo‘n til vaziyati diglossiya mavjudligi bilan ajralib turadi.

Qiyos: murakkab til vaziyati.

K

KAJUN [*ing.* keidʒ(ə)n – akadlar, akadiyaliklar] Akadiya (bu oʻlka Fransiyaning Shimoliy Amerikadagi sobiq mustamlakasi boʻlib, fransuzlar oʻsha vaqtlarda bu yerda oʻrnashib qolgan)dan kelgan fransuz qochqinlarining luizianalik avlodlari gaplashadigan fransuz tili lahjasi. “Acadien” soʻzi vaqt oʻtishi bilan amerikaliklar talaffuzida oʻzgarib, “cajun” shakliga kelib qolgan: acadien → cadien → cajun.

Qiyos: pijin, koyne.

KAKOFEMIYA [*yun.* kakos – yomon, dagʻal, yoqimsiz va phemia – nutq; gapiraman] Biror tushunchani jamiyat tan olgan ijtimoiy-madaniy odoblarga nomuvofiq, sotsiomadaniy qoidalarga zid, jamiyat aʼzolariga noqulaylik tugʻdiradigan tarzda qoʻpol va dagʻal ifodalashdan iborat nutq hodisasi. U koʻpincha tanqid, hajv, gʻazab qilish, obroʻsizlantirish yoki kamsitish maqsadidagi nutqda, til orqali ijtimoiy kuch va mavqeni ifodalash asnosida namoyon boʻladi.

Qiyos: disfemiya.

KAKOFEMIZM Til egalari tomonidan muayyan tushunchani ijtimoiy-madaniy odoblarga zid tarzda ifodalovchi qoʻpol, dagʻal soʻz va iboralar. Masalan, “homilador” degan tushunchani *boʻgʻoz* shaklida ijtimoiy odobga zid ifodalanishi kakofemizmdir. Kakofemik ifodalar koʻpincha ijtimoiy tabaqalararo farq, siyosiy qarama-qarshilik, gender tengsizlik yoki irqiy stereotiplar kontekstida ishlatiladi. Oʻzida tilning ijtimoiy munosabat bildirish xususiyatini koʻrsatadi.

Qiyos: disfemizm.

KALKA [*fr.* calque – nusxa, taqlid] Oʻzga til materialidan qismma-qism nusxa olish yoʻli bilan hosil qilingan soʻz yoki boshqa bir til birligi. Masalan, “надстройка” soʻzi oʻzbek

tiliga *ustqurma* tarzida kalkalab olingan. Muvaffaqiyatli chiqqan kalka jamiyat a'zolariga tushunarli bo'ladi. Kalkalar ham tilni boyitadi, ammo me'yordan ortiqcha kalkalash tilning tabiiyligini buzadi.

Qiyos: o'zlashtirish.

KALKALASH O'zga tilning leksik-frazeologik birliklarini o'z til imkoniyatlaridan to'liq yoki qisman foydalanib yangi so'z va iboralarni hosil qilish. Kalkalash qaysi tildan qilinishi jamiyat a'zolarining o'zaro aloqalariga bog'liq. Jamiyatda tilni sof saqlash istagi kuchaygan vaqtda yangi tushunchalarni kalkalab olish faollashadi. Bu tip o'zlashtirish ko'pincha jamiyat a'zolari o'rtasida til softligiga putur yetkazmaydigan jarayon sifatida baholanadi va ijobiy qabul qilanadi.

Qiyos: o'zlashtirish.

KANSELYARIZM Rasmiy-ish yuritish tiliga xos bo'lgan, oddiy tildan uzoq, birmuncha sun'iy va murakkab iboralar. U fikrni soddalikdan yiroq tarzda ifodalaydi. Masalan, oddiy "qaror qabul qilindi" o'rniga "mazkur masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi" deyish yoki "yozildi" o'rniga "yozma ravishda rasmiylashtirildi" tarzida ifodalanishi kanselyarizmdir. Shuningdek, "yordam berildi" o'rniga "tegishli choralar ko'rildi", "to'xtatildi" o'rniga esa "jarayonni to'xtatishga doir qaror qabul qilindi" kabi murakkab tuzilgan iboralar ham kanselyarizmga kiradi. Sotsiologvistik jihatdan kanselyarizmlar ijtimoiy guruhlar orasidagi til tafovutlarini ko'rsatadi, ya'ni hokimiyat, rasmiy tashkilotlar va oddiy fuqarolar tili o'rtasidagi farqni oshiradi, oddiy aholi uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shu bois til amaliyotida bunday iboralardan ma'lum ma'noda tiyilish tavsiya etiladi.

Qiyos: professionalizm.

KATTALAR TILI Asosan, rasmiy adabiy qoidalarga amal qilinishi, ko'proq standartlashganligi, mo'tadil talaffuz ohangi, paremiologik birliklarga boyligi bilan farqlanadigan nutq shakli. Kattalar tili odatda ruxsat beruvchi, buyruq beruvchi,

ogohlantiruvchi mazmunli, pand-nasihat ruhida bo‘ladi va axloqiy, diniy yoki an’anaviy qadriyatlarni ifodalaydi.

Qiyos: yoshlar tili.

KEKSALAR TILI Ulug‘ yoshdagi odamlarning nutq xususiyatlarini ifodalaydigan atama. Keksalar tili eskirgan so‘z va iboralar, dialektizmlar, maqol va matallarning ko‘p qo‘llanishi va aksincha, neologizmlarning kamligi, talaffuzining sodda yoki sekinligi bilan ajralib turadi. Keksalar tili ijtimoiy-kommunikativ tizimda avlodlararo farqlar va til evolyutsiyasining dinamikasini ko‘rsatadi, shu bilan birga, tilning o‘tmishdagi holatini aks ettiradi.

Qiyos: yoshlar tili.

KEYINGI IJTIMOIYLASHUV DAVRI Insonning o‘smirlik, yoshlik va keksalikdan oldingi paytida ijtimoiy, diniy, madaniy va boshqa axloqiy qoida va me‘yorlarni shaxsiy sifatga aylantirish, shaxsning o‘zini o‘zi idora qilish malakalarini shakllantirish bosqichi. Bu davrda inson ijtimoiy o‘rni, roli, qadriyatlarini mustahkamlaydi, yangi ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtiradi.

Qiyos: ilk ijtimoiylashuv davri, o‘rta ijtimoiylashuv davri.

KEYINGI IJTIMOIYLASHUV TILI Insonning ikkinchi ijtimoiylashuv davrida, ya’ni ta’lim-tarbiya, o‘qish-o‘rganish va kasbiy takomillashish jarayonida ma’lumot olish, fikr ifodalash vazifasini bajaruvchi tili. Bunday til vazifasini ona tili ham, ikkinchi til ham bajarishi mumkin. Shaxs turmushi va faoliyatida ikkinchi tilning ahamiyati ortishi, uzoq vaqt faqat shu tildan foydalanilish natijasida birinchi ijtimoiylashuv tili unutilishi mumkin. Keyingi ijtimoiylashuv tili ona tilidan so‘ng o‘zlashtirilsa ham ijtimoiy muloqot, kasbiy rivojlanishda muhim vosita bo‘ladi.

Qiyos: ikkinchi til, chet til, millatlararo aloqa tili.

KENGAYTIRILGAN DIGLOSSIYA Tilning ikki yoki undan ortiq shakllari (masalan, rasmiy va norasmiy, adabiy va ijtimoiy tarmoq, og‘zaki va yozma) bir jamiyatda parallel

holda mavjud bo‘lib, turli vaziyatlarda har xil til shakllarining ishlatilish holati. An’anaviy diglossiyada, masalan, adabiy o‘zbek tili rasmiy so‘zlashuvda ishlatilsa, shevalar esa kundalik muloqotda qo‘llanadi. Kengaytirilgan diglossiyada esa bu farq kengayadi: bugungi kunda odamlar rasmiy ish hujjatida “mazkur topshiriq ijro etildi” deb yozadi, lekin “Telegram”da “ish bitdi” deydi yoki internetda “aka, tezda like bosing” kabi inglizcha-o‘zbekcha aralash iboralar keng tarqalgan bo‘lsa, ilmiy maqolada bu mutlaqo nomaqbul hisoblanadi. Bu turdagi diglossiya zamonaviy texnologiyalar, yoshlar tili, internet slengi, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy tilda ishlatiladigan standartlar o‘rtasidagi uslubiy va funksional farqni ko‘rsatadi.

Qarang: diglossiya.

KENGAYTIRILGAN KOD [kengaytirilgan + *lot.* codex – qog‘ozlar bog‘lami, yozuvlar to‘plami] Fikr ifodalashda har xil – biri ikkinchisini takrorlamaydigan nutq oborotlaridan foydalanilishi, murakkab sintaktik tuzilmalar ko‘p qo‘llanishi bilan izohlanadigan til osttizimi. B. Bernsteyn fikricha, bu til shaklidan ko‘proq olimlar, ijodkorlar, umuman, intellektual rivojlangan guruhlar foydalanadi.

Qiyos: cheklangan kod.

KOKOLIK [*ing.* kokolitʃe] Kelib chiqishi italyan bo‘lgan argentinaliklar qo‘llaydigan ispan va italyan tillari aralashmasidan iborat til ko‘rinishi.

Qiyos: pijin, kreol til.

KOMMUNIKATIV VAZIFA Tilning odamlar o‘rtasida muloqot qilish, fikr ifodalash, axborot almashishdan iborat funksiyasi. Bunday vazifa til yuzaga kelishining, ijtimoiy tabiatining bosh shartlaridan biridir. Tilshunoslikda fatik, appelyativ, ta’sir o‘tkazish, munosabatlarni tartibga solish kabi kommunikativ vazifalar farqlanadi. Ushbu vazifalar muloqotning mazmuni va kontekstiga ko‘ra shakllanadi hamda har bir gap yoki ibora ortida muayyan maqsad yotadi.

Qarang: tilning asosiy vazifalari.

KONSTRUKTIV TIL SIYOSATI Muayyan ma'muriy-siyosiy makondagi tillarni, ularning huquqiy maqomli yoki maqomsiz ekanligidan qat'i nazar, ijtimoiy vazifalarini kengaytirish, boshqa tillarning ham keng qo'llanishini ta'minlashdek maqsadlarga yo'naltirilgan chora-tadbirlar. Bunday til siyosati til siyosatining boshqa shakllaridan yaratuvchilik, shakllantiruvchilik tabiatiga egaligi bilan farq qiladi. Masalan, mahalliy tillarning adabiy tillarini shakllantirish, ilmiy terminologiyasini rivojlantirish kabi.

Qiyos: destruktiv til siyosati.

KONTAKT TIL 1. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotda foydalanilayotgan til. Bunda muloqot ishtirokchilarining har ikkisiga tushunarli bo'lgan til kontakt til vazifasini bajaradi.

Qarang: tillar ta'sirlashuvi.

2. Millatlararo muloqot jarayonida tomonlarning o'z tillaridan foydalanish imkoni bo'lmaganda foydalaniladigan yordamchi til. Bunday tillarning barqarorlik darajasi, bajaradigan vazifalari, til egalarining ona tili hisoblanishi yoki hisoblanmasligiga ko'ra, bir necha ko'rinishlari farqlanadi. Masalan, vositachi til, aralash til, pijin, kreol til kabi. Bunday vazifadagi kontakt til *vositachi til* ham deyiladi.

Qiyos: aralash til, pijin, kreol til.

KONTRASTIV TILSHUNOSLIK [*fr.* contraste < *lot.* *contrasto* – qarama-qarshi] Asosan, ona tili va biron-bir chet tilini sinxron aspektida qiyosiy o'rganadigan tilshunoslik sohasi. Bunda chog'ishtirilayotgan tillararo kontrast belgilarni – farqliliklarni barcha til sathlari bo'yicha aniqlanishiga e'tibor beriladi. Masalan, o'zbek va ingliz tillaridagi so'z tartibi yoki fe'l zamonlari kontrastiv tahlil orqali o'rganilishi mumkin va bunda olingan xulosalar, asosan, til o'rganish jarayonini osonlashtirish, tarjima sifati va til ta'limiga oid materiallarni samarador qilishda foydalaniladi.

Qarang: interferensiya.

KONVERGENSIYA [*lot.* *convergere* – bir yo'nalishda

harakatlanmoq, birlashmoq] 1. Jamiyat hayotining turli davrlarida ijtimoiy, hududiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan bir-biridan uzoqlashish kayfiyatida yashagan til egalarining keyingi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ta'sirlar sababli markazlashuv jarayonlariga intilishi natijasida ular qo'llab kelgan turli til shakllari (masalan, shevalar)da umumiy jihatlarning shakllanishi, lisoniy farqliliklar kamayib, yagona me'yorlarning yuzaga kelishi.

Qarang: glottogonik konvergensiya, funksional konvergensiya.

2. O'zaro ta'sirlashuvda bo'lgan tillar o'rtasida umumiy jihatlarning kengayishi, o'xshash lisoniy unsurlarning ko'payishidan iborat jarayon. U tilning leksik, morfem, so'z yasalishi, uslubiy tomonlarida o'zlashtirish jarayonlari natijasi bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek va tojik tillarining doimiy ta'sirlashuvi natijasida o'zbek tiliga -chi shaxs oti yasovchisini almashtiradigan -kor qo'shimchasi o'zlashgan va ko'p hollarda -chi yasovchisining vazifasini o'ziga olgan. Bu ma'lum ma'noda avvaldan amal qilib kelgan shaxs oti yasash normasiga muayyan o'zgarishlarni kiritgan.

Qiyos: lisoniy divergensiya.

3. Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning yoki ulardan birining suhbatdosh tiliga, ya'ni uning ohangiga, lahjasiga yoki uslubiga moslashish orqali o'rtada do'stona munosabat va tushunishni kuchaytirish jarayoni. Masalan, toshkentlik kishining viloyatlik suhbatdoshi muloqot xulqiga moslab shevada so'zlashishi yoki, aksincha. Konvergensiya yosh va kasb doirasida moslashishda ham kuzatiladi. Masalan, katta yoshli kishining o'smirlar bilan gaplashayotganda ularning tili va slengiga moslashishi ("Zo'r bo'пти-ku! Qani endi selfi qilamizmi?")da yoki shifokorning bemor bilan rasmiy tibbiy atamalarni ishlatmay, xalqchil uslubni tanlashida (Sizda qon bosimi biroz oshgan, tuzni kamroq yeng, yurib turing – o'sha yaxshi") ham namoyon bo'ladi.

Qiyos: divergensiya 2.

KORRELYATIV TAHLIL USULI Til hodisalari va ijti-

moiy hodisalar o'rtasida bog'liqliklar bor-yo'qligini, bog'liqliklar topilganda ularning tabiatini aniqlash, lisoniy-ijtimoiy hodisalarning bir-biriga munosabatini, bunday munosabatlarining kuchli-kuchsizligini o'rganishga yo'naltirilgan sotsiolingvistik tahlil tarzi. Umuman, bunday tahlilda muayyan ijtimoiy va lisoniy jihatlar olinadi, keyin har ikki jihatning bog'liqlik darajasi, bog'lanish yo'nalishi va boshqalar aniqlanadi. Korrelyativ tahlil usulida turli matematik-statistik mezonlardan ko'p foydalaniladi.

Qiyos: bevosita kuzatish usuli.

KOYNE [yun. κοινή – umumiy, hammaga tegishli] 1. Qadimgi Afina shahrining Attika dialekti asosida shakllangan umumxalq tili.

Qarang: kajun.

2. Turli lahja va dialektlarning qo'shilishidan shakllanadigan og'zaki muloqot shakli. Umuman, turli aholi guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og'zaki muloqot vositasi. Masalan, umumbrazil koynesi Braziliyada yevropaliklar, afrikaliklar va indeyslar o'rtasida muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Koynelar dastlab savdo-sotiqda qo'llangan. Koynening jamiyatda muntazamlashuvi adabiy tilni ham shakllantiradi. Masalan, London koynesi ingliz adabiy tilining, Pekin koynesi xitoy adabiy tilining yaratilishida asos bo'lgan. Koyn ba'zan interdialektga ham tenglashtiriladi.

Qiyos: pijin, kreol til.

KOYNELASHISH Turli tillar yoki dialektlarda so'zlashuvchi kishilar uchun o'zaro umumiy og'zaki tilning yuzaga kelish jarayoni. *Koynelashish* atamasi tilshunoslikka U.Samarin tomonidan 1971-yilda umumiy yangi dialekt shakllanish jarayonini tavsiflash uchun kiritilgan. Koynelashish jarayoni bir necha bosqichdan iborat. Bular: boshlang'ich koynelashish → barqaror koynelashish → kengaygan koynelashish → milliy koynening yuzaga kelishi.

Qiyos: pijinlashish, kreollashish.

KREOL TIL [*fr.* créole – tuzmoq, yaramoq] Pijinda soʻzlashuvchilar farzandlarining ona tili sifatida shakllangan, oʻz ichki qonuniyatlari asosida rivojlana oladigan tili. Aksar kreol tillar Afrika, Amerika va Sharq mamlakatlari xalqlari tillariga Yevropa mustamlakachilari tillari xususiyatlarining singishidan hosil boʻlgan pijinlardan rivojlangan. Asosan, ingliz, fransuz, ispan va portugal tili pijinlar asosida shakllangan. Kreol tillarda ikkilamchi shakldoshlik koʻp kuzaatiladi. Masalan, ingliz tili asosida shakllangan krio kreolida soʻzlarning fonetik-leksik qiyofasi oʻzgartirilishi natijasida at I “yurak” (ing. heart), at II “shlyapa” (hat), at “zarar yoki ziyon keltirmoq” (ing. hurt) shakldosh soʻzlari hosil boʻlgan.

Qiyos: pijin, koyne.

KREOL TIL YARATUVCHISI Pijinda soʻzlashgan mustamlakachilarning farzandlari. Ular mustamlaka sharoitida, faqat pijin amal qiladigan muhitda tugʻilib oʻsgani sababli sunʼiy pijinni tabiiy kreol tilga aylantirganlar, yaʼni ajdodlari uchun pijin hisoblangan tilni ona tili sifatida oʻzlashtirganlar. Kreol til sunʼiy emas, uni muayyan toifalar yaratadi. Bu tillar tarixan kommunikatsiya ehtiyoji (masalan, savdo-sotiq qilish zarurati) natijasida yuzaga kelib, yangi avlodlarning ona tiliga aylangan, bugun ham millionlab insonlar tomonidan ishlatiladi.

Qiyos: pijin yaratuvchisi.

KREOLLASHISH Pijinning muayyan sotsium lisoniy ehtiyojlarini toʻla qondira olgan vaqtdan boshlab mustaqil leksik va grammatik qurilishli mustaqil tilga aylanish jarayoni. Masalan, ingliz-pijin asosida Surinam Respublikasi uchdan bir qism aholisining ona tili hisoblangan sranan tilining shakllanishi kreollashuvga misol boʻladi. Bu jarayonda til yanada murakkablashadi, barqaror grammatik tizimga, toʻliq soʻz boyligiga ega boʻladi va kundalik hayotda toʻlaqonli ishlatiladigan tilga aylanadi.

Qiyos: kreolsizlashish.

KREOLSIZLASHISH 1. Mustamlakachi xalqning o‘z mustamlakalaridan ko‘chib ketishi natijasida ular qo‘llab kelgan biror kreol tilning o‘sha hududdagi kishilar o‘rtasida yana pijin sifatida amal qila boshlashi. Kreolsizlashish jarayoni yuz berganda kreol tilni ona tili sifatida qo‘llaydigan aholi qolmaydi.

Qiyos: kreollashish.

2. Yangi so‘zlovchilarning kreol tilni o‘zlashtirishga urinishi ta’sirida uning grammatik tuzilishi va lug‘at tarkibining buzilishi, kreol tilning yana qayta pijin darajasiga tushishi, ikkilamchi pijinlashuv jarayoni. Kreolsizlashish natijasida til barqaror grammatikasi, boy lug‘at tarkibini yo‘qotadi. Keyinchalik ikkilamchi pijin yana kreollashuvi mumkin. Masalan, Surinam Respublikasidagi (Lotin Amerikasi) saramakka tili kreollashish va kreolsizlashishning bir necha bosqichlaridan o‘tgan.

Qiyos: pijinlashish.

KREOLSHUNOSLIK Kreol tillarning kelib chiqishi, dunyo bo‘ylab tarqalishi, tadrijiy taraqqiyoti, tipologik tuzilishi va boshqa xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi. Mazkur soha xorij sotsiologiyasida *kreolistika* ham deyiladi. Kreolshunoslik XIX asrda vujudga kelgan va XX asrning 50-yillaridan sotsiologiyasining mustaqil sohasi sifatida tushunila boshlagan.

Qiyos: pijinshunoslik.

KRIPTOGRAFIYA [*yun.* κρυπτός (*kryptós*) – maxfiy, + γράφω (*gráfo*) – yozish] 1. Maxfiy matnni begona kishilar tushunmasligi uchun shifrlab o‘zgartirish tizimi. Bunda oldindan kelishilgan raqam va shartli belgilardan foydalaniladi. Kriptografiya diplomatik, harbiy, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, diniy va boshqa mazmundagi matnlarni kodlashda ishlatiladi. Kriptografik yozuv maxsus kalit so‘zlar – shifr yordamida o‘qiladi.

Qarang: raqamli til.

2. Ochiq ma’lumotlarni shifrlashni, ularni maxfiylashtirish

usullarini o'rganadigan soha. Kriptografiyaning asosiy tushunchasi bo'lgan kriptogramma birinchi bor Edgar Allan Poning "Oltin xato" hikoyasida qo'llangan.

Qarang: yashirin til.

KSENOFOBIYA [*yun.* xenos – begona, yot, chet ellik + phobos – qo'rquv, vahima, nafrat] O'ziniki bo'lmagan, begona deb qabul qilinadigan turmush tarzi, dunyoqarash, til, adabiyot va boshqalardan qo'rqish va shunday qo'rquvdan tug'iladigan kayfiyat. Masalan, jamiyat hayotining ayrim bosqichlarida chet tillardan o'zlashgan va o'zlashishi mumkin bo'lgan so'zlarning barchasini o'ta zararli deb bilish tutumi o'zida lisoniy ksenofobiyaning namoyon qiladi. Ommaviy axborot vositalarida chet tillardan so'z olishni muttasil salbiy hodisa sifatida taqdim qilish ham xalq ongida lisoniy ksenofobiyaning shakllantiradi.

Qarang: ksenolekt.

KSENOLEKT [*yun.* xenos – begona, yot, chet ellik + *lot.* lektus – nutq, til] Migratsiya sharoitida ishlash yoki o'qish jarayonida muloqot qilish majburiyati bilan hali to'liq o'zlashtirilmay qo'llangan til. Umuman, biror hududda vaqtincha yashovchi guruhning tili. Muayyan fikr ksenolektda ifodalaganda uni qo'llayotgan shaxsda yetarlicha lisoniy malaka yetishmayotgani, shu tilga xos sezgi shakllanmagani sezilib turadi.

Qiyos: akrolekt.

KSENOLEKT EGASI Migratsiya sharoitida ishlash yoki o'qish jarayonida muloqot qilish majburiyati bilan o'z ona tilidan boshqa, ammo hali yaxshi o'zlashtirmagan tilda so'zlashuvchi shaxs. Ksenolekt egasi nutqida tilning begonaliq aniq sezilib turadi. Migratsiya sharoitida bu jihat ksenolekt egalarini tez-tez ijtimoiy kamsitishlarga uchratadi. Buni dars jarayonida yoki imtihon topshirishda adolatsizlikka duch kelishida ham ko'rish mumkin.

Qiyos: akrolekt egasi.

KSENOLEKTIK QO'LLANISH Shaxsning hali yaxshi

o‘zlashtirmagan tilda (odatda chet tilida) o‘sha tilning leksik, grammatik yoki stilistik me‘yorlariga zid keladigan tarzda so‘zlashishi yoxud yozishi. Masalan, ingliz tili me‘yorlariga zid gap tuzilishi yoki so‘zlarni xato qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin: “Each visitor received a small giflas a memory”. Ingliz tilini yaxshi bilmagan kishining ushbu nutqi ksenolekt bo‘lib, unda memory (yodgorlik) so‘zi souvenir (esdalik buyum) so‘zi o‘rnida xato ishlatilgan.

Qiyos: akrolektik qo‘llanish.

KUZATUV USULI Kuzatuvchi-tadqiqotchi bevosita til jamoasi orasida yurib, muloqot jarayonida qatnashib, sotsiolingvistik ma‘lumotlarni yig‘ish usuli. Kuzatuvchi-tadqiqotchining til jamoasi ichida ularning biri sifatida ishtirok etishi sotsiolingvistik ma‘lumotlarning sun‘iy bo‘lib qolmasligining oldini oladi, ma‘lumot beruvchilarning muloqot xulqiga noo‘rin ta‘sirni kamaytirish imkonini beradi.

Qiyos: so‘rovnomas usulu.

KO‘PDIALEKTLILIK 1. Muayyan tilning fonologik, leksik va grammatik jihatdan farqlanadigan bir necha lahjalarga egaligi. Turkiy tillar ichida o‘zbek tili ko‘p dialektliligi bilan ajralib turadi. Ko‘pdialektlilik atamasi bu ma‘noda sotsiolingvistik jihatdan tilning tabiiy variativligi, ijtimoiy tabaqalanishi va funksional boyligini ifodalaydi. Bu hodisa tilning yashovchanligi, moslashuvchanligi va ijtimoiy dinamikasi bilan chambarchas bog‘liq.

Qarang: dialekt, lahja.

2. Muayyan til vaziyatida bir necha dialekt yoki lahjaning amal qilishi, bir tilning turli hududiy, ijtimoiy va funksional dialektlarining bir hudud yoki jamiyatda bir vaqtda mavjud bo‘lishi. Masalan, o‘zbek tili muhitida qarluq, qipchoq, o‘g‘uz guruh shevalaridan iborat ko‘pdialektlilik sharoitining mavjudligi.

Qiyos: ko‘ptillilik.

3. Shaxs yoki guruh tomonidan bir necha lahja yoki shevalarni egallash va ularda erkin muloqot qila olish qobiliyati. Bu turli hududlardan kelgan aholi yashaydigan jamiyatlarda

yoki ichki migratsiya kuchli bo'lgan mintaqalarda kuzatiladi. Masalan, o'zbek tilining Farg'ona, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo lahjalarini tushunib, o'z joyiga qarab ularni ishlata oladigan odam ko'p dialektli hisoblanadi. Ko'p dialektli jamiyat a'zolari vaziyatga qarab bir dialektdan boshqasiga o'tish qobiliyatini egallagan bo'ladi.

Qiyos: ko'ptillilik.

KO'PETNOLEKTLILIK 1. Migratsiya sharoitida yashovchi etnik guruhlar o'rtasida titul millat tilidan shakllangan bir necha etnolektlarning amal qilishi, diasporalarning bir paytda bir necha etnolektlardan foydalanishi. Bunday lisoniy vaziyat ko'p kuzatiladi. Bunday til muhitida ba'zi etnolektlar rasman tan olinadi, boshqalari esa cheklangan vazifalarda qoladi. Bu esa ijtimoiy tengsizlik yoki til ziddiyatlariga sabab bo'lishi mumkin.

Qiyos: biretnolektlilik.

2. Alohida shaxs yoki etnik guruhning bir necha etnolektni tushunishi, ularda o'ziga xos talaffuz va grammatik me'yorda so'zlashishi, nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, ularni navbat bilan qo'llay olish layoqatiga egaligi. Bunday til egalari kim bilan muloqot qilayotganiga qarab etnolektni tanlaydi, ular turli etnik guruhlar orasida til vositachisi bo'la oladi. Masalan, O'zbekistonda o'zbek, tojik va qozoq millatiga mansub kishilar kundalik muloqotda rus tilidan o'ziga xos foydalanadi.

Qiyos: ko'pdialektlilik.

KO'P MILLATLI DAVLAT Hududida bir necha millat, elat yoki etnik guruhlar yashaydigan mamlakat, bir nechta etnik, madaniy va til guruhleri yashaydigan ma'muriy-siyosiy makon. Unda fuqarolar turli millatlarga mansub bo'lishiga qaramay, yagona davlat chegarasida yashaydi va ko'p hollarda umumiy fuqarolik, til yoki qonuniy birlik asosida birlashadi. Dunyoning aksar davlatlari ko'p millatli hisoblanadi. Ko'p millatli mamlakatlarning til siyosatida u yerda yashovchi katta va kichik etnik guruhlarining milliy manfaatlarini hisobga olish g'oyat muhim.

Qiyos: bir millatli davlat.

KO'P MILLATLI JAMOA Turli millat va etnik guruh vakillari bir hudud, davlat yoki jamiyatda birgalikda yashaydigan, ishlaydigan va muloqot qiladigan ijtimoiy tuzilma. Jamoani muayyan kasb-kor yoki faoliyat sohasi birlashtirib turadi. Ko'p millatli jamoa a'zolari bir tilda ham, turli tillarda ham mavjud bo'lishi, faoliyat ko'rsatishi mumkin odatda turli tillarda so'zlashadigan jamoalar ko'p. Bunday jamoalarda bir nechta tillar yoki etnolektlar yonma-yon qo'llanaveradi. Mavjud tillar rasmiy til, mintaqaviy tillar, etnik tillar, lingvofranka tarzida amal qiladi. Kishilar bir vaziyatda bir tilda, boshqa vaziyatda boshqa tilda gapirishi mumkin. Aralash nutq shaklidan foydalanish odatiy holga aylanadi. Davlatning til siyosatini titul millat bir boshqa, etnik ozchilik yana boshqa mazmunda qabul qiladi.

Qiyos: bir millatli jamoa.

KO'P RASMIY TILLILIK Muayyan mamlakatda uch va undan ortiq tilning rasmiy til maqomida amal qilishi, ish yuritish tili sifatida yashashi. Bunda tillarning barchasi teng huquqiy maqomli bo'ladi yoki biri davlat tili, boshqalari rasmiy tillar maqomida qo'llanadi. Masalan, Shveysariyada 3 til: nemis, fransuz, italyan tillari davlat tili va reteroman tili rasmiy til sifatida yashaydi. Yoki Lyuksemburgda lyuksemburg, fransuz va nemis tillari davlat tillari sifatida amal qiladi. Ko'p rasmiy tillilik huquqiy maqomsiz tillarning jamiyat hayotining turli sohalarida qo'llanishini cheklamaydi.

Qiyos: yagona rasmiy tillilik, ko'p rasmiy tillilik.

KO'P TILLI JAMOA Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli sohalarida bir vaqtning o'zida uch va undan ortiq tildan foydalanadigan, millatlararo muloqotda bir necha tilni qo'llaydigan kishilar guruhi. Bunday til jamoalari ko'p uchramaydi, ko'pincha xalqaro miqyosda faoliyat yuritadigan tashkilotlar ko'p tilli jamoaga misol bo'ladi. Bunda til tanlovi muloqot vaziyatiga, suhbatdosh yoki ijtimoiy kontekstga qarab o'zgaradi. Masalan, O'zbekistonning ayrim hududlarida

o‘zbek, rus va tojik tillarini parallel ishlatadigan jamoalar mavjud.

Qiyos: bir tilli jamoa, ikki tilli jamoa.

KO‘PTILLILIK Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida bir necha tilning amal qilishi, jamiyat a‘zolari tomonidan ularning har birining aniq muloqot sharoitiga ko‘ra tanlanishi. Ko‘ptillilik vaziyati, asosan, turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning bir ma‘muriy-siyosiy hududda istiqomat qilib qolishi natijasida shakllanadi. O‘zbekistonda o‘zbek tili davlat tili sifatida; qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman, qoraqalpoq, rus tillari hududiy va milliy xoslanishiga ko‘ra muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Mazkur tushuncha adabiyotlarda *ekzogloss til vaziyati* ham deyiladi. Sotsiolingvistikada “individual”, “jamoaviy” va “umummilliy” ko‘ptillilik farqlanadi.

Qiyos: ko‘pdialektlilik.

KO‘CHA TILI Adabiy til qoidalaridan mutlaqo chekinagan, asosan, bezori, o‘g‘ri kishilar foydalanadigan, varvarizm, vulgarizm, argotizm singari noadabiy leksikaga boyligi bilan ajralib turadigan, umumadabiy so‘zlar boshqa ma‘nolarda qo‘llanadigan milliy til ko‘rinishi. Ko‘cha tili dastlab katta shaharlarda yashovchi va tartibsiz hayot kechiruvchi kishilar orasida paydo bo‘ladi va keyinchalik kichik shaharlarda shunday hayot kechiruvchi kishilar orasida tarqaladi. Masalan, umumadabiy *ichkari* so‘zi ko‘cha tilida “qamoqxona”, *ko‘cha* so‘zi “muammolarni noqonuniy hal qiladigan kuch”, *katta bolalar* birikmasi “o‘ziga to‘q, yetarlicha moddiy ta‘minlangan yigitlar”, *katta bolalarning mashinasi* birikmasi “Lasetti” avtomobilini bildiradi. Ko‘pincha hali hayot tajribasiga ega bo‘lmagan yoshlar nutqida ham bilib-bilmay yoki bezorilar nutqiga taqlidan ko‘cha tili unsurlari qo‘llanadi.

Qiyos: adabiy til.

L

LAHJA 1. Umumxalq tilining muayyan hudud kishilari bevosita aloqa vositasi sifatida qo‘llovchi, umumadabiy tildan nisbatan yaxlit lisoniy tizimliliği bilan ajralib turadigan ko‘rinishi. Lahja o‘zida bir qator katta-kichik shevalarni birlashtiradi. Lahjalar bir-biridan tovush tuzilishi, leksik-morfemik tarkibi hamda morfologiyasi bilan farqlanadi. Tilning dialektal bo‘linishida eng yuqori o‘rinda turadi, o‘zida eng umumiy lisoniy belgilarni aks ettiradi.

Qiyos: sheva, dialekt, interdialekt, regiolekt.

2. Umuman, biron-bir hududda yashovchi aholi so‘zlashadigan muayyan til ko‘rinishi. Tilning hududiy yashash shaklining dialekt va lahjadan kichik shakli.

Qiyos: sheva, dialekt, interdialekt, regiolekt.

LEKSIFIKATOR TIL [*yun.* lexis – so‘z, nutq + -ficare – yaratmoq, hosil qilmoq, ta‘minlamoq] Pijin yoki kreol tilning yuzaga kelishiga leksik jihatdan asos bo‘lgan, unga ko‘p so‘z bergan, ammo grammatikasi va talaffuz me‘yorlarini to‘liq singdirmagan til. Odatda bunday til vazifasini mustamlakachi davlat tili bajargan, tarixiy, siyosiy yoki iqtisodiy ustunlik tilga leksifikatorlik qilish imkonini bergan. Masalan, Gvianadagi kreol tilning shakllanishida ingliz tili, Gaitidagi kreol til uchun fransuz tili so‘z beruvchi til bo‘lib xizmat qilgan. Leksifikatorlik aslida mustamlakachilar tilining kreol tilni siqib chiqarish jarayonida yuz beradi, ammo kreol til o‘ziga xos talaffuz va grammatikani shakllantirganligi sababli saqlanib qoladi.

Qiyos: pijin, kreol til.

LEKSIK ME‘YORLAR Umumxalq tilida mavjud lisoniy birliklarni nutqda to‘g‘ri, o‘rinli va maqsadga muvofiq qo‘llanishini belgilaydigan qoidalar, jamiyat a‘zolari tomonidan tegishli so‘z va iboralarning qo‘llanishini lozimlashti-

radigan normalar. Til vazifaviy uslublarining har biriga xos bo'lgan, tegishli sohalar vakillari tomonidan shu sohalar tilida qo'llanishi qoidalashgan leksik me'yorlari mavjud. Masalan, *kelmoq*, *tashrif buyurmoq*, *qadam ranjida qilmoq* ma'nodoshlaridan rasmiy nutqda *kelmoq* va *tashrif buyurmoq* so'zlaridan foydalanish me'yorlashgan. Keluvchi kishining ijtimoiy maqomiga qarab ayni ikki so'zni qo'llashda yana boshqa me'yor amal qiladi.

Qiyos: grammatik me'yorlar.

LEKSIK-SEMANTIK INTERFERENSIYA Chet tillardan birida so'zlayotgan shaxs nutqida o'sha tilga xos bo'lmagan (odatda ona tiliga xos bo'lgan) leksik birliklarni beixtiyor qo'llab yuborish, leksik birliklarni chet tiliga xos bo'lmagan ma'nolarda ishlatishdan iborat xatoliklar. Masalan, o'zbek-tojik ikkitilliligi sharoitida shaxsning o'zbek tilida so'zlayotib beixtiyor tojikcha so'z va iboralarni, o'zbek-turk ikkitilliligi muhitida "aldoqchi so'zlar"ni qo'llab yuborishi leksik-semantik interferensiyani yuzaga keltiradi.

Qiyos: fonetik-fonologik interferensiya, grammatik interferensiya.

LINGVIST-EKSPERT [*fr.* linguiste – tilni biluvchi odam + *lot.* expertus – sinab ko'rgan, tajribali, bilimli] Me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarining davlat tili talablari va adabiy til qoidalariga amal qilinganligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadigan, davlat tili talablari va adabiy til qoidalariga amal qilinmagan holatlar aniqlanganda ularni bartaraf etuvchi yoki bartaraf etish bo'yicha takliflar beruvchi malakali mutaxassis. Hozirgi kunda sud-lingvistik ekspertizasi faoliyatida muayyan so'z va iboralarda haqorat, so'kish, kamsitish mazmuni bor-yo'qligini aniqlab beradigan mutaxassislar ham lingvist-ekspert hisoblanadi.

Qiyos: davlat tili, adabiy til.

LINGVISTIK EKSPERTIZA [lingvistik + *fr.* expertise – mutaxassis tomonidan tekshiruv] Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

loyihalarini davlat tili talablari va adabiy til qoidalariga amal qilinganligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish, belgilangan talablarga nomuvofiq holatlar aniqlanganda ularni tegishli tuzatish. Hozirgi kunda lingvistik ekspertiza tashkilot rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi tomonidan o'tkaziladi. Shuningdek, muayyan kontekstdagi so'z va iboralar da haqorat, so'kish, obro'sizlantirish mazmuni bor-yo'qligini lingvistik baholash ishi.

Qarang: davlat tili talablari.

LINGVISTIK EKSPERTIZA OBYEKTI Me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarining matni, lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi kerak bo'lgan har qanday hujjat yoki tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadigan matn, nutq, yozuv, tovush. Masalan, tahdidli sms matni (muallifi va mazmunini aniqlash), audioyozuv (so'z ma'nosini aniqlash), reklama matni (soxta ma'lumot bor-yo'qligini aniqlash), jurnalistik maqola (tuhmat yoki haqorat bor-yo'qligini bilish), internetdagi izoh (etnik, diniy, jinsiy kamsitish borligini tekshirish) lingvistik ekspertiza obyekti bo'lishi mumkin.

Qarang: lingvistik ekspertiza, lingvist-ekspert.

LINGVISTIK EKSPERTIZA TALABLARI Taqdim etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari matnining davlat tili, imlo, uslubiy, grammatik va punktuatsiya qoidalariga muvofiqligini, loyiha matni aniq va tushunarli bayon qilinganligini, loyihada yangi atamalar qo'llanganda ularga mos ta'rif berilishini tekshirishga, hujjatlar loyihalari matnini mantiqiy, tahririy xato-kamchiliklarni bartaraf etishga qo'yiladigan mezonlar. Umuman, lingvistik ekspertiza obyektini puxta lingvistik baholash.

Qiyos: davlat tili talablari, imlo qoidalari, punktuatsiya qoidalari.

LINGVISTIK GEOGRAFIYA [lingvistik + *yun.* gēo – yer + graphein – yozmoq, tasvirlamoq, tasvir chizmoq] Dunyo

tillarining yoki muayyan til hodisalarining hududiy tarqalishini o'rganuvchi, ularning lisoniy xaritalarini tuzuvchi tilshunoslik bo'limi. Lingvistik geografiya XIX asr oxirlarida dialektologiyadan ajralib chiqqan, areal lingvistikaga yaqin soha hisoblanadi. *Lingvogeografiya* ham deyiladi.

Qiyos: dialektologiya.

LINGVISTIK KONFLIKTOLOGIYA [lingvistik + *lot.* *conflictus* – to'qnashuv, urilish, qarama-qarshilik + *yun.* *logos* – fan, ta'limot] Til tufayli yoki til bilan bog'liq holatlar oqibatida kelib chiqadigan nizolashuvlarni, bunday ixtiloflarning yuzaga kelish sabablarini o'rganadigan, shuningdek, lisoniy nizolarning oldini olish va bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqadigan sotsiolingvistika bo'limi. Masalan, u diskriminatsiya yoki nutqiy tajovuz (masalan, haqorat, tahdid) kabi hodisalarni tadqiqot obyekti qilib oladi. Bu soha millatlararo muloqotdagi ziddiyatlarni yumshatish, tomonlarni murosaga keltirish strategiyalarni ishlab chiqish bilan ham shug'ullanadi.

Qarang: lisoniy ixtilof, lisoniy nizo.

LINGVISTIK TA'MINOT 1. Muayyan muloqot sohasida tilning to'liq va samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan lisoniy vositalar majmuyi. Masalan, maxsus yoki ilmiy terminologiyaning mavjudligi tilni fan tili sifatida ishlashini ta'minlaydi.

Qarang: terminologiyaning milliyligi.

2. Inson va virtual tizim orasida muloqotni yo'lga qo'yish uchun ishlab chiqilgan til vositalari yig'indisi.

Qiyos: raqamli til, raqamlash tili.

LINGVOFRANKA [*ital.* *lingua franca* – franklar tili] Har xil tillarda so'zlashadigan xalqlar o'rtasida muloqot vositasi vazifasini bajaradigan umumiy til. U so'zlashuvchilardan hech birining ona tili hisoblanmaydi. Ko'pincha og'zaki shaklda amal qiladi. Masalan, ingliz bo'lmagan kishilar uchun ingliz tili yoki o'zbek-tojik bilingvizmida rus tili lingvofranka sifatida qo'llanadi. Tarixan bu atama O'rta yer dengizi mamlakatlari

xalqlari tomonidan oʻrta asrlarda qoʻllangan pijin vazifasini bajargan. Ingliz tilidan boshqa tillar ham lingvofranka sifatida qoʻllanmoqda.

Qarang: pijin.

LINGVOSOTSILOGIYA [*lot.* lingua – til + socius – jamiyat + *yun.* logos – fan, taʼlimot] Lisoniy jarayonlarni ijtimoiy jarayonlarning ajralmas qismi, tilni ijtimoiy rivojlanish omili sifatida iqtisodiy, mafkuraviy va boshqa omillar bilan birgalikda oʻrganadigan tilshunoslik sohasi. L.B.Nikolskiyga koʻra, u tilni iqtisodiy, mafkuraviy va boshqa omillar qatori ijtimoiy taraqqiyotning muhim qismi sifatida oʻrganadi. Uch asosiy yoʻnalishni oʻz ichiga oladi: 1) tilga ijtimoiy fanlar (etnografiya, tarix, sotsiologiya) nuqtayi nazaridan yondashuv, yaʼni tilni ijtimoiy fakt sifatida tahlil qilish; 2) anʼanaviy-semiotik yondashuv, yaʼni til evolyutsiyasi va adabiy til taraqqiyotining nazariy muammolarini oʻrganish; 3) sotsiolingvistika.

Qiyos: sotsiolingvistika.

2. J.Ellisga koʻra, lingvosotsiologiya “qaysi toifa (yoki ijtimoiy guruh) tilni qanday sharoitlarda va qanday maqsadlarda qoʻllaydi?” degan savolga javob izlaydi.

Qiyos: sotsiolingvistika.

LISONIY ALOQALAR Til egalarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy va boshqa sohalardagi hamkorligi natijasida bir til birliklarining ikkinchi tilga qabul qilinishidan iborat jarayon, ikki yoki undan ortiq til (dialekt) oʻrtasida yuz beradigan fonetik, leksik, grammatik yoki uslubiy darajadagi oʻzaro taʼsirlashuv. Lisoniy aloqalarning harakatlantiruvchi kuchi tarixiy, ijtimoiy, madaniy yoki siyosiy sabablar hisoblanadi va u til egalari vositasida amalga oshadi. Masalan, oʻzbek tiliga arab, fors, rus va ingliz tillaridan kirib kelgan soʻzlar va iboralar shunday aloqalarning natijasidir. Lisoniy aloqalar tilni oʻzgartiradi, boyitadi yoki baʼzan buzadi.

Qarang: til egasi.

LISONIY AMBITSIYA [*lisoniy* + *lot.* ambire – atrofida

yurmoq + -itio – harakat bildiruvchi qo‘shimcha] Muayyan etnik guruh vakillarining o‘z milliy tilini aslida shu til lingvistik va demografik jihatdan qodir bo‘lmagan sohalar tiliga aylantirishga qaratilgan xatti-harakati, shunday maqsaddagi faoliyati. Bu ko‘p hollarda minoritar til egalarining o‘z tiliga rasmiy maqom berish, ta’lim tiliga aylantirish, harbiy ish, bank-moliya singari sohalarda qo‘llanishini talab qilishdan iborat istaklarida namoyon bo‘ladi. Lisoniy ambitsiya muayyan tilni u qodir bo‘lmagan sohalarning tiliga aylantirishga urinish ekanligi bilan lisoniy tashabbuskorlikdan farqlanadi.

Qiyos: lisoniy tashabbuskorlik.

LISONIY AN’ANALAR Ma’lum bir tilga xos bo‘lgan, shu tilning mustaqil til sifatida shakllanishida asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan yozuv, talaffuz, so‘z yasash, gap tuzish bilan bog‘liq urflar, doimiy qo‘llanish natijasida me’yorlashib qolgan lingvistik odatlar. Tilning lisoniy me’yor va qoidalari ana shunday an’analar asosida shakllantiriladi.

Qarang: til me’yorlari.

LISONIY AREAL Geografik yaqinlik natijasida bir-biridan uzoq bo‘lgan yoki umuman qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida grammatik, fonetik yoki leksik jihatdan o‘xshashliklar shakllangan hudud. Masalan, turkiy tillar areali, slavyan tillari areali. Tillarning qo‘llanish hududlari kengayishi barobarida tarqalish areali ham kengaya boradi. Markaziy Osiyo lisoniy areali o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik tillarining umumiy leksik va sintaktik xususiyatlari (masalan, turkiy va fors tillarining o‘zaro ta’siri)ni o‘z ichiga oladi.

Qarang: areal tilshunoslik.

LISONIY BAG‘RIKENGLIK Muayyan mamlakat yoki ma’muriy-siyosiy makonda ko‘pchilikni tashkil qilgan, ijtimoiy jihatdan ustun bo‘lgan millatning o‘zi bilan birga yashovchi kam sonli xalq tiliga hurmat ko‘rsatishi, kichik xalq bilan so‘zlashuvda ularning ona tilidan foydalanishiga imkon berishi. Bunday yondashuv lisoniy kamsitish, til ustuvorligini zo‘rlilik bilan o‘rnatish kabilarga qarshi turadi hamda ko‘ptillilik va madaniy xilma-xillikni qadrlashga asoslanadi.

Qiyos: lisoniy liberallashuv.

LISONIY BIRXILLASHTIRISH Noxolis yoki puxta o‘ylanmagan til siyosati oqibatida muayyan mamlakat yoki uning biror hududida qo‘llanadigan tillarni yagonalash-tirishga urinish yoki mavjud sheva hamda lahjalarni birlash-tirib yuborish va ularning o‘rnida katta shahar yoxud poytaxt lahjasini joriy qilish harakati. U til siyosati, ijtimoiy bosim orqali yuzaga chiqadi, ta’lim tizimi, OAVda namoyon bo‘ladi. Lisoniy birxillashtirish harakati kichik tillarning imkoniyat-larini past baholashdan boshlanadi, lingvomadaniy har-xillikning yo‘qolishi bilan tugaydi. Bu atamani A.Meye va J.Vandries taklif qilgan.

Qiyos: lisoniy rang-baranglik.

LISONIY BIRXILLIK Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida bitta til yoki uning bitta yashash shaklining olamni bilish, fikr va munosabat ifodalash, ish yuritish vositasi sifatida mavjudligi. Lisoniy birxillik Islandiyada kuzatiladi. O‘zbekiston sharoitida faqat bir millat vakillari yashaydigan tumanlarda lisoniy birxillik kuzatiladi. Shu jihatdan to‘liq lisoniy birxillik va qisman lisoniy birxillik tu-shunchalari farqlanadi.

Qiyos: lisoniy harxillik.

LISONIY BOSHBOHQOLIK Ko‘p millatli mamla-katda lisoniy vaziyat markazlashtirilgan boshqaruv mexanizm-lari orqali tartibga solinmagan sharoitda yuzaga chiqadigan tilni qo‘llash, tildan foydalanishdagi o‘zibo‘larchilik holati. Bunday boshboshdoqlikka muayyan rasmiy til mavqeyining tushib ke-tishi, jamiyat a’zolarida adabiy til me’yorlariga yalpi amal qil-maslik, lisoniy ixtiloflarning kuchayishi sabab bo‘lishi mum-kin. Lisoniy boshboshdoqlik sharoitida jamiyat a’zolarining til birdamligi zaiflashadi.

Qiyos: lisoniy ixtilof, lisoniy nizo.

LISONIY BUNYODKORLIK Muayyan dialekt yoki so‘zlashuv tilini adabiy til darajasiga ko‘tarish, faqat og‘zaki qo‘llanib kelgan tillarning alifbo va yozuv tizimini shakllantirish, bunday tillar uchun imlo va punktuatsiya

qoidalarini ishlab chiqish, mahalliy tillarning ilmiy terminologiyasini yaratish kabilardan iborat jarayon. Bu tushuncha “til siyosati” tushunchasidan amaliy yo‘nalganligi jihatidan, “til islohoti” tushunchasidan lisoniy nimanidir tuzatish emas, tuzish, ishlab chiqish, yaratishdek yumushlar ekanligi bilan farqlanadi.

Qarang: til islohoti, lisoniy rejalashtirish.

LISONIY BO‘LINISH Bir necha til amal qiladigan mamlakatda noxolis til siyosati yuritilishi tufayli fuqarolarning yagona rasmiy tilni qo‘llashdan yalpi voz kechishi va o‘z etnik tilida ish yuritishni qonuniylashtirishga urinishidan iborat jarayon. Lisoniy bo‘linish etnik va lisoniy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi, jamiyatda bo‘linish yuz beradi. Masalan, Kanadada yuz bergan lisoniy bo‘linish fransuz tilli va ingliz tilli aholi o‘rtasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqargan.

Qiyos: lisoniy integratsiya.

LISONIY EKSTREMIZM [lisoniy + *fr.* extrémisme < *lot.* extremus – eng chekkasi, oxiri, nihoyasi] Ko‘pincha milliy ayirmachilik kayfiyatidagi guruhlar tomonidan alohida dialektlarga adabiy til maqomini berish orqali yagona adabiy til o‘rniga bir necha adabiy tilni joriy etish, shunday mazmundagi xatti-harakatlar. Olimlar katalan tilining valensiya dialektini mustaqil til sifatida tan oldirishga urinishlarni lisoniy ekstremizm deb baholaydilar. Bu jarayon til qarama-qarshiligini kuchaytiradi, lisoniy unitarizmga zid bo‘ladi, etnik identifikatsiyasini tezlashtiradi.

Qiyos: lisoniy bo‘linish.

LISONIY HAMJAMIYAT Mushtarak ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar orqali birlashgan, jamiyat hayotining barcha jabhasida o‘zaro, shuningdek, boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir yoki bir necha tilda muloqot qiladigan kishilar guruhi. Lisoniy hamjamiyat hududiy va demografik jihatdan toraygani sari lisoniy tarkibi ham konkretlashib boradi. Masalan, respublika miqyosidagi lisoniy hamjamiyatda bir ne-

cha til, shahar yoki tuman darajasidagi lisoniy hamjamiyatda ikki til amal qilishi mumkin.

Qarang: lisoniy jamoa.

LISONIY HARXILLIK Muayyan mamlakat yoki mintaqada bir necha tilning olamni bilish, fikr almashish, munosabat ifodalash vositasi sifatida yashashi. Masalan, O'zbekiston sharoitida o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, rus va boshqa tillarning mavjudligi lisoniy harxillikka misol bo'ladi. Konstitutsiya, qonun va qonunosti hujjatlarida bir necha tilning yashashi va qo'llanishining huquqiy himoyalanganligi lisoniy harxillikni saqlab qolishga xizmat qiladi. Bu tushunchaga nisbatan *lisoniy plyuralizm* atamasi ham qo'llanadi.

Qiyos: lisoniy birxillik.

LISONIY HAYOT Muayyan jamiyat a'zolari yoki mamlakat fuqarolarining til(lar)dan foydalanishi, tilning tirik va faol shaklda jamiyatda ishlashi. Masalan, o'zbek tili hayoti uyda, ko'chada, maktabda, ishxonada, OAVda, siyosatda yashayotganidir. Lisoniy hayot tarixan shakllangan yoki keyingi ijtimoiy, iqtisodiy va demografik ta'sirlar natijasida yuzaga kelgan bo'ladi. Til hayotiga oz bo'lsa-da, noxolis aralashuv lisoniy muvozanatning buzilishi va ijtimoiy tebranishlarga sabab bo'ladi.

Qiyos: lisoniy harxillik.

LISONIY IJTIMOIYLASHUV Bola, o'smir yoki voyaga yetgan shaxsning jamiyat a'zolari bilan munosabatga kirishishi uchun o'zi mansub jamiyatda qo'llanadigan tilni, o'sha jamiyatga xos lisoniy malakalarni o'zlashtirish jarayoni. Ya'ni til jihatidan ijtimoiy subyektda aylanishi, til orqali jamiyatga moslashuvi, til vositasida ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishi. Asosan, uch bosqichda (boshlang'ich, o'rta va barqaror) kechadigan bu jarayon, ayniqsa, bolalik va o'smirlik davrlarida qizg'in kechadi hamda insonning dunyoni bilishi hamda shaxsiyatini shakllantirishida muhim o'rin tutadi.

Qiyos: lisoniy individuallashuv.

LISONIY IMPERIYACHILIK Aniq ijtimoiy-siyosiy maqsadni ko'zlab muayyan tilning ijtimoiy funksiyalarini sun'iy kengaytirish, bir tilning qo'llanishini cheklash orqali boshqa tilni tarqatish, boshqa tillarni siqib chiqarish orqali yagona tilning mutlaq hukmronligini o'rnatishga qaratilgan til siyosatining bir ko'rinishi. Lisoniy imperiyachilik – ayrim ko'p millatli davlatlarning til siyosatiga tegishli hodisa.

Qarang: lisoniy kamsitish, lisoniy integratsiya.

LISONIY INDIVIDUALLASHUV 1. Shaxsning biron-bir sabab bilan o'zi mansub jamiyatdan uzoq vaqt ajrab qolishi, muntazam ijtimoiy yakkalanishi oqibatida unda umumqabul qilinmagan nutq shakllarining paydo bo'lishi, ijtimoiy marginallashuvning kishi til faoliyatida ham namoyon bo'lishi.

Qarang: lisoniy ijtimoiylashuv.

2. Shaxsning nutq faoliyatida o'ziga xos, boshqalarnikidan farqli, ma'lum ma'noda rivojlangan, ilg'or lisoniy xususiyatlarining shakllanishi. U insonning yoshi, ijtimoiy mavqeyi, kasb-kori, ta'lim olganlik darajasi, malakasi va ruhiy holatiga bog'liq jarayon. Lisoniy individuallashuv so'z tanlovi, talaffuzi va ifoda usullarida namoyon bo'ladi. Masalan, ijodkorlar, siyosatchilar yoki mashhur shaxslarda lisoniy individuallashish kuzatiladi.

Qarang: lisoniy ijtimoiylashuv.

LISONIY INTEGRATSIYA [lisoniy + *lot.* integratio – tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish] Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida olib borilgan xolis til siyosati natijasida turli tillar egalari yoki bir tilning turli dialektlarida so'zlashuvchi jamoalarning bir adabiy til (u biron-bir rasmiy til bo'ladi) ostida birlashishi, bir tilda so'zlashuvchi xalqqa aylanishi. Lisoniy integratsiya jarayonida tilning etnosotsial vazifalari yuzaga chiqadi va bunday vazifani har qanday til ham bajara olmaydi. Odatda vazifaviy uslublari rivojlangan, zamonaviy terminologiyasi shakllangan, millatlararo muloqot vositasi bo'la oladigan rasmiy til bajaradi.

Qiyos: lisoniy degradatsiya.

LISONIY IXTILOF Ma'lum bir mamlakat yoki uning hududida yashovchi kishilar o'rtasida biror tilni qo'llash yoki qo'llamaslik oqibatida kelib chiqadigan kelishmovchilik. Shuningdek, biror tilga davlat yoki rasmiy til maqomini berish, yozuv sistemasini o'zgartirish tufayli ham kelib chiqadi. Lisoniy ixtilof etnik o'zlik, ijtimoiy integratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq.

Qiyos: lisoniy bag'rikenglik. **Qarang:** lisoniy nizo, lisoniy kamsitish.

LISONIY IZOLYATSIYALASH 1. Ijtimoiy izolyatsiyalash natijasida yuzaga keladigan lisoniy alohidalanish. U muayyan tilning boshqa tillar bilan ta'sirlashuvining to'xtashiga sabab bo'ladi. Lisoniy izolyatsiyalash purizm sharoitida ham kuzatiladi. Uning ijobiy va salbiy oqibatlari bor: bir tomondan, bunda tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish jadallashadi, ikkinchi tomondan, zamonaviy tushunchalarning yetarlicha o'zlashmasligi yoki ularning aniq ifoda topmasligi xavfi oshadi. Masalan, Vyetnamdagi ruk qabilasini izolyatsiyalash bu qabila tilining o'zgarishsiz saqlab qolinishini ta'minlagan, ayni paytda, qabila tiliga ilg'or texnika tushunchalarning kirib kelishi to'xtagan, ilmiy terminologiya taraqqiy qilmagan.

Qiyos: lisoniy yakkalanish.

2. Shaxs, jamoa yoki etnik guruhning ijtimoiy, geografik, siyosiy yoki madaniy omillar tufayli muayyan tilni qo'llash imkoniyatlarining cheklanishi. U ko'pincha tilning past ijtimoiy maqomi, hukmron tilning bosimi, ta'lim va ommaviy axborot vositalarida tilning yetarli darajada qo'llanmasligi yoki hududiy izolyatsiyalangan natijasida yuzaga keladi. Odatda diaspora tillari shunday qurshovda amal qiladi.

Qarang: lisoniy nigilizm.

LISONIY JAMOA Qanday ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhitda yashashi hamda faoliyat ko'rsatishidan qat'i nazar o'zaro bir til yoki lahjada so'zlashadigan kishilar guruhi. Ular bir tildan yoki tilning muayyan yashash shaklidan foydalanishiga ko'ra birlashadi. Masalan, bir adabiy til, bir sheva yoki

bitta soʻzlashuv shaklidan foydalanadi. Lisoniy jamoa gomon va geterogen boʻladi. U lisoniy hamjamiyatdan farqli ravishda faqat til umumiyligiga asoslanadi, oʻzida turli etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishdagi shaxslarni birlashtira oladi. Tilning birlashtiruvchilik, farqlovchilik vazifalari lisoniy jamoada amalga oshadi va jamiyatning madaniy va ijtimoiy harakatiga faol taʼsir qiladi.

Qiyos: lisoniy hamjamiyat.

LISONIY KAMSITISH Muayyan mamlakat yoki kichik maʼmuriy makonda koʻpchilik soʻzlashadigan yoxud ijtimoiy ustun millatning tilini bilmaslik yoki yomon bilish tufayli shaxsning til bilan bogʻliq huquqlarini cheklash; shaxs yoxud etnik guruhning til bilan bogʻliq huquqlariga daxl qilish, tegishli tilni bilmagani sababli ularga nisbatan ijtimoiy cheklovlarni joriy etishdek xatti-harakatlar. U biror shaxs yoki etnik guruhga tildan foydalanishda tarafkashlik qilish sharoitida ham namoyon boʻladi. Lisoniy kamsitish shaxsiy va davlat darajasidagi munosabatlarda yuzaga chiqadi. Masalan, Estoniyada eston tilli aholiga ijtimoiy hayotning turli jabhalarida tarafkashlik qilish rus tilli aholining lisoniy kamsitilishiga sabab boʻlgan.

Qiyos: lisoniy boʻlinish, lisoniy nigilizm.

LISONIY KONSERVATIZM [lisoniy + *fr.* conservatisme < conservare – himoya qilmoq] Jamiyat aʼzolarining muayyan guruhi tomonidan avvaldan shakllanib kelgan til meʼyorlari va qoidalarini har qanday ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy sharoitda ham saqlab qolish va oʻzgartirmaslik, yangi lisoniy meʼyorlarni tan olmaslik va ularning joriylanishiga qarshilik qilish, hatto soʻz oʻzlashtirishni xato hisoblashdan iborat xatti-harakat. Lisoniy konservatizm alifbo va imlo islohoti yoki biron-bir tilga huquqiy maqom berish bilan bogʻliq vaziyatlarda yaqqol namoyon boʻladi. Koʻpincha etnik yoki madaniy oʻzlikni himoya qilish istagi bilan yuzaga chiqadi.

Qiyos: lisoniy liberallashuv.

LISONIY KONTINUUM [lisoniy + *lot.* continuum – uzluksiz narsa] Bir hududda bir vaqtning oʻzida tilning bir

necha shakllaridan foydalaniladigan murakkab lisoniy vaziyatlarni tavsiflashda ishlatiladigan, tilning uzluksiz, bosqichma-bosqich o'zgaruvchanligini ifodalovchi sotsiolingvistik tushuncha. Til yashash shakllarining yuqoridan pastga tomon adabiy til – sotsiolekt – maishiy til yoki sheva tarzida mavjudligini, til yashash shakllarining iyerarxiyasini bildiradi. Bu tushunchani dastlab M.A.K.Xallidey ilgari surgan.

Qarang: tilning yashash shakllari.

LISONIY LAYOQATLILIK Shaxsning muayyan tilni tushunish, muayyan tilda so'zlashish, fikrini to'g'ri va aniq ifodalay olish malakasini egallaganligi, kishida shunday lisoniy ko'nikmalarning shakllanganligi. Lisoniy layoqatlilik shaxsni o'zi mansub jamiyatda normal muloqotga kirishuvini ta'minlaydi. D.Hayms tomonidan kiritilgan bu atama Yevropa sotsiolingvistikasida *kommunikativ kompetensiya* ham deyiladi.

Qarang: sotsiolingvistik layoqatlilik.

LISONIY LIBERALLASHUV Jamiyat a'zolarida chet so'zlar, jargon, argotik so'zlar, dialektizmlar yoki oddiy so'zlashuv birliklarining adabiy tilga qabul qilinishi hamda qo'llanishiga monelikning yo'qolishi, ayni paytda, bunday til birliklarining adabiylashuviga xayrixoh bo'lish. Lisoniy liberallashuv sharoitida avval qabul qilinmagan va qo'llanishi nodurust hisoblangan sintaktik konstruksiyalar ishlatilishga o'tadi. Xorij tilshunosliklarida bunday holatlar "me'yorning silkinishi" deb ham talqin qilinadi.

Qiyos: lisoniy konservatizm.

LISONIY MANSUBIYAT Shaxsning olamni qaysi tilda idrok etishi, qaysi tildan asosiy muloqot vositasi sifatida foydalanishiga ko'ra belgilanadigan xususiyati. Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchi shaxsning o'zini o'zbek tili jamoasiga mansub deb hisoblashi, shu orqali o'zining ijtimoiy, etnik yoki madaniy identifikatsiyasini ifodalashi. Lisoniy mansubiyat insonning ilk lisoniy ko'nikmalarni o'zlashtirish davridan shakllana boshlaydi.

Qiyos: etnik mansubiyat.

LISONIY MIGRATSIYA [lisoniy + *lot.* migratio – aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi] Bir til jamoasining lisoniy muhitga ko‘chib o‘tishi yoki biror tilning boshqa hududda tarqalishi. Lisoniy migratsiyaning bir necha bosqichlari bo‘lib, u jamoaning yangi til vaziyatiga moslashishidan boshlanadi hamda yangi lisoniy ko‘nikmalarni egallash bilan yakunlanadi. Sotsiolingvistika uchun muhojirlar va farzandlarining titil millat tilini yetarlicha bilmaslik natijasida turli kommunikativ zo‘riqishlarga uchrashi oqibatlarini, muhojirlarning farzandlarida yangi til malakalarining shakllanishini o‘rganish, muhojirlikda lisoniy o‘zlikka ta‘sir masalalari ham muhim.

Qarang: etnolekt.

LISONIY MUHIT 1. Muayyan muloqot amalga oshadigan, fikr almashuv jarayoni yuzaga chiqadigan ijtimoiy, moddiy va ma‘naviy shart-sharoit. Bu ma‘noda nutqiy vaziyat tushunchasiga tenglashadi. Lisoniy muhit katta lisoniy muhit va kichik lisoniy muhitga ajraladi. Masalan, oila darajasidagi til muhitini kichik hisoblash mumkin.

Qarang: nutqiy vaziyat.

2. Muayyan til amal qiladigan, yashaydigan hamda vazifa bajaradigan ijtimoiy sharoit va bunda shaxslar yoki jamoalar o‘zaro muloqot qilish uchun tilning ma‘lum shakllari (dialekt, jargon, standart til)dan foydalanadilar. U tilning qo‘llanish sohalari, etnik yoki ijtimoiy guruhlarning tilga munosabati, til siyosati kabi omillarga bog‘liq holda shakllanadi va belgilanadi. Masalan, O‘zbekistonda o‘zbek tili davlat tili sifatida asosiy lisoniy muhitni shakllantiradi, viloyat yoki shaharlarda mahalliy lisoniy muhit (Samarqand shahrida tojik tili muhiti) bo‘ladi. Lisoniy muhit tilning hayotiyliigi, etnik o‘zlikni anglash va ijtimoiy birlashuvga ta‘sir qiladi.

Qarang: til vaziyati.

LISONIY NIGILIZM [lisoniy + *rus.* НИГИЛИЗМ < *lot.* nihil – hech narsa, hech nima] Shaxsning o‘z milliy tili imkoniyatlarini past baholashi, uni rasmiy, ilmiy nutq uchun yaroqsiz yoki imkoniyati yetarli emas deb bilishi, tilni ijtimoiy obro‘sizlangan deb bilishdan paydo

bo'ladigan munosabat. Bunday munosabat g'ayrimilliy muhitda tarbiyalangan shaxslarda paydo bo'ladi va asta-sekin milliy tilning ifoda imkoniyatlarini yetarlicha bilmaydigan kishilar orasida yoyiladi. Shaxsga bolalikdan etnik o'zlikni anglatish, til tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, milliy an'ana va qadriyatlarni singdirib borish bilan tilga nigilistik munosabatning oldi olinadi.

Qiyos: lisoniy sodiqlik.

LISONIY NIZO Bir mamlakatda yashovchi turli millat vakillari o'rtasida til tufayli kelib chiqadigan, keyinchalik qurolli to'qnashuvlarga ham aylanib ketadigan ziddiyat. Bunday nizolarni lisoniy kamsitish keltirib chiqaradi. Dastlab alohida shaxslar orasida boshlangan lisoniy kelishmovchilik keyinchalik o'sha tillarda so'zlashadigan etnik guruhlar o'rtasida davom etadi. Masalan, Ukraina sharqida harbiy harakatlarning boshlanishiga Donbass, Luganskda rus tilini qo'llashning cheklanishi ham sabab qilib ko'rsatiladi.

Qiyos: lisoniy ixtilof.

LISONIY NOQULAYLIK Jamiyat a'zolarining muayyan tildan (ko'pincha ona tilidan) yoki uning ijtimoiy-hududiy ko'rinishlaridan erkin va ijtimoiy zo'riqishsiz foydalanishida qulaylikning yetishmasligi. Ko'pincha shaxs ikkinchi tilning ijtimoiy mavqeyi ortib ketganligi tufayli o'z ona tilidan erkin foydalana olmaganda yoki begona til muhitiga tushib qolganida o'zida lisoniy noqulaylikni sezadi. Yoki katta shaharlarga ko'chib borgan kishilarda mahalliy shevasida so'zlashishda noqulaylik paydo bo'ladi. Lisoniy noqulaylik shaxsning jamiyatga faol qo'shilib ketishiga to'siq bo'ladi.

Qiyos: lisoniy qulaylik.

LISONIY MO'LJALLASH 1. Muayyan mamlakat yoki uning biror hududidagi til vaziyatini o'rganish, mavjud tillarning yashashi, qo'llanishi, rivojlanishi uchun sharoit yaratish va boshqalarni ilmiy baholashdan iborat jaryon. Lisoniy mo'ljallash kompleks lingvistik tadbir bo'lib,

unda dunyodagi tillarning rivojlanishi, muayyan tilning holati, ijtimoiy funksiyalarini qay darajada bajara olayotganligi kabi masalalarga ham e'tibor beriladi. U lisoniy va etnik harxillikni saqlab qolish, tillarning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o'rnini oldindan taxmin qilishga imkon beradi.

Qiyos: lisoniy rejalashtirish.

2. Muayyan tilning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari, qo'llanish sohalari, ijtimoiy maqomi va vazifalarini kengaytirish bilan bog'liq islohotlar o'tkazishdan oldingi ilmiy tahlil va rejalashtirishdan iborat sotsiolingvistik tadqiqot jarayoni. Bu tilning hayotiyliigi, demografik o'zgarishlar, migratsiya, globallashuv, texnologik ta'sirlar (masalan, raqamli muhitda tilning qo'llanishi)ni hisobga oladi. Masalan, O'zbekistonda ingliz tilining yosh avlod orasida keng tarqalishi sharoitida o'zbek tilining chorak asrdan keyingi holati lisoniy mo'ljalash obyekti bo'lishi mumkin.

Qiyos: lisoniy rejalashtirish.

LISONIY QATLAMLANISH Jamiyat a'zolarining kundalik turmushi va ish-faoliyatida ijtimoiy-hududiy mansubligi, kasb-kori, yoshi va jinsiga bog'liq ravishda tilning turli yashash shakllaridan foydalanishiga ko'ra farqlanishi. Masalan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan aholi vakillari kundalik turmush va faoliyatda asosan o'zi yashaydigan hudud shevasidan, ziyolilar adabiy tildan, adabiy lashayotgan nutq shakllaridan, boshqaruvchi qatlam vakillari rasmiy nutq shaklidan foydalanadi. Ammo bunday qatlamlanish ideal darajada amal qilmaydi.

Qarang: tilda ijtimoiy farqlanish.

LISONIY QOBILIYAT 1. Psixolingvistikada: shaxsning o'z hayoti va faoliyati davomida lisoniy belgilar vositasida bilimlarni o'zlashtirish hamda yaratishda ishtirok etadigan oliy aqliy xususiyatlardan biri.

Qarang: lisoniy ko'nikma, lisoniy malaka, lisoniy layoqat.

2. Sotsiolingvistikada: shaxsning til birliklari yordamida o'zi mansub jamiyatga xos ijtimoiy me'yor, qadriyat va

tajribalarni o‘zlashtirishni ta’minlovchi aqliy xususiyatlaridan biri. Shaxsning lisoniy qobiliyati shakllanishi jarayoni lisoniy ijtimoiylashuv bilan birga kechadi.

Qiyos: lisoniy ijtimoiylashuv.

LISONIY QULAYLIK Jamiyat a’zolarining muayyan tildan (ko‘pincha ona tilidan) yoki uning turli ijtimoiy-hududiy ko‘rinishlaridan erkin va ijtimoiy zo‘riqishlarsiz foydalana olishi, kishilarning tilni qo‘llash bilan bog‘liq jarayonlarda biror noqulaylikni his qilmasligi. Ko‘pincha shaxs ona tilidan erkin va ijtimoiy zo‘riqishlarsiz foydalana olganda yoki shaharga ko‘chib kelgan kishilar mahalliy shevasida boshqalar bilan tabiiy muloqotga kirishganda yoxud tildan foydalanishiga nisbatan salbiy munosabatni sezmaganda o‘zida lisoniy qulaylikni sezadi.

Qiyos: lisoniy noqulaylik.

LISONIY QURSHOV 1. Tabiiy tarixiy omillar sababli ma’lum bir til yoki dialektning o‘ziga yaqin til yoki dialektlardan uzilgan holda boshqa tillar yoki dialektlar bilan o‘ralgan sharoitda amal qilishi. Bunday holatda yashaydigan til yoki dialekt uni qurshab turgan tillar yoki dialektlarning muntazam ta’siri ostida bo‘ladi. Dunyodagi juda ko‘plab kichik tillar lisoniy qurshov sharoitida yashaydi.

Qiyos: lisoniy yakkalanish, lisoniy izolyatsiyalash.

2. Har bir insonning tug‘ilganidan boshlab hayotining oxiriga qadar til muhiti ichida bo‘lishi, til muhitining uni o‘rab turishi. Shaxs mansub jamiyatda qaysi tillar mavjud, qanday tillarda muloqot qilinadi, qaysi tillardagi nutqlarni eshitadi – shularning hammasi lisoniy qurshovni tashkil etadi. Masalan, oilada ona tili, maktab va universitetda adabiy til muhiti, ish-faoliyatda rasmiy til muhiti, qolaversa, ko‘cha-ko‘yda va OAVda qo‘llanadigan til muhiti qurshovida bo‘ladi. Ijtimoiy marginallashmagan har bir shaxsning bunday qurshovda bo‘lishi tabiiy.

LISONIY QO‘RQUV 1. Jamiyat a’zolari orasida chet tillardan so‘z o‘zlashtirishni zararli hodisa deb bilish natijasida

shakllanadigan hadiksirash kayfiyati. Lisoniy qo‘rquv paydo bo‘lishining bir necha sabablari bor. Ommaviy axborot vositalarida chet tillardan so‘z olishni muttasil salbiy holat sifatida taqdim qilaverish jamiyat a‘zolarida shunday kayfiyatni paydo qiladi.

Qiyos: lisoniy nigilizm.

2. Davlat va boshqa ma‘muriy-siyosiy tuzilmalarda muayyan tilga nisbatan shakllangan salbiy fikr tufayli kishilarda o‘sha tildan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan hadik; shaxs yoki jamoaning tilni qo‘llash orqali kamsitish yoki rad etilishga uchrashdan qochishi bilan bog‘liq holat. Lisoniy qo‘rquvni ko‘pincha ijtimoiy, madaniy yoki siyosiy omillar yuzaga keltiradi. Bu tushuncha ayrim adabiyotlarda *lisoniy fobiya* ham deyiladi. Masalan, Boltiqbo‘yi mamlakatlarining rus tilli aholisi orasida rus tilidan foydalanish bilan bog‘liq qo‘rquv shakllanmoqda. Lisoniy qo‘rquv ko‘pincha ko‘p tilli muhitlarda, ayniqsa, etnik ozchiliklar yoki diaspora jamoalari orasida kuzatiladi.

Qarang: lisoniy kamsitish.

LISONIY REALLIKNI TARTIBGA SOLISH Tilning funksional qo‘llanishi bilan bog‘liq holatlarni ijtimoiy guruhlar, partiyalar va boshqaruv organlari tomonidan ilmiy xulosalarga asoslangan holda maqsadli boshqarish. Bu jarayon ko‘p millatli mamlakatlarda milliy til siyosatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Qarang: lisoniy rejalashtirish, til siyosati, til islohoti.

LISONIY REJALASHTIRISH Vakolatli davlat tashkilotlari yoki ilmiy muassasalar tomonidan tillarning kelib chiqishidan qat‘i nazar qo‘llanishiga, umuman, lisoniy faoliyatga rejali munosabat. Lisoniy rejalashtirishda tillarni saqlab qolish yoki rivojlantirish, tillarning ijtimoiy funksiyalarini kengaytirish yoki toraytirish va boshqalarni qachon va qanday amalga oshirish choralari ishlab chiqiladi.

Qarang: til siyosati, til vaziyati, lisoniy mo‘ljallash.

LISONIY SODIQLIK Jamiyat a‘zolarida o‘z tiliga nisbatan kommunikativ yaroqli, ijtimoiy-lisoniy ehtiyojlarini

qondira oladigan, idioetnikligining muhim sharti deb bilishidan shakllanadigan, oʻz tilini saqlash va undan faol foydalanishga intilishini ifodalaydigan munosabati. U shaxsning milliy tilini taʼlim va faoliyat tili sifatida tanlashi, jamiyat aʼzolaridan tiliga hurmat koʻrsatishni talab qilishi va boshqa shunday munosabatlarida namoyon boʻladi. Lisoniy sodiqlik tuygʻusi sharoitga qarab har xil darajada turadi. Masalan, Oʻzbekistonda oʻzbek tiliga sadoqat davlat tili maqomi tufayli mustahkam boʻlsa-da, diaspora muhitida (masalan, Rossiya-da) bu darajada boʻlmaydi.

Qiyos: lisoniy nigilizm. **Qarang:** lisoniy oʻzlikni anglash.

LISONIY TABU Muayyan jamiyat aʼzolari tomonidan biror narsa-hodisa, belgi-xususiyat va harakat-holatning nomini aytishga qoʻyilgan taqiq. Lisoniy tabularni etnik, ijtimoiy tabular, tilning magik kuchiga ishonish hissi yuzaga keltiradi. Avval koʻplab turkiy xalqlarda, masalan, oʻzbek, tuva ayollariga oʻz erining ismini aytish tabulangan, shu bois turmush oʻrtogʻini katta farzandining ismi bilan yoki boshqa shaklda chaqirgan. Sotsiolingvistikani lisoniy tabularning jamiyatning til bilan bogʻliq tutumlari, ijtimoiy odoblarini oʻzida namoyon etishi qiziqtiradi.

Qarang: ibtidoiy tabu, etnik tabu, diniy tabu.

LISONIY TARAFKASHLIK Etnoijtimoiy sabablarga koʻra biror til, sheva yoki nutq shakliga boshqa til, sheva yoki nutq shaklini kamsitadigan darajada, asossiz yon bosish. Masalan, shevalarni nutq madaniyati uchun zararli hodisa hisoblagan holda adabiy tilni ustuvorlashtirish, shevani “xato nutq”, rasmiy tilni “toʻgʻri” nutq shakli deb yondashish. Lisoniy tarfkashlik ish-faoliyatda ingliz yoki rus tilini biladiganlarni zamonaviy, kerakli kadr deb bilish va bilmaydiganlarni nozamonaviy yoki oʻrtamiyona mutaxassis deb hisoblashda ham namoyon boʻladi. Lisoniy tarfkashlik tilga oid tengsizlikni keltirib chiqarib, jamiyatda kamsitish, oʻz tilidan uyalish yoki tilni inkor etishga olib keladi.

Qiyos: lisoniy xolislik.

LISONIY TARANGLIK Ikki va undan ortiq til amal qiladigan mamlakatda yoki uning biror hududida muayyan tilni qo'llash bilan bog'liq muammolar sababli yuzaga keladigan ijtimoiy tanglikning bir ko'rinishi, lisoniy ixtilof va nizolar kelib chiqishidan oldingi vaziyat. Lisoniy taranglik mavjud til vaziyatini noto'g'ri mo'ljallash va noxolis til islohoti natijasida yuzaga keladi.

Qiyos: lisoniy ixtilof, lisoniy nizo.

LISONIY TASHABBUSKORLIK 1. Muayyan millatning ilg'or ziyolilari, til faollarining kamida o'z milliy yoki etnik tilining faoliyat doirasini kengaytirish, shu tilning davlat tomonidan muhofazalanishini ta'minlash, ko'pi bilan esa rasmiy maqom berilishiga qonunan erishish maqsadidagi xatti-harakatlari. Bunday tashabbuskorlik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan holatlar ham, etnik nizolarga sabab bo'lgan holatlar ham bor. Masalan, Afg'oniston hukumati til faollarining o'zbek tiliga rasmiy maqom berish haqidagi tashabbusini ma'qullagan, ammo Pokiston hukumati tomonidan bengal tiliga rasmiy til maqomini berish tashabbusi ma'qullanmagan, aksincha, tashabbuskor guruhlar ta'qib qilingan.

2. Ma'lum bir tilning ichki xususiyatlariga aloqador islohotlarni o'tkazish talab-istagi bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlar. Bunday xatti-harakatlar yozuv tizimini o'zgartirish, imlo qoidalarini takomillashtirish, punktuatsiya qoidalarini yangilash, adabiy til leksikasini ko'p shevali qilib shakllantirish kabi jarayonlarda namoyon bo'ladi. Ba'zi tillar (masalan, ingliz, ispan, fransuz)da bu harakatlar natijasida yangi neytral shakllar – “they/them” (ingliz tilida jinsni ko'rsatmaslik uchun) yoki, masalan, ispan tilida “amigo – do'st (erkak); amiga – do'st (ayol)” degani. Agar guruhda erkaklar va ayollar aralash bo'lsa, grammatik qoidaga ko'ra, erkak jinsini bildiradigan so'z shakli qo'llanadi: “amigos (hatto 99 foiz ayol va 1 foiz erkak bo'lsa ham). Gender tengligi tarafdorlari buni noto'g'ri deb, neytral “amigx” so'z shaklini taklif qilgan.

Qarang: til faollari.

LISONIY TIYILISH Jamiyat a'zolarining turli ijtimoiy taqiy yoki etnik tabular tufayli avvaldan foydalanib kelgan tilini, uning muayyan yashash shaklini yoxud biron-bir lisoniy odatni qo'llashni lozim ko'rmay qolishi. Masalan, Avstraliyadagi aborigenlarda ona tilini qo'llash bilan bog'liq tabular saqlanib qolgan, ular bir-biri bilan maxsus terminologiyada so'zlashadi.

Qarang: lisoniy tonish.

LISONIY TONISH Jamiyat a'zolarining ijtimoiy hukmron fikr-munosabat ta'sirida o'z ona tilini mustaqil til sifatida inkor qilishi, kommunikativ yaroqsiz deb hisoblashi. Lisoniy tonish davlatning noxolis til siyosati oqibatida, til ijtimoiy mavqeyining tushib ketishi ta'sirida paydo bo'ladi. Bunday til jamoasi ko'pincha ijtimoiy-siyosiy maqomi baland bo'lganligi sababli ikkinchi tildan foydalanishni ma'qul ko'radi.

Qiyos: lisoniy tiyilish.

LISONIY TO'SIQ Muayyan jamoa yoki millatning tilini lozim darajada bilmaslik natijasida shaxsning shu jamoa yoki millat vakillari bilan muloqotiga monelik qiladigan, xalal beradigan jihat; shaxsning muayyan chet tilini bilish darajasini past baholashi natijasida uning shu tilda muloqot qilishiga mone bo'ladigan ruhiy holat. Bunday holatga odatda chet tilini yaxshi o'zlashtirgan jamoada faoliyat yuritadigan shaxslar duch keladi. Yoki shaxs o'zga til muhitida bo'lib turganda yoki muhojirlikda yashaganda kuzatiladi.

Qiyos: til tanqisligi.

LISONIY UNITARIZM [lisoniy + *fr.* unitarisme < *lot.* unitas – yagona, birlik] “Bir davlat – bir millat – bir til” tamoyiliga asoslangan milliy til siyosati ko'rinishi. Unda turli tillar yoki dialektlarni birlashtirish, standartlashtirish yoki bir tilni boshqa tillardan ustun qilib qo'yish orqali til birligi targ'ib qilinadi. Mutaxassislar 1794-yildan 1951-yilgacha Fransiyada shunday til siyosati olib borilgani va bu vaqtda fransuz adabiy tili

yagona til sifatida qo‘llanishi majburiylashtirilganligini qayd qiladilar.

Qarang: noxolis til siyosati, milliy yo‘nalgan til siyosati.

LISONIY XOLISLIK Muayyan davlat yoki muxtor respublikaning til qonunchiligi va ijtimoiy amaliyotda barcha tillar yoki shevalarga teng huquq va imkoniyatlarning berilishi, tillarning turli sohalarda qo‘llanishida adolatli munosabat o‘rnatilganligi. O‘zbekiston kontekstida lisoniy xolislik “O‘zbekiston Respublikasida “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun (1995) va Konstitutsiyaning 4-moddasiga asoslanadi, bu hujjatlar o‘zbek tilini davlat tili sifatida belgilagani holda, ozchilik tillari va shevalarni kamsitmaslikni kafolatlaydi. Lisoniy xolislik ta‘limda, davlat organlarida va ommaviy axborot vositalarida fuqarolarga o‘z ona tilida murojaat qilish, ta‘lim va axborot olish huquqini ta‘minlash orqali amalga oshiriladi, ammo amalda tarjima xizmatlarining yetishmasligi noxolislik sifatida tushunilmasligi lozim.

Qiyos: lisoniy tarafkashlik.

LISONIY YAKKALANISH Milliy til tarkibidagi dialektlardan birida so‘zlashuvchi aholining davlatning parchalanishi, milliy chegaralarning o‘zgarishi, markazdan uzoqda yashab qolishi kabilar sababli yondosh dialektlar va killari bilan aloqa-aralashuvning to‘xtashi natijasida vaqtincha yoki doimiy lisoniy alohidalanish jarayoni. Lisoniy yakkalanish uzoq vaqt davom etganda dialektdan mustaqil til shakllanadi. Masalan, bugungi sharqiy slavyan tillari (rus, ukrain va belarus) XIV asrdan keyin lisoniy yakkalangan mos dialektlar asosida shakllangan.

Qarang: lisoniy izolyatsiyalash, lisoniy qurshov.

LISONIY O‘ZGARISH Tilning turli sathlarida bevosita nolisoniy omillar ta‘sirida, masalan, ijtimoiy hayot shakllarining o‘zgarishi sharoitida yuzaga keladigan yangilanishlar. Sotsiolingvistika, boshqa tilshunoslik sohalaridan farqli ravishda, ijtimoiy hayotdagi yangilanishlarning tilga qanday

ta'sir etayotgani, ayni paytda, tilning sotsial jarayonlarda qanday ishtirok etayotganligiga e'tibor qaratadi, har qanday lisoniy o'zgarishning jamiyat hayotidan tashqarida kechmasligini tushuntiradi.

Qarang: ijtimoiy omillar.

LISONIY O'ZLIK Insonning muayyan til bilan bog'langan odatda ona tiliga ijtimoiy-ruhiy bog'liqligini ifodalaydigan tushuncha; Shaxsning ona tilida fikrlashi, gapirishi, ona tili orqali o'zini etnik identifikatsiya qilishi. Lisoniy o'zlikning qanday shakllanishi oilaviy muhit, ta'lim dargohining qandayligiga bog'liq. Lisoniy o'zlik orqali shaxs yoki jamoa o'zini boshqa guruhlardan farqlaydi. Hatto mahalliy shevada so'zlash ona tiliga sodiq qolish yoki muayyan jargonlardan foydalanish ham shaxsning lisoniy o'zligini ifodalaydi. Lisoniy o'zlik yoshga ko'ra o'zgarib, takomillashib boradi. Masalan, keksalarda an'anaviy til shakllariga sodiqlik, o'tmish til unsurlarini saqlashda namoyon bo'ladi.

Qarang. etnik o'zlik.

LISONIY O'ZLIKNI ANGLASH Jamiyat a'zolarining o'zining kimligi, qaysi millatga mansubligini bilish jarayonida milliy tilni idioetniklikning yagona sharti sifatida tushunib yetishi, insonning til orqali o'z milliy, madaniy va ijtimoiy kimligini ongli qabul qilishi. Lisoniy o'zlikni anglash ona tiliga aloqa vositasigina emas, balki milliy ong va madaniy merosning bosh shakllantiruvchisi deb bilishda ham namoyon bo'ladi. Bunday xususiyatli jamiyat o'z tilini rasmiy til darajasiga ko'taradi, davlati nomini etnik nomiga muvofiqlashtiradi.

Qarang. lisoniy sodiqlik.

LOGLAN [*ing.* logical language – mantiqiy til] Tilshunoslik bo'yicha tadqiqotlarda foydalanish uchun mo'ljallab ishlangan sun'iy til. Masalan, E.Sepir va B.Uorfning "Lisoniy nisbiylik gipotezasi"ni eksperimental tekshirish uchun J. K.Braun tomonidan ishlab chiqilgan. Loglan lotin grafikasiga asoslanadi, unda omonimlar yo'q, grammatikasi nomlar,

predikatlar va bog'lovchilarning birikuvi asosiga qurilgan.

Qarang: sun'iy tillar, esperanto, volapyuk, tokipona.

LOTINLASHTIRISH Yozuvi bo'lmagan biror tilning yozuv tizimini lotin alifbosi asosida yaratish yoki lotincha bo'lmagan yozuv tizimidan lotin grafikasiga asoslangan yozuv tizimiga o'tkazish, xullas, xat-hujjat bilan bog'liq ishlarni to'liq lotin yozuvida shakllantirishni yo'lga qo'yish. Dunyo xalqlarining ko'pchiligi o'z yozuv tizimini lotinlashtirgan. O'zbek xalqi ham o'z tarixiy taraqqiyotida ikki marta lotinlashtirish jarayonini boshidan kechirgan. Bu jarayon shunchaki harf almashtirish emas, balki til siyosati, madaniy, ta'limiy va texnologik jarayonlarni qamrab olgan kompleks o'zgarishlar jarayonidir.

Qarang: qo'shyozuvlilik, yosh yozuvli tillar, yangi yozuvli tillar.

LUG'AVIY KALKA O'zga til leksik birligidan qismma-qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan so'z. Masalan, ko'rsatkich (указатель), qo'lyozma (рукопись), temiryol (железная дорога), xalq xo'jaligi (народное хозяйство) kabi. Lug'aviy kalkalar tilga shunchaki so'z sifatida ham, madaniy, iqtisodiy, mafkuraviy ta'sirlar natijasi sifatida ham kirib keladi. Masalan, *xalq xo'jaligi*, *jamoat xo'jaligi* kabi mafkuraviy ta'sirlar mahsuli o'laroq o'zbek tilida hosil bo'lgan.

Qiyos: ma'naviy kalka.

M

MADANIY O‘ZLIKNI ANGLASH Shaxsning o‘zini muayyan madaniyatga mansubligini bilish, muayyan madaniyat vakili ekanligini tushunib yetish jarayoni. Bolalikdan boshlanadigan bu jarayon insonning milliy urf-odat hamda madaniy an‘analarni ko‘rib-bilib borishi, o‘zi ham madaniyatni yaratuvchi sifatida ishtirok etishi bilan davom etadi. Shaxsning madaniy o‘zligini anglay boshlagani etnomadaniy an‘analarni hurmat qila borishi va boshqa shu kabi holatlarda ko‘rinadi.

Qiyos: ijtimoiy o‘zlikni anglash.

MAHALLIY AHOLI Mamlakat hududida qadimdan yashab kelayotgan yerli xalq. Aholining mahalliy yoki mahalliy emasligi yashash hududiga ko‘ra belgilanadi, shu bois bir millat vakillari ham, turli millat vakillari ham mahalliy aholi bo‘lishi mumkin. Sotsiologiya, boshqa tilshunoslik sohalaridan farqli ravishda, mahalliy aholi so‘zlashadigan tilning ijtimoiy ahvoli, demografik quvvati, rivojlanish yoki unutilish tendensiyalariga diqqat qaratadi. Jamiyatshunoslikda *avtohton xalq* ham deyiladi.

Qiyos: mahalliy til.

MAHALLIY TIL 1. Davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega bo‘lmagan, faqat aholining kundalik aloqa-munosabat ehtiyoji uchun xizmat qiladigan odatda nisbatan oz sonli millat vakillari so‘zlashadigan til. Masalan, Toshkent viloyatining ayrim shahar va tumanlarida qozoq tili, Andijon viloyatining ayrim tumanlarida qirg‘iz tili, Qoraqalpog‘istonning ayrim tumanlarida turkman tili mahalliy til maqomida mavjud. Mahalliy tillarning aksariyati o‘z yozuv tizimiga ega bo‘lmaydi, og‘zaki shaklda yashaydi. Sotsiologiyada *avtohton til* ham deyiladi.

Qiyos: dunyo tillari, xalqaro tillar, regional til.

2. Muayyan milliy tilning yashash shakli bo‘lgan hududiy dialekt va shevalar. Bu ma’noda u sheva hamda lahja tushunchalariga teng keladi, uni *hudud tili* yoki *hududiy til* ham deyish mumkin.

Qarang: tilning yashash shakllari.

3. Bir millatli mamlakatlarda shahar aholisi kundalik muvoqotda, savdo-sotiq ishlarida foydalanadigan so‘zlashuv tili.

Qiyos: adabiy til, davlat tili, rasmiy til, ishchi til.

MAHBUSLAR JARGONI Qamoqqa hukm qilingan kishilar nutqida umumqo‘llanishdagi ma’nosi va shaklidan mutlaqo boshqa ma’no hamda shaklda uchraydigan so‘z va iboralar. Bunday jargonlar uzoq vaqt qamoqda qolgan odamlar tilida ko‘p uchraydi. Ayrim mahbuslar jargonining qamoqdan tashqarida ham ommalashishi kuzatiladi. Masalan, “nishtyak” so‘zi “juda zo‘r”, “eng yaxshisi” ma’nolarida ko‘cha-ko‘yda qo‘llanadi.

Qiyos: qamoq tili.

MAISHIY TIL Rasmiy ish yuritish, ta’lim-tarbiya va boshqa jarayonlarda qo‘llanmaydigan, balki oilaviy munosabatlar hamda maishiy turmushning boshqa jabhalarida ishalatiladigan aloqa vositasi, shunday tilning maishiy munosabatlarda qo‘llanishini ifodalaydigan, mahalliy til tushunchasidan farqlaydigan atama. Jamiyat hayotida adabiy tilning ishtiroki kengayib borishi natijasida qo‘llanishi torayadi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida teleut tili faqat maishiy munosabatlarda amal qiladi. Sotsiolingvistikada bu tushuncha *uy-ro‘zg‘or tili* ham deyiladi.

Qiyos: adabiy til, davlat tili, rasmiy til.

MAJORITAR TIL [*fr.* majoritaire – ko‘pchilikka oid < *lot.* majoritas – ko‘pchilik + til] Muayyan mamlakat aholisining asosiy qismini tashkil etadigan, shu mamlakatdagi boshqa millat vakillaridan ijtimoiy, siyosiy, madaniy yoki iqtisodiy jihatdan ustun mavqega ega bo‘lgan etnik birlik tili. Bunday til ko‘pincha davlat yoki rasmiy til maqomini oladi. Masalan, O‘zbekistonda o‘zbek tilini, Fransiyada fransuz tilini majoritar til hisoblash mumkin. Tilning majoritar yoki

minoritarligi viloyat, shtat, shahar miqyosida qo‘llanishiga ko‘ra ham belgilanadi. Kanadaning ingliz-fransuz ikkitilliligi amal qiladigan Kvebek provinsiyasida fransuz tili aholisi ijtimoiy ustunroq va ko‘pchilik qismi (70–80%) fransuz tilida, qolgan qismi ingliz va boshqa tillarda so‘zlashadi. Shunga ko‘ra majoritar til – fransuz tili.

Qiyos: minoritar til, etnik ozchilik tili.

MAJORITAR XALQ Muayyan mamlakat aholisining asosiy qismini tashkil etadigan, shu mamlakatdagi boshqa millat vakillaridan ijtimoiy, siyosiy, madaniy yoki iqtisodiy jihatdan ustun mavqega ega bo‘lgan etnik birlik. O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek xalqi majoritar xalq hisoblanadi. Majoritar xalqning tili va madaniyati mamlakatning asosiy identifikatorlari sifatida qabul qilinadi, ularning madaniyati va tili mamlakat madaniyati va tilining normasi sifatida qabul qilinadi. Majoritar xalq tushunchasi shu kabi jihatlari bilan etnik ko‘pchilik tushunchasidan farq qiladi.

Qiyos: minoritar xalq, etnik ko‘pchilik.

MAKROETNONIM [yun. makros – katta, ko‘p, uzun + etnos – xalq + onyma – nom, ism] Umumiy kelib chiqishga ega bo‘lgan katta etnik birlik yoki jamoaning nomi. Mazkur atama keng ma’noda tushunilganda, kelib chiqishi har xil etnik guruhlarining jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichida titul millat tarkibida birlashgan holatiga nisbatan ham qo‘llanadi. Masalan, bugungi ingliz degan nom turli etnik guruhlarini o‘zida birlashtiradigan makroetnonimdir.

Qiyos: mikroetnonim.

MAKROSOTSIOLINGVISTIKA [yun. makros – katta, ko‘p, uzun + sotsiolingvistika] Til va jamiyat, til va siyosat, til va din munosabati, ularning o‘zaro ta’sirlashuvi muammolari, tilning yashash shakllari va ularning ijtimoiy vazifalari, til vaziyati, til siyosati, til qonunchiligi, til kontakti muammolari singari qamrovi katta va umumnazariy xarakterli masalalarni o‘rganadigan, ijtimoiy omillarning yaxlit tilga ta’sirini tadqiq qiladigan sotsiolingvistika sohasi. Makrosotsiolingvistikaning

obyekti bo‘lgan bunday jarayonlar yo butun jamiyat, yo yetarlicha katta ijtimoiy qatlam yoki etnik guruh bilan bog‘liqlikda o‘rganadi.

Qiyos: mikrosotsiologiyat.

MARGINAL TIL [*fr.* marginal – chegaraviy, eng so‘nggi + til] Muloqot jarayonida cheklangan tarzda qo‘llanadigan milliy tilning noadabiy shaklini bildiradigan atama. U bolalar tili, chet elliklar bilan so‘zlashuvda qo‘llanadigan til shakli, uy tili (masalan, yevropaliklarning afrikalik yoki osiyolik xizmatkorlari bilan so‘zlashadigan lahja) bo‘lishi mumkin. Umuman, chet jamoalar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy zaif guruhlar bilan muloqotda qo‘llanadigan til.

Qiyos: marginal shaxs.

MARGINAL SHAXS [*fr.* marginal – chegaraviy, eng so‘nggi + shaxs] Jamiyatning umumiy rivojlanish darajasidan ortda qolgan, o‘zi mansub ijtimoiy guruhdan ajralib qolgan, fuqarolik holati noaniq kishi. Sotsiologiyat shaxs marginallashuvining lisoniy faoliyatga qay tarz ta‘sir qilishi qiziqtiradi. Ularning til xususiyatini o‘rganish bilan bu toifa odamlarning ijtimoiy o‘zligi tahlil qilinadi.

Qiyos: marginal til.

MARKAZLASHGAN TIL SIYOSATI Til va yozuv bilan bog‘liq islohotlarning davlat yoki uning vakolatli organi (masalan, O‘zbekistonda Davlat tilini rivojlantirish departamenti) boshchiligida olib borilishi. Bunday mazmundagi til siyosatida barcha ishlar, masalan, alifboni o‘zgartirish bo‘ladimi, imlo qoidalarini yangilash bo‘ladimi, maxsus qonun, farmon, qarorlar asosida huquqiy kafolatlanib amalga oshiriladi. Odatda umummilliy miqyosdagi til islohoti markazlashgan holda amalga oshadi.

Qiyos: markazlashmagan til siyosati.

MARKAZLASHMAGAN TIL SIYOSATI Til va yozuv bilan bog‘liq ishlar markazdan turib emas, tuman yoki shahar darajasida boshqariladigan xatti-harakatlar. Bunday lisoniy o‘zgarishlar shu hudud aholisining ehtiyojlarigagina

xizmat qiladi. Masalan, ayrim hududlarda ta'lim tili sifatida qirg'iz yoki qozoq tilining tanlanishi, bu tillarda gazeta-jurnallarning chop etilishi ham umumdavlat miqyosida emas, tuman va shahar darajasida amalga oshirilgan choralardir. Ammo bu choralar tegishli tarzda vakolatli organlar tomonidan umumdavlat til siyosatiga muvofiqlashtirib turiladi.

Qiyos: markazlashgan til siyosati.

MASLAHATCHI O'zbekiston sharoitida: davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari rahbarlari, viloyat, shahar va tuman hokimlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha mas'ul xodimi.

Qarang: til siyosati.

MAXFIY TIL Uyushgan guruh, bir kasb-kor egalari yoki muayyan topshiriq asosida birlashgan kishilarning o'zaro yashirin axborot almashuvida qo'llanadigan, ammo boshqalarga mazmuni tushunarsiz bo'lgan til yoki nutq shakli. U argotizm va jargonizmlar, kodlangan so'zlar, maxsuslashgan metaforalar yoki o'ziga xos iboralar orqali shakllanadi va guruhning lisoniy o'zligini mustahkamlash, o'zaro muloqotni qulaylashtirish yoki tashqi ta'sirlardan himoyalaniish uchun xizmat qiladi. Maxfiy til keksalarning o'tmish ijtimoiy tajribalari, faqat o'zlarining avlodiga tushunarli arxaizmlardan foydalanib so'zlashishida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Qiyos: maxsus til. **Qarang:** argo, jargon, sotsiolekt.

MAXSUS LEKSIKA 1. Ilm-fanning muayyan sohasiga xos tushunchalarni ifodalaydigan, faqat maxsuslashgan terminologik ma'no hamda vazifada qo'llanadigan so'z va iboralar jami. Bu ma'noda ilm-fan terminologiyasi tushunchasiga teng keladi.

Qarang: ilmiy termin.

2. Kasb umumiyiligiga ko'ra birlashgan kishilar o'zaro muloqotda foydalanadigan, ularning o'ziga xos ehtiyojlari, tajribasini aks ettiruvchi so'z va iboralar jami. Bu tip so'zlar shaklan umumadabiy tildagi so'zlar bo'lsa

ham ma'no jihatidan kasbiy xoslanadi. Bunday maxsus leksika undan foydalanuvchilar muloqotini qulaylashtirish bilan birga ijtimoiy o'zlikning umumiyligini ham ko'rsatadi. Maxsus leksikadan foydalanish ularga boshqa shaxslardan ijtimoiy farqlanish imkonini ham beradi.

Qarang: professionalizmlar.

MAXSUS TIL Muayyan fan-texnika sohasi vakillari o'zaro fikr almashish jarayonida qo'llaydigan, umumadabiy tildan leksik-morfologik xususiyatlari bilan farqlanadigan til ko'rinishi. Maxsus tilda professionalizmlar, ma'nosi ixtisoslashgan iboralardan foydalaniladi. Bunday nutq ijtimoiy tabaqalanishning tildan foydalanishga ta'sirini ko'rsatadi. Uning boshqa shaxslarga tushunarli emasligi kommunikatsiya jarayonida to'siq bo'lishi mumkin.

Qarang: professionalizm.

MA'NOVIY KALKA O'zga til so'zi bildiradigan ma'noni o'z tildagi so'zga yuklash. Masalan, *yo'ldosh* so'zining *Yer yo'ldoshi* birikmasidagi ma'nosi, *g'ildirak* so'zining *tarix g'ildiragi* birikmasidagi ma'nosi, *oqim* so'zining *siyosiy oqim* birikuvidagi ma'nosi semantik kalkadir.

Qiyos: lug'aviy kalka.

MA'MURIYAT TILI Muayyan mamlakatning boshqaruv idoralari faoliyatida qo'llanadigan til shakli. Ma'muriyat tili vazifasini asosan davlat tili yoki rasmiy til, qisman esa mamlakat elitasi foydalanadigan til bajaradi. Bunday til shakli rasmiy uslubga xoslangan til birliklarining keng qo'llanishi bilan ajralib turadi. Ammo ma'muriyat tili doim ham davlatning rasmiy tili bo'lmasligi mumkin.

Qarang: davlat tili, rasmiy til, ishchi til.

MEMOLEKT [*ing.* meme < *yun.* mimema – taqlid] Internet memlari asosida shakllanadigan, o'ziga xos leksik va stilistik birliklarga ega bo'lgan, ko'pincha yoshlar orasida internet va ijtimoiy tarmoqlar vositasida tarqalgan noadabiy nutq shakli. Memolektda oddiy so'zlar, jumlar yangi, kulgili yoki kinoyali ma'no kasb etadi. Masalan, o'zbek tilida “Nima bu?”, “Go'shtni ko'p yeyapmiz”

kabilar muayyan kontekstda memga aylangach, butunlay yangicha ijtimoiy signalga ega bo'lgan. Sotsiolingvistik jihatdan memolekt muayyan ijtimoiy guruh (ayniqsa, yoshlar, onlayn hamjamiyatlar) tilining belgisi bo'lib, u guruhga mansublik, hazil madaniyati va zamonaviy tendensiyalarni tushunish darajasini bildiradi. Memolekt tilning norasmiy, emotsional va ko'p hollarda ironik qatlamini shakllantiradi hamda nutqda yangi ekspressiv vositalarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Qiyos: sleng.

MENTALITET [*fr.* mentalité – fikrlash tarzi, ong shakli < *lot.* mens, mentis – aql, tafakkur, ong] Xalqning tarixan tarkib topgan, o'zida xalqning aqliy-ruhiy xususiyatlarini saqlaydigan va etnosning voqelikka munosabatida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-ruhiy immunitet, xalqning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi. Mentalitet dunyoqarashga qaraganda barqaror va juda sekin o'zgaradi. Turmushda ro'y bergan favqulodda o'zgarishlargina xalq mentalitetini o'zgartirishi mumkin. Sotsiolingvistikani, boshqa tilshunoslik sohalaridan farqli ravishda, til va mentalitet ta'sirlashuvi masalalari qiziqtiradi.

Qarang: sotsiomadaniy omillar.

METROLEKT [*yun.* μήτηρ – ona + lectos – nutq, so'zlashuv] Yirik shaharlar aholisining til xususiyatlari, nutq uslublari aks ettiradigan, shahar madaniyati, turmushi va ko'ptilliligi ta'sirida shakllangan og'zaki til ko'rinishi. U dastlab bir yoki bir necha sotsiolektlardan rivojlanadi, ayniqsa, uning shakllanishida muhojirlar tilining ta'siri kuchli bo'ladi. Shahar aholisining asosiy qismi so'zlasha boshlagach, metrolektga aylanadi va shu jihati bilan urbanolektdan farqlanadi. Metrolekt keksalar orasida ularning shahar muhitidagi uzoq muddatli tajribasi va avlodlararo muloqot ta'sirida o'tmishdagi mahalliy til xususiyatlarini saqlab qolishi yoki zamonaviy shahar tiliga moslashishida ham namoyon bo'ladi.

Qarang: dialekt, lahja.

MEZOLEKT [*yun.* mesos – o‘rtadagi, oraliqdagi + lectos – nutq, so‘zlashuv] Ko‘pincha o‘rta ijtimoiy qatlam vakillari qo‘llaydigan, o‘zida ba‘zan yuqori, ba‘zan quyi qatlam vakillarining til xususiyatlarini aralash namoyon etadigan til shakli va shunday tushunchaning nomi. Sotsiolingvistikada mezolekt akrolekt (yuqori ijtimoiy mavqega ega rasmiy til) va bazilekt (past ijtimoiy tabaqalarda ishlatiladigan norasmiy til yoki dialekt) o‘rtasida turishi aytiladi.

Qiyos: akrolekt, bazilekt.

ME‘YORLASHGAN TIL Badiiy so‘z ustalari, ijodkorlar, filolog-mutaxassislar tomonidan til amaliyotini kuzatish orqali orfoepiyasi, orfografiyasi, leksikasi, grammatikasi hamda uslubiyati me‘yorga solingan til. “Standart til”, “adabiy til” tushunchalari lisoniy me‘yorlari ishlab chiqilganligi, qo‘llanishning tartibga solinganligi bilan “me‘yorlashgan til” tushunchasiga tengdek, ammo “me‘yorlashgan til” tushunchasida normativlik ifodasi ustuvor.

Qiyos: standart til, adabiy til.

MIKROSOTSIOLINGVISTIKA [*yun.* mikros – kichik + sotsiolingvistika] Alohida shaxslar yoki kichik ijtimoiy guruhlarning tildan foydalanish tarzlarini, individual nutq uslublari, shaxsiy muloqot strategiyalari va kichik jamoalarda tilning o‘zgarishini, tilning kichik ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishini o‘rganadigan sotsiolingvistika bo‘limi. Mikrosotsiolingvistikada ijtimoiy psixologiyaning ijtimoiy roli, tajrima guruhi, etalon guruh, yetakchi va qoloq guruh tushunchalaridan foydalanib, ikkilik (masalan, shifokor – bemor, er – xotin, o‘qituvchi – talaba muloqoti) va uchlik (sudya – sudlanuvchi – advokat muloqoti)da ishtirokchilarning nutqiy xatti-harakatlari mexanizmlari ochib beriladi.

Qiyos: makrosotsiolingvistika.

MILLATLARARO LISONIY IXTILOF Bir mamlakatda yashovchi turli xalqlar o‘rtasida tilni qo‘llash yoki qo‘llamaslik bilan bog‘liq ravishda kelib chiqadigan

ziddiyat. Bunday ixtilofga bir tilning huquqiy imtiyozlari kengaygani holda boshqasining shunday imtiyozlarga ega bo‘lmasligi, bir yozuv tizimidan boshqa yozuv tizimiga o‘tish ham sabab bo‘ladi. Millatlararo lisoniy ixtilof sabablari bartaraf qilinmasa, lisoniy nizoga aylanishi mumkin. XX asrning 2-yarmida Hindistonda hindiyini barcha shtatlarida davlat tili sifatida joriy qilinishi millatlararo nizoga olib kelgan.

Qiyos: milliy lisoniy ixtilof, xalqaro lisoniy ixtilof.

MILLATLARARO MULOQOT Ko‘p millatli mamlakatda yashovchilar o‘rtasida rasmiy va norasmiy, og‘zaki va yozma fikr almashish jarayoni. U mamlakat ichidagi va mamlakat tashqarisidagi millatlararo muloqot sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, bir davlat ichidagi millatlararo muloqotda lisoniy vaziyatdan kelib chiqib, asosan titul millat tili yoki ijtimoiy qamrovi katta tildan foydalaniladi. Mamlakat tashqarisidagi millatlararo muloqotda muloqot ishtirokchilariga tushunarli va qulay til qo‘llanadi.

Qarang: millatlararo muloqot tili.

MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATI

Shaxsning boshqa millat vakili bilan suhbatida voqelanadigan lisoniy xulqi, turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqotda hurmat, bag‘rikenglik, moslashuvchanlik, til va madaniyat farqlarini inobatga olish, tushunish va ijobiy aloqa o‘rnatish qobiliyati. Shaxs o‘z xalqi ijtimoiy-ma‘naviy qadriyatlarini o‘zlashtirib ijtimoiylashgani sababli muloqot nafaqat ikki til, shuningdek, ikki madaniyat muloqotiga aylanadi. Bir-biriga yaqin xalqlar (masalan, o‘zbek va tojik) muloqotida farq asosan lisoniy bo‘ladi. Millatlararo muloqot madaniyati sotsiologvistik jihatdan tilning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini boshqarish hamdir.

Qiyos: millatlararo muloqot tili.

MILLATLARARO MULOQOT TILI Ko‘p millatli mamlakatda yoki mamlakat tashqarisida ikki va undan ortiq xalq vakillari so‘zlashadigan til, etnik mansubligidan qat’i nazar ular uchun umumiy fikr almashish vositasi.

Ko‘pincha, millatlararo muloqot tili vazifasini titul millat tili yoki tomonlarga tushunarli bo‘lgan boshqa til bajaradi. Masalan, O‘zbekiston sharoitida o‘zbek va tojik, o‘zbek va qozoq xalqlari o‘rtasida millatlararo muloqot tili vazifasini o‘zbek tili, qozog‘istonlik qozoq va o‘zbeklar o‘rtasida qozoq tili bajaradi. Shuningdek, pinyin va kreol til ham bunday til vazifasini bajarishi mumkin.

Qiyos: davlat tili, rasmiy til, pinyin, kreol til.

MILLATPARASTLIK O‘z milliy manfaatlarini ustun qo‘ygan holda boshqa millatlarning manfaatlari bilan hisoblashmaslik, millatlar tengligini inkor qilish, ko‘r-ko‘rona yonbosish natijasida millatdoshlarining kamchilik va nuqsonlarini sezmaslik darajasiga kelib qolish. Sotsiolog-vistika uchun millatparastlikning lisoniy faoliyatga ta‘sirini aniqlash, milliy tilga munosabat qachon millatparvarlik bo‘lishi va qayerda millatparastlikka aylanishini topish muhim.

Qiyos: millatparvarlik.

MILLATPARVARLIK Millatlar tengligini anglagan va tan olgan holda o‘z millatiga, uning tili, madaniyatiga befarq bo‘lmaslik. Sotsiolog-vistikada millatparvarlik millati tilining boshqa tillardan kam bo‘lmasligi, unutilib ketmasligi yo‘lida qayg‘urish muhim muammo sifatida ko‘riladi, tilning milliy o‘zlik, tarixiy xotira va qadriyatlar tashuvchisi ekanligiga e‘tibor beriladi.

Qiyos: millatparastlik.

MILLATCHILIK 1. Mahdudlik va mumtozlikni targ‘ib va tashviq qilishga asoslangan, o‘z millatiga chuqur ishonch va o‘zga millatlarga ishonchsizlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan nazariya va amaliyot. Millatchilik ijtimoiy voqelik va unda kechayotgan jarayonlar millat tarixiy taraqqiyotining bosh subyekti, milliy munosabatlar esa ijtimoiy munosabatlarning asosiy turi degan nuqtayi nazardan kelib chiqib baholanganida shakllanadi. Sobiq ittifoq davrida millatchilik tushunchasi atayin soxtalashtirilgan va milliylikning har qanday ko‘rinishi millatchilik sifatida baholangan.

Qiyos: millatparvarlik.

2. G'arb ijtimoiy tafakkurida imperiyalarning tanazzuli hamda yangi milliy davlatchilikning shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan siyosiy tamoyil. Shuningdek, ayrim etnoslarning iqtisodiy, siyosiy va boshqa ko'rinishlardagi salbiy tashqi ta'sirlarga javob reaksiyasi sifatida yuzaga chiqadigan xatti-harakatlari, shuningdek, global integratsiya va internasionallashuv jarayoniga qarshilik ko'rsatish yo'lidagi urinishlari.

Qiyos: millatparastlik.

MILLIY ALOHIDALANISH Sun'iy yoki majburiy birlashtirishga qaratilgan xatti-harakatlarga nisbatan kichik xalqlar va etnik guruhlarining milliy o'zlikni himoya qilish, saqlab qolish maqsadidagi javob reaksiyasi; o'z milliy-madaniy xususiyatlarini izolyatsiya va avtarkiya orqali saqlashga intilish. Milliy alohidalanish jarayonidagi xalqlarda tarixiy xotira uzoq vaqt ular uchun milliyat himoyasi vazifasini bajarishi mumkin.

Qiyos: milliy bo'linish.

MILLIY BO'LINISH Muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit va ma'muriy-siyosiy makonda yashayotgan ellarning milliy-etnik uzilishi – an'analari, urf-odatlarini, umumiy normalari o'rtasidagi funksional aloqalarning buzilishi jarayoni. Bu jarayon etnosotsiopsixologiyadagi o'zgarishlar natijasida yuz beradi. Milliy bo'linish millatning til hayotiga ham ta'sir qiladi va bunda til umumiyliги yo'qoladi, xalqlar boshqa tilni o'zining hayotiy muhim tili sifatida qabul qiladi. Masalan, Yugoslaviyaning parchalanishi bilan olti til rasmiy tilga aylandi va shu tillar ostida tegishli xalqlar birlashdi.

Qiyos: milliy konsolidatsiya.

MILLIY IFTIXOR Insonning ongi va faoliyatida o'zi mansub bo'lgan millatning madaniyati, tarixi, dini, tili, qadriyatlarining o'rnashganligini ifodalaydigan tushuncha. U milliy g'ururning yuqori bosqichi bo'lib, millatni yagona ijtimoiy birlik sifatida his qilishda namoyon bo'ladigan ma'naviy-ruhiy fazilat. Xuddi shu fazilat tufayli kishilar o'zlarining tarixiy

birliklarini – urug‘-aymoqchilik, qon-qardoshliklarini ifodalaydilar.

Qiyos: milliy g‘urur.

MILLIY IKKITILLILIK Davlat darajasida ikki tilning rasmiy maqomga ega bo‘lishi, ularning milliy miqyosda teng huquqli rasmiy tillar sifatida tan olinishi. Odatda, milliy ikkitillilik ona tili va ikkinchi til asosida shakllanadi. Rasman tan olinishi ularni mamlakat miqyosida teng maqom va teng kommunikativ vazifalarda ishlatilishini ta‘minlaydi. Masalan, Belorusiyada belorus va rus tillari, Kanadada ingliz va fransuz tillarining amal qilishi milliy ikkitillilikka misol bo‘ladi. Tarixiy, etnik, siyosiy sabablarga ko‘ra shakllanadigan bunday ikkitillilik sharoitida milliy til millatparvarlik va lisoniy o‘zlikni mustahkamlash asosi sifatida, ikkinchi til iqtisodiy ehtiyojlar, ta‘lim talabi yoki xalqaro integratsiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Qiyos: ommaviy ikkitillilik.

MILLIY LISONIY IXTILOF Bir tilda so‘zlashuvchi kishilarning tilni qo‘llash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan kelishmovchiligi. Bunday lisoniy ixtilof ko‘pincha adabiy tilni shakllantirish, alifbo va imloni takomillashtirish jarayonida kelib chiqadi. Masalan, bunga muayyan dialektni adabiy til uchun asos dialekt qilib olingani holda boshqa dialektlarning fonetik, leksik, grammatik imkoniyatlaridan umuman foydalanilmaganligi sabab bo‘ladi. Milliy lisoniy ixtilof ko‘pincha ziyolilar o‘rtasidagi norozilik chiqishlarida ko‘rinadi.

Qiyos: millatlararo lisoniy ixtilof, xalqaro lisoniy ixtilof.

MILLIY LISONIY MUNOSABAT Jamiyat taraqqiyotining ma‘lum bir bosqichida kishilarda yaxlit til yoki uning biror yashash shakliga nisbatan shakllangan obyektiv fikr, xulq darajasiga ko‘tarilgan pozitsiya. U jamoaning o‘z tili yoki boshqa jamoa tiliga nisbatan moyillik yoxud xushlamaslik ruhida bo‘lishi mumkin. Milliy lisoniy munosabat tilning qo‘llanishiga, shuningdek, til siyosatiga

va milliy identifikatsiyaga ta'sir qiladi. Milliy tilning milliy birlik ramzi sifatida baholanishi, boshqa tillarning ikkinchi til sifatida ko'rilishida shunday munosabat kuzatiladi. Yoki adabiy til va shevalarni tilning oliy va quyi shakllari sifatida ajratilishida ham shunga yaqin munosabat seziladi.

Qarang: til siyosati, lisoniy sodiqlik, lisoniy nigilizm.

MILLIY KALONDIMOG'LIK Muayyan xalqning ongi va mentalitetiga yalpi singib ketgan takabburlik, manmanlik, kekkayish kabi g'ayrimadaniy xususiyat. Milliy kalondimog'lik bor yerda uning davomi o'laroq millatchilik ruvojanadi. U ko'p millatli mamlakatda millatlarni bir-biriga yaqinlashtirishga rahna soladi, etnik alamzadalikni paydo qilib, millatlararo adovatga sabab bo'ladi. Milliy kalondimog'likning yuqori bosqichi millatchilikdir. Bunday kayfiyat ko'pincha til siyosatida, ta'limda yoki ommaviy axborot vositalarida bir til yoki madaniyatni mutlaqlashtirishda namoyon bo'ladi.

Qarang: milliy murosasizlik.

MILLIY MENTALITET Milliy ong va uning faoliyati xarakterini ifodalovchi tushuncha bo'lib, millatning an'analari, madaniyati, ijtimoiy tuzilishi va turmush tarzi asosida shakllanadi. O'z navbatida, milliy mentalitet taraqqiyotning turli davrlarida milliy an'analar, madaniyat va turmush tarziga ham ta'sir ko'rsatadi. Milliy mentalitet komponentlari stixiyali shakllanadi va ajdodlardan avlodlarga o'tadi.

Qiyos: milliy o'z-o'zini anglash.

MILLIY NIGILIZM [milliy + rus. нигилизм < lot. nihil – hech narsa, hech nima] Kishilarda o'z millatiga past baho berish, milliy xususiyatlarini past baholash kayfiyatining shakllanishi, millat sifatida rivojlanish istiqbollarga ishonmaslik hissi. Ko'pincha o'z ona tilida gaplashishni istamaslik, bolalarini etnik tilida ta'lim olishini xohlamaslik, milliy urf-odatlariga amal qilmaslik, milliy o'zlik, madaniyat va uning tarixiy ahamiyatini inkor qilish kabi xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Milliy nigilizm jamiyatning birligi va xavfsizligiga tahdid

sifatida ko‘rilishi mumkin, chunki u milliy qadriyatlar va an‘analarni zaiflashtiradi.

Qiyos: lisoniy kamsitish.

MILLIY ONG Har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, diniy e‘tiqodi, madaniy rivoji jarayonida shakllangan dunyoqarashi, tafakkuri, e‘tiqod va ishonch tuyg‘ularini ifodalovchi tushuncha. Milliy ong ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, boshqa millatlar bilan muloqoti jarayonida paydo bo‘ladi. U til bilan ham uzviy bog‘liq. Tilda ifoda etilgan buyum, hodisa va raqamlar milliy ongda o‘z ifodasini topadi va subyektiv obrazlar tariqasida bilimga aylanadi. Shuning uchun millat shakllanishining dastlabki bosqichlaridayoq ajdodlar merosi til orqali o‘zlashtirilib, ongga singdirib boriladi.

Qiyos: milliy mentalitet.

MILLIY KONSOLIDATSIYA [milliy + *lot.* consolidare – mustahkamlamoq, mahkamlamoq] Ma‘lum ijtimoiy-tarixiy sharoit va ma‘muriy-siyosiy makonda yashayotgan ellarning etnolisoniy umumiylik, tarixiy-madaniy yaqinlik asosida bir millat sifatida shakllanishi va rivojlanishidan iborat tarixiy jarayon. Milliy konsolidatsiyaning muqarrar natijasi til birligining shakllanishidir. Sotsiolingvistika bu jarayonni adabiy tilning birlashtiruvchilik vazifalari tadqiqida ko‘rib chiqadi.

Qiyos: milliy bo‘linish.

MILLIY MUROSASIZLIK Boshqa xalqlarga o‘ta salbiy munosabat natijasida paydo bo‘ladigan, millatlararo taranglik va jamiyatda beqarorlik keltirib chiqaradigan, buyuk millatchilik, buyuk davlatchilik iddaosidagi harakatlar. Masalan, Qrimdagi milliy murosasizlik ushbu mintaqadagi umumiy milliy taranglikning muhim omili hisoblanadi. Milliy murosasizlikka til bilan bog‘liq omillar ham sabab bo‘ladi va buning natijasida lisoniy ixtilof va nizolar kelib chiqadi.

Qarang: lisoniy ixtilof, lisoniy nizo.

MILLIY SIYOSAT Davlat hokimiyatining millatlar,

xalqlar va etnik guruhlar o'rtasidagi iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy, madaniy va lisoniy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha faoliyati. Til milliy o'zlikning asosiy tashkil etuvchisi bo'lgani uchun davlatning milliy siyosati til siyosatini ham qamrab oladi.

Qarang: til siyosati.

MILLIY SUDLOV TILI Muayyan mamlakatning sud tizimi hamda sudlov jarayonida foydalaniladigan, sud huquqi, sudlov hujjatlari shakllantiriladigan va e'lon qilinadigan til. Davlat o'z milliy til siyosati, aholisining etnik va demografik o'ziga xosliklari va sud tizimining tabiatidan kelib chiqib, milliy sudlov tilini qonunan belgilaydi. Shu bilan birga, milliy sudlov tili xalqaro miqyosda tan olingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga ham muvofiq bo'lishi zarur. Sotsiolingvistikani davlat til siyosatining milliy sudlov tiliga munosabati, milliy sudlov tilini belgilashda til vaziyatining qay darajada hisobga olinganligi, fuqarolarning til huquqlariga qay darajada muvofiqligi, basharti nomuvofiq bo'lganda lisoniy muvozanatni izdan chiqarishi kabilar qiziqtiradi.

Qiyos: xalqaro sudlov tili.

MILLIY TIL 1. Tarixan o'zi mansub xalq bilan birga shakllangan, milliy mansubiyatning asosiy sharti bo'lgan, millat tiliga xos barcha xususiyatlarni o'zida jamlagan, milliy toifalarning birlamchi aloqa vositasi hisoblangan umumxalq tili. Milliy til tilning barcha yashash shakllarini o'zida jamlaydi va uning oliy shakli adabiy til hisoblanadi. U dastlab og'zaki ravishda vujudga keladi, keyinchalik yozma fikr-munosabat ifodalash tarzlari ham shakllanadi. Masalan, o'zbek milliy tili qarluq-chigil-uyg'ur, qipchoq va o'g'uz lahjalari asosida yuzaga kelgan.

Qiyos: xalq tili, qabila tili, adabiy til, umummajburiy til.

2. Ingliz sotsiolingvistikasida: mamlakat miqyosida yagona va rasmiy muloqot vositasi sifatida foydalaniladigan til, "davlat tili", "rasmiy til" tushunchalarini ataydi. Ba'zan ikki yoki undan ortiq xalq bir tilni milliy til deb biladi. Masalan, AQSh, Angliya, Avstra-

liya va Yangi Zelandiyada ingliz tili (yoki uning milliy variantlari) milliy rasmiy til maqomida ishlatiladi. Ammo ingliz tilining bunday maqomga egaligi konstitutsiya va boshqa hujjatlarda qayd etilmagan.

Qarang: davlat tili, rasmiy til.

3. Muayyan mamlakatda kam sonli etnik guruhlarining ona tili; muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitda yashovchi etnosning o'z tili. Bunday tilning ijtimoiy vazifalari rivojlanmagan bo'ladi, rasmiy uslubda deyarli qo'llanmaydi, etnik mansubiyatni bildirib turgani uchun milliy til hisoblanadi.

Qiyos: ona tili, etnik til, mahalliy tillar.

MILLIY TIL QONUNCHILIGI Muayyan davlat fuqarolarining diniy e'tiqodi (yoki e'tiqodsizligi), milliy mansubiyati, etnik tili, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, ularning til huquqi va erkinliklaridan foydalanish, bunday huquq va erkinlari buzilgan taqdirda ularni himoya qilish, tiklashga yo'naltirilgan mamlakat konstitutsiyasi, til bo'yicha maxsus qonun va qonunosti hujjatlari, ulardagi huquqiy mexanizmlar.

Qiyos: xalqaro til qonunchiligi.

MILLIY TIL SIYOSATI Ko'p millatli mamlakatda millatlararo munosabatlarni tartibga solishning bir yo'nalishi bo'lib, u davlatning vakolatli tashkilotlari orqali til hayotiga ongli va maqsadli ta'sir o'tkazishida amalga oshadi. Turli davlatlarda milliy til siyosatining tabiati turlicha bo'ladi. Masalan, kichik xalqlar va etnik ozchilik tillarini saqlab qolish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan milliy til siyosati yoki ijtimoiy ustun etnos tilini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan til siyosati kabi. Milliy til siyosatining bu ikki ko'rinishidan biri xolis, boshqasi noxolis deb baholanadi.

Qiyos: milliy yo'nalgan til siyosati.

MILLIY XUDBINLIK O'z xalqining huquq va manfaatlarini himoya qilgan holda xalqlarning huquq va manfaatlarini e'tiborsiz qoldirish, shunday xatti-harakatni xaspo'sh-lash amaliyoti. Milliy xudbinlik til masalasida ham bo'ladi.

O'zbekiston qonunchiligida milliy xudbinlikni kamaytirish va lisoniy xolislikni ta'minlash choralari ko'rilgan.

Qiyos: milliy nigilizm.

MILLIY YO'NALGAN TIL SIYOSATI Muayyan davlatda faqat bitta millatning lisoniy manfaatlari yoki mamlakat aholisining asosiy qismi so'zlashadigan til (u davlat tili yoki boshqa rasmiy til bo'lishi mumkin)ni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan mafkuraviy chora-tadbirlar. Bunday til siyosati bir tilning qo'llanish doiralarini muttasil kengaytirgani holda boshqa tillarning ijtimoiy qamrovini toraytiradi.

Qiyos: baynalmilal til siyosati.

MILLIY O'ZIGA XOSLIK Muayyan millatning tili, urf-odati, qadriyatlar, turmush tarzi va boshqa etnik xarakterli belgilari va shunday belgilari bilan boshqa millatlardan ajralib turish xususiyati. Milliy o'ziga xoslik alohida xalqlar to'liq qo'shib ketganda ham ma'lum darajada saqlanadi.

Qiyos: milliy o'zlik.

MILLIY O'ZLIK Alohida shaxs yoki etnik guruhning milliy mansubiyati bilan belgilanadigan xususiyatlar. U shaxsning ona tili, dini, tarixiy xotirasi, urf-odatlarida namoyon bo'ladi va mentalitetiga chuqur singib ketadi. Til milliy o'zlikni o'zlashtirish vositasi hamdir. Begona tilda milliy o'zlikni to'la o'zlashtirib bo'lmaydi.

Qiyos: milliy o'ziga xoslik.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH Muayyan millat vakillarining o'z etnik mansubiyatini anglab yetishi, boshqa etnoslardan ajratib turadigan milliy xususiyatlarini bilishi. Bunday ko'nikmalarga ega xalq etnomadaniy an'analarini qadrlaydi, masalan, etnik tilini oliy qadriyat sifatida ko'radi. Bu jarayon etnosning millat sifatida shakllanish jarayonining yuqori bosqichi va bunday bosqichga yetgan millat vakillari umummilliy manfaatlarning ustuvorligini anglab yetishga qodirlashadi. Sotsiologvistikani milliy o'zlikni anglash jarayonida etnik guruhning o'z tiliga bo'lgan munosabati,

bu munosabatning mavjud til vaziyatiga, til siyosatiga ta'siri masalalari qiziqtiradi.

Qiyos: etnik o'zlikni anglash, ijtimoiy o'zlikni anglash.

MILLIY G'URUR Muayyan shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan, o'z xalqining jahon tamadduniga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissi. U millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq bo'lmaslik; o'z eli va millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

Qiyos: milliy iftixor.

MINORITAR TIL [*fr.* minoritaire < *lot.* minoritas – ozchilik, ozchilikka oid + til] Muayyan mamlakatda ijtimoiy-siyosiy jihatdan ustun bo'lmagan aholi so'zlashadigan, uncha katta bo'lmagan xalq vakillari muloqotda foydalaniladigan til. Qirg'izistonda yashovchi etnik qozoqlarning yoki Qoraqalpog'istonda istiqomat qiladigan etnik turkmanlarning o'z tili minoritar tildir. Tilning minoritar yoki majoritarligi egalarining ijtimoiy-siyosiy mavqeyidan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, Janubiy Afrikada yashagan mustamlakachilar oz sonli bo'lsa ham, tili majoritar til maqomida turgan. Yoki Hindistonda inglizlarning siyosiy-iqtisodiy ustunligi ingliz tilining majoritar til sifatida amal qilishini ta'minlagan.

Qiyos: majoritar til.

MINORITAR XALQ [*fr.* minoritaire < *lot.* minoritas – ozchilik, ozchilikka oid + xalq] Xalqaro demografik qoidalariga ko'ra, muayyan mamlakatdagi titul millatdan o'zini boshqa xalq deb biladigan, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy jihatdan ustun bo'lmagan, umumiy soni ellik mingdan kam etnik birlik. Sotsiolingvistikada davlatning minoritar xalqlar tiliga muno-

sabati, til siyosati va qonunchiligida bunday tillarni rivojlantirishning hisobga olinishiga ham diqqat qaratiladi.

Qiyos: majoritar xalq.

MINTAQA KOYNESI Muayyan mintaqadagi shevalarning aralashuvi, bir-biriga ta'sir etishi natijasida shakllangan, shu mintaqa aholisi tomonidan umumiy muloqot vositasi sifatida qabul qilingan, ma'lum ma'noda standartlashgan til ko'rinishi. Bunday koynedan foydalanish mintaqa aholisiga qiyinchilik tug'dirmaydi, balki har xil sheva yoki lahjali kishilarning muloqotini qulaylashtiradi. Mintaqa koynesi faqat umumiy tilgina emas, ijtimoiy birlik va muloqotda tenglikni ta'minlovchi vosita. Bitta koynedan muntazam foydalanish turli sheva, etnik yoki ijtimoiy guruhlar o'rtasida hamjihatlikni, o'zlarini bir jamoa vakili sifatida his qilish, tushunish va rivojlanishni ta'minlaydi.

Qiyos: shahar koynesi.

MINTAQA TILI Mintaqa hududida qo'llanadigan til. Bunday til vazifasini ko'pincha millatlararo muloqot tillari bajaradi. Masalan, Markaziy Osiyo mintaqasida rus tili, Arabiston yarimorolida arab tili regional til sifatida amal qiladi. Masalan, Dog'iston hududida avar tili regional til vazifasini bajaradi, chunki unda o'sha yerda yashaydigan 13 ta xalq avar tilidan ta'lim va millatlararo aloqa tili sifatida foydalanadi.

Qiyos: regiolet.

MONOLINGV [*yun.* mono- – bitta, yagona + *lot.* lingua – til] Faqat bitta tilni biladigan, hayoti va faoliyatida bitta tildan foydalanadigan shaxs. Monolingvlar bir tilli jamoani shakllantiradi, asosan, markazdan uzoq hududda yashaydi. Aksincha, ikkinchi tildan foydalanish ehtiyoji kuchayganda bilingv jamoa yuzaga keladi.

Qiyos: bilingv, polilingv.

MOSLASHUV Sotsiolingvistikada: etnik madaniyat va til egasi (yoki til jamoasi)ning ko'pincha yashash joyining o'zgarishi sababli boshqa ijtimoiy, etnik, madaniy va til

muhitiga adaptatsiyalashuv jarayoni. Buning natijasida individual yoki jamoaviy ikkittillilik rivojlanadi. Ba'zan birinchi tilning asta-sekin unutilib, yangi tilga to'liq o'tish bilan tugaydi. Moslashuv darajasi shaxs yoki jamoaning ochiqligi, yangi madaniyatni qabul qilishga tayyorligi, mahalliy jamiyatning munosabati va ijtimoiy integratsiya sharoitiga bog'liq bo'ladi.

MOSHKICHIRI NUTQ Boshqa tillarga xos noadabiy so'z va iboralar ko'p bo'lgan, adabiy til me'yorlariga muvofiq kelmaydigan nutq ko'rinishi. Sotsiolingvistikada bunday nutq makaron nutq, bunday nutqni tashkil qilgan birliklar *makaronizmlar* deyiladi. Chet davlatda uzoq yashagan yoki madaniy nutq malakasi shakllanmagan kishilarda moshkichiri nutq kuzatiladi.

Qarang: til soffligi.

MULOQOT Jamiyat a'zolarining oiladan tortib davlat miqyosidagi munosabatlargacha bo'lgan jarayonlarda umuman tildan yoki uning biror yashash shaklidan foydalanib fikr almashish, munosabat bildirish jarayoni. Sotsiolingvistikada muloqot o'rni va ishtirokchilarining miqdori (oila, jamoa, ijtimoiy qatlam, xalq ichida va millatlararo tarzda), hududiy xususiyati (mahalliy, mintaqaviy), shakli (og'zaki, yozma), tartibga solinishi yoki solinmasligi (rasmiy/norasmiy, maishiy/ma'muriy) jihatdan farqlanadi.

Qarang: millatlararo muloqot, millatlararo muloqot tili.

MULOQOT MUHITI Muayyan nutqiy faoliyat amalga oshadigan hayotiy vaziyat, muloqot ishtirokchilarining yoshi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy maqomi, roli kabi xususiyatlari ifodalanadigan kommunikativ shart-sharoit. Sotsiolingvistikada muloqot muhitining ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishi, ijtimoiy muhitning muloqot muhitiga ta'siri, muloqot muhitida lisoniy omillarning o'rni, muloqot muhitining asosiy va yordamchi shakllantiruvchilari kabi masalalar o'rganiladi.

Qarang: til vaziyati, ijtimoiy muhit.

MULOQOT SOHALARI Sotsiolingvistikada: tildan foydalanishning muayyan tarzlarini belgilaydigan, o‘xshash va farqli muloqot sharoitlari bilan ajralib turadigan faoliyat tarmoqlari. Bular ta’lim, fan, madaniyat, sanoat, savdo, diniy faoliyat, transport va boshqalar bo‘lishi mumkin. Sotsiolingvistika mazkur sohalarda tilning ijtimoiy vazifalari, rasmiy va norasmiy qo‘llanish imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga e’tibor qaratadi.

Qarang: rasmiy muloqot sohalari, norasmiy muloqot sohalari.

MULOQOT XULQI Insonning ruhiyati, milliy mansubiyati, fe‘l-atvori, yashash joyi, e’tiqodi (yoki e’tiqodsizligi), urf-odatlari, yoshi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy maqomi hamda roli singari xususiyatlari bilan jips bog‘liq so‘zlashish tarzi, muomala madaniyati. Bir shaxsning muloqot xulqi boshqa shaxsning muloqot xulqidan ana shu jihatlari bilan ajralib turganidek, bir xalqning muloqot xulqi ham boshqa xalqning muloqot xulqidan ayni jihatlariga ko‘ra farqlanadi. Masalan, o‘zbek muloqot xulqi, qozoq muloqot xulqi, yapon muloqot xulqi kabi.

Qarang: rasmiy muloqot sohalari.

MULOQOT XULQI STEREOTIPLARI Alohida shaxs, ijtimoiy guruh yoki xalqlar muloqot tutumlari haqida odamlarda shakllanib qolgan tasavvurlar, qotib qolgan qarashlar. Masalan, postsovet hududida yashovchi aholi ongida “fransuzlar muloyim gapiradi” yoki “nemislar rasmiy va qisqa so‘zlaydi” tarzidagi tasavvurlar bor. Ammo mazkur tasavvurlar hamisha ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Shu bois millatlararo muloqotda bunday stereotiplarga tanqidiy yondashish, muloqot uslubini individual baholash muhim.

Qiyos: etnik stereotiplar.

MUNTAZAM TA’SIRLASHUV Kamida ikki til o‘rtasida ancha vaqtlardan beri uzluksiz davom etib kelayotgan til kontakti. Masalan, o‘zbek va tojik tillari o‘rtasidagi ta’sirlashuvni muntazam deyish mumkin. Tillar ta’sirlashuvidagi muntazam-

lik ma'lum ma'noda nisbiy, orada uzilishlar bo'lishi mumkin.

Qiyos: nomuntazam ta'sirlashuv.

MUQOBILSIZ LEKSEMA [muqobilsiz + *yun.* *lexis* – soʻz, *ibora* + *-ema/-eme* – eng kichik birlik ma'noli qoʻshimcha] Muayyan xalqning eng xarakterli xususiyatlarini koʻrsatib turadigan, idioetnik jihatlari bilan bogʻliq boʻlgan narsa-hodisa, belgi-xususiyat va harakat-holatlar haqidagi tushunchalarning nomi, boshqa tillarda muqobili boʻlmagan, muqobili topilmaydigan soʻz yoki *ibora*. Masalan, oʻzbek tilidagi *toʻn*, *doʻppi*, *chanqovuz*; yapon tilidagi *samuray*, *sushi*, *aykido*, *taekvondo* kabi soʻzlarning boshqa tillarda aynan muqobilini topib boʻlmaydi.

Qarang: qoʻllanishi chegaralangan leksika.

MUQOBILSIZ LEKSIKA [muqobilsiz + *yun.* *lexikos* – soʻzga oid, *lugʻaviy* < *lexis* – soʻz, *ibora*] Muayyan millatning urfi, qadriyati, iqlimi yoki tarixiy tajribasini aks ettiruvchi, boshqa tillarda muqobili boʻlmagan yoki topilmaydigan soʻz va iboralarning ularni oʻzlashtirgan tildagi jami. Bunday leksika oʻzi mansub millat turmushi bilan jips bogʻliqligi sababli boshqa tillarda aynan muqobili topilmaydi. Muqobilsiz leksika ekzotizmlar va etnografizmlar koʻrinishida uchraydi.

Qarang: qoʻllanishi chegaralangan leksika.

MURAKKAB TIL VAZIYATI Turli til oilalariga mansub bir necha oʻn til amal qiladigan lisoniy muhit. Sotsiolingvistikada murakkab til vaziyati tushunchasi koʻp tilli lisoniy vaziyat tushunchasidan bir necha oʻn tildan iborat boʻlishi, davlat tili va rasmiy tillarning koʻpligi, shuningdek, bunday til vaziyatidagi ayrim tillarning mustaqil til yoki biror tilning shevasi ekanligining noaniqligi bilan farqlanadi. Hindiston, Indoneziya, Nigeriya, Efiopiya singari Osiyo va Afrika mamlakatlaridagi til vaziyatini murakkab til vaziyati sifatida koʻrsatish mumkin. Hindistonning Rajaston shtatida shekxavati, dind xari, xarauti, malvi kabi mahalliy tillar bilan birga hindiy, ingliz tili mavjud.

Qiyos: joʻn til vaziyati.

MUROJAAT TILI Jismoniy va yuridik shaxslarning vakolatli davlat tashkilotlariga o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun ariza, taklif yoki shikoyat ko‘rinishida huquqiy ko‘mak so‘rashda qo‘llaydigan tili. Qonunchilik yo‘l qo‘ysa, murojaat tili vazifasini bir til ham, bir necha til ham bajarishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston fuqarolari vakolatli davlat tashkilotlari yoki ularning rahbarlari nomiga murojaat qilishda o‘ziga qulay bo‘lgan tildan foydalanishi mumkin.

Qarang: til qonunchiligi.

MUSTAMLAKACHILAR TILI Boshqa mamlakatlarni zo‘rlilik bilan egallagan, mustaqillikdan mahrum etib, o‘ziga qaram qilish siyosatini yuritgan davlat tili. Istibdodning uzoq vaqt davom etishi natijasida bunday til mustamlaka mamlakatning asosiy tiliga aylanishi mumkin. Masalan, Janubiy Amerika, Afrika va Osiyo qit‘alaridagi davlatlarda rasmiy til bo‘lib xizmat qilayotgan portugal, ispan, ingliz, fransuz, niderland kabi tillar sotsiologiyada mustamlakachilar tili deyiladi.

Qarang: kreol til, substrat, superstrat.

MUTANOSIB IKKITILLILIK 1. Shaxsning ikkala tilni ham bir xil darajada bilishi, ularni turli ijtimoiy sharoitlarda to‘g‘ri va jo‘yali qo‘llay olishidek individual ikkitillilik turi. Bunda ikkala tildan ham ona tili darajasida yoki yuqori malakada foydalaniladi, aralashtirib yuborilmaydi. Mutanosib ikkitillilikda tillarning fonetik, leksik va grammatik tizimlari so‘zlovchining ongida alohida saqlanadi va bir-biriga ta’sir qilmaydi. Toshkent sharoitida o‘zbek-rus ikkitilliligi ish joyida rus tilida, oilada o‘zbek tilida muloqot qilinishida kuzatiladi.

Qiyos: nomutanosib ikkitillilik 1.

2. Ikki tilning mamlakat miqyosida rasmiy til sifatida amal qilishi, tan olinishi. Masalan, Belgiyada flamand va vallon tillari teng rasmiy tillar hisoblanadi.

Qiyos: nomutanosib ikkitillilik 2.

MUTANOSIB TIL VAZIYATI Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida ikki va undan tilning bir xil demografik va funksional quvvatda amal qilishi, jamiyat hayotining turli sohalarida teng qo‘llanishidan iborat lisoniy holat. Bunday til vaziyati juda siyrak kuzatiladi.

Qiyos: nomutanosib til vaziyati.

MUVAQQAT LISONIY ALOQA O‘zaro yaqin munosabatda bo‘lmagan, notanish shaxslarning yozishmalari, og‘zaki xabarlashuvlarini ifodalaydigan atama. Masalan, muvaqqat lisoniy aloqaga sotuvchi va xaridor, haydovchi va yo‘lovchi, shifokor va bemor o‘rtasidagi fikr almashuv jarayonini ko‘rsatish mumkin. Ayni shaxslar o‘rtasida elektron qurilmalar orqali qilingan muloqot ham muvaqqat lisoniy aloqa hisoblanadi.

Qiyos: turg‘un lisoniy aloqa.

N

NAZARIY SOTSIOLINGVISTIKA Sotsiolingvistikaning ontologik asoslarini aniqlashtirish, uning predmeti, obyektini asoslash, boshqa lingvistik sohalar orasida tutgan o'rnini, terminologik apparatini, tadqiqot usullarini belgilash, umuman, til va jamiyat munosabati bilan bog'liq fundamental muammolarni o'rganuvchi ijtimoiy tilshunoslik bo'limi. Umuman, sotsiolingvistikaning nazariy asoslariga e'tibor qaratadigan bu soha ayrim adabiyotlarda umumiy sotsiolingvistika deb ham yuritiladi.

Qiyos: amaliy sotsiolingvistika.

NOBARQAROR LISONIY JAMOA O'zi so'zlashadigan milliy tilni to'la egallay olmagan, shu tilni ijtimoiy hayotning turli sohalarida erkin qo'llay bilmaydigan aholi guruhi yoki adabiy me'yorlari, nutq uslublari barqarorlashmagan yoki o'zgarib turadigan ijtimoiy guruh. Masalan, endi shakllangan ko'p millatli migrantlar jamoasi, ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar. Bunday lisoniy jamoa vakillari bir tilda muqim muloqot qilish malakasiga ega emasligi bilan ajralib turadi, ko'pincha til ko'nikmalari ajdoddan avlodga tarzida yalpi o'zlashtirilmaganda shunday til jamoasi shakllanadi.

Qiyos: barqaror lisoniy jamoa.

NODEMOKRATIK TIL SIYOSATI Muayyan mamlakatda tilni tanlash, tilni qo'llash, tildan foydalanish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda, umuman, lisoniy hayotni boshqarishda tor aholi ommasining ehtiyojlari hisobga olingan, ya'ni jamiyatdagi elita qatlam yoki shahar aholisining manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan til bilan bog'liq chora-tadbirlar. Masalan, ayrim Afrika davlatlarida rasmiy til sifatida aholining asosiy qismi

so‘zlashadigan til emas, jamiyat elitasi biladigan tilning tanlangani davlat tili masalasida nodemokratik til siyosati olib borilganligini ko‘rsatadi. Ba‘zan davlat o‘zining tilga munosabatini xolis va demokratik boshlagani holda ma‘lum bosqichda til siyosati nodemokratik tus oladi va bu hol til siyosatining ilmiy xulosalarsiz boshlanganini bildiradi.

Qiyos: demokratik til siyosati.

NOFAOL IKKITILLILIK 1. Bilingvning ikkinchi tilni faqat tushunish darajasida bilgani holda bu tildagi matnlarni mustaqil tahlil qila olmasligi, ikkinchi tilda erkin muloqot qilish malakasiga ega emasligi bilan tavsiflanadigan individual ikkitillilik turi. O‘zbekiston sharoitida bunday ikkitillilik o‘zbek-ingliz tili misolida kuzatiladi. U retseptiv bilingvizm ham deyiladi. Bunday ikkitillilik oila yoki boshqa muhitda ikkinchi til qo‘llansa ham, ammo unda gapirish ko‘nikmasi rivojlantirilmaganda paydo bo‘ladi. Masalan, o‘zbek oilasida rus tilida ko‘p televizor ko‘rgan yoki maktabda o‘qigan bola rus tilini tushunadi, biroq so‘zlashishga qiynaladi.

Qiyos: faol ikkitillilik 1.

2. Muayyan hududda ikkitillilik sharoitida yashovchi xalqlar tomonidan ikkinchi tilning faqat chegaralangan sohalarda foydalanilishi, kommunikatsiyada ikkinchi tilning titul millat tilidek qo‘llanmasligidan iborat jamoaviy ikkitillilik shakli. Rasmiy tilning keng, ikkinchi tilning tor doirada qo‘llanishidan iborat bunday ikkitillilik mustamlakachilik sharoitidan chiqqan xalqlar hayotida yoki xalqaro tilning asosiy tilga qo‘shimcha til sifatida paydo bo‘lishi sharoitida mavjud bo‘ladi.

Qiyos: faol ikkitillilik 2.

NOFAOLKALKAY Yasalgandan keyin kalkalovchi xalqtilida juda kam qo‘llanadigan lisoniy birliklar. Masalan, rus tilidagi “правые уклонисты”, “левые уклонисты” birikmasidan kalkalangan “o‘ng og‘machilar”, “so‘l og‘machilar” nofaol kalkalardir. Bunday kalkalar yo o‘ta tor soha so‘zlari,

yo eskirgan tushunchalarning ifodalari, yo o'ta mafkuraviylashgan bo'ladi. Mafkura o'zgarishi bilan qo'llanishdan qoladi.

Qiyos: faol kalka.

NOMUNTAZAM TA'SIRLASHUV Tillar taraqqiyotining muayyan davrida qisqa muddat yuz beradigan yoki ma'lum vaqt butunlay to'xtab, keyin qayta davom etadigan lisoniy munosabatlar. Masalan, o'zbek tiliga arab tilidan so'z olinishi XX asrga kelib butunlay to'xtagan edi, ammo mustaqillik yillarida diniy matnlar orqali kam miqdorda bo'lsa-da, so'z o'zlasha boshlandi. *Qoriya, mav'iza* so'zlari shular jumlasidandir.

Qiyos: muntazam ta'sirlashuv.

NOMUTANOSIB IKKITILLILIK 1. Shaxsning ikki tilni turli darajada (birini mukammal, ikkinchisini nomukammal) bilishi bilan xarakterlanadigan individual ikkitillilik turi. Ko'pincha ona tili yoki birinchi til yaxshi egallangani holda ikkinchi til yaxshi o'zlashtirilmaganda hosil bo'ladi. Ikkinchi tilning ahamiyatlilik darajasiga qarab nomutanosib ikkitillilik mutanosib ikkitillilikka aylanishi ham, aylanmasligi ham mumkin.

Qiyos: mutanosib ikkitillilik 1.

2. Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida funksiyalari noteng tillar amal qiladigan ikkitillilik sharoiti. Bunday ikkitillilik ko'proq jamoaviy bilingvizm xarakterida bo'ladi. Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida titul millat tili bilan rus tili munosabati nomutanosib ikkitillilikni yuzaga keltiradi. Ikkitillilikning bu ko'rinishi asimmetrik ikkitillilik ham deb yuritiladi. Nomutanosib ikkitillilik davlatlarning til siyosati mahsuli ham bo'ladi.

Qiyos: mutanosib ikkitillilik 2.

NOMUTANOSIB TIL VAZIYATI Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida ikki va undan tilning har xil demografik va funksional quvvatda amal qilishi, shunday xususiyatlari sababli ham jamiyat hayotining turli sohalarida

noteng qoʻllanishidan iborat lisoniy holat. Dunyo lisoniy manzarasida bunday til vaziyati juda koʻp kuzatiladi. Odatda, huquqiy maqom olgan tilning funksional quvvati, demografik kuchi ortiq boʻladi hamda jamiyat hayotining aksar sohalarida faol qoʻllanadi.

Qiyos: mutanosib til vaziyati.

NOQARINDOSH TILLAR Genealogik kelib chiqishi umumiy boʻlmagan, kelib chiqishi har xil til oilalariga mansub tillar (bir-biriga nisbatan). Masalan, oʻzbek va ingliz, turk va tojik, qoraqalpoq va hindiy tillari; rus va arab, fors va turkman, ingliz va gagauz tillari oʻzaro noqarindosh tillardir. Noqarindosh tillarning oʻzaro taʼsirlashuvi koʻptillilik sharoitida yuz beradi va bunday taʼsirlashuv tilning leksik-grammatik tuzilishidan tashqari xalqning artikulyatsiya tarziga ham taʼsir qiladi. Oʻzbek tili tarixida yuz bergan oʻzbek-tojik, oʻzbek-rus tillari taʼsirlashuvi tilimizning tovush tuzilishiga, xalqning artikulyatsiyasiga taʼsirini oʻtkazgan. Buni singarmonizmning zaiflashuvi misolida ham koʻrish mumkin.

Qiyos: qarindosh tillar.

NOQARINDOSH TILLAR IKKITILLILIGI 1. Shaxsning oʻz ona tili bilan birga boshqa til oilasidagi tilni ham puxta oʻzlashtirganligi, bu tillardan nutqda qiynalmay foydalana olishidan iborat individual bilingvizm koʻrinishi. Masalan, Oʻzbekistonning ayrim hududlaridagi oʻzbek-tojik ikkitilliligi, Toshkentdagi oʻzbek-rus ikkitilliligi.

Qiyos: qarindosh tillar ikkitilliligi.

2. Muayyan hududda turli til oilasiga mansub ikkita tilning kundalik muloqotda, ish yuritishda amal qilishidan iborat jamoaviy ikkitillilik koʻrinishi. Bunday sharoitda aholi oʻzining ona tili bilan birga boshqa tildan ham keng foydalanadi, unda ish yuritadi, xizmat yozishmalari olib boradi. Masalan, Qozogʻistonning Rossiya bilan chegaradosh hududlaridagi qozoq-rus ikkitilliligi shunday xususiyatlidir.

Qiyos: noqarindosh tillar koʻptilliligi.

NOQARINDOSH TILLAR KO'PTILLILIGI Bitta davlatda turli til oilalariga yoki katta til oilasining turli guruhlariga mansub tillarning muloqot va ish yuritish vositasi sifatida amal qilishi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida rus, tatar, abxaz, semit, eskimo-aleut tillarining, O'zbekistonda o'zbek, tojik va rus, Tojikistonda tojik, o'zbek va rus tillarining amal qilishi noqarindosh tillar ko'ptilliligini vujudga keltirgan. Bu hodisa individual tarzda kam uchraydi.

Qiyos: qarindosh tillar ko'ptilliligi.

NORASMIY IKKITILLILIK Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida "davlat tili" yoki "rasmiiy til" maqomi qonunan belgilanmagan ikki tilning amal qilishi, shunday sharoitdagi jamoaviy ikkitillilik ko'rinishi. Bunday norasmiy ikkitillilikning uzoq vaqt davom etishidek ijtimoiy-lisoniy jarayon davlat tomonidan ayni til sharoitini rasmiy ikkitillilik sifatida tan olinishiga sabab bo'ladi. Masalan, Kanadaning Kvebek viloyatida ingliz tili bilan birga fransuz tilining uzoq muddat qo'llanishi keyinchalik fransuz tiliga rasmiy til maqomi berilishi hamda rasman ingliz-fransuz ikkitilliligi tan olinishi bilan yakunlangan.

Qiyos: rasmiy ikkitillilik.

NORASMIY KICHIK IJTIMOIIY GURUH Shaxsiy mayli va umumiy qiziqishlari asosida birlashadigan, ijtimoiy-psixologik qarashlari yaqin yoki bir xil bo'lgan kishilar jamoasi. Masalan, do'stlar davrasi, birga sayohat qiladigan yoki ovga chiqadigan kishilar to'pi. Norasmiy qoidalar, o'ziga xos tili (sleng, jargon) va ichki muloqot uslublariga ega bo'ladi. Ayni vaqtda umra yoki hajga borgan ziyoratchilar davrasi ham shakllangan. Ularning shaxs ijtimoiylashuvida o'rni bo'lsa ham nobarqarorligi va tuzilishi jihatidan rasmiy guruhlardan farqlanadi.

Qiyos: rasmiy kichik ijtimoiy guruh.

NORASMIY MULOQOT SOHALARI Muloqot ishtirokchilarning shaxsiy xulq-atvori erkin, tabiiy bir tarzda yuzaga chiqadigan, ishtirokchilarning tildan foydalanishi rasman

tartibga solinmaydigan nutqiy sharoitlar. Bunday muloqot sohalari do'stlar davrasi, oilaviy munosabatlarda, savdo-sotiq, yo'lovchi tashish, umuman, kundalik maishiy munosabatlar bilan bog'liq sharoitlarni o'z ichiga oladi va ularda muloqotni rasman tartibga solish imkonsizligi sababli til ko'proq norasmiy vazifalarda voqelanadi.

Qiyos: rasmiy muloqot sohalari. **Qarang:** boshqariladigan muloqot sohalari.

NORMATIV TIL Og'zaki va adabiy me'yorlari shakllangan, fikr va munosabat ifodalash uchun lozim darajada nutq uslublari takomillashgan til shakli; istifoda materiali va ifoda tarzlari me'yorlashib bo'lgan til ko'rinishi. Odatda adabiy tillar normativ xususiyatli bo'ladi. Tillarning normativlashuvida muayyan til shakllarining muntazam qo'llanishi bilan birga, jamiyatning ilg'or kishilari, qonun ijodkorlari hamda tilshunoslarning ta'siri seziladi, ya'ni "bunday so'zlash/yozish durust yoki nodurust" degan munosabat bo'ladi.

Qiyos: nostandart til.

NOSTANDART TIL Fonetik, morfemik, leksik va grammatik jihatdan me'yorlashtirilmagan, balki erkin qo'llanishi, adabiy me'yorlardan chekinilishi bilan ajralib turadigan og'zaki til ko'rinishi; mahalliy sheva va dialektlar, oddiy so'zlashuv, ko'cha tili kabilarni umumlashtirib ifodalaydigan atama. Nostandart tilni ijtimoiy yoki hududiy guruhlar shakllantiradi va u shu guruhlarda yashaydi, maorif, madaniyat, ommaviy axborot vositalarining ta'sirida nostandartlik xususiyati kamayadi. Sotsiolingvistika bunday tilning ijtimoiy vazifalarining namoyon bo'lishini o'rganadi.

Qiyos: adabiy til, normativ til.

NOXOLIS TIL QONUNCHILIGI Ko'p millatli mamlakatda mavjud tillarning jamiyat hayotining turli sohalarida, masalan, rasmiy muloqot yoki ish yuritishda qo'llanishini cheklovchi holatlarning alohida

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilanganligi. Masalan, sobiq ittifoqda o'zbek tilida dissertatsiya himoya qilinishiga ruxsat berilmagani, markaziy davlat tashkilotlariga o'ziga qulay tilda emas, asosan, rus tilida murojaat qilish amaliyotining yo'lga qo'yilgani noxolis til qonunchiligi amal qilganini ko'rsatadi.

Qiyos: xolis til qonunchiligi.

NOXOLIS TIL SIYOSATI Bir tilga imtiyoz berish orqali boshqa milliy tillarning qo'llanishini cheklash, bu tillarning rivoji uchun yetarli sharoit yaratib bermaslik, aksincha, ularga g'arazli munosabatda bo'lish, ta'lim tilini mutlaqlashtirish, sudlov jarayoni va yuqori tashkilotlarga bitta tilda murojaat qilishni majburiylashtirish, umuman, xalqaro huquqiy me'yorlarga ham muvofiq kelmaydigan til bilan bog'liq chora-tadbirlar majmuyi. Bunday siyosat lisoniy tengsizlikni kuchaytirib, ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Qiyos: xolis til siyosati.

NUTQ AKTI [nutq + *lot.* actum – amal, ish, bajarilgan harakat] Muloqot xulqining ma'lum bir kommunikativ tizimga xos, shu kommunikativ tizimni shakllantirgan jamiyat ijtimoiy qoidalari va me'yorlariga mos tarzda namoyon bo'lishi, shunday xususiyatlarni jamlagan alohida nutq ko'rinishi. Nutq akti og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishidan qat'i nazar, unda ishtirokchilar o'z ijtimoiy maqomi va rolidan kelib chiqib harakat qiladilar. Sotsiolingvistika uchun nutq aktining ana shu tomonlarini nutq vaziyati omili asosida o'rganish muhim.

Qarang: muloqot xulqi.

NUTQ ETNOGRAFIYASI [nutq + *yun.* ethnos – xalq, elat + *graphos* – yozmoq, tasvirlamoq] AQShda XX asrning 70-yillarida D.Xayms ilmiy ishlari orqali rivojlangan sotsiolingvistik tadqiqot yo'nalishi. Bunday mazmundagi tadqiqotlarda asosiy e'tibor lisoniy birliklarga emas, nutq jamoalariga qaratiladi va nutq tildan, funksiya strukturadan, kontekst xabardan ko'ra birlamchi hisoblanadi, ammo ularning o'zaro

bog‘liqligi inkor etilmaydi. U nutq jamoalarining sotsiolingvistik resurslari, bu resurslarning muayyan jamoa a‘zolari o‘rtasidagi ijtimoiy-kommunikativ diskursda qo‘llanishi kabilarni o‘rganadi.

Qarang: AQSh sotsiolingvistika maktabi.

NUTQ KODI [nutq + *fr.* code < *lot.* codex – kitob, yozuvlar to‘plami, qonunlar majmuasi] Kommunikativ xatti-harakatlar bilan bog‘liq leksik-semantik birliklar, atamalar, ma’nolarning tarixiy shakllangan, ijtimoiy xoslangan tizimi; aholi qatlami, ijtimoiy guruhlar, sohalar egalari muloqotda o‘zlari tanlab foydalanadigan tilning yashash shakli. Nutq kodlari til egalarining yoshi, jinsi, ijtimoiy, kasbiy, ruhiy xususiyatlariga bog‘liq holda shakllanadi. Sotsiolingvistikada “chegaralangan nutq kodi” va “chegaralanmagan nutq kodi” tushunchalari farqlanadi.

Qarang: chegaralangan nutq kodi, chegaralanmagan nutq kodi.

NUTQ VAZIYATI Sotsiolingvistikada: so‘zlovchi va tinglovchi o‘z ijtimoiy maqomi, ijtimoiy roli, hududiy mansubligi va boshqa jihatlari bilan real ishtirok etayotgan, lisoniy va nolisoniy vositalar hamkorligida voqelanayotgan aniq sharoit. Nutq vaziyati ishtirokchilarning kommunikativ maqsadiga ko‘ra shakllanadi va unda so‘zlovchi, tinglovchi, ularning o‘zaro munosabatlari, muloqot ohangi (rasmiy, neytral yoki do‘stona), suhbat maqsadi, aloqa vositasi (adabiy til, lahja, uslub, imo-ishora, mimika), aloqa shakli (og‘zaki yoki yozma, bevosita yoki masofaviy) va muloqotning kechadigan joyi namoyon bo‘ladi. Ulardan birining o‘zgarishi nutq vaziyatining mohiyati yoki xususiyatini o‘zgartiradi.

Qiyos: nutq akti.

NUTQIY ODAT Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida shu jamiyat a‘zolari tomonidan qabul qilingan va shu jamiyat vakillari tomonidan qo‘llanishi zarur bo‘lgan yoki talab etiladigan, suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish va uni lozim topilgan ohangda olib borish uchun ishlatiladigan

turg'un muloqot qoliplari, shu qoliplarga mos qo'llanadigan ifoda tarzlari. Nutqiy odatlar, avvalo, jamiyat a'zolarining atrof-muhit, tabiiy shart-sharoit, urf-odat kabilarga munosabati ta'sirida shakllanadi.

Qarang: muloqot xulqi.

NUTQIY VARIATIVLIK Shaxsning konkret nutqida muayyan ma'no va mazmun ifodasi uchun har xil shakl va vazifadagi til birliklari (masalan, so'z va iboralar)dan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, nutqda bir necha tip lisoniy birlikning bir tushuncha ifodasi uchun xizmat qilishi. Masalan, o'zbek tili egasi o'z nutqida ko'plik ma'nosi uchun *-lar* qo'shimchasi hamda *ko'p, ancha, bir necha* kabilarni qo'llashi mumkin. So'zlovchi nutqda ulardan ifoda va kommunikativ maqsadiga muvofiq, maqbul uslubda foydalanaveradi.

Qarang: til variativligi.

NUTQ JAMOASI Muloqot vaziyati, mavzusi yoki shaklidan foydalanish umumiyligi asosida vaqtincha uyushgan kishilar guruhi. Nutq jamoasida muloqot vaziyatidan kelib chiqib, adabiy tilning og'zaki yoki yozma shaklidan, muloqot mavzusiga ko'ra, vazifaviy uslublarning biridan (ko'pincha rasmiy, ilmiy yoki badiiy), professional til yoki korporativ jargonlardan foydalaniladi. Bunda muloqot rasmiy yoki norasmiy, og'zaki yoxud yozma, muloqot mavzusi kundalik munosabatlar yoki biron-bir ilmiy mavzuda bo'ladi.

Qiyos: lisoniy hamjamiyat.

NUTQNING IJTIMOYIY FARQLANISHI Insonlarning yosh, jins, ijtimoiy maqom, rol, kasb-kor, hududiy mansublik va boshqalarga bog'liq holda nutqda bir-biridan farqli lisoniy birliklardan foydalanishi. Masalan, yosh qiz va kampir, shifokor va savdogar muayyan voqea-hodisani bayon etishda til birliklaridan turlicha foydalanadi, bu jihat nutq egalarining ijtimoiy belgilari (yoshi, jinsi, kasbi, maqomi, roli) bilan bog'liq. Ayni paytda nutq ana shu jihatlari asosida alohida shaxsning ham, muayyan jamiyatning ham muloqotini

ta'minlaydi. Umuman, nutqning ijtimoiy farqlanishi nutqning yosh, jins, maqom, kasb, rol kabilar bo'yicha darajalanishlarini o'zida birlashtiradi.

Qiyos: tilning ijtimoiy farqlanishi.

NUTQNING YOSH BO'YICHA DARAJALANISHI Shaxsning yoshi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan, namoyon bo'ladigan nutqiy xususiyatlar. Masalan, til egalarining yoshi ulg'ayishi bilan uning nutqi til birliklarini tanlash va qo'llash jihatidan, shuningdek, paralingvistik vositalardan foydalanish nuqtayi nazaridan o'zgaradi. Masalan, yigit yoshdagilarning nutq tempi katta yoshdagilarning nutq tempidan tezligi, tembrining balandligi bilan farqlanadi. Yoki katta yoshdagilar nutqi paremiologik birliklarga boyligi bilan kichik yoshdagilarning nutqidan ajralib turadi.

Qarang: nutqning sotsial farqlanishi.

JWX2678



WX2678

ODDIY SO‘ZLASHUV Ko‘pincha voqelik qanday bo‘lsa shunday ifoda topadigan, ba‘zan past xarakteristika bilan ham ifodalanadigan, kundalik hayotda, norasmiy vaziyatlarda yuzaga chiqadigan nutq shakli. Oddiy so‘zlashuvda adabiy til qoidalariga amal qilinmaydi, adabiy me‘yorlarga zid leksik-grammatik shakllar keng qo‘llanadi va zikr etilgan jihatlariga egaligi bilan adabiy tilga zid keladi. Unda mahalliy til unsurlari bilan birga yot til unsurlari ham ko‘p uchraydi. Bunday til shaklida undan foydalanuvchilarning ijtimoiy maqomiga ishoralar aniq seziladi. Oddiy so‘zlashuv ishchilar, talabalar, qishloq aholisi, ziyolilar, yoshlar va keksalar o‘rtasida kechishiga qarab o‘ziga xos bo‘ladi. Masalan, o‘zbek yoshlari so‘zlashuvi *zo‘r bo‘ldi, maza qildik, chopvordi* tarzidagi, keksalar so‘zlashuvi *hayriyat, shukur, ko‘nglim to‘ldi* tarzidagi so‘z va iboralar ko‘p uchrashi bilan farq qiladi.

Qiyos: adabiy til.

OILAVIY-MAISHIY TIL Faqat oilaviy munosabatlarda foydalanish darajasiga tushib qolgan, jamoaviy miqyosda qo‘llanish darajasiga yetmagan til yoki odamlarning uyda, oila davrasida va yaqin ijtimoiy muhitda kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadigan, norasmiy, og‘zaki til shakli. Globallashgan dunyoda tillar faqat bunday darajada migratsiya sharoitida ishlatiladi. Bunda oilaviy-maishiy til muhojir oilaning o‘zaro so‘zlashadigan boshqa tili bo‘lmaganligi sababli hamda etnik tilini, lisoniy o‘zligini saqlab qolish istagi bilan qo‘llanadi. Oilaviy-maishiy til ona tili sifatida shakllanadi.

Qiyos: adabiy til, oddiy so‘zlashuv.

OLINMA SO‘Z Bir tildan boshqa tilga qabul qilinish arafasida turgan, ammo hali til egalari tomonidan to‘liq tan olin-

WX2678

magan, oʻzga tilga xoslik belgisi toʻla saqlangan (oʻzlashtirayotgan tilning fonetik-orfoepik andozalariga solinmagan) leksik birlik. Bunday soʻzlarning oluvchi tilga toʻla qabul qilinmasligining bosh sababi olinma soʻzning yangi tushuncha ifodasi sifatida kirib kelmaganligi, qabul qiluvchi tilda muqobili mavjudligi hisoblanadi.

Qiyos: oʻz soʻzlar.

OLAMNING DIALEKTAL MANZARASI Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat hamda harakat-holatlar haqidagi tushunchalarning muayyan hududda yashovchi kishilarning dialektal xotirasidagi lisoniy birliklarda muhrlanganligi. U maʼlum bir hudud vakillarining olam va odam haqidagi tasavvurlari hamda munosabatlarini namoyon etadi, unda millat va elatga xos madaniyat belgilari aks etadi. Olamning dialektal manzaralari asosida olamning milliy lisoniy manzarasi shakllanadi. Mazkur tushunchani *olamning shevaviy manzarasi* tarzida ham atash mumkin.

Qiyos: olamning lisoniy manzarasi.

OLAMNING LISONIY MANZARASI Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat haqidagi tushunchalarning shaxs yoki til jamoasi lisoniy xotirasidagi til birliklarida mavjud boʻlishi, saqlanishi. Har bir xalqqa xos olamning lisoniy manzarasida universal tushunchalar bilan birga, milliy-madaniy anʼanalar, etnik tarix, diniy eʼtiqod, milliy axloq, milliy adabiyot, milliy sanʼat tushunchalari ham ifoda oladi. Bu atama Y.L.Vaysgerber tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan.

Qiyos: jamiyatning lisoniy manzarasi.

OMMALASHTIRILAYOTGAN TIL Jamiyatdagi alohida qatlam tomonidan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy qoʻllov choralari orqali qoʻllanishi targʻib qilinayotgan, aholi orasida tarqatilayotgan, OAVda mashhurligi oshirilayotgan til. Odatda bunday til unutilish xavfi ostida qolgan til boʻladi va manfaatdor tomonlar tilni jozibali qilib taqdim etish payida boʻladilar. Bu tilda jamiyat yoki nodavlat tashkilotining

qo‘llovi bilan gazeta va jurnallar chop qilinadi, internet saytlari tashkil qilinadi, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar tashkillashtiriladi. “Ommalashtirilayotgan til” tushunchasi ayrim xususiyatlari bilan “rag‘batlantirilayotgan til” tushunchasiga o‘xshaydi, ammo ommalashtirishning davlat aralashuvisiz, media yoki global kuchlar yordamida bo‘lishi bilan farqlanadi.

Qarang: til siyosati.

OAV TILI Muayyan mamlakat hududida rasman ro‘yxatga olingan ommaviy axborot vositalari faoliyatida foydalaniladigan, axborot tarqatiladigan til. Bunday til vazifasini, asosan, davlat tili yoki rasmiy til yoki aholining asosiy qismi so‘zlashadigan til bajaradi. Masalan, O‘zbekiston sharoitida o‘zbek, qoraqalpoq, tojik va rus tillari ommaviy axborot vositalari tili sifatida amal qiladi. Tilning bunday vazifada qo‘llanishi uning publitsistik uslubi imkoniyatlarini kengaytiradi, ijtimoiy-demografik qamrovini oshiradi.

Qarang: boshqariladigan muloqot sohalari.

OMMAVIY IKKITILLILIK Mamlakatning biror hududida katta miqdordagi aholining ikki tilni bilishi, turli maqsadlarda ikki tildan erkin foydalana olishi. Postsovet hududidagi mamlakatlarning markaziy shaharlarida shunday xarakterdagi o‘zbek-rus ikkitilliligi kuzatiladi. O‘zbekistonning Samarqand va Buxoro viloyatlari markazida ommaviy o‘zbek-tojik ikkitilliligi amal qiladi. U “milliy ikkitillilik” tushunchasidan fuqarolarning ikki tilni davlat darajasida emas, faqat jamiyat darajasida bilish holati ekanligi bilan farqlanadi.

Qiyos: individual ikkitillilik.

ONA TILI 1. Insonning bolalikdan oilada, atrofdagi kattalarga taqlid qilish yo‘li bilan o‘zlashtirgan va hozir ham qo‘llayotgan tili. Odatda “ona tili” tushunchasi ota-onaning yoki ulardan birining “birinchi tili” tushunchasi bilan teng keladi. Ona tili olamni bilish, milliy lisoniy manzarani shakllantirish vazifasini bajaradi. U insonning shaxsiy “men”ini shakllantiradi, oila va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni barpo etish-

da asosiy vosita bo'ladi. Ona tili atamasining bu ma'nosida tilni "bolalikdan oilada, kattalarga taqlid qilib o'rganilishi" ifodasi ta'kid oladi.

Qiyos: birinchi til.

2. Har bir elatning, xalqning, millatning o'z tili. *Ona tili* atamasi bu ma'noda *etnik til* atamasiga teng keladi, bir elni boshqa eldan farqlovchi, milliy mansubligini belgilovchi vosita vazifasini bajaradi. Shu jihatlari bilan *ona tili* atamasining birinchi ma'nosidan farqlanadi. Ona tili orqali shaxs milliy madaniyat, qadriyatlar va tarixiy xotirani o'zlashtiradi, ijtimoiy guruh a'zosi sifatida o'z o'rnini anglaydi.

Qiyos: etnik til.

3. Funktsional jihatdan inson ilk bor o'rgangan til. Bu ma'noda "ona tili" tushunchasi "birinchi til" tushunchasiga teng keladi. Ona tilining ijtimoiy ahamiyati uni ta'lim, siyosat, OAV va kundalik hayotda faol ishlatilishi orqali yanada mustahkamlanadi.

Qiyos: birinchi til.

4. Umumta'lim maktablaridagi alohida o'quv predmetining nomi. U orqali o'quvchi tilning tuzilishi, qonuniyatlari, leksik boyligi va uslubiy xususiyatlarini o'rganadi, bu esa uning og'zaki va yozma nutqini to'g'ri va ravon ifoda etishga yordam beradi. Ona tili darslari muloqot madaniyatini, estetik didni, adabiy tafakkurni tarbiyalaydi hamda o'quvchini adabiyotga, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazadi.

Qarang: til ta'limi.

ONTOGENEZ [*yun.* ontos – borliq, mavjud narsa, tiriklik + genesis – paydo bo'lish, kelib chiqish, rivojlanish] Sotsiolingvistikada: shaxsning tilni o'zlashtirish va rivojlantirish jarayoni, insonning tug'ilganidan boshlab tilni o'rganish, o'zlashtirish va undan foydalanish qobiliyatining shakllanishi. Ontogenez bolalikdan ona tilini o'zlashtirishdan tortib boshqa tillarni o'rganish, bunday tilda nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z

ichiga oladi. Ontogenez tilning psixologik, kognitiv va ijtimoiy jihatlari bilan bog'liq bo'lib, tilni o'zlashtirishda fiziologik (masalan, nutq a'zolari) va ijtimoiy omillar (masalan, muhit, ta'lim) muhim rol o'ynaydi.

Qiyos: filogenez, lisoniy ijtimoiylashuv.

ORALIQTIL 1. Ona tili va ikkinchi til o'rtasidagi muvaqqat nutq shakli bo'lib, bu tilda ikkinchi tilni o'rganilayotganda yoki o'zlashtirilayotganda gapirila boshlanadi. Ikkinchi til hali lozim darajada o'rganilmaganligi sababli so'zlanayotgan oraliq tilda turli fonetik, leksik, grammatik va uslubiy xatoliklar ko'p kuzatiladi. Bu holat ongda bir tildan ikkinchi tilga o'tish – ikkinchi tilga xos lisoniy malakalarni egallash davri hisoblanadi.

Qarang: ikkinchi til.

2. Umuman, ona tili va yaxshi egallangan boshqa til o'rtasidagi vositachi til, ta'lim berishda foydalaniladigan til. Ko'pincha postsovet hududida rus tili ingliz tilini o'rganishda oraliq til vazifasini bajaradi, chunki bu tillarning grammatik qurilishida o'xshashlik mavjud.

Qarang: mezolekt, vositachi til, ta'lim tili 2, 3.

ORFOEPIK ME'YORLAR Jamiyat a'zolarining lisoniy birliklarni adabiy talaffuz qoidalariga asosan talaffuz qilinishini belgilaydigan qoidalar. Orfoepik me'yorlarni belgilashda til egalarining muayyan davrdagi talaffuz tajribalari asos qilib olinadi. Masalan, XIX asr oxirlaridagi adabiy talaffuz bilan hozirgi o'zbek tili davridagi adabiy talaffuz farq qiladi. Orfoepik me'yorlar jamiyat a'zolarining til hayotiga ongli aralashuvini, maqsadli ta'sir qilishini namoyon etadi.

Qiyos: orfografik me'yorlar.

ORFOGRAFIK ME'YORLAR Til egalarining lisoniy birliklarini adabiy til qoidalariga muvofiq to'g'ri yozishini belgilaydigan qoidalar bo'lib, uni imlo qoidalari tartibga solib turadi. Til taraqqiyotidagi har bir davrning o'ziga xos orfografik me'yorlari bo'ladi va u muntazam takomillashib boradi.

Xususan, kirill yozuvi asosidagi imlo me'yorlaridagi ayrim notugalliklar lotin yozuvidagi imlo qoidalarida bartaraf etilgan. Orfografik me'yorlar jamiyatning yozuv faoliyatiga ongli aralashuvini, maqsadli ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Qiyos: orfoepik me'yorlar.

ORTBILIM Sotsiolingvistikada: muloqot ishtirokchilarining moddiy voqeliklar, vaziyat va holatlar, majoziy yoki madaniy mazmunli tushunchalar haqidagi umumiy tasavvurlari. Bunday bilimlar tilning milliy-madaniy o'ziga xosliklar bilan birgalikda egallanishi uchun xizmat qiladi, qolaversa, til birliklari orqali ifodalangan mazmuni to'g'ri talqin qilish, lisoniy birliklar ortidagi madaniy yoki ijtimoiy kontekstni tushunish uchun zarur bo'ladi. Ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda ortbilimlarga egalik noto'g'ri talqinlarning oldini oladi, muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Qiyos: lisoniy ko'nikma.

OG'ZAKI ADABIY TIL Tarixan xalq og'zaki nutqi asosida shakllangan, muayyan mamlakatda adabiy talaffuz me'yorlari va qoidalariga binoan amal qiladigan, ommaviy axborot vositalari (radio va televideniye)da keng foydalaniladigan milliy til yashash shakllaridan biri, subkod. Og'zaki adabiy tilning (yozma adabiy tilning ham) sheva va dialektlardan farqi sof lingvistik jihatdan emas, balki sotsiolingvistik jihatdandir.

Qiyos: yozma adabiy til.

OG'ZAKI NUTQ Kishilarning bir-biri bilan nutq tovushlari orqali muloqot qilish shakli. Bunday nutq suhbat, monolog yoki rasmiy chiqish shaklida amalga oshadi va ohang, mimika va harakatlar bilan boyiydi, shu orqali fikr aniqroq, tugalroq yetkaziladi. Og'zaki nutq kundalik muloqotning asosiy vositasi sifatida ijtimoiy guruh, sharoit va munosabatga qarab turlicha shakllanadi. Masalan, yosh, jins, ta'lim darajasi yoki ijtimoiy maqomning farqiga ko'ra leksik, grammatik va uslubiy jihatdan o'zgaradi. Shuningdek, rasmiy va norasmiy muhitlarda registr almashuvi, lahja va dialektlarning uchrashi, subkodlarning almashuvi ham yuz beradi.

P

PERSPEKTIV TIL SIYOSATI Mavjud lisoniy hayotni, amal qilib turgan adabiy til me'yorlarini tubdan o'zgartirishga qaratilgan til islohoti. Masalan, bunday til siyosati bilan eski adabiy tildan yangi adabiy tilga o'tiladi, alifbo va yozuv o'zgartiriladi, imlo yoki punktuatsiya qoidalari yangilanadi va hokazo. Perspektiv til siyosatida ko'zda tutilgan o'zgarishlar inqilobiy ko'rinishda yoki bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga ko'ra farqlanadi. Masalan, bir paytda eski adabiy tildan voz kechish, alifboni almashtirish, imlo qoidalarini yangilash inqilobiy ko'rinishdagi perspektiv til siyosatidir.

Qiyos: retrospektiv til siyosati.

PIJIN [*ing.* pidgin < business – ish, yumush] Muayyan hududda aralash holda yashovchi va har xil tillarda so'zlashuvchi kishilar tomonidan bir tilni asos qilib olgan holda uning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini soddalashtirish orqali shakllangan til. Odatda pijin port shaharlarda savdo-sotiq qilish ehtiyoji bilan paydo bo'ladi. Pijin hech bir xalqning ona tili bo'lmaydi, pijinda so'zlashuvchilarning o'z tillari boshqaligicha qoladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Janubiy-sharqiy Osiyo, Okeaniya, Afrika va Amerikada kamida 50 ga yaqin pijin mavjud.

Qiyos: kreol til, lingvofranka.

PIJIN YARATUVCHISI Dastlab tovar ayirboshlash yoki savdo-sotiq ehtiyoji bilan muloqotga kirishgan, keyinchalik yonma-yon hududda yashab qolib, o'z tillari yoxud dialektlari asosida muayyan og'zaki tilni shakllantirgan lisoniy jamoa. Odatda yevropaliklar (dominant til egalari) bilan Afrika, Osiyo qit'asida yashovchi mahalliy aholi pijin yaratuvchilari bo'lib kelgan.

Qiyos: kreol yaratuvchisi.

PIJINLASHISH Savdo-sotiq qilish, tovar ayirboshlash, umuman, kommunikatsiya zarurati bilan o‘zaro kontaktdagi ikki tilning biridan soddalashtirilgan og‘zaki til shaklining paydo bo‘lish, shakllanish jarayoni. Pijinlashish hodisasi yuzaga kelishi uchun, albatta, ikkita bir-birini tushunmaydigan xalq vakillari bo‘lishi lozim va u kreollashishdan oldingi jarayondir. Bu jarayon tabiiy, ammo sun‘iy soddalashtirish asosida kechadi.

Qiyos: kreollashish.

PIJINSIZLASHISH Ma’lum bir pijinda so‘zlashuvchi aholining shu pijinga asos bo‘lgan til egalari bilan muntazam faol aloqaga kirishuvi natijasida o‘sha pijinning manba tilga o‘xshash yoki aynan bo‘lib qolishidan iborat lisoniy jarayon. Pijinsizlashish pijin amal qiladigan hududda pijin orqali bo‘ladigan savdo-sotiq, tovar ayirboshlash munosabatlari butkul yoki qisman to‘xtaganda, umuman esa, pijinda so‘zlashadigan aholi qolmaganda yuz beradi.

Qiyos: kreolsizlashish.

PIJINSHUNOS Jahon bo‘ylab pijinlarning yuzaga kelishi, tarqalish areallari, pijin turlari, pijinlarning kreol tillarga, kreol tillarning pijinga aylanish jarayonlarini o‘rganadigan, pijinsizlashish hodisasiga sabab bo‘ladigan omillarni tadqiq qiladigan tilshunos-mutaxassis.

Qiyos: pijinshunoslik.

PIJINSHUNOSLIK Dunyo miqyosida pijinlarning yuzaga kelishi, tarqalish areallari, pijin turlari, pijinlarning kreol tillarga, kreol tillarning pijinga aylanish jarayonlarini o‘rganadigan, pijinsizlashish hodisasiga sabab bo‘ladigan omillarni tadqiq qiladigan sotsiolingvistikaning bir bo‘limi. Pijinshunoslik ingliz tilshunosligida ancha rivojlangan. Pijinshunoslik kreolistika va sotsiolingvistika bilan jips bog‘liq sohadir.

Qiyos: kreolshunoslik.

POSTKREOL KONTINUUMI Til taraqqiyotining ma’lum bir davrida kreol tilning unga asos bo‘lgan til (odatda

mustamlakachilar tili) bilan yana qayta ta'sirlashuvi natijasida qayta kreolashuv jarayonining davom etishi. Ushbu jarayon kreol til egalari tomonidan shu kreol tilga asos bo'lgan tilning nufuzli, katta til deb baholanishi natijasida yuz beradi, mustamlakachilar tili xususiyatlari qayta kreolashuv oqibatida yashashda davom etadi.

Qarang: akrolekt, bazilekt, kreolsizlashish, mezolekt.

POTENSIAL LISONIY JAMOA Ajdodlari qo'llagan tilni biladigan, bu tilni ish yuritish darajasida o'zlashtirgan, ammo o'zi yashaydigan jamiyatda shu tilni qo'llashning imkoni yoki zarurati yo'qligi sababli undan foydalanmaydigan kishilar guruhi. Bunday jamoa o'z etnosining asosiy tarqalish hududidan tashqarida yashaydi. Masalan, Finlyandiyada yashovchi karel xalqi karel tilining potensial egalardir. Bu atama 1982-yilda V.K.Juravlev tomonidan "potensial sotsialema" deb nomlangan.

Qiyos: real lisoniy jamoa.

PROFESSIONAL LEKSIKA 1. Ma'lum bir kasb-kor, faoliyat sohasiga xos bo'lgan, shu kasb yoki faoliyat sohasiga oid tushunchalarning nomlari hisoblangan, ma'lum ma'noda qo'llanish doirasi chegaralangan, professionalizmlardan tashkil topgan lug'aviy qatlam. Sotsiolingvistikada professional leksikani o'rganish orqali uni yuzaga keltirgan jamoaning toifasi, qiziqishlari, tildan foydalanish tarzlari haqida xulosaga kelish, professionalizmlarning qo'llanish yoki unutilish sabablarini aniqlash maqsad qilinadi.

Qiyos: neytral leksika, qo'llanishi chegaralanmagan leksika.

2. Tor mutaxassislik sohalari vakillari faoliyatida qo'llanadigan maxsuslashgan ma'noli til birliklari, terminlar. Professional leksika bu ma'noda ilm-fan terminlari tushunchasiga teng keladi. Sotsiolingvistikada bu tip professional leksika yaratuvchilarining termin yasash jarayonlari "jamiyatning tilga ta'siri" sifatida o'rganiladi, ilmiy-texnik omillar bilan lisoniy omillarning qanchalik mos kelishi kabilarga diqqat qilinadi.

Qiyos: sotsiolekt.

PROFESSIONALIZM Muayyan kasb egalari nutqida soha terminlarining so‘zlashuvdagi muqobili sifatida qo‘llanadigan so‘z va iboralar. Ular terminlarning norasmiy muqobili hisoblanadi va ko‘pincha ko‘chma ma’noli bo‘ladi. Umumadabiy sinonimlaridan emotsional to‘yinganligi, qisqaligi bilan ajralib turadi. Masalan, kompyuter ustalari nutqida *kompyuter* so‘zi o‘rnida *mashina* professionalizmi ishlatiladi. Ommabop yoki “modadagi” kasblarga oid professionalizmlar adabiy tillarga ham kirmoqda. Masalan, kompyuterchilar jargonidan olingan *qotmoq* so‘zi. Ularni professional jargonizm ham deyish mumkin.

Qarang: sotsiolekt, argo, sleng.

PROGRESSIV IKKITILLILIK Ikkinchi tilning jamiyatda faol ishlatila boshlashi, jamiyat a‘zolari orasida ikkinchi tilning faol amal qilinishga o‘tishi, ikkinchi tilni o‘zlashtirganlar sonining ko‘payishi bilan tavsiflanadigan ikkitillilik turi. Bunday jarayon birinchi til ijtimoiy-siyosiy jihatdan ahamiyatsizlashgan, uning jamiyat hayotidagi o‘rni, ta’siri pasaygan vaziyatda, ayni paytda, boshqa jamiyatlar bilan integratsiyalashayotgan, hamkorlik aloqalarini kengaytirayotgan jamiyatlarda ko‘proq kuzatiladi. Masalan, XX asrning 50–60-yillaridan boshlab sobiq ittifoq hududidagi milliy respublikalarda o‘svuchan ikkitillilik kuzatila boshlagan.

Qiyos: regressiv ikkitillilik.

PROSPEKTIV SOTSIOLINGVISTIKA Muayyan til(lar)ning rivojlanish istiqbollarini rejalashtirish bilan shug‘ullanadigan, til va jamiyat ta’sirlashuvining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganadigan, tilning ijtimoiy muhitda qanday o‘zgarishi, yangi ijtimoiy, texnologik va madaniy sharoitlarga moslashishi mumkinligini tahlil qiladigan sotsiolingvistika bo‘limi. Masalan, globallashtirish, raqamli texnologiyalar yoki migratsiya sharoiti tildan foydalanishga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini prognoz qiladi. Sotsiolingvistikaning bu bo‘limi faoliyati til siyosati,

lisoniy rejalashtirish va kelajakdagi ijtimoiy o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rishda muhim ahamiyatga ega.

Qarang: sotsiolingvistika bo'limlari.

PUBLITSISTIK USLUB Davrning ijtimoiy, siyosiy, madaniy va boshqa dolzarb masalalariga oid matnlar yaratiladigan, asosan, axborot yetkazishga mo'ljallangan til vazifaviy shakli. Publitsistik uslubda ijodkorning voqelikka faol munosabati, fikrni ochiq-oshkor aytishga intilishi seziladi. U ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ'ib qilish orqali jamiyat ongiga ta'sir qiladi.

Qiyos: rasmiy uslub.

PURISTIK TIL SIYOSATI Muayyan milliy adabiy tilni chet so'zlardan, turli noadabiy yasalma va sheva unsurlaridan tozalashga yo'naltirilgan lingvistik chora-tadbirlar majmuyi. Bunday til siyosati odatda milliy adabiy til shakllantirilayotganda yoki milliy o'zlikni anglash favqulodda teranlashgan, millatparvarlik keskinlashgan vaqtda, umuman, jamiyatda faol ijtimoiy harakatlar yuz berayotgan paytlarda yuritiladi. O'zbekiston sharoitida XX asr boshlarida yoki 90-yillarning boshida, asosan, ziyoli qatlam vakillari zehniyatida lisoniy purizm kayfiyati ustuvorlashgan. Tilning adabiy shaklini me'yorlashtirish, shevalarni standartlashtirish va xorijiy so'zlar o'rniga milliy muqobillarni joriy etish, terminologiyani milliyashtirish puristik yondashuvning namunasidir.

Qiyos: noxolis til siyosati.

PURIZM [*fr.* purisme < *lot.* – purus – toza, sof] Tilni chet so'zlardan tozalash va sof saqlashni maqsad qilgan, tilni ichki imkoniyatlar asosida boyitish hamda rivojlantirishni yagona to'g'ri yo'l deb biladigan lingvistik ta'limot. Purizmda chet tillardan so'z olish tilni tanazzulga eltuvchi salbiy hodisa hisoblanadi. Purizm jamiyatdagi siyosiy va madaniy tendensiyalar va hissiyotlar bilan bog'liq. Vaqt o'tishi bilan mafkuraviylashishi ham mumkin. Purizm XVIII asr oxirida Germaniyada nemis tilini fransuzcha so'zlardan tozalash

harakati sifatida paydo bo‘lgan. XX asr boshlarida Turkiyada Mustafo Kamol Otaturk boshchiligida turk tilini arabizmlardan tozalash istagidagi harakatlar ham purizmga misol bo‘ladi.

Qiyos: lisoniy liberallashuv. **Qarang:** til sofligi.

JWX2678

JWX2678

Q

QABILA TILI Tilning ibtidoiy jamoa tuzumi davriga xos asosiy yashash shakli. Bu davrda har bir urug‘ yoki qabilaning o‘z tili (dialekti) bo‘lgan, ko‘pincha og‘zaki shaklda amal qilgan, yozuvi bo‘lmagan, tovush tizimi ancha o‘ziga xos, lug‘at tarkibi ancha tor, grammatikasi oddiy bo‘lgan. Bunday darajadagi “qabila tili” tushunchasi ma‘lum ma’noda “etnik til” tushunchasiga mos kelgan. Keyingi sanoatlashuv davrida qabila tillari birlashgan, ayrimlari unutilgan. Natijada, bir etnik tilda ikki va undan ortiq qabilalar so‘zlashadigan bo‘lgan. Hozir ham qabila tillari bor. Hozirgi milliy tillarning barchasi qabila tilidan rivojlangan.

Qiyos: qabilaviy til.

QABILAVIY TIL Faqat bir qabila a‘zolari orasida amal qiladigan, fonetik, leksik va grammatik jihatdan qadimiy etnik xususiyatlarini saqlab qolgan, boshqa tillarning ta‘siriga uchramagan, ayni paytda, funksional jihatdan taraqqiy qilmagan til. Bunday tillar funksional rivojlanmagan bo‘lsa ham qabilaning lisoniy ehtiyojlarini qondira olgan. Masalan, Avstraliyadagi kuketayor qabilaviy tilida hozirgi vaqtda ham o‘ng va chap so‘zlari yo‘q. Agar kuketayor vakili do‘stiga “Chap oyog‘ingda chumoli o‘rmalayapti” demoqchi bo‘lsa, do‘stining turgan o‘rnidan kelib chiqib, “Sharqiy oyog‘ingda chumoli o‘rmalayapti” deydi. Afrikada, Amazonka o‘rmonlarida tupi, yanomami, zulu, xosa, maasai singari qabilaviy darajadagi tillar bor.

Qiyos: qabila tili.

QADIM YOZUVLAR Insoniyatning ilk sivilizatsiyalari tomonidan yaratilgan va qadim til, madaniyat hamda ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi yozuv tizimlari. Masalan, shumerlarning mixxat yozuvi soliq va savdo hujjatlarini yuri-

tishda ishlatilgan bo'lsa, bu jamiyatda yozuvning boshqaruv va iqtisodiy nazorat vositasi bo'lganini ko'rsatadi. Yoki Misr iyerogliflari esa diniy matnlar va fir'avnlarining hayoti haqida ma'lumot bergan, bu esa diniy hokimiyat va yozuv o'rtasidagi bog'liqlikni bildiradi. Sotsiolingvistik jihatdan bu yozuvlar elita va ma'rifatli tabaqa tilini saqlab, jamiyatda savodli va savodsiz qatlamlar o'rtasida ijtimoiy tabaqlanishga xizmat qilgan. Qadim yozuvlar nafaqat tilning tarixiy shakllanish bosqichlari, balki ularning ijtimoiy funksiyalari va kuch munosabatlarini ham aks ettiradi.

Qiyos: eski yozuvlar, zamonaviy yozuvlar.

QADIM YOZUVLI TILLAR Tarixda eng qadimiy yozma yodgorliklarga ega, ilk sivilizatsiyalar tomonidan ishlatilgan, qadimdan o'z yozuvi, yozma an'analariga ega bo'lgan va hozirgi kunda ham ma'lum darajada o'sha yozuv an'anelarini saqlab kelayotgan tillar. Masalan, arman, gruzin, hind, xitoy tillari qadim yozuvli tillardir. Masalan, arman va gruzin yozuvlari eramizning IV–V asrlarida yaratilgan. Bunday yozuvli tillar orqali dunyo madaniyati, qadim sivilizatsiyalar tafakkuri va tarixiy taraqqiyoti o'rganiladi.

Qiyos: yosh yozuvli til, yangi yozuvli til.

QADIMIY TILLAR Dunyo tillari taraqqiyotining dastlabki davrlarida shakllangan, takomiliga yetgan, eng qadimgi madaniy-ma'naviy yodgorliklar yaratilgan tillar. Bunday tillar mohiyatan xalqlar taraqqiyotining keyingi davrlarida shakllangan tillar uchun asos, bobotil bo'lib xizmat qiladi. Qadimiy tillar kishilik jamiyatining umumiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan, muayyan davrda muloqot vositasi bo'lgan bo'lsa ham keyinroq qo'llanishdan to'xtagan hamda o'lik tilga aylangan. Masalan, lotin tili ana shunday qadimiy tildir.

Qiyos: zamonaviy tillar.

QAMOQ TILI Ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar tomonidan qamoqxona muhitiga moslashtirilgan, maxfiylik va jamoa ichki qoidalarini aks ettiradigan, o'ziga xos yopiq

leksik tizimga ega bo'lgan, umumtil so'zlari mutlaqo boshqa ma'nolarda qo'llanadigan til shakli. Qamoq tili, asosan, mahbuslar, qisman qamoqxona ishchilari nutqida namoyon bo'ladidi. Masalan, o'zbek mahbuslari nutqida "vishka" so'zi "oliy jazo, o'lim jazo"sini bildiradi, "atanda" so'zi "qoch, qochib qol" ma'nosida ishlatiladi. Sotsiolingvistik jihatdan bu til shakli tutqunlik sharoiti va shunday sharoitda shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik holatlarni aks ettiradi.

Qiyos: mahbuslar jargoni.

QARINDOSH TILLAR Genealogik jihatdan bir bobotildan kelib chiqqan, hozirgi kunda ham bir til oilasiga mansub bo'lgan tillar (bir-biriga nisbatan). Masalan, o'zbek va qozoq, turk va o'zbek, qoraqalpoq va tuva tillari; rus va belarus, fors va tojik, ingliz va nemis tillari o'zaro qarindosh tillardir. Sotsiolingvistikada tillar qarindoshlik darajasiga ko'ra, yaqin qarindosh tillar va uzoq qarindosh tillarga ajratib o'rganiladi. Ba'zan "qarindosh tillar" ma'nosida *qardosh tillar* atamasi qo'llanadi, biroq bunda genealogik yaqinlik belgisi xiralashadi.

Qiyos: noqarindosh tillar.

QARINDOSH TILLAR IKKITILLILIGI 1. Shaxsning o'z ona tili bilan birga boshqa qarindosh tilni ham o'zlashtirganligi, bu tillardan qiynalмай foydalana olishidek individual ikkitillilik ko'rinishi.

Qiyos: noqarindosh tillar ikkitilliligi 1.

2. Muayyan hududda bir til oilasiga mansub bo'lgan ikkita tilning kundalik muloqotda, ish yuritishda amal qilishidan iborat jamoaviy ikkitillilik ko'rinishi. Bunday sharoitda aholi o'zining ona tili bilan birga boshqa tildan ham foydalanadi. Masalan, Qozog'istonning Rossiya bilan chegaradosh hududlarida qozoq-rus ikkitilliligi shunday xususiyatlidir.

Qiyos: noqarindosh tillar ko'ptilliligi.

QARINDOSH TILLAR KO'PTILLILIGI Bitta davlatda bir til oilasiga mansub tillarning o'zaro muloqot vositasi sifatida amal qilishi, turli faoliyat sohalarida qo'llanishi. Masalan, Shveysariyada nemis, fransuz, italyan

hamda retoroman tillarining; Belgiyada niderland, fransuz va nemis tillarining o‘zaro muloqot va ish yuritish vositasi sifatida amal qilishi.

Qiyos: noqarindosh tillar ko‘ptilliligi.

QATTIQ TIL SIYOSATI Davlatning biror tilni biror sohada amal qilishini qat’iy qonunlar, ma’muriy choralar va jazo mexanizmlari orqali majburiy joriy qilish harakati. Bunday siyosat ko‘pincha bitta tilning ustunligini maqsadli ta’minlagan holda boshqa tillarning qo‘llanishini cheklash yoki qo‘llanishdan chiqarishga urinishida namoyon bo‘ladi. Masalan, 2000-yillarda Qirg‘izistonda qirg‘iz tilini majburiy joriy qilish, o‘zbek tilli maktablarni yopish boshlangan. Qirg‘izistonning O‘sh, Jalolobod, O‘zgan viloyatlarida yashaydigan o‘zbeklarning o‘z tilida ta’lim olish imkoniyati cheklangan.

Qiyos: yumshoq til siyosati.

QAYTA SOTSIOLINGVISTIK TALQIN Boshqa fanlar yoki tilshunoslikning boshqa sohalarida avval o‘rganilgan materiallarni qayta tahlil qilish, qayta sharhlash; boshqa tadqiqotchi tomonidan lingvistik tadqiqot obyekti bo‘lgan yoki boshqa fanlarda o‘rganilgan ma’lumot yoki materialni sotsiolingvistik jihatdan takror tadqiq qilish usuli. Asosan, diaxron sotsiolingvistikada muayyan tilning avval qanday funksiyalarni bajarganligini aniqlash uchun “birlamchi material” topish qiyin bo‘lganda qo‘llanadi. Bunda bilvosita manbalar, masalan, hujjatlar, yozma manbalar va boshqa ilmiy ishlanmalar asosida tildagi o‘zgarishlar, til va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi tarixiy bog‘liqlik o‘rganiladi.

Qarang: sotsiolingvistik tadqiq usullari.

QISMAN IKKITILLILIK Jamiyatdagi ma’lum bir qatlamning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ikki tildan foydalana olishi, masalan, ziyolilarning yoki aviatsiya xodimlarining ona tili bilan birga yana bir tilni egallaganligi. O‘zbekiston sharoitida Toshkent shahrida yashovchi intellektual qatlam

vakillari orasida o‘zbek tili bilan birga rus tilining amal qilishi.

Qiyos: hududiy ikkitillilik.

QISMAN LISONIY BIRXILLIK Mamlakatning muayyan hududida, tuman, shahar yoki viloyat miqyosidagina yagona til yoki uning bitta yashash shaklining yashashi, mavjudligi. Masalan, O‘zbekistonning Qo‘qon, Marg‘ilon singari shaharlarida faqat o‘zbek tilining yashashi shunday til vaziyatiga misol bo‘ladi, ammo viloyat miqyosida o‘zbek tili bilan birga, tojik, qirg‘iz tillari ham qo‘llanadi.

Qiyos: lisoniy harxillik, to‘liq lisoniy birxillik.

QISMAN LISONIY HARXILLIK Muayyan mamlakatdagi ayrim shahar va tumanlarda turli ijtimoiy-maishiy munosabatlarda ikki, ba‘zan uch tilning yashashi, mavjudligi. Bunday lisoniy harxillikni Samarqand shahrida o‘zbek, tojik va rus tillaridan foydalanish misolida kuzatish mumkin.

Qiyos: to‘liq lisoniy harxillik.

QOLDIQ IKKITILLILIK Ma‘lum muddat amal qilgan ikkitillilikning keyinchalik tor doirada saqlanib qolishi yoki jamiyatda ikkinchi tilning asta-sekin ishlatilmay qo‘yishi va uning ijtimoiy muomaladan chiqib ketishini ifodalovchi tushuncha. Bunda ikkinchi tilga oid bilim va ko‘nikmalar qisman saqlanadi, ammo kundalik hayot, ta‘lim, rasmiy muloqot va ommaviy axborot vositalarida kam ishlatiladi. Natijada, til avvalgi mavqeyini yo‘qotadi, leksik zaxira qisqaradi, grammatik me‘yorlar unutila boshlaydi va oxir-oqibat passiv til maqomiga tushadi. Masalan, sobiq ittifoq hududidagi milliy respublikalarning tegishli hududlarida milliy tillar qo‘llanishining kengayishi sharoitida rus tilining kam qo‘llanishga o‘tishi.

Qiyos: boshlang‘ich ikkitillilik.

QONUN TILI Ma‘lum bir qonun, qonunosti hujjatlari yozilgan, yaratilgan til. Qonun tili umumadabiy me‘yorlar asosiga qurilsa ham xolislik, aniqlik, ixchamlik, mazmunan mukammallik tamoyilining ustuvor bo‘lishi, o‘ziga xos leksik-

morfologik qo‘llashlar bilan ta‘minlanishi, kichraytirish-erkalash o‘ttenkali til birliklari, ko‘tarinki, tantanavor uslubdagi so‘zlardan foydalanilmasligi, matn qurilishi tasniflovchi, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga asoslanishi bilan ajralib turadi.

Qiyos: qonunchilik tili.

QONUNCHILIK TILI Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida qonun va qonunosti hujjatlari yaratiladigan, ishlab chiqiladigan va e‘lon qilinadigan til. Xalqaro tajribada qonunchilik tili sifatida davlat tili yoki rasmiy til amal qiladi. Shuningdek, bir mamlakatda qonunchilik tili vazifasini bir necha til bajarishi mumkin. Masalan, Finlandiyada fin va shved, Shveysariyada nemis, fransuz, italyan va retoroman tillari qonunchilik tillari hisoblanadi.

Qarang: qonun tili.

QORISHIQ NUTQ Bilingvning ona tilidagi nutqida ikkinchi til unsurlarini muntazam qo‘llashi bilan tavsiflanadigan nutq. U moshkichiri nutqdan interferensiya natijasi ekanligi, har qanday tilda emas, faqat ikkinchi tildan foydalanganda uchrashi bilan farqlanadi. Bunda til egasi beixtiyor ikkinchi til unsurlarini qo‘llab yuboradi.

Qiyos: moshkichiri nutq.

QORISHIQ TILLI JAMOA Kelib chiqishi turli til oilalariga mansub tillardan aralash foydalanishga odatlangan guruh. Bunday jamoa vakillari grammatik qurilishi bir-biridan tubdan farq qiladigan tillardan foydalangani uchun aralash tillilik salbiy baholanadi. Ba‘zan bunday qo‘llanish jamiyatda oddiy holga aylanadi va bunda kishilar til sofligi buzilayotganligini anglamay qo‘ygan bo‘ladilar.

Qiyos: bir tilli jamoa.

QO‘LLANISHI CHEGARALANGAN LEKSIKA Til egalarining hududiy, sotsial yoki kasbiy mansubligiga ko‘ra farqli qo‘llanadigan, asosan, noadabiy xarakterli ekanligi bilan ajralib turadigan so‘z va iboralarning jami. Hududiy va

ijtimoiy dialektlar, termin va boshqa noadabiy qatlam soʻzlari chegaralangan leksikani tashkil etadi. Bunday til birliklari semantikasidagi nolisoniy jihat (u sotsial, madaniy va boshqa xususiyatlar boʻlishi mumkin) til egalarining ulardan adabiy nutqda foydalanishiga imkon bermaydi.

Qiyos: qoʻllanishi chegaralanmagan leksika.

QOʻLLANISHI CHEGARALANMAGAN LEKSIKA

Hududiy yoki sotsial xoslanmagan, uslubiy belgisiz, keng qoʻllanishdagi, umumadabiy xarakterli soʻz va iboralarning jami. Vaqt oʻtishi bilan qoʻllanishi chegaralanmagan leksemalar qoʻllanishi chegaralangan leksika tarkibiga oʻtishi mumkin. Masalan, ijtimoiy-siyosiy tuzumning oʻzgarishi bilan soʻz semantikasiga oʻrnashib qolgan avvalgi tuzumga xos ijtimoiy belgilar soʻzlarning umumadabiy tilda qoʻllanishiga imkon bermaydi.

Qiyos: qoʻllanishi chegaralangan leksika.

QOʻSH RASMIY TILLILIK Muayyan mamlakatda ikkita tilning rasmiy til maqomida amal qilishi, ish yuritish tili sifatida yashashi. Bunda har ikki til rasmiy til maqomiga ega boʻlishi yoki biri rasmiy til, ikkinchisi davlat tili maqomida qoʻllanishi mumkin. “Qoʻsh rasmiy tillilik” tushunchasi ayrim jihatlari bilan “milliy ikkitillilik” tushunchasiga oʻxshash, faqat “qoʻsh rasmiy tillilik”da ikkitillilikning miqyosi katta boʻlmaydi. Masalan, Qirgʻizistonda qirgʻiz tilining davlat tili, rus tilining rasmiy til maqomida qoʻllanishi. Qoʻsh rasmiy tillilik mamlakatdagi boshqa huquqiy maqomsiz tillarning ishlatilishini cheklamaydi.

Qiyos: yagona rasmiy tillilik, koʻp rasmiy tillilik.

QOʻSHYOZUVLILIK Muayyan mamlakat hududida bir til uchun rasman ikki yozuvning qoʻllanishi. Bunday holat bir yozuv tizimidan boshqa yozuv tizimiga oʻtilganda yoki til egalari yangi yozuvda ish yuritish malakasiga ega boʻlib ulgur-maganligi sababli avvalgi yozuv tizimidan foydalanish davom etayotgan vaqtda yuzaga keladi. Qoʻshyozuvlilik baʼzan bir necha yil, baʼzan bir necha oʻn yil davom etadi. Buning nati-

jasida eski yoki yangi alifboga tarafdor aholi qatlami shakllanadi. Masalan, XX asrning 2-yarmida O‘zbekistonda ma’lum muddat arab-kirill qo‘sh yozuvliligi amal qilgan. 1993-yilda o‘zbek-lotin yozuviga o‘tilgan vaqtdan boshlab hozirga qadar ham qo‘shyozuvlilik amal qilmoqda.

Qiyos: biryozuvlilik.

JWX2678

R

RAQAMLI IDIOLEKT Insonning internet va raqamli muhitdagi o‘ziga xos yozish uslubi bo‘lib, u leksika, imlo, emoji, til aralashuvi va punktuatsiyada namoyon bo‘ladi. Masalan, bir foydalanuvchi doim “Salom, yaxshimisiz?..” deb rasmiy va muloyim yozsa, boshqa kishi “salom qale?..” tarzida erkin va qisqartirilgan shaklda murojaat qiladi. Kimdir har doim “ok” deb javob yozadi, boshqasi esa “ha” yoki “zo‘r” deb yozadi. Shuningdek, “meeting bor edi” kabi inglizcha-o‘zbekcha aralash iboralar ishlatish ham raqamli idiolektning bir qismidir. Bu hodisa sotsiolingvistik jihatdan insonning yoshi, ijtimoiy mavqeyi, mansubiyati, tilga va texnologiyaga bo‘lgan yondashuvini ifodalaydi. Har bir toifaning tarmoqda o‘z uslubi shakllanmoqda.

Qiyos: raqamli til.

RAQAMLASH TILI Elektron qurilmalar orqali barcha turdagi ma’lumotlar (matnli, audio, video)ni uzatish va qabul qilishda, ularni qayta ishlashda foydalaniladigan, shuningdek, axborotlarni yagona tizimga solishda qo‘llanadigan sun’iy til. Masalan, Yunikod, ASCII kabilarni raqamlash tili sifatida ko‘rsatish mumkin. Raqamlash tilida har bir belgi bir baytga tenglashtiriladi. Raqamlash tili uchun matnli axborotdagi bir tovushni ifodalaydigan digraf (masalan, sh, ch) yoki apostroffi harflar (masalan, o‘, g‘)lar muammoli belgilar hisoblanadi.

Qiyos: raqamli til, sun’iy til, tabiiy til.

RAQAMLITIL Leksik va grammatik ma’nolarni ifodalash uchun raqamli ramz va belgilardan foydalaniladigan til. Ingliz sotsiolingvistikasida “aprior til” ham deyiladi. Bunday til sun’iy tillarga raqobatchi til sifatida o‘zlashtirilishi osonroq qilib shakllantiriladi. Masalan, “optima raqamli tili” shunday tillardan biri. Raqamli til odatda milliy yoki etnik tillardan

farqli o'laroq, universal xarakterga egaligi, lisoniy xudbinlik yoki tarfkashlikdan qochish maqsadida ham qo'llanadi.

Qiyos: raqamlash tili, sun'iy til, tabiiy til.

RASMIY IKKITILLILIK *ayn.* milliy ikkitillilik.

RASMIY KICHIK IJTIMOYIY GURUH Oldindan belgilangan (odatda rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlangan) maqsadlar, nizomlar, yo'riqnomalar va ustavlarga muvofiq faoliyat yurituvchi kichik guruh. Masalan, oila, futbol jamoasi, maktabdagi sinflar. Bunday guruh a'zolari o'rtasida norasmiy munosabatlar shakllanishi mumkin. Ushbu guruhning samarali faoliyat ko'rsatishi ko'p jihatdan guruhdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalarning bir-biriga mos kelish darajasiga bog'liq.

Qiyos: norasmiy kichik ijtimoiy guruh.

RASMIY MULOQOT SOHALARI Muloqot ishtirokchilarining shaxsiy xulq-atvori ijtimoiy ma'qullangan, rasman belgilangan tarzda yuzaga chiqadigan, umuman, fikr almashuv rasmiy kechadigan nutqiy sharoit. Davlat idoralari, ta'lim muassasalari, tashkilotlar yoki ish joylarida qat'iy tartib-qoidalar asosida olib boriladigan muloqotdir. Unda rasmiy til ishlatiladi, mavzular oldindan belgilangan bo'ladi va ishtirokchilar o'rtasida iyerarxik munosabatlar amal qiladi. Masalan, direktor va o'qituvchi yoki rahbar va xodim o'rtasidagi suhbat rasmiy muloqotga kiradi. Bu sohalarda ko'proq tilning rasmiy imkoniyatlari yuzaga chiqadi.

Qiyos: norasmiy muloqot sohalari, boshqarilmaydigan muloqot sohalari.

RASMIY TIL 1. Muayyan davlatda rasman tan olingan, huquqiy maqomi qonun yoki qonunosti hujjatlari bilan belgilangan, jamiyat hayotining turli jabhalarida ish yuritishda davlat tili bilan birga yoki faqat o'zi qo'llanadigan – "rasman ishlatiladigan til". Rasmiy til davlat ramzi bo'lolmaydi, unda mamlakat aholisining asosiy qismi so'zlashmaydi, mamlakatning yuridik maqomli yagona tili bo'lmaydi. Davlat boshqaruvi, ijro hokimiyati, qonunchilik, sud ishi, tibbiyot, ishlab chiqarish kabi ko'pdan ko'p sohalarda ish yuritishni

JWX2678
muvofiqlashtirish hamda maqbullashtirish uchun biron-bir til rasman tanlanadi.

Qiyos: davlat tili.

2. Xalqaro tashkilot va anjumanlarning ishchi tili sifatida qoʻllanadigan, rasmiy maqomi xalqaro tashkilot yoki xalqaro anjuman darajasida belgilanadigan va rasmiylik belgisi nisbiy, rasmanlik belgisi doimiy boʻlgan til. Masalan, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining rasmiy ishchi tili rus va xitoy tillari boʻlib, bu maqom shu tashkilot ichidagina amal qiladi. Yoki xalqaro anjumanlarning rasmiy ishchi tili anjuman tashkilotchilari tomonidan kelishiladi.

Qiyos: ishchi til.

RASMIY USLUB Oʻzbek adabiy tilining rasmiy yozishmalar va yuridik ishlarda amal qiladigan, qonun, farmon, buyruq va koʻrsatmalar, shartnoma va boshqa rasmiy hujjatlar, tashkilotlar oʻrtasidagi yozishmalar olib boriladigan bir koʻrinishi, maxsus qoidalar bilan tartibga solib turiladigan muloqot sohalari tili. Unda kichraytirish-erkalash ottenkali til birliklari, koʻtarinki, tantanavor ruhdagi yoki sheva soʻzlari, tor doiradagi kishilar tushunadigan iboralarning qoʻllanishi maʼqul koʻrilmaydi. Rasmiy uslubning aniqlik, ixchamlik, xolislik, mazmunan mukammallik kabi sifatleri oʻziga xos leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari orqali taʼminlanadi.

Qiyos: publitsistik uslub.

RAGʻBATLANTIRILAYOTGAN TIL 1. Davlatning bevosita moddiy-huquqiy qoʻllab-quvvatlovi bilan rivojlanishi taʼminlanayotgan, qoʻllanishda keng imkoniyatlar berilayotgan til. Davlat til siyosatining xolis yoki noxolisligiga qarab majoritar tillar ham, minoritar tillar ham ragʻbatlantirilishi mumkin. Xolis til siyosati minoritar tillarning ragʻbatlantirilishiga, noxolis til siyosati faqat majoritar tillarning qoʻllab-quvvatlanishiga sabab boʻladi. “Ragʻbatlantirilayotgan til” tushunchasi “ommalashtirilayotgan til” tushunchasiga yaqin, umumiy jihatlari bor. Ammo tilni ragʻbatlantirishga

yondashuvga ko‘ra farqli. Ya‘ni rag‘batlantirilayotgan til qo‘llovni faqat davlatdan oladi, til rag‘batlantirilganda uni saqlab qolish, rivojlantirish ishlari qonun chiqarish, davlat dasturi qabul qilish bilan amalga oshiriladi.

Qiyos: tiyib turish.

2. Rasmiy til yoki davlat tili bo‘lmaganda rasmiy til bilan birga davlat idoralarida qo‘llanish imkoniyatiga ega bo‘lgan til. Bunday rag‘batlantirilayotgan til tabiiy til ham, sun‘iy til ham, pijin ham bo‘lishi mumkin. Masalan, aksar MDH mamlakatlarida davlat tili bilan birga rus tili ham rasmiy muomalada ishlatiladi. Yoki AQShning ayrim shtatlarida ingliz tili bilan birga ispan tilidan ham foydalaniladi.

Qiyos: yordamchi til, qo‘shimcha til.

REAL LISONIY JAMOA Ijtimoiy-nutqiy faoliyatini bir tilda – o‘z etnik tilida amalga oshiradigan, shunday tildan foydalanganligi uchun ijtimoiy, siyosiy, hududiy va boshqa to‘siqlarga duch kelmaydigan guruh yoki umuman, bir til yoki til shaklida doimiy va faol ravishda muloqot qiluvchi, ijtimoiy hayotda o‘zaro aloqada bo‘lgan guruhi. Masalan, Finlyandiyada finlar va shvedlar. Rus sotsiolingvistikasida bu tushuncha 1982-yilda V.Juravlyov tomonidan “real sotsialema” deb atalgan. Sotsiolingvistik jihatdan real lisoniy jamoalar orqali tilning qo‘llanishi o‘rganiladi, lahjalar, sotsiolektlar, til o‘zgarishlari ana shu jamoalarda yuz beradi, til siyosati va ta‘lim strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy manba hisoblanadi.

Qiyos: potensial lisoniy jamoa.

REGIOLEKT [*lot.* region, regionis – viloyat, o‘lka + *yun.* lectos – nutq, so‘zlashuv] Shahar dialektiga xos arxaik xususiyatlarini yo‘qotgan, ammo adabiy so‘zlashuv tili ta‘sirida yangi xususiyatlarga ega bo‘lgan, ayni paytda, hali dialektal xususiyatlarini saqlab qolganligi sababli standart, adabiy til darajasiga yetmagan og‘zaki til shakli. Regiolekt na shahar dialektiga, na adabiy til shakliga to‘liq mos keladi, balki adabiy til va dialektga nisbatan oraliq holatda turadi. U mahalliy sheva

va dialektdan katta hududda tarqalganligi, ziyolilar, ma'muriy muassasalar xodimlari tomonidan qo'llanishi bilan farq qiladi.

Qiyos: adabiy til, dialekt, sheva.

REGIOLEKTLASHUV Shahar dialektining adabiy so'zlashuv tili ta'sirida arxaik xususiyatlarini qisman yo'qotib, ilgari kuzatilmagan lisoniy xususiyatlarga ega bo'lib borishidan iborat jarayon. Regiolektlashuv jarayoni yarimdialektlashuv hodisasidan faqat shahar dialekti asosida yuz berishi, katta shaharlarda yashovchi ziyolilar, ma'muriy muassasalar xodimlari nutqida namoyon bo'lishi bilan farqlanadi.

Qiyos: yarimdialektlashuv.

REGIONALIZM [*lot.* regionalis – mahalliy] Boshqa tildan olingan, lekin faqat muayyan hududda – bevosita tillar ta'sirlashgan hududda qo'llanadigan leksik birlik. Masalan, Litvadagi yerlik rus aholi nutqida *kvitansiya* so'zi o'rniga ishlatiladigan *kvitás* so'zi regionalizmdir. Regionalizmlar tillar ta'sirlashuvi hududlarida shakllanadigan mahalliy til variantlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Qiyos: qo'llanishi chegaralangan leksika.

REGIONAL VA MINORITAR TILLAR YEVIROPA XARTIYASI Muayyan mamlakat hududida kam sonli aholi so'zlashadigan mahalliy tillarni saqlab qolish, ularni himoya qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yevropa davlatlari tomonidan tasdiqlangan konvensiya. Mazkur xartiyaga qo'shilgan davlatlar hududidagi etnik ozchilik tillari bo'yicha tegishli majburiyatlarni bajaradi. Har yili dunyoning turli hududlarida etnik ozchilik so'zlashadigan tillarni himoya qilish, lisoniy xilma-xillikni saqlab qolish maqsadida etnomadaniy tadbirlar, ilmiy konferensiyalar o'tkaziladi.

Qarang: lisoniy harxillik.

REGISTR [*ing.* register – nutq vaziyatiga mos til uslubi < *lot.* registrum – ro'yxatga olish, yozib borish] Ingliz sotsiologiyasida: muloqot ishtirokchilarining qanday vaziyatda qanday rolda qanday so'zlashishini bildiradigan uslub.

U jamiyat a'zolari tomonidan aniq nutqiy maqsad va konkret nutqiy sharoitda foydalanish uchun xoslanib qoladi. Registrlar muloqot joyi, tarzi va muloqot ishtirokchilariga ko'ra farqlanadi. Shu jihatdan rasmiy, neytral va norasmiy; turg'un va o'zgaruvchan; ijtimoiy va shaxsiy registrlar farqlanadi. Masalan, har qanday shaxs ijtimoiy-lisoniy talablardan, muloqot joyi, tarzi va usulidan kelib chiqib, rasmiy, neytral yoki norasmiy registrdan foydalanadi. Registrlar bu jihatdan tilning situativ variantlanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Qiyos: vazifaviy uslublar.

REGRESSIV IKKITILLILIK 1. Ikkinchi tilning jamiyatda ishlatilmay qolishi, jamiyat a'zolari o'rtasida ikkinchi tilning nafaol amal qilishi, o'z navbatida, muayyan rasmiy yoki davlat tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeyi oshishi va qo'llanish doirasining kengayishi sharoitida kelib chiqadigan ikkitillilik turi. Bunday jarayon birinchi til ijtimoiy-siyosiy jihatdan ahamiyatlashgan, uning jamiyat hayotidagi o'rni, ta'siri kuchaygan vaziyatda yuzaga chiqadi. Masalan, XX asrning 90-yillaridan boshlab sobiq ittifoq hududidagi milliy respublikalarda shunday ikkitillilik kuzatila boshlagan.

Qiyos: progressiv ikkitillilik.

2. Shaxsning ikki tilni bilish va ulardan foydalanish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qolishi bilan bog'liq individual ikkitillilik ko'rinishi. Bu holat ko'pincha bir tilni kamroq ishlatish, unutish yoki boshqa tilning ta'siri ostida qolish natijasida yuzaga keladi. Masalan, muhojirlar o'z ona tilini kamroq ishlatib, yangi muhit tiliga ko'proq moslashganda ona tilini bilish darajasi pasayishi mumkin. Bu jarayon psixolingvistika va sotsiolingvistikada o'rganiladi.

Qiyos: progressiv ikkitillilik.

RETROSPEKTIV TIL SIYOSATI Davlat tomonidan mavjud lisoniy hayotni keskin o'zgartirmay, adabiy til me'yorlarini saqlab qolgan holda amalga oshiriladigan tilga doir chora-tadbirlar. Masalan, bunday munosabat mavjud

yozuv an'analarini tamoman yangilamagan holda alifboga tuzatishlar kiritish, tilni qo'llash bilan bog'liq jarayonlarni jiddiy yangilamaslik, umuman, mavjud me'yor va qoidalarni takomillashtirishdan iborat bo'lishi mumkin.

Qiyos: perspektiv til siyosati.

RIVOJLANAYOTGAN TIL Fikr va munosabatni yozma ifodalash tarzi, umumadabiy leksik-grammatik me'yorlari, ilmiy terminologiyasi shakllanayotgan, xalq xo'jaligining tor qo'llanish doiralaridan chiqib, vazifaviy uslublarini kengaytirayotgan til. Bunday til dastlab faqat og'zaki tarzda amal qilib keladi, keyinchalik yozuv tizimi yaratilgach, yozma adabiy til me'yorlari ishlab chiqilib, standartlashtirilayotgan bo'ladi. Odatda, rivojlanayotgan til boshlang'ich rivojlanish davridan keyin rasmiy til maqomini oladi.

Qiyos: rivojlangan til.

RIVOJLANGAN TIL Og'zaki va yozma fikr ifodalash tarzlari ancha avval shakllangan, leksik-grammatik jihatdan standartlashgan, ilm-fanning turli sohalariga oid tushunchalarni ifodalashga qodirlashgan, xalq xo'jaligining barcha sohalarida qo'llanishi qoidalashib bo'lgan, din, siyosat va diplomatiya tiliga aylanib ulgurgan til. Jahondagi davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega 200 dan ortiq til rivojlangan tillar hisoblanadi.

Qiyos: rivojlanayotgan til.

RIVOJLANMAGAN TIL Faqat og'zaki tarzda qo'llanadigan, taraqqiyotda urug'-qabila tili darajasida qolib ketgan, ko'pi bilan qishloq yoki ovulga teng hududda amal qiladigan til. Tilning rivojlanmasligiga lisoniy izolyatsiyalash sabab bo'lishi mumkin. Bunday tilning yozuvi bo'lmaganligi sababli leksikasi juda sekin boyiydi, so'z eskirish jarayoni esa tez bo'ladi.

Qiyos: rivojlangan til, rivojlanayotgan til.

ROL KONFLIKTI [*fr.* rôle – Aktyor uchun yozilgan sahna matni, vazifa + *lot.* conflictus – to'qnashuv, urilish, qarama-qarshilik] So'zlovchining nutqiy vaziyatlarda bajaradigan

ijtimoiy rollari o'rtasidagi nomuvofiqlik. U shaxs o'z ijtimoiy rolini bir boshqa, rol bajaruvchisini bir boshqa tushunganda; A va B rollar bajaruvchilari D roldan har xil narsani kutganda; shaxs o'zaro nomuvofiq ikki ijtimoiy rol egasi sifatida muloqot qilganda (masalan, buyruq berib o'rgangan shaxs iltimos qiluvchi rovida suhbatlashganda) yuzaga chiqadi. Bundan shaxs ijtimoiy maqomi hamda rolining muloqot jarayoniga faol ta'sir ko'rsatishi anglashiladi.

Qarang: ijtimoiy rol, ijtimoiy maqom.

ROLI MULOQOT Muayyan ijtimoiy roldagi kishilarning jamiyat qabul qilgan, ijtimoiy ma'qullangan roldagi nutqiy xatti-harakatlari. Masalan, shifokor rolidagi shaxsning bemorga savol berishi, hayot tarzi bo'yicha tavsiya berishi yoki taqiqlashi, tibbiy ko'rsatmalarga amal qilinmaganda yuzaga keladigan oqibatlarni tushuntirishi va bemor rolidagi shaxsning buni normal qabul qilishi qoidalashgan. Tomonlar bir-biridan bunday muloqot tarzini kutadilar. Bu kabi muloqot har bir ijtimoiy tizimda stereotiplashgan bo'ladi.

Qarang: registr, ijtimoiy rol.

S

SALBIY IJTIMOY BOG‘LIQLIK Ijtimoiy omil (hodisa)lar bilan lisoniy birlik (hodisa)lar o‘rtasida qarama-qarshi yo‘nalishda sodir bo‘ladigan aloqadorlik. Bunda bir o‘zgaruvchi oshgan sayin ikkinchisi kamayadi yoki aksincha. Masalan, yoshi kichik odamlar orasida adabiy til shakllaridan foydalanish darajasi oshadi, ya’ni yosh kamaygani sayin adabiy tilni qo‘llash ortadi. Yoki ijtimoiy mavqeyi past guruhlarda dialektal yoki og‘zaki nutq shakllaridan foydalanish darajasi ortadi, ya’ni mavqe oshgan sayin bu shakllardan foydalanish kamayadi. Bu jamiyatda muloqot xulqining farqli rivojlanishini ko‘rsatadi.

Qiyos: ijobiy ijtimoiy bog‘liqlik.

SANOAT JARGONI Qo‘llanish doirasi va ma’no jihatidan texnik terminologiyaga yaqin turadigan, ishlab chiqarishning maxsus sohasi nutqini xarakterlovchi so‘z hamda iboralar. Ular muayyan sanoat sohasi yoki kasbiy jamoa ichida ishlatiladigan maxsus leksika, qisqartmalar, iboralar va terminlardan iborat bo‘ladi, boshqa soha vakillariga ko‘pincha tushunarli bo‘lmaydi. Soha xodimlari muloqotining samarali kechishini ta’minlaydi. Sanoat jargoni shu sohada ishlagan keksalar tilida saqlanib qolishi ham mumkin.

Qarang: sotsiolekt, argo, sleng, oddiy so‘zlashuv.

SINFIY DIALEKT Sobiq ittifoq sotsiologiyasida keng tarqalgan tushuncha bo‘lib, turli ijtimoiy sinflar foydalanadigan til ko‘rinishi, tilning ijtimoiy farqlanishi natijasi. Shu jihatdan sobiq ittifoq tilshunosligida o‘zinkilarni “proletar dialekti” vakillari, aksilsovet kishilarni “burjua dialekti” vakillari sifatida taqdim qilingan. Sinfiy dialektlar ulardan foydalanadigan guruhlarning mafku-

rasi, hayotga munosabati boshqa-boshqa bo‘lganligi uchun farqlana borgan, o‘zida ijtimoiy tabaqalanish belgilarini namoyon etgan, deb tushuntirilgan.

Qiyos: hududiy dialekt, sotsiolekt.

SITUATIV VARIATIVLIK 1. Muayyan tilning ijtimoiy, madaniy va kommunikativ vaziyatlarga qarab o‘zgarishi va moslashishi. U tilning leksik, grammatik, stilistik va fonetik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Masalan, O‘zbekistonda o‘zbek tili rasmiy hujjatlarda adabiy shaklda, aniq terminlar va murakkab sintaksis bilan qo‘llansa, kundalik muloqotda oddiy so‘zlashuv shaklida, sodda grammatik shaklda ishlatiladi.

Qarang: tilning ijtimoiy qatlamlanishi.

2. Til egalarining ijtimoiy-kommunikativ vaziyatdan kelib chiqib tilning turli yashash shakllaridan foydalanishi bilan bog‘liq jarayon. Masalan, ziyoli qatlam vakillari, davlat xizmatchilari ish jarayonida, umuman, rasmiy muloqotda tilning adabiy shaklidan, ishdan keyingi jarayonlarda so‘zlashuv tilidan, shevadan foydalanadi va ular o‘zlari tanlangan til shaklini ham, lisoniy birliklarni ham shu vaziyat uchun eng samarali deb hisoblaydilar. Vaziyatga qarab tilning bir yashash shaklidan boshqasiga o‘tish so‘zlovchilardan muayyan nutqiy malakani ham talab qiladi.

Qiyos: ijtimoiy variativlik.

SITUOLEKT [*ingl.* situation – vaziyat, holat + *yun.* lectos – nutq, so‘zlashuv] Muloqot ishtirokchilarining muayyan nutqiy sharoitda kim bilan nima haqida so‘zlashishiga qarab, tanlab qo‘llaydigan lisoniy ifodalari majmuyi. So‘zlovchi o‘zining va tinglovchining ijtimoiy maqomidan kelib chiqib lisoniy birliklarni qo‘llashi situolektning mohiyatini ko‘rsatadi. Sotsiolingvistikada bunday birliklar muloqot rang-barangligini ta‘minlovchi vosita sifatida ham tushuniladi. Situolektlar situativ variativlikda faol qo‘llanadi.

Qiyos: registr.

SLENG [*ing.* slang – qamoqxona tili, past tabaqa nutqi] Adabiy til leksikasidan bir qadar qo‘pol mazmunli, vulgar

xarakterli ekanligi, oddiy soʻzlashuv shakliga xosligi, kuchli ekspressivlikka egaligi, urfga kirgan neologizmlardan tashkil topishi va koʻproq yoshlar nutqiga xoslanishi bilan izohlanadigan noadabiy soʻz va iboralar. *Sleng* atamasi ingliz va amerika tilshunosliklarida, asosan, *jargonning* maʼnodoshi sifatida qoʻllanadi. Rus va oʻzbek tilshunosliklarida slengni jargondan farqlash tendensiyasi kuzatiladi. Shunga koʻra, sleng ham jargon kabi sotsiolektning bir turi, biroq, asosan, yoshlar nutqiga xos noadabiy, qisman vulgarlashgan ifodalar ekanligi bilan farqlanadi.

Qiyos: sotsiolekt, jargon, argo.

SOF TIL Boshqa tillar unsurlari aralashmagan, tarixan faqat ichki manbalari asosida rivojlanib kelayotgan, asl tabiiy rivojlanish holatini, asl boshlangʻich shakllarini toʻla saqlagan til. Bunday til milliy leksika, anʼanaviy iboralar, folklor unsurlari va arxaik nutq shakllaridan shakllanadi, shu tarzda etnik guruh yoki etnosning oʻziga xosligini va madaniy merosini saqlab turadi. Tabiiy til tashqi taʼsirlarga uchrab, oʻzgarib turgani sababli globallashuv zamonida bunday til juda kam kuzatiladi. Asosan, toʻliq izolyatsiyada yashovchi etnik guruhlariga qabila tili darajasida uchraydi.

Qiyos: aralash til.

SOTSIOFONETIKA [*lot.* socius – jamiyat, ijtimoiy + *yun.* phōnē – ovoz, tovush] Lisoniy birliklarning fonetik-fonologik jihatlarini ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda oʻrganadigan sotsiolingvistikaning bir boʻlimi, sotsiologiya va fonetika fanlari kesishgan soha. Masalan, oʻzbek tilida *F* tovushining paydo boʻlishini oʻrganish. Sotsiofonetikada tildagi tovushlarning ijtimoiy omillar bilan qanday aloqada boʻlishini, xususan, insonlarning talaffuzi, intonatsiyasi, tovushlarni talaffuz qilish uslubi ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi, etnik kelib chiqishi, hududi yoki ijtimoiy guruhga mansubligi bilan qanday bogʻliqligi tahlil qilinadi.

Qarang: sotsiosemantika.

SOTSIOLEKT [*lot.* socius – jamiyat, ijtimoiy + *yun.*

lectos – nutq, so‘zlashuv] Muayyan jamiyatda ijtimoiy kelib chiqishi, kasbiy mansubligi, qiziqishlari umumiy, yosh jihatidan yaqin bo‘lgan kishilar yoki shunday ijtimoiy belgilariga ko‘ra birlashgan guruhlar qo‘llaydigan til yashash shakllaridan biri. Sotsiolektlar adabiy tildan, asosan, leksik, qisman grammatik farqlanadi. Jargon, argo, sleng va professionalizmlar ijtimoiy dialektlar hisoblanadi. Masalan, Toshkent shahridagi avtobus haydovchilarining o‘ziga xos argosi shakllangan bo‘lib, *tashlab yubor* so‘zi “sekinroq yur” ma’nosida qo‘llanadi. Har bir ijtimoiy dialekt sotsiolekt hisoblanadi, biroq har bir sotsiolektni ijtimoiy dialekt deb bo‘lmaydi. Sotsiolekt ijtimoiy dialektni ham o‘z ichiga oladi.

Qiyos: sotsialema 2. **Qarang:** jargon, argo, sleng, registr.

SOTSALEMA [*lot.* socius – jamiyat, ijtimoiy + *yun.* -lemma – birlik, unsur] 1. Butun hayoti va faoliyati davomida bitta til (yoki bitta dialekt, sotsiolekt)dan foydalanadigan kishilar jamoasi. U oila, qabila, xalq darajasida shakllanadi. Sotsialema tushunchasini Y.Desheriyev kishilarning ijtimoiy xoslangan guruhini etnolemadan farqlab ifodalash uchun qo‘llagan. Qamrov darajasiga ko‘ra, sotsialema makrosotsialema va mikrosotsialemaga ajraladi.

Qiyos: etnolema.

2. Muayyan ijtimoiy guruh tomonidan muayyan sharoitda ishlatiladigan, shu guruhning ijtimoiy, madaniy mansubiyati xususiyatlarini aks ettiradigan so‘z, ibora yoki nutq shakllari. Bu atama tilning ijtimoiy muhitda shakllangan va guruhning o‘ziga xosligini, qadriyatlarini yoki muloqot uslubini ifodalovchi elementlarini ta’kidlaydi. Keksalar orasida sotsialemalar ko‘pincha an’anaviy leksika, mahalliy nutq shakllari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Sotsialema faqat leksik birliklardan iborat bo‘lishi bilan sotsiolektlardan farq qiladi. Masalan, keksalar sotsiolekti an’anaviy nutq uslublari va arxaik leksikani o‘z ichiga olsa, sotsialemalar bu sotsiolekt ichidagi alohida so‘zlar yoki iboralar (masalan, o‘tmishga xos maqollar) sifatida namoyon bo‘ladi.

Qiyos: sotsiolekt. **Qarang:** jargon, argo, sleng, registr.

SOTSIOLINGVISTIK AREAL Tipologik jihatdan o‘zaro o‘xshash yoki yaqin bo‘lgan kommunikativ muhitlar majmuyi. Bu tushunchadan sotsiolingvistik tipologiya doirasiga davlat chegaralarining kommunikativ areal chegaralari bilan mos kelavermasligini tushuntirish, o‘zida bir necha kommunikativ muhitni birlashtiradigan mintaqalisoniy vaziyati haqida fikr yuritishda foydalanilgan. Shuningdek, turli kommunikativ muhitlardagi til vaziyatini tahlil qilishda kommunikativ muhitdan kattaroq tushunchalar bilan ish ko‘rishga imkon yaratadi. Shu ma‘noda Markaziy Osiyoda biror tilning tarqalishini o‘rganishda ham bu tushunchadan foydalanish mumkin.

Qiyos: sotsiolingvistik arxisistema.

SOTSIOLINGVISTIK ARXISISTEMA [sotsiolingvistik + *yun.* archē – bosh, ilk, asos, birlamchi + systēma – tizim, butunlik] O‘zida tilning turli ijtimoiy va hududiy variantlarini birlashtiradigan murakkab iyerarxik tuzilma. Bir tilli jamiyatda bunday arxisistema o‘zida tilning turli darajadagi yashash shakllaridan iborat bo‘lsa, ko‘ptillilik muhitida huquqiy maqomi, funksional kuchi va demografik quvvati turli darajada bo‘lgan, ijtimoiy jihatdan turlicha iyerarxik tuzilishli mustaqil tillardan tashkil topadi.

Qarang: ijtimoiy-kommunikativ tizim, tilning yashash shakllari.

SOTSIOLINGVISTIK BAHOLASH O‘zaro bog‘liq lisoniy va nolisoniy omillar, ular haqidagi axborotlarni tartibga solish, tasniflash usuli. Masalan, etnik mansubligi, ijtimoiy ahvoli, sotsial maqomi, yoshi, kasb-kori har xil til egalarining nutqidagi lisoniy va boshqa muhim kommunikativ o‘zgarishlar o‘rganiladi. Bu usul til sinxroniyasi va diaxroniyasi uchun birday muhim bo‘lib, muayyan tarixiy sharoitda tillar, dialektlar va sotsiolektlarning o‘zaro ta‘sirlashuvlari shu usul yordamida baholanadi.

Qiyos: sotsiolingvistik tadqiq usullari.

SOTSIOLINGVISTIK BOG‘LIQLIK Til hodisalari bilan ijtimoiy va boshqa nolisoniy hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik, shunday aloqadorlikni ifodalovchi munosabat. Bunda biror nolisoniy omilning lisoniy birlik (yoki hodisa)-ning shakllanishi yoki o‘zgarishiga ta’sir qilishi tushuniladi. Masalan, shaxsning ta’lim darajasi bilan adabiy tilning ishlatilish darajasi o‘rtasida bog‘liqlik bor. Ammo bog‘liqlik sabab-oqibat natijasi bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, erkak va ayollarda talaffuz farqlari biologik emas, balki ijtimoiy stereotiplar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Qarang: sotsiolingvistik makon.

SOTSIOLINGVISTIK KO‘RSAKICH Til egalarining ijtimoiy maqomi va rolini bildirib turadigan belgi. U jamiyat a’zolarining ijtimoiy yoki hududiy kelib chiqishi, kasbiy yoki lavozimiy holatiga ko‘ra yuzaga chiqadi. Masalan, II shaxs birlik sondagi *xohlaysanmi* yoki *istaysanmi* so‘zlari nutqda shu so‘zlarni qo‘llayotgan shaxsning ijtimoiy maqomi suhbatdoshinikidan baland yoki teng ekanligini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Qiyos: sotsiolingvistik ma’lumotlar.

SOTSIOLINGVISTIK LAYOQAT Lisoniy ijtimoiylashuvning rivojlangan bosqichida har qanday shaxsning o‘z nutqiy xatti-harakatlarini muloqot maqsadiga mos ravishda tashkil eta olish, nutq vaziyatiga muvofiq boshqara olish qobiliyati, til egasining ijtimoiy kontekstni anglab, unga mos ravishda tilning uslubiy, leksik, fonetik yoki grammatik variantlarini tanlay va qo‘llay olish malakasi. Bunday layoqatga ega shaxs rasmiy va norasmiy, katta yoshdagilar va tengdoshlar, ish muhiti yoki oilaviy suhbat kabi vaziyatlarda munosib til shakllarini ishlatadi. Shaxsning bunday layoqatga egaligi muloqotning samarali kechishini ta’minlash bilan birga, fikriy tushunmovchiliklarning ham oldini oladi.

Qarang: lisoniy layoqat, lisoniy ijtimoiylashuv.

SOTSIOLINGVISTIK LAYOQATLILIK Shaxsning lisoniy ijtimoiylashuvning rivojlangan bosqichlarida nutqiy xatti-harakatlarini muloqot maqsadi hamda vaziyatiga mos ravishda tashkil eta olish qobiliyatiga egaligi. Bunday malakaga ega shaxs muayyan nutqiy vaziyatda muloqot maqsadi va vaziyatiga muvofiq keladigan lisoniy va nolisoniy vositalarni tanlay oladi va aksincha, qanday lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalanish lozim emasligini biladi. Bunday ko'nikma o'sha shaxs mansub bo'lgan jamiyatda barqarorlashgan ijtimoiy talablar asosida shakllanadi.

Qarang: lisoniy layoqatlilik.

SOTSIOLINGVISTIK MAKON Fuqarolarning til tanlovi, tildan foydalanishi yaqin, muayyan tilning rasmiy yoki norasmiy qo'llanishi, ikki yoki ko'p tillilikning amal qilishi o'xshash bo'lgan kommunikativ hudud. Bunday makon chegarasi davlat chegarasiga mos kelavermaydi. Bir sotsiolingvistik makonda bir yoki bir necha tilda so'zlashilishi mumkin, ammo ijtimoiy-lisoniy tutumlar (ish yuritish, ta'lim tili) o'xshash bo'ladi. Masalan, Lotin Amerikasi mamlakatlarida ispan tilida gaplashilishi, rasmiy/norasmiy sohalarida ispan tildan foydalanilishi yoki Markaziy Osiyo davlatlarida milliy rasmiy tillar va rus tili o'rtasidagi munosabatning o'xshashligi bir sotsiolingvistik makonni namoyon etadi.

Qiyos: sotsiolingvistik vaziyat.

SOTSIOLINGVISTIK MA'LUMOT YIG'ISH USULLARI Sotsiolingvistik mazmundagi tadqiqotlarda foydalaniladigan lisoniy materiallarni to'plash va tahlil qilishda qo'llanadigan metodlar. Aksar bunday usullar sotsiologiya, sotsial psixologiya, etnografiya fanlarida ishlatiladigan usullarga o'xshash. Masalan, 1) bevosita va bilvosita kuzatish; 2) suhbatlashish; 3) so'rovnoma o'tkazish; 4) hujjatli materiallardan foydalanish; 5) test orqali ma'lumot olish kabilar.

Qarang: sotsiolingvistik tadqiq usullari.

SOTSIOLINGVISTIK MA'LUMOTLAR Muayyan til yoki uning fonetik-fonologik, leksik-semantik, uslubiy-gram-

matik tuzilishini sotsiolingvistik jihatdan o'rganishda nazarda tutiladigan xususiyatlar. Masalan, kishilarning yoshi, jinsi, hududiy mansubligi, ijtimoiy maqomiga ko'ra turli til birliklaridan foydalanishi bilan bog'liq jihatlar sotsiolingvistik ma'lumotlar sifatida xizmat qiladi. Ular so'rovnomalar, kuza-tish, intervyular, statistik tahlillar, audio yoki video yozuvlar orqali yig'iladi. Bu ma'lumotlar orqali til siyosatini shakllanti-rish, ta'limdagi til masalalarini hal qilish, tilni saqlash va rivoj-lantirish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi.

Qiyos: sotsiolingvistik ko'rsatkich.

SOTSIOLINGVISTIK ME'YOR Fikr yoki subyektiv munosabat ijtimoiy jihatdan to'g'ri hamda maqsadga muvofiq ifodalanishi uchun shaxsning lozim bo'lgan tilni (uning biror yashash shaklini) tanlashini yoki lisoniy birliklarni tanlab qo'llashini belgilaydigan ijtimoiy-lisoniy qoidalar, nutqiy faoliyatning sotsiomadaniy jihatdan muvofiqligini ta'minlaydigan normalar. Bu me'yorlar asosida sotsiolingvistik ko'nikma, malaka shakllanadi, jamiyat a'zolarining ijtimoiy maqomi, roli, kasb-kori, jinsi, yoshidan kelib chiqib farqlanadi.

Qarang: adabiy me'yor.

SOTSIOLINGVISTIK MONITORING Ikki va undan ortiq til amal qiladigan mamlakat yoki uning biror hududidagi til vaziyatini, huquqiy maqomli til(lar) va minoritar tillarning mavjud holatini, til qonunchiligining ahvolini ilmiy o'rganish, milliy, diniy kelib chiqishi har xil bo'lgan etnik guruhlar orasi-da lisoniy kamsitish, lisoniy ixtilof kabilarning yuzaga chiqish ehtimollarini kuzatuvga olish. Sotsiolingvistik monitoring er-kin tadqiqotchilik yo'li bilan yoki vakolatli davlat organlari-ning topshiriqlari asosida o'tkaziladi.

Qiyos: sotsiolingvistik tahlil.

SOTSIOLINGVISTIK MUVOZANAT Muayyan mamlakat yoki uning biror hududidagi til vaziyatining xavotirli emasligi, mavjud katta-kichik tillarning qo'llanish holatining til qonunchiligida belgilangan talablarga muvofiqligi. Masalan, mahalliy tillarning unutilish xavfi ostida emasligi, qolaversa,

etnik, diniy kelib chiqishi har xil aholi guruhlari o'rtasida lisoniy kamsitish-kamsitilish holatlarining uchramasligi, lisoniy ixtilof va nizolarning kelib chiqish ehtimoli yo'qligi. Umuman, jamiyat foydalanadigan tillarning, til shakllarining barqaror va muvofiq holatda yashashi, ularning ijtimoiy vazifalarini ziddiyatlarsiz bajarishi.

Qarang: xolis til siyosati.

SOTSIOLINGVISTIK MUVOZANATNING BUZILISHI Noxolis til siyosati yuritish, noto'g'ri til islohoti o'tkazish natijasida muayyan mamlakat yoki uning biror hududidagi til vaziyatining xavotirli darajaga kelib qolishi, mavjud lisoniy vaziyatni e'tiborga olmaslik yoki noto'g'ri lisoniy mo'ljallash oqibatida etnik ozchilik tillarini qo'llashda ikki, ba'zan uch, to'rt xil standartning joriylanishi, rasmiy va mahalliy tillar qo'llashda til qonunchiligi talablariga rioya etilmasligi kabi jarayonlar. Ijtimoiy tilshunoslikda bunday muvozanatning buzilishi rasmiy til haddan tashqari ustun qo'yilganda, global tillarning milliy tillarga ta'siri kuchayganda, adabiy til mutlaqlashtirilib, mahalliy shevalar imkoniyati past baholanganda sodir bo'ladi.

Qarang: noxolis til siyosati, lisoniy kamsitish.

SOTSIOLINGVISTIK TADQIQOT USULLARI Tilni sotsiolingvistik jihatdan o'rganishda qo'llanadigan maxsus usullar. Masalan: 1) lisoniy materiallarni yig'ish usuli; 2) yig'ilgan materiallarni tahlil qilish usuli; 3) yig'ilgan materiallarning to'g'ri va aniqligini baholash usuli kabilar. Sotsiolingvistika jamiyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan oraliq soha bo'lganligi sababli sotsiolingvistik tadqiqot usullari o'zida ham jamiyatshunoslik, ham tilshunoslik tadqiqot usullarini birlashtiradi. Amerika sotsiolingvistikasida ko'pincha sotsiologiya va sotsial psixologiyaning tadqiqot usullaridan unumli foydalaniladi.

Qarang: sotsiolingvistik tajriba.

SOTSIOLINGVISTIK TAHLIL 1. Muayyan til, uning yashash shakllari yoki tilning fonetik-fonologik, leksik-

semantik, uslubiy-grammatik tuzilishini sotsiolingvistik jihatdan o'rganish. Masalan, kishilarning yoshi, jinsi, hududiy mansubligi, ijtimoiy maqomiga ko'ra turli til birliklaridan foydalanishi yuzasidan chiqarilgan xulosalar sotsiolingvistik tahlil bo'lishi mumkin. Bu ma'noda sotsiolingvistik tahlil tilshunos-mutaxassisning o'z qiziqishi va ixtiyoriga ko'ra bo'ladi. Masalan, yoshlar nutqida dag'al ifodalarning ko'payishini o'rganish bo'lishi mumkin va bunday talqinda tildagi o'zgarishning sabablari ijtimoiyotdan ham izlanadi.

Qarang: sotsiolingvistik tadqiq usullari.

2. Umuman, ma'lum bir mamlakat yoki uning biror hududidagi til vaziyatini o'rganish, turli ijtimoiy-siyosiy institutlarda davlat tili (yoki rasmiy til)ni qo'llash yoxud qo'llamaslik holatlarini tadqiq qilish. Bu ma'noda sotsiolingvistik tahlil tilshunos-mutaxassisning shaxsiy tashabbusi yoki tegishli vakolatli davlat organi topshirig'i bilan o'tkaziladi. Masalan, O'zbekiston sharoitida o'zbek tilining davlat tili sifatida to'la amal qilishiga to'siq bo'layotgan omillarni o'rganish bo'lishi mumkin.

Qiyos: sotsiolingvistik monitoring.

SOTSIOLINGVISTIK TAJRIBA Ma'lum bir til, unga xos xususiyat va hodisalar, til yashash shakllari hamda vazifaviy uslublaridagi o'zgarishlarni sotsiolingvistik jihatdan o'rganish hamda baholashga qaratilgan eksperimentlarning jami. Masalan, muayyan mamlakatdagi til vaziyati, birtillilik va ko'ptillilik, davlat tili va milliy tillar munosabati, tildan foydalanishda ijtimoiy maqom va rolning o'rni, lisoniy birliklarning sotsial farqlanishi va boshqalar sotsiolingvistik tajriba obyekti bo'ladi. U so'rovnomalar, test, suhbat singari tadqiq usullari asosida o'tkaziladi.

Qarang: sotsiolingvistik tadqiqot usullari.

SOTSIOLINGVISTIK TALQIN Tadqiqotchi tomonidan tanlangan lisoniy va nolisoniy ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun og'zaki va yozma matnlarni,

statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda foydalaniladigan sotsiolingvistik tadqiqot usuli. Masalan, nolisoniy materiallarni o'rganish orqali til hodisalari bilan ijtimoiy omillar orasidagi bog'liqliklarni aniqlash yoki matbuot (gazeta-jurnallar) bilan bog'liq ma'lumotlarni (nomlari, hajmi, nashr etilish soni va boshqalar, o'rganish orqali tilning ma'lum bir kommunikativ sohada qanday funksional yuklama bilan ishlatilayotganini aniqlashda foydalaniladi.

Qiyos: qayta sotsiolingvistik talqin.

SOTSIOLINGVISTIK TIPOLOGIYA Turli oilalarga mansub tillarni ularning ijtimoiy vazifalari, yozuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi, huquqiy maqom olganligi yoki huquqiy maqom olmaganligi, ta'lim tili ekanligi yoki ta'lim tili emasligi kabilarni hisobga olgan holda tiplarga ajratib o'rganadigan sotsiolingvistika sohasi. Shuningdek, u mavjud tillarning standartlashganligi yoki standartlashmaganligi, tabiiy yoki sun'iy tilligi, kreol, pijin yoki marginal til ekanligi va boshqalarni ham o'rganadi. Umuman, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda turli tillar, jamiyatlar yoki til holatlarini sinflarga ajratadi.

Qiyos: tillarning sotsiolingvistik tasnifi.

SOTSIOLINGVISTIK VAZIYAT Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida amal qiladigan til (yoki yashash shakllaridan biri)ning ijtimoiy mavqeyi, demografik quvvati, til egalarining yoshi, hayot tarzi, gender xususiyatlari, aholi guruhlarining lisoniy layoqatlilik darajasi, til siyosati, tillarning ijtimoiy vazifalari, til kontaktlarining tabiati kabilar bilan bog'liq konkret ijtimoiy ahvol. *Til vaziyati* va *sotsiolingvistik vaziyat* atamalari mazmunan yaqin, biroq *til vaziyati* atamasi keng tushunchali ekanligi bilan farqlanadi. *Sotsiolingvistik vaziyat* atamasida til yoki yashash shakllarining ahvoli jamiyat omili, ijtimoiy munosabat omili bilan bog'liqligi tushunchasi ta'kid oladi.

Qiyos: til vaziyati.

SOTSIOLINGVISTIK O‘ZGARUVCHI Muayyan ijtimoiy sharoit hamda omillarga bog‘liq ravishda tildagi fonetik, leksik yoki grammatik birlikning turlicha qo‘llanishi. Masalan, bir so‘zning talaffuzi yoki ishlatilishi shaxsning ijtimoiy maqomi, hududi yoki yoshiga qarab farq qilishi sotsiolingvistik o‘zgaruvchiga misol bo‘ladi. U kelyapti – U kelopti – U kevotti (hudud bilan bog‘liq).

Qarang: nutq jamoasi, til me‘yorlari.

SOTSIOLINGVISTIKA [lot. socius – jamiyat, ijtimoiy + lingvistika] Jamiyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada paydo bo‘lgan soha. Unda til va jamiyat munosabati, tilning jamiyatda tutgan o‘rni, umuman, til va jamiyat ta’sirlashuvi muammolarini, til siyosati, til vaziyati, til qonunchiligi, milliy tillar va davlat tili, ijtimoiy-siyosiy omillarning tilga ta’siri, ikkitillilik va ko‘ptillilik, lisoniy ijtimoiylashuv singari til va ijtimoiy hayotga doir masalalar o‘rganiladi. Hozirgi kunda sotsiolingvistikaning bir necha tadqiq yo‘nalishlari shakllandi. Xorij tilshunosligida *sotsiologik lingvistika* ham deyiladi. Sotsiolingvistika, avvalo, tilshunoslik ekani bilan yondosh sohalardan, masalan, til sotsiologiyasidan farq qiladi. Bu tushuncha ham tildan foydalanishning ijtimoiy omillarga juda jiddiy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Qarang: sotsiolingvistika bo‘limlari.

SOTSIOLINGVISTIKA BO‘LIMLARI Sotsiolingvistikaning tadqiq obyekti hisoblanadigan masalalarni xususiy tarzda o‘rganadigan, sotsiolingvistik muammolarga o‘z tadqiq tamoyillaridan kelib chiqib yondashadigan sotsiolingvistikaning alohida tarmoqlari. Masalan, nazariy sotsiolingvistika, amaliy sotsiolingvistika, tarixiy sotsiolingvistika, zamonaviy sotsiolingvistika, funksional sotsiolingvistika, eksperimental sotsiolingvistika kabilar.

Qarang: amaliy sotsiolingvistika, nazariy sotsiolingvistika, tarixiy sotsiolingvistika, zamonaviy sotsiolingvistika, makrosotsiolingvistika, mikrosotsiolingvistika.

SOTSIOLINGVISTIKA OBYEKTI Muayyan til yoki tillarning ishlash mexanizmlari va ularning jamiyatga xizmat qiluvchi ijtimoiy-kommunikativ tizimlardagi o‘zaro ta’siri. Sotsiolingvistika tilning ichki tuzilishini o‘rganmaydi, ammo til birliklari va til shakllarining jamiyatning ijtimoiy tuzilishi birliklari bilan bog‘liqligini tadqiq qiladi. Masalan, tilning jamiyatdagi funksiyalari, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi til farqlari, nutq variativligi, ijtimoiy tabaqalanish, milliy va mintaqaviy tillar, ikkitillilik, kod almashtirish, dialektlar va lahjalar, til siyosati kabilar sotsiolingvistikaning obyekti bo‘lishi mumkin.

Qarang: sotsiolingvistika, sotsiolingvistik tahlil 1, 2; sotsiolingvistik talqin.

SOTSIOMADANIY OMILLAR Jamiyatda qaror topgan ijtimoiy-madaniy institutlar, ijtimoiy-etnik guruhlar, ta’limiy tuzilmalar, diniy e’tiqod va etnik an’analar. Bunday omillar xalqning aqliy-ruhiy dunyosi bilan jips bog‘liq bo‘lib, bir-biriga muntazam ta’sir o‘tkazib turadi. Masalan, o‘zbek xalqining turli taraqqiyot bosqichlarida ayni sotsiomadaniy omillar o‘zbek tili (yoki turkiy til)ga doimiy ta’sir o‘tkazib kelgan. Tilshunoslikda bunday omillar *nolisoniy omillar* deb umumlashtiriladi va ularning tilga ta’sirini o‘rganish sotsiolingvistikaning eng muhim masalalaridan hisoblanadi.

Qiyos: nolisoniy omillar.

SOTSIOPRAGMATIKA [*lot.* socius – jamiyat, ijtimoiy + *yun.* pragmaticos – ish, harakat] Til birliklarining pragmatik tadqiqida sotsiolingvistik yondashuvni qo‘llash asosida rivojlanayotgan tilshunoslik sohasi. Muloqot predmetining ijtimoiy omillarga bog‘liq shakllanishining lisoniy ifoda va pragmatik parametrlarini o‘rganish uning predmetini tashkil qiladi. Masalan, muayyan so‘zning muayyan nutqiy vaziyatda namoyon etadigan ma’nosi so‘zlovchining ijtimoiy maqomi, ijtimoiy roli, yoshi, jinsi, hududiy mansubligidan kelib chiqib tushuntiriladi. Yoki so‘zlovchi muayyan xabarni o‘zi shakllangan jamiyatda barqarorlashgan ijtimoiy odob va tutumlar doirasida ifodalovchi (yoxud idrok qiluvchi) til egasi sifatida tavsiflanadi.

Qiyos: sotsiolingvistika, pragmalingvistika. **Qarang:** adresant, adresat, nutq vaziyati.

SOTSIOPSIXOLINGVISTIKA [*lot.* socius – jamiyat, ijtimoiy + *yun.* psyche – ruh, qalb + *fr.* linguistique – tilshunoslik] Biron-bir milliy-madaniy guruh yoki xalq vakillari ruhiyati va ijtimoiy odoblarining ular tilida qanday aks etishi, muomala tarzlarini o‘rganadigan tutash soha. Sotsiopsixolingvistika jamiyatshunoslik, psixologiya va tilshunoslik kesishgan nuqtada yuzaga kelgan soha bo‘lganligi uchun unda har uch fanda qo‘llanadigan tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

Qiyos: sotsiosemantika.

SOTSIOSEMANTIKA [*lot.* socius – jamiyat, ijtimoiy + *yun.* σημαντικός – anglatuvchi] Ijtimoiy ta’sirlarning so‘z, ibora, gap semantikasiga ta’sirini o‘rganadigan soha. Masalan, ta’zirini bermoq so‘zi orqali ifodalanadigan harakat jismoniy quvvati, ijtimoiy maqomi, yoshi katta kishining jismoniy quvvati kam, ijtimoiy maqomi past, yoshi kichik kishiga nisbatan bo‘lishi kabi jihatlarni o‘rganadi.

Qiyos: sotsiostilistika.

SOTSIOSTILISTIKA [*lot.* socius – jamiyat, ijtimoiy + *fran.* stylistique – uslubshunoslik] Sotsiolingvistika va uslubiyat tutashgan nuqtada paydo bo‘lgan soha. U uslubiy xoslanagan lisoniy birliklar, uslubiy hodisalar bilan ulardan foydalanadigan til egalarining ijtimoiy xususiyatlari, shuningdek, muloqotning boshqa parametrlari o‘rtasidagi barqaror bog‘liqliklarni o‘rganadi. Umuman, til egalari vazifaviy uslublarni qanday tanlashi, qaysi nutq registrlaridan foydalanishi va bunday tanlovning odamlarning ijtimoiy mavqeyi, kasbi, yoshi, jinsi, ta’lim darajasi va nutq vaziyatiga bog‘liqligini tadqiq qiladi.

Qiyos: sotsiosemantika.

SOG‘LOM TIL Funktsional jihatdan quvvatli, qo‘llanilish doirasi keng, so‘zlashuvchilar soni yetarlicha bo‘lgan, katta tillarning muntazam salbiy ta’siriga tushmagan, o‘z ichki qonuniyatlari asosida barqaror rivojlanayotgan til. Sog‘lom

tillarning ijtimoiy mavqeyi va qo‘llanish doirasi tobora kengayib, til egalari soni ko‘payib boradi. Ular jamiyat hayotining barcha jabhasida hech bir muammosiz ishlaydi va rivojlanadi. Masalan, ingliz, fransuz, turk, arab, hindiy va boshqa tillar.

Qarang: tilning yashovchanligi, til vazifalarining kengayishi.

STANDART TIL [*ing.* standard – me‘yor, namuna, o‘lcham] Tilda mavjud muayyan tipdagi ikki va undan ortiq variantlar orasidan eng maqbul bittasini namuna sifatida tanlab olish va variantlilikni qisqartirish orqali bitta andazaga solingan til. Standart tilga xos birliklar lug‘at va grammatikalarda namunaviy shakl sifatida qayd qilib qo‘yiladi. *Standart til* atamasi bitta namunaviy andazadagi lisoniy variantlardan iboratligi, sinonimik yoki variativ qo‘llanishlarning qariyb kuzatilmasligi hamda strukturasiining soddalashganligi bilan me‘yorlashgan tildan farq qiladi.

Qiyos: me‘yorlashgan til, adabiy til.

SUBETNONIM [*lot.* sub – ost + *yun.* ethos – qabila, xalq + onyma – nom] Muayyan millat nomidan kelib chiqqan, asos etnonimdan yasalgan kichik etnik guruhning nomi. Masalan, *yuz* etnonimi *katta juz*, *kichik juz* subetnonimlarining yasalishiga asos bo‘lgan. Etnos vakillarida qayta etnik o‘z-o‘zini anglash jarayonining kuchayishi bilan shunday subetnonimlar yuzaga kelaveradi va rasman qo‘llanishga o‘ta boshlaydi.

Qiyos: makroetnonim.

SUBMADANIYAT [*lot.* sub – ost + madaniyat] Jamiyatshunoslik, antropologiya va madaniyatshunoslikda ko‘p qo‘llanadigan atama bo‘lib, jamiyat umumiy madaniyatining undan farqlanadigan jihatini anglatadi. Submadaniyat o‘z ichida kiyinish, so‘zlash, xatti-harakat va boshqalar bilan bog‘liq madaniy normalariga bo‘linadi. Submadaniyatlar milliy, demografik, professional, geografik va boshqa asoslarda shakllanadi. Bugungi kunda yoshlar orasida turli nomilliy submadaniyatlar shakllanmoqda.

Qiyos: madaniyat.

SUBSTRAT [*lot. sub – ost + stratum – qatlam, to‘shalgan narsa*] Ma‘lum bir hududda avval mavjud bo‘lgan, keyin boshqa til tomonidan siqib chiqarilgan tilning yangi tilda qoldirgan ta‘siri. Masalan, qadimda Fransiya hududida kelt tillari mavjud bo‘lgan. Rim imperiyasi bosib olgach, lotin tili hukmronlik qildi va asta-sekin fransuz tiliga aylana boshladi. Biroq kelt substrati fransuz tilida ba‘zi talaffuz xususiyatlari (burun tovushlari), ayrim leksik birliklar hamda intonatsiyasida saqlanib qoldi. Demak, o‘zaro ta‘sirlashuvda substrat holatida eski til yo‘qoladi, lekin uning izlari yangi til tizimida yashab qoladi. Substrat paydo bo‘lganda kelgindilar tili mahalliy tilni avval rasmiy qo‘llanishdan, keyin maishiy munosabatlar doirasidan siqib chiqaradi, biroq bu jarayonda qo‘llashdan qolayotgan til g‘olib tilga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib ulguradi. Substrat tilning barcha sathida ba‘zan bir vaqtda, ba‘zan vaqti-vaqti bilan kuzatiladi.

Qarang: substrat etnonim, substrat toponim.

SUBSTRAT ETNONIM Muayyan tilning milliy etnonimlar zaxirasiga turli davrlarda o‘zlashib, qo‘shimcha tarkibiy qism sifatida o‘rnashib qolgan va har doim qo‘shimcha qism sifatida qatnashadigan nomilliy etnounsurlar. Bu tip lisoniy birliklar ham til egalarining ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi aloqalari natijasida muayyan so‘zlar tarkibida tilga kirib keladi. Sotsiolingvistikani substrat etnonimlarning qay tarzda, qanday omillar asosida kirib kelishi, ularga qabul qilayotgan til egalarining munosabati, xalq tilida ommalashish tendensiyalari qiziqtiradi.

Qiyos: substrat, substrat etnonim.

SUBSTRAT TOPONIM Muayyan tilning toponimlar tizimiga turli davrlarda o‘zlashib, toponimlar tarkibida qo‘shimcha qism sifatida o‘rnashib qolgan va har doim qo‘shimcha qism sifatida qatnashadigan, boshqa tillarga xos bo‘lgan topounsurlar, topoqo‘shimchalar. Masalan, o‘zbek tili toponimlari tarkibida arab tili, tojik tili toponimiyasiga xos unsurlar mavjud va ular hozir ham toponimlarni shakllan-

tirishda ishtirok etadi. Sotsiolingvistikani substrat toponimlarning qay tarzda, qanday omillar asosida kirib kelishi, qabul qiluvchi til egalarining ularga munosabati, xalq tiliga singib ketish tendensiyalari qiziqtiradi.

Qiyos: substrat, substrat etnonim.

SUDLOV TILI Sud tizimi faoliyatida qoʻllanadigan, sudlov jarayonida bevosita foydalaniladigan til. Bunday til vazifasini sudlov jarayonining xarakteridan kelib chiqib, bitta til ham, ikki va undan ortiq til ham bajarishi mumkin. Ammo sudlov faoliyatida foydalaniladigan, sudlov jarayoni qayd qilinadigan tildan sud hujjatlari eʼlon qilinadigan til farqlanadi. Masalan, Oʻzbekiston sud tizimida sudlov faoliyatida foydalaniladigan, sudlov jarayoni qayd qilinadigan hujjatlar sudlov ishtirokchilarining soʻrovi-ga koʻra ular oʻzlari tushunadigan tilda taqdim qilinishi mumkin. Ammo sud ishiga doir meʼyoriy-huquqiy hujjatlar oʻzbek tilida yaratiladi, eʼlon qilinadi va keyin boshqa tildagi tarjimai beriladi.

Qiyos: murojaat tili.

SUHBAT TAHLILI Bevosita muloqot jarayonida suhbatning tuzilishi va muloqot meʼyorlarini oʻrganishga qaratilgan sotsiolingvistik tadqiqot usuli. Bunday tahlil davomida: 1) suhbat ishtirokchilarining kommunikativ rollari (masalan, kim soʻz boshlaydi, kim javob beradi); 2) bu rollarning qanday sharoitda almashishi; 3) rollar almashuvini bildiruvchi leksik koʻrsatkichlar (soʻz tanlovi, savollar, murojaatlar); 4) suhbatning borishini nazorat qilish imkoniyatlari (masalan, kim mavzuni belgilaydi yoki oʻzgartiradi) tekshiriladi. Bu usul ogʻzaki muloqotda ijtimoiy rol va munosabatlarning qanday ifodalanishini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Qiyos: soʻrovnoma usuli.

SUNʼIY TIL Insoniyat taraqqiyotining keyingi davrida mutaxassislar tomonidan tabiiy tillardan andaza olib, ilgʻor tillarning fonologik, leksik, grammatik imkoniyatlaridan keng foydalanib, muayyan milliy tilning global tilga aylanib ketishining oldini olish maqsadida shakllantirilgan til. Masalan, volapyuk, esperanto, ido, interglossa, interlingva, tokipo-

na kabilar. Bularning ichida eng keng tarqalgani esperanto, u lotin hamda yunon tillari negizida hosil qilingan. Sun'iy tillarning aksariyati lisoniy kamsitishning oldini olish, kichik va katta tillarda so'zlashadigan kishilarning tildan foydalanishdagi huquqlarini tenglashtirish maqsadida yaratilgan.

Qiyos: tabiiy til.

SUN'IY XALQARO TILLAR Avvaldan millatlararo aloqa vositasi vazifasini bajarishga mo'ljallab ixtiro qilingan til. Odatda murakkab grammatikadan xoli, oson o'zlashtiriladigan va neytral bo'lishi uchun ishlab chiqiladi. Bunday tillarning birlamchi vazifasi biron-bir etnosga milliy yoki etnik til sifatida xizmat qilish emas, balki xalqaro muloqot tili vazifasini bajarish, har xil millat va tillarga mansub odamlar o'rtasida teng sharoitda aloqa qilish imkonini yaratishdir. Sun'iy tillarning barchasi xalqaro muloqot tili vazifasini yetarli darajada bajara olgani yo'q, ammo ularning ichida kengroq tarqalgani esperantodir. Esperanto 1887-yilda L.Zamenhof tomonidan yaratilgan. Uning grammatikasi sodda, talaffuzi oson, so'z boyligi Yevropa tillaridan olingan. Hozir ham dunyoda minglab odamlar esperanto tilida gaplasha oladi.

Qiyos: tabiiy xalqaro tillar.

SUPERSTRAT [*lot.* super – ustki, tepasidagi, + stratum – qatlam, to'shalgan narsa] Ma'lum bir til muhitiga tashqaridan kelib hukmronlik qilgan va keyinchalik qo'llanishdan chiqqan tilning mahalliy tilga ko'rsatgan ta'siri, kelgindilar tili unsurlari. Masalan, Britaniya orolining normandlar tomonidan bosib olinishi vaqtida normand tili ingliz tiliga ta'sir o'tkazgan, ammo mahalliy ingliz tilini siqib chiqarolmagan bo'lsa ham normandlar tiliga xos unsurlar ingliz tilida u yoki bu darajada saqlanib qolgan. Normand superstrati sifatida ingliz tilidagi "government" (hukumat), "court" (sud), "army" (armiya), "justice" (adliya) va yana boshqa minglab fransuzcha so'zlarni ko'rsatish mumkin.

Qarang: substrat.

SURJIK [*rus.* surjik – bug‘doy va arpa unidan tayyorlangan non] Uzoq muddatli ukrain-rus ikki tilliligi natijasida shu tillar unsurlari asosida shakllangan so‘zlashuv tili. U Ukrainaning Rossiya va Moldova bilan chegaradosh hududlarida tarqalgan. Surjik aynan pijin emas, chunki pijin so‘zlashuvchilarning ona tili bo‘lmaydi. O‘ta soddalashtirilganligi sababli pijinda to‘laqonli muloqot qilib bo‘lmaydi. Surjik kreol til ham emas, negaki kreol til pijinning uzoq va muntazam qo‘llanishi natijasida yuzaga keladi. Surjikni ma‘lum ma‘noda *aralash til* deyish mumkin, *to‘liq aralash til* deb bo‘lmasligining sababi aralash tilning noqarindosh tillardan shakllanishidir.

Qiyos: pijin, kreol til, aralash til, trasyanka, millatlararo muloqot tili.

SO‘ROVNOMA USULI Til birliklarining ijtimoiy xususiyatlari bo‘yicha ma‘lumot yig‘ishda foydalaniladigan sotsiolingvistik tadqiqot usuli. U muayyan til birliklarining ijtimoiy sharoit bilan bog‘liq xususiyatlarini o‘rganishga mo‘ljallangansavollarro‘yxatidantashkil topadi. So‘rovnoma, asosan, makrosotsiolingvistik tadqiqotlarda qo‘llanadi. Odatda quyidagi qismlardan tuziladi: 1) respondentning yoshi, jinsi, millati, kasbi kabi ijtimoiy belgilari; tadqiqot mavzusiga oid savollar; 2) respondentning tilni qanchalik bilishini aniqlashga yordam beradigan topshiriqlar.

Qiyos: kuzatuv usuli.

SO‘Z O‘ZLASHTIRISH Til egalarining turli sohalardagi hamkorligi va lisoniy ehtiyojlari sababli boshqa tildan yangi so‘zlarni qabul qilish jarayoni. Sotsiolingvistikani so‘z o‘zlashtirish haqiqiy lisoniy ehtiyoj sabablimi-yo‘qmi, jamiyat a‘zolari, ayniqsa, ziyolilarning so‘z o‘zlashtirishga munosabatini o‘rganish, qanday holatda so‘z o‘zlashtirilganda jamiyat a‘zolarida e‘tiroz bo‘lmasligini belgilash, so‘z o‘zlashtirishga zid xatti-harakat o‘laroq namoyon bo‘ladigan puristik kayfiyat, til softligi uchun kurash kabi masalalar qiziqtiradi.

Qiyos: kalkalash. **Qarang:** tillar ta'sirlashuvi, kontakt til, o'zlashma so'z.

SO'NGGI ETNOLEKT Migratsiya sharoitida yashab qolgan etnik guruhlarining kenja, ayni paytda, keksa avlodlari, shuningdek, ular bilan bir hududda yashovchi mahalliy xalq vakillari farzandlari so'zlashadigan, yo'qolish arafasida turgan til ko'rinishi. Sotsiolingvistik adabiyotlarda "Kiezdeutsch" Germaniya sharoitida so'nggi etnolekt sifatida ko'rsatiladi. Bu tip etnolektni til varianti sifatida ham baholash mumkin. So'nggi etnolektida so'zlashuvchilar soni qisqarib ketadi, avlodlar davomiyligida faol ishlatilmaydi, madaniy yoki diniy marosimlarda ishlatiladigan bo'lib qoladi. Yangi avlod etnolektini siqib chiqargan tilni qo'llashga o'tishi natijasida butunlay unutiladi. Yevropadagi ba'zi yahudiy jamoalaridagi so'nggi yiddish etnolekti yoki Shimoliy Amerikadagi tubjoy xalqining cheroki tilining so'nggi etnolekti bilan shunday holat sodir bo'lgan.

Qiyos: ilk etnolekt, o'rta etnolekt.

T

TABAQAVIY VARIATIVLIK Tilning ijtimoiy tabaqalar (sinflar, guruhlar) oʻrtasida yuzaga keladigan farqlanishiga asoslanadigan ijtimoiy variativlikning bir turi. U turli ijtimoiy qatlam yoki guruh vakillarining oʻz ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib, tildan foydalanishidagi farqlarda namoyon boʻladi. Tabaqaviy variativlikning lingvistik mohiyati har xil maqom va qatlamdagi kishilarning nutq uslubi, talaffuzi, leksikasi, grammatika va nutq odatlaridagi tafovutlar bilan belgilanadi. Masalan, ziyoli kishi “Bu masalani muhokama qilamiz” desa, oddiy ishchi qatlam vakili “Bu gapni gaplashamiz” deydi. Sotsiolingvistika tabaqaviy variativlik vositasida tilning ijtimoiy tuzilma bilan bevosita bogʻliqligini, til orqali jamiyatda mavjud boʻlgan ijtimoiy tabaqalanishlarni ochib beradi.

Qiyos: situativ variativlik.

TABIY IKKITILLILIK Shaxsning bolalikdan bilingv oilada tugʻilib, shunday muhitda tarbiyalanishi va yashashi natijasida unda ona tili bilan birga, ikkinchi tilga xos koʻnikmalarning teng shakllanishi, ikki tilni tabiiy sharoitda egallashi va ularni muayyan ijtimoiy kontekstlarda teng yoki muqobil ravishda qoʻllay olish qobiliyati. Masalan, Oʻzbekistonning ayrim hududlarida: Surxondaryo yoki Qoraqalpogʻiston hududida bolalar bolaligidan oʻzbek va qoraqalpoq (yoki tojik) tillarida bir paytda gapira boshlaydi. Bola har ikkala tilni ota-onasi, qarindoshlari, tengdoshlari yoki mahalliy jamiyat bilan muloqotda boʻlish orqali oʻrganadi. Tabiiy ikkitillilik madaniyatlararo aloqa jarayonida muhim. Sotsiolingvistik jihatdan til oʻrganish jarayonining ongli emas, ijtimoiy-madaniy muhitda shakllantirilishini bildiradi, til va jamiyat oʻrtasidagi doimiy oʻzaro taʼsir natijasi hisoblanadi.

Qiyos: egallangan ikkitillilik.

TABIY TIL Muayyan xalqning avvaldan mavjud

bo'lgan, tarixiy taraqqiyot davomida shu xalq bilan birga shakllangan, vorisiylik asosida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan va mutaxassislar tomonidan aniq maqsadda shakllantirilmagan til. Masalan, o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq, tojik tillari Markaziy Osiyoda tabiiy ravishda shakllangan va rivojlangan tabiiy tillardir. Yoki fransuz tili qadim Galliya hududida lotin va kelt tillarining tarixiy aralashuvi natijasida shakllangan tabiiy tildir. Tabiiy til qabila tili darajasida ham, davlat tili yoki xalqaro til darajasida ham bo'ladi. U ijtimoiy ehtiyojga ko'ra rivojlanadi, ijtimoiy tabaqalar, kasb guruhlari, yosh, jins va hududiy farqlarga qarab uning yashash shakllari paydo bo'ladi. Sotsiolingvistika tabiiy tillar bajaradigan ijtimoiy vazifalarni sun'iy tillarning shunday vazifalariga qiyosan ham o'rganadi.

Qiyos: sun'iy til, esperanto, volapyuk, tokipona.

TABIIY XALQARO TILLAR Keyingi tarixiy taraqqiyot natijasida muayyan mamlakat doirasidan tashqariga chiqib, millatlararo muloqot tiliga aylangan, turli xalqlar yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan tabiiy ravishda muloqot vositasi sifatida qabul qilingan va qo'llanadigan milliy tillar. Masalan, ingliz, ispan, xitoy yoki arab tillari. Ular tarixiy, iqtisodiy, madaniy yoki siyosiy omillar ta'sirida xalqaro muloqotda yetakchilik qiladi va ko'pincha tabiiy ikkitillilik sharoitida o'zlashtiriladi. Bunday tillarning birlamchi vazifasi til egalariga milliy yoki etnik til sifatida xizmat qilish bo'lib, uning xalqaro til vazifasini o'tashi keyingi vazifasi hisoblanadi.

Qiyos: sun'iy xalqaro tillar.

TABU [*polinez.* tapu/tabu – muqaddas, teginish mumkin emas, taqiqlangan] Jamiyatda shakllangan ijtimoiy-madaniy qarashlar asosida ayrim so'z va iboralarni qo'llashni taqiqlash, muayyan jamiyat a'zolarining lisoniy tutumlarida etno va sotsiomadaniy quyushqonga tushmaydigan til birliklarini ishlatishni ma'qul ko'rmaslik. Masalan, o'zbek jamiyati shakllanishining avvalgi bosqichlarida "chayonning

nomi aytilsa, unga yo‘liqiladi” degan inonchda *chayon* so‘zini ishlatish tabulangan. Jamiyatning taraqqiy etishi, kishilarning xurofiy odatlarga ishonmay qo‘yishi natijasida tabular kamayadi. Polinezcha bu atama ingliz sayyohi J.Kuk tomonidan fanga ma‘lum qilingan.

Qarang: evfemizm, evfemiya.

TALABALAR JARGONI Talabalar nutqida alohida ma‘no olib qo‘llanadigan, asosan, norasmiyligi, hissiy to‘yinganligi va hazil ottenkasi bilan ajralib turadigan nutq shakli, sotsiolektning bir ko‘rinishi. Masalan, *dum* so‘zi talabalar nutqida “baho olinmagan fan”ni, *tanka* so‘zi “talabaning o‘quv faoliyatiga tanish-bilishchilik asosida yordam beruvchi kishi”ni, *zachetka* “baholar daftarchasi”ni, *sessiya* “imtihon davri”ni ifodalaydigan jargonizmdir. Talabalar jargoni ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, zamonaviy axborot texnologiyalari va internet tili ta’sirida yangilanadi. U yoshlar tili va norasmiy muloqot madaniyatini o‘rganishda muhim sotsiolingvistik manba bo‘ladi.

Qarang: sotsiolekt, argo, sleng, oddiy so‘zlashuv.

TARIXIY SOTSIOLINGVISTIKA Tilning paydo bo‘lishini sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish, tilning ijtimoiy-tarixiy tiplarini aniqlash, muayyan tilning tarixini sotsiolingvistik jihatdan tadqiq qilish, ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri asosida til evolyutsiyasini belgilash, til siyosati, til qurilishi va boshqa masalalarni diaxronik tadqiq qilishga yo‘naltirilgan, umuman, til va jamiyat munosabatni tarixiy kontekstdan kelib chiqib o‘rganadigan sotsiolingvistika bo‘limi. Masalan, tilning tarixda qanday ijtimoiy qatlamlar, siyosiy hodisalar, demografik harakatlar, urf-odatlar ta’sirida bo‘lgani tarixiy sotsiolingvistikaning tadqiqot obyekti bo‘ladi.

Qiyos: zamonaviy sotsiolingvistika.

TARIXIY-STRUKTUR KONVERGENSIYA Tilning tarixiy taraqqiyotida uning fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik sathlarida ayrim variant yoki invariantlarning yo‘qolishi natijasida shu til sathlaridagi xilma-xilliklarning

kamayish jarayoni, shunday jarayondan iborat lisoniy hodisa. Masalan, bunga hind-eron tillaridagi bir tovushga ikki yoki undan ortiq fonemalarning mos kelishini ko'rsatish mumkin: *ā, ō, η < hind-eron *ā. Tarixiy-struktur konvergensiya turli til oilalariga mansub tillarning uzoq vaqtlik ta'sirlashuvi natijasida sodir bo'ladi, bunday tillarning so'z tartibi, morfologiya va sintaksisi yoki fonetikasida o'xshashliklarning paydo bo'lishiga asoslanadi.

Qiyos: konvergensiya 1, 2. **Qarang:** glottogonik konvergensiya, funksional konvergensiya.

TASHQI TA'SIRLANISH 1. Muayyan sheva vakilining o'zga sheva vakillari nutqidagi tegishli til birliklaridan hayratlanish, ularni tushunmaslik holati; boshqa sheva vakiliga izoh talab qilib savollar berish, uning nutqidan kulish, adabiy tilning ayrim normalariga tezda ko'nika olmaslik yoki bu normalarni xato deb bilish, shevaga xos diksiyadan qutula bilmaslikdan iborat holat.

Qarang: til tanqisligi.

2. Tilning boshqa tillar, madaniyatlar yoki siyosiy-iqtisodiy kuchlar ta'sirida o'zgarishi va yangi unsurlarni qabul qilishi jarayoni. Sotsiolingvistik jihatdan bu jarayon leksik o'zlashmalar (masalan, kompyuter, internet, biznes), fonetik o'zgarishlar (chet tillar talaffuzi ta'siri), morfologik va sintaktik ta'sirlar (chetdan kelgan iboralarning so'z tartibiga ta'siri) orqali namoyon bo'ladi. Tashqi ta'sirlanish juda nufuzli til bilan bo'lganda til o'zgarishi tezlashadi, siyosiy bosim til siyosatida namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilining rus tilidan uzoq yillik tashqi ta'sirlanishi o'zbek tili vazifaviy uslublarida yaqqol seziladi.

Qarang: til bosqini.

TA'LIM TILI 1. Muayyan davlatda umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim beriladigan, o'quv jarayonida bilim berish va o'zlashtirish vositasi sifatida ishlatiladigan til. Tilning bunday maqomga ega bo'lishi, ya'ni unda ta'lim berilishi tegishli qonun-qoidalar bilan belgilanadi. Ta'lim tili vazifasini rasmiy

til ham, rasmiy maqomi yo‘q til ham bajarishi mumkin. Rasmiy maqom olgan ta‘lim tili rasmiy maqomi bo‘lmagan ta‘lim tiliga qaraganda kengroq amal qiladi. Masalan, O‘zbekistonda yettita ta‘lim tili (o‘zbek, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman, rus tillari) amal qiladi va bu maqom “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilangan.

Qarang: tilning sotsiologik maqomi.

2. Muayyan mamlakat ta‘lim tizimi (umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi, oliy ta‘lim)da alohida o‘quv predmeti sifatida o‘rgatiladigan tillar. Masalan, O‘zbekistonda o‘zbek, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman, rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan tillari shunday ta‘lim tili sifatida ta‘limning turli bosqichlarida o‘rganiladi. Bu ma‘nodagi ta‘lim tilining har xilligi yoki, aksincha, mutlaqlashtirilishi davlatning til siyosati bilan bog‘liq.

Qarang: chet tillari, xorijiy til.

3. Shaxsning ona tili yoki birinchi tili bo‘lmagan birorta tilni o‘rgatishda foydalaniladigan til. Masalan, ingliz tilini o‘rgatishda shunday yordamchi til sifatida rus tilidan foydalanish mumkin va u ta‘lim olishni yengillashtirish, materialni tushunishga ko‘maklashish uchun qo‘llanadi. Bu ma‘nodagi ta‘lim tili ijtimoiy guruhlar orasidagi til to‘siqlarini kamaytiradi, til o‘rganuvchilarni yangi tilga moslashishiga yordam beradi, til o‘rganishdagi stressni kamaytiradi.

Qarang: ona tili, birinchi til.

TA‘LIM TILINI ERKINLASHTIRISH Asosan, umumiy o‘rta ta‘lim bosqichida bir necha tilda ta‘lim berilishini ta‘minlash, bir necha tilni o‘quv predmeti sifatida o‘rgatilishini qonuniylashtirishdan iborat jarayon. Ko‘plab mamlakatlarda boshlang‘ich ta‘limdan keyin ona tili yoki titul millat tilidan tashqari ikki-uch xorijiy til umummajburiy ta‘lim tili sifatida belgilangan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich ta‘lim bosqichidan keyin ingliz (nemis, fransuz) hamda rus tillari respublika miqyosida ta‘lim tili sifatida o‘qitilishi belgilangan.

Qiyos: ta‘lim tilini mutlaqlashtirish.

TA'LIM TILINI MUTLAQLASHTIRISH Asosan, umumiy o'rta ta'lim bosqichida faqat bir tilda ta'lim berilishi, faqat bir tilni o'quv predmeti sifatida o'rgatilishini qonuniylashtirishdan iborat jarayon. Ko'pincha boshlang'ich sinflarda faqat ona tili yoki titul millat tili yagona va umummajburiy ta'lim tili sifatida belgilanadi. Masalan, Turkiya Respublikasida boshlang'ich ta'limda turk tilidan boshqa til o'qitilishi mumkin emas. Fransiya, Xitoyda ham shunday qilingan va bu shu davlatlarning til siyosati bilan bog'liq.

Qiyos: ta'lim tilini erkinlashtirish.

TERGOV TILI Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan tergov jarayonida, ayniqsa, so'roq, guvohlik olish va huquqiy savol-javob paytida, shuningdek, tergov hujjatlarini shakllantirishda foydalanadigan til. Bu tilda huquqiy terminlar, protsessual iboralar, aniq savol tuzish va protokol uchun mos jumlar qo'llanadi. Tergovchining tilni qanday ishlatishi tergovning samaradorligi va adolatliligi uchun muhim. Qoida tariqasida, tergovchi va tergovdagi shaxs vaziyat talab qilgan tildan foydalanishi mumkin. Tergov hujjatlari mamlakatning asosiy rasmiy tilida tuziladi va tegishli vakolatli tashkilotlarga ham rasmiy tilda taqdim qilinadi.

Qarang: davlat tili, adabiy til, ma'muriyat tili.

TERMINOLOGIYANI MILLIYLASHTIRISH Jamiyat taraqqiyotining etnik o'z-o'zini anglash bosqichida yoki milliy tilda chet so'zlarning ko'payib ketishi sharoitida jamiyat a'zolarining lisoniy ehtiyoji yoxud vertikal ta'sir etish yo'li bilan xorijiy so'zlarni, ilm-fan terminlarini o'z qatlam so'zlariga almashtirish, milliy tildan xorijiy terminlarga muqobillar topish jarayoni, shunday maqsaddagi harakatlar. Odatda bunday jarayon bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tilgandan keyin yoki til siyosatida milliylik birinchi o'ringa qo'yilganda kuzatiladi. Terminologiyani milliylashtirish rasmiy lug'atlar, davlat normativ hujjatlari, ta'lim tizimi va ilmiy adabiyotlar orqali boshqariladi.

Qarang: til siyosati, til islohi.

TERMINOLOGIYANING BAYNALMILALLIGI

Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida umumiy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy makonda yashagan xalqlar ilmiy-sohaviy tilida xalqaro tillar yoki yetakchi millatlar tiliga xos bo'lgan, shu millat tili qonuniyatlari asosida o'zlashtirilgan terminlarning ko'pligi, milliy terminologiyada xalqaro terminlarning ko'p miqdorda qabul qilinganligi. Mazkur holat ham til siyosati bilan bog'liq. Terminologiyaning haddan ortiq baynalmilallashuvi milliy tillarning tabiatini o'zgartirishi mumkin.

Qiyos: terminologiyaning milliyligi, terminologiyaning g'ayrimilliyliги.

TERMINOLOGIYANING MILLIYLIGI Muayyan millat tilida ilm-fan sohalariga oid tushunchalarning milliy til imkoniyatlari doirasida hosil qilinganligi, fanniy tushunchalarning o'z qatlam so'zlari bilan ifodalanishi, mahalliyashtirilishi, ayni paytda, maxsus atamalar va professional leksikaning xalqning madaniy, tarixiy va ijtimoiy o'ziga xosliklarini aks ettirishi. Terminologik tizimning milliyliги milliy til ilmiy uslubining yuqori darajada shakllanganligiga ham bog'liq. Terminlar milliy dunyoqarash, mentalitet va an'analarni inobatga olgan holda shakllanadi. Masalan, xalqaro aloqalar termini o'zbek tilidagi madaniy va siyosiy tasavvurlar asosida shakllanadi. Sotsiologivistik jihatdan tilning mustaqilligi, madaniy suvereniteti va milliy identitetini mustahkamlash vositasi hisoblanadi. Milliy terminologiya rivoji davlatning til siyosati va tilni mustaqil rivojlantirish strategiyasining samarasi bo'ladi.

Qiyos: terminologiyaning baynalmilalligi.

TERMINOLOGIYANING G'AYRIMILLIYLIGI

Muayyan til sohaviy-ilmiy terminlarining asosiy qismi xorijiy tillardan tayyor termin o'zlashtirish yo'li bilan hosil qilinganligi, terminologik tizimda fanniy tushunchalarni o'zlashma qatlam so'zlari bilan ifodalash tendensiyasining ustuvorligi. Ayni paytda xalqaro yoki global kontekstda shakllangan va

milliy-madaniy yoki tarixiy o'ziga xosliklardan ko'ra universal yoki boshqa tillardan o'zlashgan maxsus atamalar va professional leksikaning ko'pligi.

Qiyos: terminologiyaning milliyligi, terminologiyaning baynalmilalligi.

TERS JARGON Yosh aholi qatlamining muayyan so'zda-gi bo'g'inlarning o'rnini almashtirish yoki so'zga qo'shimcha bo'g'in qo'shish yoxud unlilarni ikkilantirish bilan hosil qilingan so'z va iboralari; o'zaro muloqotda ataylab tushunarsiz, yashirin, odatiy normaga zid shaklda so'zlashadigan maxsus til shakli. Ters jargonlar muayyan axborotni maxfiylashtirish yoki so'z o'yini qilish maqsadida grammatik, fonetik, leksik qoidalarni buzib yasaladi. Masalan, ingliz tilida *cafe* so'zidan hosil qilingan *feca*, *metro* so'zidan yasalgan trome ters jargon hisoblanadi va bu orqali yoshlar o'zaro himoyalangan muloqot tizimini shakllantiradi.

Qarang: sotsiolekt, argo, sleng, oddiy so'zlashuv.

TERS TILO'ZGARISHI 1. So'zlashuvchilar soni, tilning qo'llanish sohalari yoki ijtimoiy-madaniy ahamiyatining kamayishi bilan bog'liq bo'lgan regressiv jarayon. Bu hodisa ko'pincha dominant tilning ta'siri, shaharlashish, migratsiya yoki globallashtirish tufayli yuzaga keladi. Masalan, ba'zi tillar davlat tili ustunligi sharoitida kamroq ishlatiladi va bu tilning funksiyalarini toraytiradi. Buning oldini olish uchun shunday tillarni ta'lim tili sifatida rivojlantirish, madaniy loyihalar va ikki tilli dasturlarni joriy qilish muhim.

Qiyos: til ijtimoiy vazifalarining kengayishi.

2. Til taraqqiyotining ma'lum bir davrida voz kechilgan til shakllari va me'yorlaridan til taraqqiyotining boshqa davrida, til siyosatining ta'sirida foydalanila boshlashi, eski til shakllarining qayta faollashishi. U ko'pincha milliy o'zlikni mustahkamlash, tarixiy ildizlarga qaytish yoki global ta'sirlarga qarshi turish maqsadi bilan bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda mustaqillikdan keyin o'zbek tilida bir necha arabcha yoki forsha ildizli so'zlar qayta ommalashdi

(“hurriyat”, “ma’naviyat” kabi), o‘zbek tilini lotin yozuviga o‘tkazish jarayonida ba’zi arxaik so‘zlar yoki tuzilmalar, avval kam ishlatilgan so‘zlar (“ma’rifat”, “taraqqiyot”, “mavzu” kabi) faol qo‘llana boshladi.

Qiyos: til ijtimoiy vazifalarining torayishi.

3. Til tarixida qo‘llanishdan qolgan yoki qo‘llanishi g‘oyat toraygan tilning keyinchalik yana faol qo‘llanishga o‘tishi. Bunday qayta tiklanish jarayoni tillar taraqqiyotida juda kam uchraydi. Masalan, XX asr boshlarida faqat diniy marosimlar va qadimgi diniy kitoblarda qo‘llangan ibroniy tili bugungi kunda Isroil davlatining ijtimoiy vazifalari kengaygan milliy tiliga aylangan. Davlat tomonidan bunday til siyosatining qo‘llab-quvvatlanishi, madaniy va tarixiy merosga qaytish istagi ibroniy tilining ijtimoiy va madaniy ahamiyatini oshirgan, jamiyatning milliy birligini mustahkamlagan.

Qiyos: tilning o‘lishi.

TEST [*ing.* test – sinash, tekshirish < *lot.* testum – loydan yasalgan idish] Sotsiolingvistik ma’lumotlarni yig‘ish usullaridan biri. Ayniqsa, bilingvlarning nutqiy ko‘nikmalarini o‘rganishda ko‘p qo‘llanadi. Bunda informantga turli topshiriqlar beriladi. Masalan: 1) matnni o‘qish yoki tinglash; 2) so‘zlar ro‘yxati bilan ishlash; 3) savollarga javob berish; 4) matndan tushirib qoldirilgan so‘z yoki iboralarni to‘ldirish. Ushbu testlar bilingvning ikki tilni qanchalik darajada egallaganini, qanday vaziyatda qaysi tildan foydalanayotganini, shuningdek, til ko‘nikmalarining funksional darajasini aniqlashga yordam beradi.

Qiyos: so‘rovnoma usuli.

TIBBIYOT JARGONI Sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislari (shifokorlar, hamshiralar, farmatsevtlar va boshqalar) tomonidan o‘zaro muloqotda keng ishlatiladigan, asosan, soha xodimlari o‘rtasida aloqa vaqtini qisqartirish, professional muloqotni soddalashtirish, aniqlikni ta’minlash uchun foydalaniladigan maxsus so‘z va iboralar. Bunday so‘z va iboralar bemorlarga tushunarli bo‘lmaydi. Tibbiyot

jargoni tibbiy atamalar, qisqartmalar, kasalliklar va davolash usullariga xos ifodalar yoki faqat soha vakillariga tushunarli bo‘lgan maxsus so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

Qarang: sotsiolekt, argo, sleng, oddiy so‘zlashuv.

TIBBIYOT TILI 1. Faoliyati tibbiy ta‘lim va tibbiy amaliyot bilan bog‘liq shaxslar qo‘llaydigan til shakli va u boshqa soha tillaridan lotin tiliga xos atamalardan keng foydalanilishi bilan ajralib turadi. Tibbiyot tili vazifasini har qanday til bajara olmaydi, buning uchun o‘sha tilda tegishli tibbiy tushunchalarni ifodalay oladigan terminologik tizim, uslub shakllangan bo‘lishi kerak.

Qiyos: tergov tili, murojaat tili, ma‘muriyat tili.

2. Tibbiy faoliyatga doir asosiy tushunchalar lotin tilida ifodalangani uchun ramziy ma‘noda bu til *tibbiyot tili* deyiladi. Ammo bugungi kunda aksar tibbiyot tushunchalarini atovchi terminlar nemis, ingliz tillarida ham yasalayotganligi sababli mazkur tillarni ham *tibbiyot tili* deyish mumkin. Masalan, olimlarning fikricha, nemis tilida 70 mingdan ortiq tibbiyot termini mavjud.

Qarang: ilmiy atamalar.

TIL Muayyan jamoa, xalq vakillarining o‘zaro munosabatida shakllanadigan, ijtimoiy muloqot vositasi sifatida jamiyatning madaniy, etnik va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiradigan, qo‘llanish sharoitiga ko‘ra, sheva, sotsiolekt, adabiy til kabi shakllarda namoyon bo‘ladigan, egalarining etnik, hududiy, ijtimoiy, jinsiy, kasbiy mansubiyatiga ishora qiladigan tizim. Uning kishilarni bir jamiyat, xalq sifatida uyushtirish, birlashtirish, tutib turish, ellarni farqlashdek xizmati birlamchi ijtimoiy vazifalari hisoblansa, ijtimoiy dunyoqarash hamda qadriyatlarini shakllantirishi yanada muhim vazifalaridandir. Tilning kundalik so‘zlashuvda ilg‘angan vazifalari global madaniyat, ta‘lim, siyosat va iqtisodiyotda o‘zini sezdiradi, ijtimoiy ta‘sirchan hodisaligini namoyon etadi.

Qarang: tilning vazifalari.

TIL ALMASHUVI 1. Ikkitillilik yoki ko'ptillilik sharoitida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy omillar ta'sirida muayyan milliy til mavqeyining pasayishi sharoitida ikkinchi til qo'llanish doirasining kengayishi tufayli jamiyat a'zolarining o'z milliy tilida emas, yalpi ikkinchi tilda so'zlashish, ish yuritishga o'tishidan iborat jarayon. Til almashuvi bolalarning milliy tilni o'zlashtirmay qo'yishidan boshlanadi hamda katta avlod vakillarining bu tilda butunlay so'zlashishdan tiyilishi bilan yakunlanadi.

Qarang: ikkitillilik, ko'ptillilik.

2. Turli ijtimoiy-siyosiy omillar ta'sirida etnosning o'z milliy tilini yalpi yo'qotishi sharoitida boshqa etnos tilini ona tili sifatida qabul qilish jarayoni. Tillar tarixida bu jarayonning ikki xil kechishi ma'lum: 1) etnik tilni saqlagan holda tilni almashtirish; 2) etnik tilni yo'qotgan holda tilni almashtirish. Til almashuvi avval faqat etnik til amal qilgan sohalarda yangi tilning erkin qo'llanishga o'tishi bilan boshlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, yahudiylar etnik tilni yo'qotish evaziga tilini almashtirgan xalq hisoblanadi. Etnik tilini ma'lum darajada saqlab qolib, asosiy tilini almashtirgan xalq karellardir.

Qarang: etnik til, milliy til, ikkinchi til.

3. Suhbat jarayonida ishtirokchilarning o'zi xohlab yoki beixtiyor so'zlashayotgan tilini o'zgartirishi yoki tilning bir yashash shaklidan ikkinchisiga o'tib ketishi amaliyoti. Sotsiolingvistika bu ma'nodagi til almashuvi jarayonini lisoniy ijtimoiylashuv, shaxsning o'z ona tiliga munosabati, shaxsning til madaniyati, jamiyat a'zolarining lisoniy tutumi bilan bog'liq masalalar doirasida o'rganadi.

Qarang: lisoniy ijtimoiylashuv, tilning yashash shakllari.

TIL AMALIYOTI Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida muayyan ijtimoiy guruh, jamoa yoki shaxs tomonidan biror til (yoki bir necha til)ni, huquqiy maqomi bor-yo'qligidan qat'i nazar, aloqa vositasi yoki ish yuritish tili yoxud ilm-fan tili sifatida ishlatilayotganligi, umuman, tildan amalda foydalanish imkonining borligi. Til amaliyoti

tillarni yashab qolishi uchungina emas, katta tillarning umumadabiy me'yorlarining tanlanishi, tan olinishi, tartibga solinishi, kodifikatsiyalanishi va turg'unlashishi uchun ham zarur.

Qiyos: til vaziyati.

TIL AMALIYOTINI TARTIBGA SOLISH Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tashkiliy-huquqiy normalardan foydalanib, mavjud tillarning yashashi va qo'llanishini boshqarish, davlat tili (rasmiy til)ning ta'sir doirasini kengaytirish, lisoniy harxillikni saqlab qolish hamda milliy tillarni rivojlantirish uchun lozim chora-tadbirlarni ko'rish.

Qiyos: tilga ongli aralashuv, tilga vertikal ta'sir.

TIL BILISH Kishining ma'lum bir tilda fikr almashish, his-tuyg'u ifodalash, fikr uchun zarur ifodalarni topa olish va qo'llay bilish malakasini egallaganligi; lisoniy layoqatliligi. Sog'lom odam kamida bitta tilda normal muloqot qilish malakasiga ega bo'ladi. Albatta, bunday ko'nikma va malakalar avval ona tilida shakllanadi, keyin xorijiy tillarni o'rganish bilan egallanadi. Til bilish nafaqat leksika, grammatika va fonetikani o'z ichiga oladi, balki tilning ijtimoiy normalarga mos ishlatilishi, masalan, sotsialemalar, jargonlar yoki maxsus terminologiyadan foydalanishni ham qamrab oladi.

Qarang: lisoniy ko'nikma, lisoniy malaka, lisoniy layoqat.

TIL BOSQINI 1. Muayyan milliy til leksikasiga haddan tashqari ko'p miqdorda chet so'zlarning kirib kelishidek tendensiya va milliy tillarda shunday jarayon bilan bog'liq kechadigan holat. Globallashuv davrida turli ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy omillar tufayli milliy tillarda inglizcha yoki amerikacha so'zlar bosqini kuzatilmoqda.

Qiyos: tillar ta'sirlashuvi, so'z o'zlashtirish.

2. Muayyan mamlakatda ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ustun bo'lgan etnik guruhning tilini sun'iy tarzda boshqa til jamoalari orasida tarqatish istagi, shunday istak natijasi bo'lgan xatti-harakatlar. Masalan, ta'lim tilini majburiy mutlaqlashtirish, mahalliy minoritar tillarning qo'llanishini sun'iy cheklash kabilar. Bunday jarayonlarni davlatning til siyosati harakatga keltiradi.

Qiyos: lisoniy kamsitish, lisoniy boshboshdoqlik.

3. Muayyan ijtimoiy-tariiy sharoitda faol qo'llanayotgan tilning nofaol qo'llanishdagi tilga muntazan salbiy ta'siri, bir tilning boshqa tillar yoki dialektlar ustidan hukmronlik qilishi, ularni siqib chiqarishi yoki assimilyatsiya qilishi jarayoni. Bu jarayon ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy omillar, masalan, mustamlakachilik, globallashuv yoki migratsiya ta'sirida yuzaga keladi. U bir qarashda sezilmasligi, interferensiya bilan bog'liq hodisalarda, tilning leksik, so'z yasaliş va grammatik qurilishidagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Til agressiyasi sharoitida bir tilning ijtimoiy vazifalari kengayishi hisobiga ikkinchi tilning shunday imkoniyatlari chegaralana, cheklana boradi va ko'pincha tillararo ta'sirlashuv salbiy natija bilan tugaydi.

Qiyos: til globallashuvi.

TIL EGASI 1. O'z millatining tilini ona tili sifatida egallagan, o'sha tilda fikr va munosabat ifodalay oladigan shaxs. *Til egasi* atamasi bu ma'noda nafaqat bir tilda muloqotga kirishish malakasini to'liq egallagan shaxsni, shuningdek, muayyan lisoniy madaniyatni shakllantirish imkoniga ega shaxsni ham bildiradi. Til egasi nafaqat tilni biluvchi, balki uni ijtimoiy va madaniy kontekstda faol qo'llaydigan shaxsdir. Bu til orqali guruh yoki xalqning o'ziga xosligi, tarixi va madaniyati saqlanadi. O'zbek tilidagi adabiyotlarda *til sohibi* atamasi ham qo'llanadi, ammo *til egasi* atamasi uslubiy neytralligi bilan farq qiladi.

Qiyos: monolingv, bilingv, polilingv.

2. Sotsiolingvistikada: muayyan tilning rivojlanishi, saqlanishini ta'minlaydigan, boshqa tillarning bosimi (masalan, globallashuv sharoitida ingliz tili yoki xalqaro tillar)dan himoya qilinishida muhim rol o'ynaydigan ijtimoiy guruhlar. Masalan, o'zbek tilini targ'ib qilishda o'zbek yozuvchilari, o'qituvchilari va jamoat arboblari "til egasi" sifatida faol ishtirok etadi. Yoki O'zbekistonda o'zbek tili-ning davlat tili sifatida mustahkamlanishi, davlat yoki mintaqa miqyosidagi til siyosatiga til egasi sifatida o'zbek xalqi ta'sir ko'rsatadi.

Qiyos: etnolisoniy jamoa.

TIL EKOLOGIYASI [til + *yun.* oikos – uy, yashash joyi, muhit + logos – ta'limot, fan] 1. Tillarning tashqi omillar bilan ta'sirlashuvini o'rganish orqali har bir tilning o'ziga xosligini va lisoniy xilma-xillikni saqlab qolish. Bundan maqsad tillarni har qanday tashqi ta'sirlardan himoyalash, izolyatsiyalash emas, balki uning lisoniy o'ziga xosligini saqlash va bunga erishish uchun tegishli choralarni joriy etishdir. Til ekologiyasi tushunchasi Jon Trim tomonidan fanga kiritilgan. Globallashuv sharoitida til ekologiyasiga alohida e'tibor qaratishdan ko'zlangan maqsad etnik o'ziga xosliklarni saqlab qolishdir.

Qarang: ekolingvistika.

2. Tillar, ularning rivojlanishi, saqlanishi, bir-biriga ta'siri masalalarini o'rganadigan sotsiolingvistikadagi yangi soha. Bu sohadagi qoidaga ko'ra, tabiiy tillar xuddi biologik turlar singari muayyan ekologik tizimda paydo bo'ladi. Tillar biologik turlar kabi o'zaro hamda ijtimoiy sharoitga, siyosiy-iqtisodiy vaziyatga bog'liq holda yashaydi yoki unutiladi.

Qarang: Sotsiolingvistika bo'limlari.

TIL EVOLYUTSIYASI [til + *lot.* evolutio – ochish, yoyish, aylantirib ochib borish] Tilning ijtimoiy, madaniy, geografik va texnologik omillar ta'sirida vaqt o'tishi bilan o'zgarishi va rivojlanishi jarayoni. U fonetik, leksik, grammatik va semantik o'zgarishlarni, tillarning ajralib chiqishi yoki yaqinlashishini o'zida birlashtiradi. Masalan,

qadimgi turkiy tildan o‘zbek, turk, qozoq, uyg‘ur kabi tillar, lotin tilidan fransuz, ispan va italyan tillari ajralib chiqqan. Bunda o‘zbek tilida qadimgi turkiy “yil” so‘zi “yil”ga aylangan (fonetik o‘zgarish) yoki murakkab fe‘l shakllari soddalashgan; lotin tilidagi “frater” (birodar) so‘zi fransuz tilida “frère”, ispan tilida “hermano” shaklida rivojlangan. Til mavjud bo‘lar ekan, unda evolyutsiya yuz beraveradi.

Qarang: tillarning aralashishi, tillarning ajralib chiqishi.

TIL FAOLLARI Muayyan tilning targ‘ibi, sofligi va rivoji uchun kurashuvchi shaxslar, shunday shaxslardan iborat guruhlar, uyushmalar, harakatlar. Masalan, o‘zbek xalqining yaqin tarixida til faollari “Chig‘atoy gurungi” atrofida uyushgan bo‘lsa, o‘tgan asrning 80-yillari oxiri va 90-yillarning boshida yozuvchilar uyushmasi atrofida birlashgan. Hozirgi kunda shoir va yozuvchilar bilan birga ayrim jurnalist hamda blogerlar ham til faollari sifatida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish, til sofligini saqlashda jonbozlik ko‘rsatmoqda.

Qarang: til islohi, til huquqi.

TIL GLOBALLASHUVI Bir tilning dunyoning barcha xalqlari uchun yagona muloqot vositasi, maxsus ish yuritish tiliga aylanishi, bir tilning butun dunyo tili mavqeyiga ega bo‘lishi, dunyoning lisoniy manzarasini o‘zgartirayotgan murakkab jarayon. Ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatida shunday maqomga loyiq ko‘rilayotganligi, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy kontekstda keng tarqalishi milliy-madaniy o‘zliklarni yemirib, mahalliy yoki ozchilik tillarining siqilishi, hatto lisoniy xilma-xillikni tugatishiga sabab bo‘lishi mumkin. U xalqaro kommunikatsiya vositasi, ilm-fan, texnologiya tili sifatida, obro‘li til ekanligi sabab yuz beradi. Bunday sharoitda lisoniy imperializm xavfi oshadi.

Qarang: global til.

TIL HOLATI Tilning jamiyatdagi mavqeyi, qo‘llanish

doirasi va rivojlanish darajasini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u tilning qayerlarda, kimlar tomonidan va qay darajada ishlatilayotganiga qarab belgilanadi. Masalan, o'zbek tilining hozirgi holati uning davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida besh vazifaviy uslub doirasida adabiy va noadabiy shakllarda og'zaki va yozma tarzda qo'llanayotganligi bilan baholanadi. Demak, til holati uning ijtimoiy hayotdagi haqiqiy o'rnini, imkoniyatlarini va duch kelayotgan muammolarini ko'rsatadi.

Qiyos: til vaziyati.

TIL HUQUQI 1. Shaxs yoki jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli jabhalarida biron-bir tildan o'z maqsadiga ko'ra erkin foydalanishidan iborat qonuniy erki, huquqiy ixtiyori. Til huquqi kundalik so'zlashuv, davlat va jamoat tashkilotlariga murojaat qilish, ta'lim-tarbiya olish, sudlov va saylov ishlarida qatnashish va boshqa jarayonlarda amal qiladi.

Qiyos: til huquqining buzilishi.

2. Regional va minoritar tillar Yevropa xartiyasiga qo'shilgan davlatlar hududida amal qiladigan kichik tillarni qo'llab-quvvatlash, ularni ta'lim-tarbiya, OAV, madaniyat sohalarida qo'llanishini ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar. Bu xartiyaga a'zo davlatlar o'z hududidagi lingvoetnik vaziyatdan kelib chiqib, xartiya talablarini kam, o'rta yoki yuqori darajada bajaradi. Xartiya talablarining kam darajasida minoritar tildan kundalik so'zlashuv va maishiy munosabatlarda foydalanish, o'rta darajasida minoritar tilda ta'lim olish, sud ishida foydalanish, yuqori darajasida minoritar tildan ta'lim, sudlov, ma'muriy boshqaruv faoliyatida teng foydalanish imkoni bo'ladi.

Qarang: til huquqining kafolatlanganligi, til huquqining kafolatlanmaganligi.

TIL HUQUQINING BUZILISHI Shaxs yoki jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli jabhalarida biror tildan o'z maqsadiga ko'ra erkin foydalanishi-

ga yo‘l qo‘ymaslik, huquqiy ixtiyorini cheklash. Til huquqining buzilishi shaxsning o‘zi bilgan tildan davlat va jamoat tashkilotlariga murojaat qilish, ta’lim-tarbiya olish, sudlov va saylov ishlarida qatnashish va boshqa jarayonlarda foydalanishdan iborat erkini cheklashda kuzatiladi. Mutaxassislar Latviya yoki Estoniyada tug‘ilgan, uzoq muddat yashagan boshqa xalqlarning latish yoki eston tili bo‘yicha imtihondan o‘tolmagani uchun fuqarolik berilmasligini til huquqining buzilishi deb hisoblaydilar.

Qarang: til huquqi, til huquqining kafolatlanganligi, til huquqining kafolatlanmaganligi.

TIL HUQUQINING KAFOLATLANGANLIGI

Xalqaro va mamlakat miqyosida shaxs yoki jamoaning muayyan tilda so‘zlashish, davlat va jamoat tashkilotlariga murojaat qilish, ta’lim-tarbiya olish (berish) va boshqalardan iborat erkini qonun va qonunosti hujjatlarida belgilab qo‘yilganligi. Bu huquqni kafolatlaydigan asosiy xalqaro hujjat “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, “Regional va minoritar tillar Yevropa xartiya”si, mamlakat ichida esa konstitutsiya va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Qiyos: til huquqining kafolatlanmaganligi.

TIL HUQUQINING KAFOLATLANMAGANLIGI

Xalqaro va mamlakat miqyosida shaxs yoki jamoaning muayyan tilda so‘zlashish, davlat va jamoat tashkilotlariga murojaat qilish, ta’lim-tarbiya olish (berish) va boshqalardan iborat erkini himoyalovchi yuridik mexanizmlarning yo‘qligi yoki til huquqi kafolatining alohida qonun va qonunosti hujjatlarida belgilab qo‘yilmaganligi.

Qiyos: til huquqining kafolatlanganligi.

TIL IJODKORLIGI 1. Rejali tarzda yangi til tizimlarini yaratish faoliyati. Fanda til ijodkorligi tushunchasining kelib chiqishi yunon filologi Aleksarxga (miloddan avvalgi IV–III asrlar) bog‘lanadi. Aleksarx ko‘proq o‘zining “g‘ayrioddiy

soʻz” ixtirosi va til tajribalari orqali tilga tushgan. U oʻzi yaratgan yangi tildan Uranoupolis shahrida foydalanishga harakat qilganligi qayd qilinadi. Keyinchalik R.Dekart va G.Leybnits til ijodkorligi gʻoyasini rivojlantirgan. Hozir yangidan sunʼiy til yaratish va mavjud tillardan birini kommunikatsiya uchun soddalashtirish *til ijodkorligi* deb tushuniladi.

Qarang: sunʼiy til, oʻlik til.

2. Badiiy soʻz ustalari, ijodkorlar va filologlarning hozir qoʻllanishda boʻlgan biror tabiiy tilning ichki imkoniyatlaridan yangi, avval kuzatilmagan maqsadlarda foydalanishi. Masalan, bu tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi soʻz va iboralarni hosil qilish, lisoniy birliklarni yangi maʼnolarda qoʻllash, tilning umumiy grammatik qurilishiga muvofiq boʻlgan, ilgari kuzatilmagan sintaktik konstruksiyalarni yuzaga keltirishda koʻrinadi.

Qiyos: tilni standartlashtirish.

TIL IJTIMOY VAZIFALARINING KENGAYISHI

Tilning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, ilmiy-texnik, maʼnaviy-maʼrifiy kabi oʻzgarishlar natijasida ayni sohalarida qoʻllanish doirasining, jamiyat hayotining turli jabhalariga taʼsirining ortishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohalarida keng qoʻllana boshlashi kabilardan iborat jarayon. Til vazifalarining kengayishi kundalik muloqot tilining dastlab badiiy til, keyinroq OAV tili, undan soʻng ilm-fan, diplomatiya, rasmiy ish yuritish tiliga aylanishida kuzatiladi. Masalan, sobiq ittifoq davrida rasmiy ish yuritish tili darajasiga koʻtarila olmagan oʻzbek tilining keyingi ijtimoiy-siyosiy omillar sababli shunday vazifada ishlatilishga oʻtishida namoyon boʻladi.

Qiyos: til ijtimoiy vazifalarining torayishi.

TIL IJTIMOY VAZIFALARINING TORAYISHI

Muayyan til qoʻllanish doirasining qisqarishi, jamiyat hayotining turli jabhalariga taʼsirining kamayishidan iborat jarayon. Masalan, bu hodisa avval rasmiy ish yuritish tili boʻlib kelgan tilning keyingi ijtimoiy-siyosiy va boshqa omillar

sababli shunday vazifada ishlatilishdan to‘xtashida namoyon bo‘ladi. O‘zbek xonliklari davrida rasmiy ish yuritish va hujjatchilikda qo‘llanib kelgan o‘zbek tilining sobiq ittifoq davrida rasmiy qo‘llanishining cheklanishini til vazifalarining torayishi sifatida baholash mumkin.

Qiyos: til ijtimoiy vazifalarining kengayishi.

TIL ISLOHI Muayyan tilning fonetik, leksik, grammatik, stilistik, punktuatsion jihatlari, imlo qoidalarini aniqlashtirish bilan bog‘liq mavjud muammolarni, noto‘g‘ri qo‘llanayotgan grammatik shakllarni tuzatish, lug‘atdagi izohlarni takomillashtirish ishi. Bu jarayon tilni qo‘llash, tildan foydalanish bilan bog‘liq bitta muammoni tilshunos-mutaxassis ishtirokida tuzatishga yo‘naltirilgan amaliy ish ekanligi, doimiy tuzatishlar hamda mayda o‘zgarishlardan iborat bo‘lishi bilan til islohotidan farqlanadi.

Qiyos: til islohoti, yozuv islohoti.

TIL ISLOHOTI Davlatning vakolatli tashkilotlari tashabbusi, ko‘magi va boshchiligida alifboni takomillashtirish, imlo qoidalaridagi nodurustliklarni tuzatish, adabiy til me‘yorlarini davr talabiga ko‘ra takomillashtirish, adabiy talaffuz me‘yorlaridagi qat‘iylikni yumshatish orqali uni xalq tiliga yaqinlashtirish kabi til hayotiga maqsadli aralashuv. U davlatning til borasidagi siyosatining, tilga mafkuraviy munosabatining aniq xatti-harakatlarda amalga oshishidir. Til islohoti til islohidan katta, rasmiy va tizimli o‘zgartirishlar ekanligi bilan farqlanadi.

Qiyos: til islohi, yozuv islohoti.

TIL LANDSHAFTI [til + *nem.* land – yer, hudud + -schaft – holat, tizim, majmua] 1. Ma‘lum bir tilga xos izoglossalar yig‘indisi hamda ularning shu til amal qiladigan hududda joylashgan holati. Til landshaftlari lingvogeografiyaning o‘rganish obyekti hisoblansa-da, lisoniy mo‘ljallash jarayoni va dialektlarni sotsial jihatdan o‘rganishda muhimligi uchun sotsiolingvistik tadqiqotlar doirasiga tortiladi.

Qarang: lingvogeografiya.

2. Jamoat joylarida (ko'cha, do'kon, davlat idoralari, reklama va boshqalar) ko'rinadigan yozma til shakllarining jamlanmasi. Masalan, O'zbekistonda ko'chalarda o'zbekcha peshlavhalar (davlat tili sifatida) keng tarqalgan bo'lsa-da, ko'plab do'konlar va xizmat ko'rsatish joylarida ruscha yozuvlar ham uchraydi (sobiq SSSR davridan qolgan tarixiy ta'sir va ko'p millatli jamiyat natijasi). Turistik hududlarda inglizcha belgilar ham ko'p uchraydi (xorijiy mehmonlar uchun). Shveysariyada esa til landshafti bir nechta rasmiy tillarni aks ettiradi: ayrim hududlarda nemischa, boshqasida fransuzcha, italyanacha yoki romancha yozuvlar qo'llanadi. Demak, til landshafti nafaqat rasmiy til siyosatini, balki aholining til madaniyati, tildan foydalanishini, shuningdek, o'tmish va globallashuv ta'sirini ham aks ettiradi.

Qiyos: jamiyatning lisoniy manzarasi.

TIL MAKROEVOLYUTSIYASI Uzoq tarixiy davrlar davomida til tizimida yuz beradigan chuqur va keng ko'lamli o'zgarishlar. Bu jarayon natijasida mavjud til butunlay yangi tilga aylanishi, ya'ni bir til ikkinchisi tarkibiga singib ketishi yoki undan yangi tillar ajralib chiqishi mumkin. Masalan, lotin tilidan italyan, fransuz, ispan kabi roman tillari paydo bo'lgan bo'lsa, qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek, ozarbayjon, qozoq tillari ajralib chiqqan. Makroevolyutsiya fonetika, morfologiya, sintaksis va semantikada yirik o'zgarishlar bilan kechadi: tovushlar o'zgaradi (masalan, qadimgi "teg" hozirgi o'zbek tilida "tegmoq", qozoq tilida "tiyu" bo'lishi), grammatik tizim qayta quriladi, so'z yasalishi va gap tuzilmalari o'zgaradi, leksika esa yangilanib, ko'p hollarda o'zga tillardan so'zlar kirib keladi. Sotsiolingvistik jihatdan tilning ijtimoiy guruhlarda bo'linishi va yangi adabiy til normasi shakllanishini ko'rsatadi.

Qiyos: til makroevolyutsiyasi.

TIL MAQOMI Tilning muayyan jamiyat hayotida tutgan o'rni, tildan real sharoitda foydalanilish holati. Tilning bunday maqomini bevosita jamiyat a'zolari belgilaydi.

Shu jihati bilan tilning huquqiy maqomi tushunchasidan farqlanadi. Baʼzan tilning huquqiy maqomi boʻlmasa ham jamiyatda muhim oʻrin tutadi. Masalan, AQSHda ingliz tiliga davlat tili yoki rasmiy til maqomi berilmagan, ammo jamiyat hayotining barcha jabhasida amal qiladi.

Qiyos: tilning huquqiy maqomi.

TIL MAVJUDLIGI MAKTABI XX asrning 40–50-yillarida yapon tilshunosligida tilga inson mavjudligining asosiy shakllaridan biri sifatida qarash, tilni shaxsning maqsadli faoliyati deb bilish natijasida shakllangan yoʻnalish. M.Nishio, E.Ivabuti, T.Sibata, O.Hayasi kabilar bu maktabning koʻzga koʻringan vakillari hisoblanadi. Mazkur maktab faoliyatida tilni empirik tarzda oʻrganish, yaʼni nutq bilan bogʻliq maʼlumotlarni toʻplash, tilning ijtimoiy vazifalarini asoslash, statistik tadqiq usullaridan keng foydalanish, til amaliyoti muammolari bilan shugʻullanish ustuvor boʻlgan.

Qiyos: AQSH sotsiolingvistika maktabi.

TIL MEʼYORLARI Adabiy til taraqqiyotining maʼlum bir davrida til egalarining tildan toʻgʻri, oʻrinli, maqsadga muvofiq foydalanishini, nutqning kommunikativ sifatlaridan chetga chiqib ketmasligini taʼminlab turadigan lingvistik qoidalar. Bu jihatdan tilning orfografik, orfoepik, leksik, grammatik va uslubiy meʼyorlari farqlanadi. Ular xalq tili normalari asosida shakllansa ham sifatiy belgilari bilan undan farqlanadi. Til meʼyorlari atamasi bu maʼnoda adabiy til meʼyorlari tushunchasini ham oʻz ichiga oladi. Bunday meʼyorlar til egasining tilga taʼsirini aniq sezdiradi.

Qiyos: dialektal meʼyorlar. **Qarang:** adabiy til meʼyorlari.

TIL MEʼYORLARINING YEMIRILISHI Til taraqqiyotining maʼlum bir davrida jamiyat aʼzolarining lisoniy meʼyor sifatida barqarorlashgan til birliklarini qoʻllashdan tiyilib, ularning oʻrnida boshqa yoki variant til birliklaridan foydalana boshlashi, shakllangan meʼyorlarning asta-sekin

yo‘qolib borishi. Bunday holat jamiyat hayotida sezilarli ijtimoiy o‘zgarishlar yuz berganda, masalan, har jabhada (shu jumladan, til masalasida ham) demokratlashtirish va liberallashtirish boshlanganda axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan paydo bo‘lgan yangilanishlarni mavjud til me‘yorlariga asosan ifodalash imkonsizlashganda ro‘y beradi. Yoki adabiy nutqqa shevalarning ta‘siri kuchayganda, begona tillardan so‘z o‘zlashtirish ko‘payganda, ijtimoiy tarmoqlardagi noto‘g‘ri qo‘llashlarning ta‘sirida, til egalarining adabiy til qoidalariga beparvoligi ommaviy tus olganda ham sodir bo‘ladi.

Qarang: sotsiolingvistik muvozanat, sotsiolingvistik muvozanatning buzilishi.

TIL MIKROEVOLYUTSIYASI Muayyan til tarkibida qisqa tarixiy davr ichida asta-sekin sodir bo‘ladigan mayda o‘zgarishlar. Ular tovush tizimi, lug‘at boyligi, grammatik qurilish va uslubga ta‘sir qiladi. Bunday o‘zgarishlar tilning yangi ijtimoiy va madaniy sharoitlarga moslashuvi natijasida yuz beradi. Sotsiolingvistik jihatdan mikroo‘zgarishlar, ayniqsa, yoshlar, shaharliklar va internet foydalanuvchilari nutqida tez-tez uchraydi, chunki ular tilni faol tarzda yangilab boradi. Bunday o‘zgarishlarga jamiyatda turlicha munosabat bildiriladi: ayrimlar bu jarayonni tildagi buzilish deb qarasa, boshqalar uni tilning tabiiy va zaruriy rivoji deb hisoblaydi.

Qiyos: til mikroevolyutsiyasi.

TIL MUSTAQILLIGI 1. Ma‘lum muddat boshqa til, yot mafkura ta‘sirida bo‘lgan tilning xalq va davlat xohish-irodasi bilan huquqiy maqom olishi, qo‘llanishi cheklangan tilning davlat tili yoki rasmiy tilga aylanishi, xalqning qaysi tildan qanday foydalanish tarzini o‘zi belgilashi. Sotsiolingvistikada *lisoniy suverenitet* deb ham ataladigan bu jarayonning yuz berishi muayyan tilga har tomonlama rivojlanish imkoniyatini beradi. Atamaning bu ma‘nosi ko‘p jihatdan til siyosati bilan bog‘liq.

Qiyos: til bosqini, tilning huquqiy maqomi.

2. Muayyan tilning o'ziga xos xususiyatlarini, funksional imkoniyatlarini va ijtimoiy-madaniy ahamiyatini saqlab qolishi, boshqa tillarning bosimi yoki ta'siridan mustaqil holda rivojlanishi va qo'llanishi. Bu ma'noda til lug'at tarkibi, grammatik tuzilishi, vazifaviy uslublari va madaniy ahamiyatini kamida saqlagan holda mavjud bo'lib qolishi, ko'pi bilan davlat boshqaruvi, ta'lim, ommaviy axborot vositalari kabi sohalarda xalqaro tillarning salbiy ta'siriga tushmay "ishlashi" nazarda tutiladi. Atama bu ma'noda shu til egalaring ijtimoiy, madaniy va siyosiy jihatdan mustaqilligini ham bildiradi.

Qarang: til huquqining buzilishi, til huquqining kafolatlanmaganligi.

3. Shaxs yoki alohida guruhning jamiyat hayotining barcha jabhasida muloqot qilish, ish yuritish tilini erkin tanlash, til huquqlaridan moneliksiz foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi. Bunday imkoniyatga egalik shaxs yoki jamoaning ijtimoiy-madaniy o'zligi ichida harakatlanishiga yordam beradi. Atama bu ma'noda til vaziyati, til huquqi tushunchalari bilan bog'liq bo'ladi.

Qiyos: til bosqini, til huquqining kafolatlanganligi.

TIL PAYDO BO'LISHINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTI Tilni jamiyat a'zolarining bir-biri bilan muloqot qilish ehtiyoji, ibtidoiy jamoa vakillarining o'zaro kommunikatsiyaga kirishish zarurati, tilni jamoaviylik natijasi deb tushuntiradigan hamda bugungi tillarni dastlab bir sathli (faqat nutq), keyin ikki sathli (leksik-semantik), undan so'ng uch sathli (leksik, semantik, sintaktik) va oxiri ko'p sathli tillar sifatida shakllangan deb taqdim qilinadigan qarash. Til paydo bo'lishi haqida undov, taqlid va mehnat qichqiriqlari gipotezalari individuallikka asoslanganligi uchun til ijtimoiyligi g'oyasiga zid deb qaraladi.

Qarang: tillarning sotsiolingvistik tasnifi.

TIL QONUNCHILIGI 1. Muayyan davlatda amalda bo'lgan va til muammolarini hal qilishga qaratilgan barcha huquqiy normalar majmuyi. Bunday normalar orqali rasmiy til yoki davlat tili belgilanadi, bunday tilning davlat boshqaru-

vi, qonunchilik, sud jarayonlari, ta'lim va boshqa rasmiy sohalarida qo'llanishi kafolatlanadi, ayni paytda, boshqa tillardan foydalanish masalasiga aniqlik kiritiladi, tillarning yashashi va qo'llanishi tartibga solinadi, mavjud tillarning rivoji uchun sharoit yaratish ham ko'zda tutiladi.

Qarang: davlat tili, davlat tili talablari.

2. Rasmiy muloqot, ish-yuritish, ta'lim-tarbiya va boshqa faoliyat sohalarida bir yoki birdan ortiq tilning qo'llanishini huquqiy ta'minlash va tartibga solish mexanizmlari. Til qonunchiligi bu ma'noda konstitutsiya, til haqidagi qonun, qonunosti hujjatlaridagi alohida moddalarda amal qiladi va boshqariladigan muloqot sohalariga tatbiq qilinadi.

Qarang: tilning huquqiy maqomi, davlat tili, rasmiy til.

TIL QONUNCHILIGINING UMUMIY NORMALARI

Muayyan tilning jamiyat hayotining turli yo'nalishlarida qo'llanishini tartibga solish, rasman boshqariladigan muloqot sohalarida davlat tilidan foydalanishni belgilash, jamiyat ichida tilni qo'llash bilan bog'liq muammolar kelib chiqishining oldini olishga yo'naltirilgan tildan keng miqyosda foydalanishni tartibga solishi bilan xususiy normalardan farq qiladi. Bunday normalar mavjud tillarni kompleks rivojlantirish kabi masalalarga yo'naltirilgan me'yoriy-huquqiy aktlardir.

Qiyos: til qonunchiligining xususiy normalari.

TIL QONUNCHILIGINING XUSUSIY NORMALARI

Muayyan til bajaradigan aniq vazifa bilan bog'liq bo'lgan, masalan, alifbo, imlo va punktuatsiya qoidalarini takomillashtirish, bir yozuvdan boshqa yozuv tizimiga o'tish ishlari, ta'lim tilini belgilash va boshqa masalalarga yo'naltirilgan me'yoriy-huquqiy aktlar. Bunda alohida lisoniy masala yuzasidan alohida huquqiy hujjat ham e'lon qilinishi mumkin. Masalan, VMning "Atamalar komissiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

Qiyos: til qonunchiligining umumiy normalari.

TIL QONUNCHILIGINING VAZIFALARI Umum-qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali jamiyat a'zolarining lisoniy integratsiyalashuvi uchun shart-

sharoit yaratish, shaxsning til huquqlarini himoya qilish, mavjud tillar (birinchi navbatda, minoritar tillar)ni qonunan himoyalash va moddiy qoʻllab-quvvatlanishini taʼminlash, lisoniy kelishmovchilik va nizolarning kelib chiqishiga yoʻl qoʻymaslikdek funksiyalari. Masalan, “Davlat tili toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni oʻzbek tilidan davlat tili sifatida foydalanish tartiblarini, shuningdek, mahalliy tillarga munosabat masalalarini belgilaydi.

Qarang: xalqaro til qonunchiligi.

TIL SINFIYLIGI XX asr boshlarida rus tilshunosligida N.Marrning “Til haqida yangi taʼlimot” asari orqali paydo boʻlgan sotsiologik atama. Bunga koʻra jamiyat turli sinflardan tashkil topadi va bu sinflar tildan ana shu ijtimoiy mansubligiga koʻra foydalanadi, har bir ijtimoiy sinfning oʻziga xos tildan foydalanish tarzi boʻladi. Tilning ijtimoiy tabiatiga bunday yondashuv keyingi avlod rus tilshunoslari tomonidan qabul qilinmadi.

Qiyos: tilning ijtimoiy qatlamlanishi.

TIL SIYOSATI Mamlakat yoki muxtor respublikada davlatning bosh islohotchiligida milliy siyosatning bir qismi sifatida amalga oshadigan til bilan bogʻliq choratadbirlar; davlat yoki muxtor respublikaning til rivojiga ongli aralashuvi, taʼsiridan iborat mafkuraviy choralar majmuyi. Til siyosati davlat va jamiyatda til bilan bogʻliq barcha muammolarni hal qilishning mafkuraviy, nazariy choralari belgilaydi. Biror tilga huquqiy maqom berish, taʼlim va qonunchilik tilini belgilash, alifbo va yozuv islohotini oʻtkazish va boshqa shu kabi masalalar til siyosatining asosiy jihatlari. Til siyosatining milliy va baynalmilal yoʻnalgan, xolis va noxolis, konservativ va liberal singari turlari mavjud.

Qarang: til qonunchiligi.

TIL SIYOSATI OBYEKTI Muayyan mamlakat yoki uning biror hududida amal qiladigan tillar va ular bilan bogʻliq lisoniy vaziyat, til qonunchiligi, davlat tili, rasmiy til va mahalliy tillarning oʻzaro munosabati, jamiyat aʼzolarining

tilning yashash shakllari (adabiy til, mahalliy shevalar, ijtimoiy dialekt va boshqalar)ga munosabati, adabiy tilni shakllantirish alifbo va yozuv bilan bog‘liq islohotlar. Masalan, rasmiy til maqomini berish, til o‘rganishni majburiy qilish yoki chet tilini cheklash – bularning barchasi til siyosati obyektlariga ta’sir ko‘rsatadi. Til siyosati obyektlari til siyosatining mazmuni, natijasi va ijtimoiy reaksiyasini aniqlashda muhim. Har bir obyekt til siyosatiga o‘zicha ta’sir ko‘rsatadi va ularning ehtiyojlari, madaniyati, huquqlari e’tiborga olinmay o‘tkazilgan til siyosati ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Qarang: til siyosati subyekti.

TIL SIYOSATI SUBYEKTI Til siyosatining maqsadi, vazifalari va boshqalarni ishlab chiquvchi vakolatli davlat tuzilmalari, ijtimoiy va fuqarolik institutlari va soha mutaxassislari, shuningdek, til bilan bog‘liq islohotlarni tushuntirish va targ‘ib qilishda ishtirok etadigan ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari kabilar. Ular davlat, hududiy va mahalliy darajada bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston sharoitida Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, ilmiy-tadqiqot institutlari, til jamiyatlari, viloyat va tumanlar hokimliklari til siyosatining davlat, hududiy va mahalliy darajadagi subyektlaridir.

Qiyos: til siyosati obyekti.

TIL SOTSILOGIYASI Jamiyatshunoslikka oid masalalar, ijtimoiy soha va jarayonlarni ularning lisoniy ifodalanishi orqali o‘rganadigan, “jamiyatdan – tilga” tarzida tadqiq tarzi amal qiladigan fanlararo soha. Til sotsiologiyasi uchun ijtimoiy munosabatlarning til orqali namoyon bo‘lishi, kishilar aniq ijtimoiy maqsadda tildan foydalanishi, ijtimoiy munosabatlarga to‘siq yoki stimuly bo‘luvchi til bilan bog‘liq holatlar muhim. Sotsiolingvistikada “tildan – jamiyatga” tarzidagi tadqiq tarzi muhim va unda til faktlari, lisoniy o‘zgarishlar ijtimoiy hodisa va dalillarni jalb qilgan holda o‘rganilishi bilan til sotsiologiyasidan farqlanadi.

Qarang: sotsiolingvistika.

TIL TANQISLIGI 1. Muayyan tilning ijtimoiy hayotning ayrim sohalaridagi vazifalarini turli ijtimoiy-lisoniy omillar sababli bajara olmay qolishi. Masalan, tor sohaviy tushunchalarni ifodalay bilmasligi, soha tili vazifasida xizmat qila olmasligidan iborat holat. Bu jihat, asosan, rivojlanmagan tillar, qisman rivojlanmayotgan tillarda mavjud bo'ladi. Tilning rivojlanib ketishi bilan til tanqisligi uchramaydi.

Qiyos: lisoniy layoqatlilik.

2. Shaxs yoki jamoaning muayyan tilni to'liq yoki yetarli darajada egallay olmaganligi yoki undan ijtimoiy muloqotda samarali foydalana olmaslik holati. Ko'pincha ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligi, til ijtimoiy nufuzining pastligi, hukmron tilning bosimi yoki migratsiya sharoitlari tufayli yuzaga keladi. Masalan, O'zbekistonda ba'zi etnik ozchiliklar (masalan, tatarlar yoki ukrainlar) o'zbek tilini to'liq o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu til tanqisligiga olib keladi. Shu bilan birga, xorijdagi o'zbek diasporasi orasida yosh avlodning o'zbek tilini bilish darajasi pasayishi ham til tanqisligining bir ko'rinishidir.

Qiyos: lisoniy noqulaylik.

3. Chet ellik shaxs bilan unga qulay tilda muloqot qilayotgan kishining o'z fikrini suhbatdoshiga yetarlicha tushuntira olmaslik holati. Bunda lisoniy tanqislikka uchragan shaxs fikr ifodalashning bilvosita usullaridan: imo-ishora va boshqa jestlardan foydalanadi.

Qarang: til tanqisligi gipotezasi.

TIL TANQISLIGI GIPOTEZASI Jamiyat a'zolarining muvaffaqiyatga erishishi, turli ijtimoiy imtiyozlardan foydalanishi ularning tegishli tilni qay darajada o'zlashtirganligiga bog'liq, degan mazmundagi nazariya. Masalan, ziyoli qatlam vakillari keng lug'aviy zaxiradan, oddiy ishchilar qatlami tor lug'aviy zaxiradan foydalanadi. Shu bois oddiy ishchi nutqi, asosan, boy va rang-barang bo'lmaydi, sintaktik jihatdan sodda tuziladi. Ijtimoiy muvaffaqiyatga erishishga

to'sqinlik qiladigan ayni holat lisoniy tanqislikni keltirib chiqaradi. Uni ingliz olimi B.Bernshteyn ilgari surgan.

Qarang: lisoniy layoqatlilik, til tanqisligi.

TIL TARAQQIYOTI Aniq ijtimoiy-tarixiy sharoitda amal qilayotgan tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik, grammatik jihatdan rivojlanishi, tilga ta'siri bor nolisoniy omillar natijasida tilning qo'llanish doirasi, darajasi hamda vazifalarining kengayishi, vazifaviy uslublarining to'lib-to'liqib borishi. Har qanday tilning taraqqiyoti egasining ta'sirida yuz beradi. Shu ma'noda o'zbek tili-ning rivojida o'zbek davlatchiligi, o'zbek jamiyatining ta'siri muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Ilm-fan, texnika taraqqiyoti, asosan, til lug'at tarkibini rivojlantiradi.

Qiyos: tilning o'lishi.

TIL UZUSI [*lot.* usus – qo'llash; odat; qoida] 1. Muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitda yashovchi va ma'lum bir tilda so'zlashuvchi lisoniy hamjamiyat tomonidan umumqabul qilingan, shu lisoniy hamjamiyat a'zolari uchun noodatiy hisoblanmaydigan lisoniy birliklar, shunday birliklarning ijtimoiy qabul qilingan normalari jami. Mazkur tushuncha til normasi tushunchasi bilan jips bog'liq. So'zlar, frazeologik birliklar va boshqalarning uzual qo'llanishi, o'z navbatida, ularning okkazional qo'llanishiga qarama-qarshi keladi. Til uzusi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi va shunda ham barqarorlik saqlanadi.

Qiyos: umumtil me'yorlari.

2. Tilda umumadabiy uzusdan, umumtil normasidan farq qiladigan xususiy uzuslar ham mavjud. Ular professional uzuslar (masalan, ilmiy taqdimot uzusi), ijtimoiy guruhlarining uzuslari, kundalik aloqa uzusi va boshqalardan iborat bo'ladi. Til uzusi har ikki ma'noda til normasiga bog'liq bo'lsa ham uzullashgan holatlar izohli, orfografik, orfoepik lug'atlarda qayd etilishi natijasida keyinchalik til normasiga kodifikatsiya qilinadi.

Qiyos: xususiy me'yorlar.

TIL VA JAMIYAT Zamonaviy tilshunoslikning tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi va yashashining ijtimoiy jihatlari, tilning jamiyat bilan munosabatining mohiyati, jamiyatning sinf, qatlam va guruhlariga bo'linishiga muvofiq tilning ham ijtimoiy farqlanishi, tildan foydalanishdagi ijtimoiy farqlar, ikkitillilik va ko'ptillilik sharoitida tillararo ta'sirlashuv, jamiyatning tilga ta'sir shakllari bilan bog'liq bo'lgan muhim masalalaridan biri.

Qarang: sotsiolingvistika bo'limlari, tilning vazifalari.

TIL VARIANTI Har qanday tilning milliy, etnik, hududiy, ijtimoiy xoslangan yashash shakllarini umumlashtirib ifodalaydigan atama. Til variantlari unda so'zlashuvchi jamiyatlarning etnik, hududiy, kasbiy va boshqa ijtimoiy o'ziga xosliklarining ifodachisi sifatida shakllanadi, ana shu jihatlarga ko'ra umumadabiy tildan, uning vazifaviy uslublaridan farqlanadi. Masalan, hududiy variant – Qo'qon shevasi, ijtimoiy variant – yoshlar jargoni, funksional variant – davlat tili, publitsistik uslub kabi.

Qarang: tilning yashash shakllari.

TIL VARIATIVLIGI Tilning tadrijiy taraqqiyot jarayonida shu til rivojlanishining ichki qonuniyatlari va tashqi omillar ta'siri bilan barcha sathlari (fonetik, morfemik, leksik, sintaktik, stilistik)da yetarlicha ifoda vositalarini yarata olish qobiliyati, tilda bir vaqtning o'zida bir necha til variantlarining mavjudligi. Variativ elementlarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi nolisoniy omillar orasida so'zlovchilarining hududiy mansubligi, ijtimoiy tabaqalanishi, kasb-kori va boshqalar kiradi. Sotsiolingvistika til variativligini unga ta'sir etadigan ijtimoiy omillar (kishilarning ijtimoiy tabaqalanishi va hududiy mansubligi, ijtimoiy maqomi kabilar)ga bog'liq holda o'rganadi.

Qarang: til varianti.

TIL VAZIFALARINING KENGAYISHI Muayyan tilning aloqa vositasi vazifasidan boshqa vazifalarda ham qo'llana boshlashi. Masalan, faqat kundalik muloqotda

foydalanilgan tilning ish yuritish, hujjatchilik, fan, ta'lim, OAV va diplomatiya singari faoliyat sohalarining tili sifatida amal qilishga o'tishi. O'zbek tilining mustaqillikdan keyingi taraqqiyoti bunga misol bo'la oladi: hozirda undan nafaqat kundalik hayotda, balki rasmiy idoralarda, ilmiy ishlarda, OAV, internet tili sifatida ham faol foydalanilmoqda. Mazkur atama *til ijtimoiy vazifalarining kengayishi* atamasidan umumtushunchali ekanligi bilan farq qiladi.

Qiyos: til vazifalarining torayishi.

TIL VAZIFALARINING TORAYISHI Muayyan tilning avvalgi vazifalarini yo'qotish jarayoni. Bu jarayonga tilning muayyan vazifalarini boshqa tilga yuklanishi yoki yo'qotilgan vazifalar bilan bog'liq soha yoxud tushunchalarning yo'qolib ketishi sabab bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda mustaqillikkacha ilm-fan, rasmiy ish yuritish, davlat boshqaruvi, qonunchilik tili vazifasida rus tili ishlatilgan bo'lsa, mustaqillikdan keyin uning bu sohalardagi o'rnini o'zbek tili egalladi. Harholda, o'zbek tili davlat tili sifatida rus tiliga nisbatan ustunlikka ega bo'ldi. Rus tili vazifalarining torayishi Markaziy Osiyo, Boltiqbo'yi mamlakatlarida ham yuz berdi. Mazkur atama *til ijtimoiy vazifalarining torayishi* atamasidan umumtushunchali ekanligi bilan farq qiladi.

Qiyos: til vazifalarining kengayishi.

TIL VAZIYATI Muayyan davlat (umuman, ma'muriy-siyosiy hudud)da ikki va undan ortiq tilning kamida muloqot vositasi sifatida amal qilish holati. Til vaziyatining birinchi yuzaga kelish omili – turli etnik kelib chiqishdagi millatlarning bir hududda yashashi; ikkinchi omili davlat yoki jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar; uchinchi omili demografik sabablar bo'lib, bunda rivojlangan, qulay infratuzilmali joylarga har xil tilda so'zlashuvchilar ko'chib keladi. Til vaziyati komponentlarining xususiyatiga ko'ra har xil bo'ladi. Masalan, endogloss til vaziyati, ekzogloss til vaziyati kabi.

Qarang: lisoniy harxillik, ikkitillilik, ko'ptillilik.

TILDA GENDER FARQLANISHI Tilda egalarining ayol yoki erkak jinsiga mansubligidan kelib chiqadigan farqlarning ifodalanishi. Muloqot ishtirokchilarining jins bilan bogʻliq farqlanishi – ular nutqining ajralmas qismi va u muloqot xulqining ogʻzaki va yozma shaklida namoyon boʻladi. Oʻzbek tilida gender farqlanish, asosan, leksik darajada amal qiladi. Masalan, qoʻpol soʻz va iboralar, jargon yoki argotik soʻzlar erkaklar nutqida koʻproq uchraydi, hishayajon undovlari, qargʻish soʻzlari ayollar nutqida koʻproq kuzatiladi.

Qiyos: tilning ijtimoiy farqlanishi.

TILDA VAQT UZLUKSIZLIGI Til yashash shakllarining rivojlanishi, bir-biriga taʼsir qilib turishining zamon nuqtayi nazaridan muntazamligi, til yashash shakllarining har doim uzluksiz rivojlanib yoki oʻzgarib turishi, ular oʻrtasida uzilish yoki ajralishni, oʻzgarish va rivojlanishni vaqt nuqtayi nazaridan aniq chegaralashning imkonsizligi, mavjud chegaralashlarning ham gʻoyat shartliligi.

Qiyos: tilda makon uzluksizligi.

TILGA MAQSADLI ARALASHUV Vakolatli davlat organlari, ilmiy muassasalar, mutaxassislar guruhi tomonidan adabiy til meʼyorlarini ilmiy asosda belgilash, nutqda nimaga yoʻl qoʻyish mumkin-u nimaga yoʻl qoʻyish mumkin emasligini koʻrsatib berishdan iborat faoliyat. Bunda normani mutlaq chegaralab ham, mutlaq cheklab qoʻyib ham boʻlmaydi. Lisoniy hayotga ongli aralashish jarayoni imlo qoidalarini belgilashda yaqqol koʻrinadi. Mazkur atama “til amaliyotini boshqarish” tushunchasini ham, “tilga vertikal taʼsir” tushunchasini ham oʻzida birlashtiradi, ammo aralashuv maqsadi bilan farqlanadi. Masalan, imlo (yoki punktuatsiya) qoidalarini qabul qilish, yangi terminlar yasash, alifboni takomillashtirish kabilar.

Qiyos: tilga vertikal taʼsir.

TILGA VERTIKAL TA'SIR Vakolatli davlat tashkilotlari, siyosiy partiya va rasmiy institutlar tomonidan muayyan tilga bo'ladigan ta'sir. Tilga bunday ta'sir haqiqatda lozim sharoitda ham, lozim bo'lmagan sharoitda ham qilinishi mumkin. Shundan kelib chiqib, vertikal ta'sir til uchun foydali yoki zararli, ijobiy yoki salbiy oqibatli bo'ladi. *Tilga vertikal ta'sir* atamasi *tilga maqsadli aralashuv* atamasidan yuqoridan pastga tarzida yo'nalganligi, kim tomonidan ta'sir qilinishi ta'kid olishi bilan farqlanadi. Masalan, tilga rasmiy maqom berish yoki maqomini bekor qilish, biror tilni ta'limga kiritish yoki ta'limdan chiqarish kabilar.

Qiyos: tilga gorizontal ta'sir.

TILGA GORIZONTAL TA'SIR Jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa o'zgarishlarning o'sha jamiyatda qo'llanadigan til(lar)da tabiiy bir tarzda o'zgarishlarni yuzaga keltirishi, tilning turli sathlarida, uning ijtimoiy vazifalarida hech qanday zo'riqishlarsiz yangilanishlarning sodir bo'lishi, tildan tashqari omillarning til bilan tadrijiy ta'sirlashishi. Masalan, o'zbek tiliga *j* tovushining kirib kelishi yoki o'zbek tilining turli taraqqiyot bosqichlarida *d>z>y* tarzidagi tovush o'zgarishlarini nolisoniy omillarning tilga gorizontal ta'siri sifatida ko'rsatsa bo'ladi.

Qiyos: tilga vertikal ta'sir.

TILLAR DISTRIBUTSIYASI [til + *lot.* dis – alohida, ajralgan + *tributio* – taqsimlash, bo'lish] Ko'p millatli jamiyatda tillarning turlicha ko'lam va darajada ijtimoiy-kommunikativ vazifa bajarish uchun yo'naltirilishi; tillar kommunikativ funksiyalarining turli til jamoalarida turlicha taqsimlanishi. Masalan, muayyan tilning ilm-fan, ta'lim, OAV, qonunchilik tili vazifasini bajargani holda boshqa tilning oila darajasida yoki maishiy munosabatlardagina qo'llanishi. Shu jihatdan O'zbekistonda o'zbek va qozoq, Qoraqalpog'istonda qoraqalpoq va turkman tillarining vazifaviy taqsimoti farq qiladi. Tillar distributsiyasining o'ziga xosligi bir til bajara olmagan vazifani unga yonma-

yon qo‘llanayotgan boshqa tilning bajarishida va shu tarzda til funksiyalarining tillararo taqsimlanishida ko‘rinadi.

Qarang: tilning ijtimoiy vazifalari.

TILLAR HAMKORLIGI Til taraqqiyotning muayyan davrida kamida ikki tilning o‘zaro katta miqdorda so‘z olish-berish, biridan ikkinchisiga ko‘plab yangi tushunchalarning o‘zlashtirilish jarayoni. Masalan, hozirgi ingliz adabiy tili roman tillari yoki sharq xalqlari tillaridan katta miqdordagi lisoniy birliklarni qabul qilgan. Olimlarning hisob-kitobicha, qariyb 60–70 % so‘zlar ingliz tiliga roman va sharq tillaridan o‘zlashgan.

Qarang: tillar ta’sirlashuvi.

TILLAR ITTIFOQI Noqarindosh tillarning bir hududda tarixan yonma-yon amal qilishi natijasida o‘ziga xos tashqi lisoniy o‘xshashliklariga ko‘ra birlashishi. Bir ittifoqdagi bunday tillarning morfologiyasi va sintaksisida yetarlicha o‘xshashliklari bo‘ladi, ba’zan fonetikasida tashqi o‘xshashlik kuzatiladi, milliy-madaniy semali mushtarak so‘zlari shakllanadi, ammo tovush tizimi va genetik leksik tarkibi jihatidan bog‘liq bo‘lmaydi. Masalan, Bolqon tillar ittifoqi. N.S.Trubetskoy tomonidan tillar oilasi tushunchasidan farqlashda foydalanilgan.

Qarang: Bolqon tillar ittifoqi.

TILLAR TA’SIRLASHUVI Yonma-yon hududlarda yashagan yoki xalq xo‘jaligining turli jabhalarida hamkorlik qilgan xalqlarning o‘zaro munosabatlari natijasida ularning tillari o‘rtasida lisoniy oldi-berdilarning yuz berishi, tilning fonetik, leksik, sintaktik tuzilishiga ta’sir qilish bilan kechadigan munosabatlar. Bu jihatdan tabiiy va sun‘iy, bevosita va bilvosita tillar ta’sirlashuvi farqlanadi. Aloqadagi tillarning bir til oilasiga mansubligi yoki mansub emasligiga ko‘ra, qarindosh tillar ta’sirlashuvi hamda noqarindosh tillar ta’sirlashuvi ajratiladi. O‘zbek tili tarixida uning noqarindosh tillar bilan aloqalari ko‘p kuzatiladi.

Qarang: tillararo ta’sirlashuv.

TILLAR TENGHUQUQLILIGI Ko‘ptillilik sharoiti amal qiladigan mamlakatlarda barcha tillarning qo‘llanishda qonunan teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi, barcha tillarning rivojlanishi uchun teng sharoitlar yaratilganligi. Masalan, Shveysariyada to‘rt til (nemis, fransuz, italyan, retoroman)-ning qo‘llanishda tengligi huquqiy ta‘minlangan.

Qarang: til qonunchiligi.

TILLAR YAQINLASHUVI Turli tillarning uzoq muddatli o‘zaro ta‘sirlashuvi natijasida ularning so‘z boyligi, talaffuzi yoki grammatik qurilishida o‘xshashliklarning paydo bo‘lishi. U, asosan, xalqlarning savdo-sotiq, migratsiya, madaniy, diniy aloqalarning kuchayishi sharoitida yuz beradi. Masalan, umumiy terminlar paydo bo‘ladi, o‘xshash grammatik konstruksiyalar hosil bo‘ladi. Tillarning yaqinlashishi madaniyatlararo muloqotni osonlashtirsada, mahalliy tillarning o‘zligiga ta‘sir qilishi mumkin.

Qiyos: tillarning ajralib chiqishi.

TILLAR CHATISHUVI Uzoq muddat ta‘sirlashuvda bo‘lgan ikki tildan birining boshqasi tarkibiga singib ketish jarayoni. U qabila-urug‘chilik davrida ko‘p yuz bergan, chunki davlatchilik va yozuvning yo‘qligi tillarning o‘zaro chatishib ketishini tezlashtirgan. Yoki fransuzlar Britaniya orolini bosib olgach, bu yerda yashab qolgan fransuzlar til xususiyati anglosakson tili tarkibiga singib ketgan. Tillar chatishuvida yangi til ham shakllanadi. Masalan, hozirgi rumin tili roman tilining slavyan va boshqa tillar bilan chatishuvi natijasida yuzaga kelgan. Tillar chatishuvi jarayonida, tabiiyki, bir til mag‘lub, boshqasi g‘olib bo‘ladi.

Qiyos: tillar ta‘sirlashuvi.

TILLARNI HIMOYALASH Muayyan mamlakatdagi kichik xalqlar va kam sonli etnik guruhlar tillarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan til siyosatining bir ko‘rinishi. Bu jarayon qanday ahvoldagi tilning himoyalinishiga ko‘ra farqli kechadi. Masalan, unutilish yoki yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan til(lar)ni

himoyalashga davlatning mas'ul tashkiloti boshchilik qiladi. Bunda til qonunchiligi tegishli tillarni himoyalashni nazarda tutadigan tarzda isloh qilinadi; til(lar)ni rivojlantirish dasturlari qabul qilinadi; ta'lim, OAV tiliga aylantiriladi; tilni o'zlashtirganlik uchun moddiy qo'llab-quvvatlov joriy etiladi.

Qarang: til siyosati, xolis til siyosati.

TILLARNING AJRALIB CHIQISHI Bir tilning alohida dialektlar yoki tillarga bo'linib ketish jarayoni, bir umumiy til asosidan vaqt o'tishi bilan mustaqil tilning rivojlanib chiqishi. Masalan, lotin tilidan roman tillari (fransuz, ispan, italyan va boshqalar) ajralib chiqqan yoki qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari farqli xususiyatlar kasb etgan. Bu jarayon ijtimoiy, geografik, madaniy yoki siyosiy omillar ta'sirida til jamoalarining izolyatsiyasi, ko'chishi yoki o'ziga xos rivojlanishi bilan yuz beradi. Bunda dastlab bobotilning turli hududlarda ijtimoiy, siyosiy, madaniy farqli qo'llanishi natijasida talaffuz farqlari, leksik farqlanish, grammatik o'zgarish paydo bo'ladi va uning muntazam davom etishi yangi tillarni yuzaga keltiradi.

Qarang: sheva, dialekt, lahja, til evolyutsiyasi.

TILLARNING ARALASHISHI Bir tilning boshqa tilga ta'sir ko'rsatishi natijasida uning fonetik, leksik, grammatik yoki semantik tuzilishida o'zgarishlar yuzaga kelishi jarayoni. Bu hodisa ko'pincha ko'p tilli jamiyatlarda, mustamlakachilik, migratsiya sharoitlarida, tig'iz va muntazam savdo yoki madaniy aloqalar ta'sirida ro'y beradi. Tillarning aralashishi aksar lisoniy sathlarda seziladi. Masalan, o'zbek tiliga arab, fors va rus tillaridan ko'plab so'zlar kirgan, bu tillarning ba'zi grammatik xususiyatlari qisman ta'sir ko'rsatgan. Tillarning aralashishi ijtimoiy-kommunikativ tizimning dinamik tabiati va til jamoalarining o'zaro ta'sirini aks ettiradi.

Qarang: kod almashinuvi, so'z o'zlashtirish, tillar ta'sirlashuvi.

TILLARNING FUNKSIONAL NOTENGLIGI Ikki yoki undan ortiq til amal qiladigan lisoniy vaziyatda mavjud tillar funksional yukining birida ko‘p, boshqasida kam ekanligi. Masalan, davlat tili yoki rasmiy tillar huquqiy maqomsiz tillarga nisbatan ko‘proq ijtimoiy vazifani bajaradi, qo‘llanish doirasi keng bo‘ladi. Buning natijasida huquqiy maqomsiz tillarga kamroq funksional yuk tushadi. Masalan, O‘zbekiston sharoitida o‘zbek tilining funksional yuki rus tili, tojik tili yoki qoraqalpoq tiliga qaraganda ko‘proq. Shu bois o‘zbek tilining ushbu tillar bilan munosabatida funksional notenglik kuzatiladi.

Qiyos: tillarning funksional tengligi.

TILLARNING FUNKSIONAL TENGLIGI

Ko‘ptillilik sharoitida mavjud tillar funksional yukining o‘zaro teng ekanligi, tillarning ijtimoiy vazifasiga ko‘ra barobarligi. Bir mamlakat doirasida tillarning funksional tengligi juda kam kuzatiladi, chunki vazifaviy tenglik, baribir nisbiy xarakterda bo‘ladi. Masalan, Finlyandiyada fin va shved tillari yuridik maqomi teng, har ikki til – davlat tili, qo‘llanish doirasi ham bir xil. Ammo finlar shvedlarga qaraganda ko‘p bo‘lganligi sababli fin tilidan ko‘proq odam foydalanadi.

Qiyos: tillarning funksional notengligi.

TILLARNING FUNKSIONAL-TIPOLOGIK TASNIFI Dunyo tillarini ular bajaradigan ijtimoiy-kommunikativ vazifalarining miqdori va ko‘lamidan kelib chiqib ma’lum tiplarga ajratilishi. Bunga ko‘ra, tor ijtimoiy-kommunikativ vazifali tillar (oilaviy va boshqa maishiy munosabatlarda qo‘llanadigan tillar), o‘rta ijtimoiy-kommunikativ vazifali tillar (davlat tillari, rasmiy tillar va boshqalar), katta ijtimoiy-kommunikativ vazifali tillar (xalqaro miqyosda qo‘llanadigan tillar) farqlanadi. Shu va shunga o‘xshash tasniflar Y.D.Desheriyev, A.Martine, U.Styuart, Ch.Fergyson singari olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Qiyos: tillarning sotsiolingvistik tasnifi.

TILLARNING SOTSIOLOGIK TASNIFI Tillarni jamiyatda egallagan mavqeyi, qoʻllanish doirasi va ijtimoiy vazifalari singari sotsiolingvistik parametrlariga koʻra tiplarga ajratish, tasniflash. Masalan, 1) yozma yodgorliklarining bor-yoʻqligiga koʻra: yozuvli va yozuvsiz tillar; 2) yozuv yaratilgan vaqtiga asosan: qadim yozuvli, eski yozuvli, yosh yozuvli, yangi yozuvli tillar; 3) huquqiy maqomli-maqomsizligiga boʻyicha: davlat tillari, rasmiy tillar, mahalliy (kichik) tillar, maqomi noaniq tillar; 4) qoʻllanish koʻlamiga koʻra: xalqaro til, millalararo muloqot tili, regional til kabi.

TILNI MEʼYORLASHTIRISH Jamiyat aʼzolarini bir tilda birlashtirish, bir tilda ish yuritish va taʼlim olishini taʼminlash, qayerda yashashi, qanday kasbda ishlashidan qatʼi nazar, barcha uchun imkoniyatli qilish maqsadida milliy tilning orfoepik, orfografik, leksik, grammatik hamda uslubiy meʼyorlarini ishlab chiqish va til amaliyotiga joriy qilish jarayoni. Masalan, oʻzbek tilining orfoepik meʼyorlarini ishlab chiqish, qirgʻiz tilining grammatik meʼyorlarini ishlab chiqish kabi. “Tilni meʼyorlashtirish” tushunchasi nutqda bir necha variantlarni qoʻllashga yoʻl qoʻyishi va bu holatning meʼyoriy boʻlib qolishi mumkinligi bilan “tilni standartlashtirish”dan farq qiladi.

Qiyos: tilni standartlashtirish.

TILNI SAQLAB QOLISH Koʻp millatli jamiyatda boshqa tillarning ustunligi sharoitida qoʻllanishdan qolgan (yoki qolayotgan) tilni funksional qodir kommunikativ vosita sifatida yashashini taʼminlash yoki unutilish xavfi ostida turgan tilda soʻzlashuvchilar sonini doimiy oshirib borish orqali tilning qoʻllanish doirasini kengaytirish. Bu til siyosatini xolislashtirish, tilni taʼlim-tarbiya, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari tiliga aylantirish yoki yozuvsiz tillar uchun yozuv tizimini ishlab chiqish bilan ham amalga oshadi.

Qarang: xolis til til siyosati.

TILNI SIQIB CHIQARISH Vertikal ta'sir choralari orqali muayyan tilni u yoki bu sohada amal qilishini majburiy to'xtatish. Masalan, Ukraina televideniye va radioeshittirish milliy kengashining 2004-yil aprel oyida qabul qilgan qarorida Ukraina radio va televideniyesida rus tilidan foydalanish taqiqlangan. Dastlab tilni biror sohada qo'llanishini cheklashdan boshlanadigan bunday harakatlar shu tilni muloqot vositasi sifatida amal qilishini cheklashgacha borib yetadi. Masalan, Ukraina sharqida rus tilidan foydalanish taqiqlangan.

Qarang: lisoniy kamsitish.

TILNI STANDARTLASHTIRISH Ikki va undan ortiq variantlar orasidan yoki turli davrlarda turlicha qo'llanadigan lisoniy birliklar ichidan maqbulini standart sifatida tanlash, bu orqali turlicha qo'llanishlarni qisqartirish. Bu jarayon lug'at va grammatikalarda namunaviy shakl sifatida tegishlicha qayd qilish bilan amalga oshadi. *Tilni standartlashtirish* atamasi lisoniy "variantlarni faqat bitta namunaviy standartga solish", "variantlarni har doim bir xil qo'llanishini ta'minlash", "sinonimik yoki variativ qo'llanishining oldini olish", "til strukturasi ma'lum ma'noda soddalashtirish"ni bildirishi bilan *tilni me'yorlashtirish* atamasidan farqlanadi.

Qiyos: tilni me'yorlashtirish.

TILNI YO'QOTISH Muntazam boshqa tilda muloqot qilib kelgan etnosning etnik tilini bilmasligi oqibatida o'sha tilning foydalanishdan to'xtashi, mustaqil til sifatida unutilishi. Asosan, kam sonli xalqlarning kichik avlodidan boshlanadigan bu jarayon vaqt o'tib butun etnik guruhni qamrab oladi. Mutaxassislar o'tgan asrning oxirida Yaponiyada yashovchi ayn xalqi shu tarzda etnik tilini yo'qotganligini qayd qiladilar.

Qarang: tilning o'lishi.

TILNI O'ZLASHTIRISH Bolalikning erta davrlaridan lisoniy malakalarni egallash, tildan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish jarayoni. Bu jarayon odatda bolalikda

ona tilini tabiiy ravishda o'zlashtirishdan boshlanadi va keyinchalik boshqa tillarni o'rganishni ham o'z ichiga oladi. Tilni o'zlashtirish psixologik, kognitiv va ijtimoiy omillarga bog'liq. Bunda nutq organlarining rivojlanishi, atrof-muhit, ta'lim olish va ijtimoiy muloqot kabilar muhim. O'zlashtirish jarayoni fonetik, leksik, grammatik va pragmatik ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bolalar ona tilida so'zlash malakalarini ko'pincha taqlid va muloqot orqali rivojlantiradi, kattalar ko'proq tizimli ta'lim yoki tilni tabiiy va doimiy ravishda ishlatishga majbur bo'lish orqali o'zlashtiradi.

Qiyos: lisoniy ijtimoiylashuv.

TILNING AJRATUVCHILIK VAZIFASI

L.B.Nikolskiy farqlagan tilning to'rt etnosotsial funksiyalaridan biri. Tilning bu vazifasi katta xalq tarkibida yashab kelgan etnik jamoaning milliy mustaqillikka intilishining asosiy omili bo'lib xizmat qilishida yuzaga chiqadi. Tildan jamiyatni ijtimoiy va siyosiy parchalash vositasi sifatida foydalanilar ekan, u muayyan etnik jamoaning o'ziga xos belgisi sifatida boshqa tillarga qarshi qo'yiladi, ko'p millatli jamiyat sotsial va siyosiy jihatdan bo'linadi, milliy jamoalar til mustaqilligi asosida katta jamiyat tarkibidan chiqadilar.

Qiyos: tilning birlashtiruvchilik vazifasi.

TILNING ASOSIY VAZIFALARI Tilning eng ko'p namoyon bo'ladigan, insonning olam bilan, insonning jamiyat bilan bo'lgan munosabatida ishtirok etadigan vazifalari. Tilning kommunikativ va kognitiv vazifalari shunday funksiyalar hisoblanadi.

Qiyos: tilning yordamchi vazifalari.

TILNING BIRLASHTIRUVCHILIK VAZIFASI

1. Muayyan tilning kelib chiqishi umumiy bo'lgan etnik guruhlarning bir etnosga birlashuvi jarayonida yuzaga chiqadigan funksiyasi bo'lib, bu vazifani bajarayotgan til keyinchalik shu etnosning asosiy tiliga aylanadi. Masalan,

o'zbek tili qarluq, qipchoq, o'g'uz guruh shevalari va-killarining bir xalq sifatida shakllanishida shunday vazifani bajargan.

Qiyos: tilning etnoijtimoiy vazifasi.

2. Muayyan tilning (odatda adabiy tilning) turli sheva va dialektlarda so'zlashuvchi kishilarni, yagona etnolingvistik jamoaga uyushtirish, bir xalq, bir millat sifatida birlashtirishdan iborat jihati. Bunda jamiyat a'zolari o'zlarini bir lisoniy jamoa sifatida tan oladi. Bunday vazifani bajarishga qodir til shu mamlakatning umummilliy, umumdavlat tiliga aylanadi, asosiy mu-loqot vositasi sifatida amal qiladi. O'zbekistonda o'zbek tili, Ozarbayjonda ozar tili shunday vazifani bajaradi.

Qiyos: tilning ajratuvchilik vazifasi.

TILNING BOYISHI Muayyan tilning ichki va tashqi omillar ta'sirida fonetik-fonologik, leksik-semantik, stilistik-grammatik va boshqa jihatdan imkoniyatlarining kengayishi. Til adabiy til sifatida shakllanib bo'lgandan so'ng uning boyishi, asosan, yangi so'z va iboralarni hosil qilish yoki leksema o'zlashtirish bilan yuz beradi. Tilning boyishida fan-texnikaning rivojlanishi, madaniyatlararo aloqalarning ta'siri katta bo'ladi. Umuman, til boyiganda zamonasining ehtiyojlariga moslashadi.

Qarang: so'z o'zlashtirish, til kontakti.

TILNING BO'LINISHI Muayyan tilning bir butun holatdan turli ijtimoiy-hududiy sharoitlarda amal qilishi va o'zgarishlarga uchrashi natijasida unda yashash shakllari, vazifaviy uslublarning paydo bo'lish jarayoni. Bu jihatdan dastlab tilning hududiy xoslangan ko'rinishlari (sheva, dialekt va lahjalar) paydo bo'ladi, sekin-asta ularning o'rtasida fonetik, leksik, grammatik farqlanish kuchayadi. Ijtimoiy xoslanganligiga ko'ra, sotsiolektlar, turli kommunikativ maqsadlarda va inson faoliyatining turli sohalarida qo'llanishi jihatidan nutq uslublari yuzaga keladi. Tilning bo'linishi jarayoni tillarning ajralib chiqishi bilan oxiriga yetadi.

Qarang: tilning ijtimoiy farqlanishi.

TILNING DEMOGRAFIK KO'RSATKICHI Tilning muayyan jamiyatdagi demografik quvvatini baholash jarayonida hisobga olinadigan jihat bo'lib, bunda til egalari miqdorining yetarlicha yoki yetarlicha emasligi, bu tilda so'zlashuvchilarning yoshi, tilning hududiy tarqalishi kabilar tilning asosiy demografik ko'rsatkichi sifatida baholanadi. Shunday ko'rsatkichlardan kelib chiqib, tilning keyingi ahvoli haqida xulosalarga kelinadi. Agar tilning demografik ko'rsatkichlari qoniqarli darajadan past bo'lsa, uning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Qiyos: tilning demografik quvvati.

TILNING DEMOGRAFIK QUVVATI Muayyan tilning yetarlicha miqdordagi so'zlashuvchilariga egaligi bo'lib, bunda muayyan tilni ona tili sifatida qabul qiladigan, davlat tili sifatida qo'llaydigan til egalari nazarda tutiladi. Bunday maqomdagi til egalari miqdorining kamayib borishi bilan tilning demografik quvvati ham kamaya boshlaydi. Shu ma'noda o'zbek, qirg'iz, turk kabi tillarning egalari soni o'sib borayotgani bu tillarning demografik quvvatli tillarga, RFdagi teleut, boshqird, tofalar kabi turkiy tillar demografik quvvatsizlanayotgan tillarga aylanayotganligini ko'rsatadi.

Qiyos: tilning demografik ko'rsatkichi.

TILNING DIALEKTAL BO'LINISHI Muayyan tilning o'z ichida sheva, dialekt va lahjalar shaklida iyerarxik ajralishi, turli hududlarda tarqalishi. Tilning bunday bo'linishida o'zaro yaqin shevalarning birikib dialektni, o'zaro yaqin dialektlarning birlashib lahjalarni shakllantirishi nazarda tutiladi. Masalan, o'zbek milliy tili dialektal jihatdan qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalariga, o'z navbatida, ayni lahjalar bir qancha katta-kichik dialektlarga, dialektlar bir necha shahar-qishloq shevalariga bo'linadi. Tilning dialektal bo'linishi bu ma'noda tilning sotsial dialektlarga ajralishidan farq qiladi.

Qiyos: olamning dialektal manzarasi.

TILNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV VAZIFASI

Har bir tilning his-tuyg‘u va munosabat ifodalash funksiyasi. U tilning asosiy vazifalaridan biri sifatida so‘zlovchining ichki holati, kayfiyati yoki muayyan vaziyatga munosabati (quvonchi, g‘azabi, hayrati)ni so‘z, ibora, intonatsiya yoki stilistik vositalar yordamida yetkazadi. Masalan, o‘zbek tilida “Voy, qanday ajoyib!” yoki “Yuragim ezilib ketdi” kabi ifodalar emotsional-ekspressiv funktsiya bajaradi.

Qiyos: tilning estetik vazifasi.

TILNING ESTETIK VAZIFASI So‘zlovchi tildan insonga estetik ta’sir qilish maqsadida foydalanganda yuzaga chiqadigan lisoniy funktsiya. Ushbu vazifa fikr inson ongigagina emas, qalbiga yetib boradigan, tuyg‘ulariga ta’sir etadigan tarzda ifodalanganda namoyon bo‘ladi. Bunda so‘zlovchi nutqning tovush va grafik tuzilishiga favqulodda mos, ayni paytda, noodatiy ma’no yuklangan holda harakat qiladi. Til birliklarini estetik vazifa uchun xizmat qildirish, asosan, badiiy uslubda, shuningdek, reklama matnlarida ko‘p kuzatiladi.

Qiyos: tilning kognitiv vazifasi.

TILNING ETNIK VARIANTI Muayyan bir tilning boshqa tillar bilan doimiy tizimli ta’sirlashuvi ostida yuzaga keladigan ko‘rinishi bo‘lib, bunday til shakli o‘zi ta’sirlashgan tillardan jiddiy farqlanadi. Masalan, rus tilining Dog‘iston varianti bo‘lib, u umumadabiy rus tilidan orfoepik va boshqa jihatlar bilan farq qiladi. *Tilning etnik varianti* atamasi ko‘p ma’noli *etnolekt* atamasiga tegishli ma’nosida sinonim bo‘ladi.

Qiyos: tilning hududiy varianti, etnolekt.

TILNING ETNIK SUBSTRATI Ma’lum bir tilda qadimdan, etnos bo‘lib shakllangandan boshlab so‘zlashib kelayotgan jamoa, xalq, millat. Etnik substrat tilni ona tili sifatida qo‘llovchilar sifatida shu til tarixan tarqalgan hududlarda istiqomat qiladi. Masalan, o‘zbek tilining etnik substrati – O‘zbekiston va qo‘shni mamlakatlarda yashovchi o‘zbek xalqi. Bu tushuncha tilning qaysi etnik guruh

tomonidan shakllantirilgani, qanday ijtimoiy va madaniy qadriyatlar bilan bog'liqligi va qanday sharoitlarda rivojlanib, o'zgarganini ko'rsatadi. U sotsiolingvistikada tilning ijtimoiy muhitdagi o'rnini tushunishda muhim.

Qiyos: substrat etnonim, substrat toponim.

TILNING ETNOIJTIMOIY VAZIFASI Muayyan tilning muayyan jamiyatdagi etnoijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish, ularni harakatga keltirish bilan bog'liq funksiyalari. Tilning bu vazifasi etnik o'zlikni anglash, etnomadaniyatni shakllantirish, etnik jamoalarni birlashtirish kabi jarayonlarda yuzaga chiqadi. Har qanday milliy tilning tabiatida shunday vazifalarni bajarishi xususiyati bor. Etnoijtimoiy vazifa millat darajasida ham, guruh yoki alohida shaxs darajasida ham namoyon bo'ladi. Masalan, fuqaro davlat tilini o'rganib, o'qishga kiradi, yaxshi ish topadi yoki boshqa tilli jamoalar o'zbek tilini bilishi orqali jamiyatning faol qatlamiga aylanadi.

Qiyos: tilning ijtimoiy vazifasi.

TILNING ETNORAMZIY VAZIFASI Muayyan tilning muayyan etnik jamoa a'zolarining etnik mansubiyatini tili orqali identifikatsiya qilishdan iborat funksiyasi, etnosning o'zini boshqalardan ajratishda tilini asosiy ramz sifatida ko'rishi. Masalan, o'zbek tilining o'zbek xalqi ramzi bo'lishi. Atamani R.Garvin taklif etgan.

Qiyos: tilning farqlovchilik vazifasi, tilning birlash-tiruvchilik vazifasi, tilning etnoijtimoiy vazifasi.

TILNING FATIK VAZIFASI Tilning jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa o'rnatish vositasi bo'lib xizmat qilish, suhbatni qo'llab-quvvatlash va muayyan ijtimoiy vaziyatda o'zaro munosabatlarni saqlashga qaratilgan funksiyasi. U kundalik muloqotda o'zaro hol-ahvol so'rash jarayonida juda aniq ko'rinadi, rasmiyatchilik yoki ijtimoiy odob qoidalariga rioya qilishda namoyon bo'ladi. Masalan, ko'p hollarda "Qandaysiz?", "Ishlaringiz yaxshimi?" kabi so'roqlar suhbatdoshni shunchaki muloqotga tortish maqsadida

qo‘llanadi. Shu bois suhbatdosh o‘z ishlarining haqiqiy ahvolini batafsil aytmaydi, balki “juda yaxshi”, “rahmat” yoki “yaxshi, rahmat” kabi standart javob bilan cheklanadi va bu javoblar suhbatni davom ettirishga xizmat qiladi.

Qiyos: tilning kommunikativ vazifasi.

TILNING FUNKSIONAL KO‘RINISHLARI

Muayyan tilning turli ijtimoiy vaziyat hamda sohalarida ishlatishga xoslangan shakllari. Masalan, o‘zbek milliy tili tarkibidagi adabiy til, rasmiy til, so‘zlashuv nutqi, sotsiolektlar, muayyan sohada qo‘llanishga xoslangan vazifaviy uslublar va boshqalar. Tilning yashash shakllarini bu jihatdan tavsiflashda ularning vazifaviy xususiyatlariga e‘tibor beriladi.

Qarang: vazifaviy uslublar.

TILNING FUNKSIONAL MAQOMI Muayyan tilning demografik va funksional kuchi hamda imkoniyatlaridan kelib chiqadigan holati, tilning jamiyatda qo‘llanadigan sohalariga va uning ijtimoiy, madaniy, ma‘muriy yoki boshqa vazifalariga nisbatan o‘rni va ahamiyatini anglatadigan atama. Bu tushuncha ko‘p millatli jamiyatlarda tillarning o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy vazifalarini tahlil qilishda muhim. Ayni maqom tilning davlat tili, mintaqaviy til, mahalliy til ekanligi; ta‘lim, davlat boshqaruvi, ommaviy axborot vositalarida ishlatilishi kabilarga ko‘ra aniqlanadi.

Qiyos: tilning sotsiolingvistik maqomi.

TILNING FUNKSIONAL QUVVATI Muayyan til vazifaviy uslublarining shu tilda so‘zlashuvchilarning aqliy-ruhiy ehtiyojlarini qondira oladigan darajada shakllanganligi, tilning davlat va jamiyat hayotining ko‘plab sohalarida qo‘llanish imkonlarining kengligi bilan belgilanadigan imkoniyati. Tilning ijtimoiy vazifalari kengayishi hamda ko‘payishi bilan tilning funksional quvvati ortib boradi. Tilda bunday quvvatning ortishi yoki kamayishi til egallarining shu tilga munosabati hamda davlatning til siyosati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Qiyos: tilning funksional rivojlanganligi.

TILNING FUNKSIONAL RIVOJLANGANLIGI

Muayyan tilning rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublarning axborot uzatish, fikr ifodalash, munosabat bildirishdek vazifalarni beqam-u ko'st bajara olish imkoniyatiga egaligi. Bu jihat tilning jamiyat hayotining turli sohalarida qo'llanishga qanchalik moslashganligi, taraqqiy qilish darajasini ko'rsatadi. Hozirgi kunda ko'plab tillar funksional rivojlanib bo'lgan. O'tgan asrning to'qsoninchi yillaridan boshlab o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik tillarining rasmiy va ilmiy uslublari ancha rivojlandi.

Qiyos: tilning funksional quvvati.

TILNING FUNKSIONAL-USLUBIY FARQLANISHI

Tilda jamiyat hayotining u yoki bu sohasida turli kommunikativ vazifalarda qo'llanishga xoslanishi natijasida unda muayyan vazifaviy uslublarning yuzaga kelishi, bu til yashash shakllarining bir-biridan farqli ijtimoiy-kommunikativ vazifalarni bajarishi. Dunyo tillarining aksari so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub tarzida funksional-stilistik jihatdan farqlanadi, ular shu tarzda ajralib, jamiyat a'zolarining ijtimoiy-kommunikativ ehtiyojlarini qondiradi.

Qiyos: tilning ijtimoiy farqlanishi, tilning hududiy farqlanishi.

TILNING FUNKSIONAL YUKLAMASI Muayyan jamiyatda yoki ijtimoiy-kommunikativ tizimda til bajaradigan vazifalarning miqdori, tilning u bajaradigan funksiyalar sonidan kelib chiqib belgilanadigan jihati. Tilning qo'llanish sohasi ko'paygani sari funksional yuklamasi ham ortadi. Aksincha, jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirolmay qolgan tilning funksional yuklamasi kamayib boradi. Masalan, O'zbekistonda o'zbek tilining funksional yuklamasi rus tilinikidan ortiq va bu holat yildan yilga kuchaymoqda. Tilning funksional yuklanmasi til siyosati ta'sirida o'zgaradi.

Qiyos: tilning demografik quvvati.

TILNING HUDUDIY VARIANTI Milliy tilning ma'lum bir hududda fonetik, leksik va grammatik jihatdan farqli shakllangan ko'rinishi. U sheva, dialekt, lahja, allolekt ko'rinishida yashaydi va og'zaki qo'llanadi. Tilning hududiy variantlarining har xilligi ular mansub bo'lgan tilning ko'p shevali ekanligini ko'rsatadi. Turkiy tillar ichida o'zbek tili, xitoy-tibet tillari oilasida xitoy tili ko'p shevali til ekanligi bilan ajralib turadi. Tilning hududiy varianti shu hudud vakillarining dunyoni ko'rish tarzini, tilning tarixiy rivojlanishini, mintaqa lisoniy madaniyatini ko'rsatadi. Migratsiya, shaharlashuv ta'sirida tilning hududiy variantlariga adabiy til, adabiy tilga tilning hududiy variantlari ta'sir qilishi mumkin.

Qiyos: tilning ijtimoiy varianti, sotsiolekt, allolekt.

TILNING HUQUQIY MAQOMI Tilning davlat va jamiyatdagi rasmiy huquqiy holati. U tilning davlat boshqaruvi, qonunchilik, sudlov, ijtimoiy hayotda qo'llanish darajasini belgilaydi. Odatda huquqiy maqom davlat tili, rasmiy til, ishchi til, regional til, millatlararo muloqot tili, mahalliy til tarzida belgilanadi va maxsus hujjatlarda aks etadi. Ammo amalda shunday imtiyozlardan har doim ham foydalanilmaydi. Masalan, qonunchilik tilga davlat maqomini bergan bo'lsa ham o'sha til amalda davlat tiliga aylana olmagan bo'lishi mumkin.

Qiyos: tilning haqiqiy (real) maqomi.

TILNING IDENTIFIKATSIYALASH VAZIFASI Bir xalqning boshqa xalqlardan, bir etnik guruhning boshqa etnik guruhlardan tiliga ko'ra ajralib turishi, tili orqali etnik yoki milliy mansubligini bildirishidan iborat xizmati. Tilning mazkur vazifasi tilning xalq, millat yoki etnik guruhning o'ziga xosligini belgilaydi. Masalan, Markaziy Osiyoda o'zbek xalqi o'zbek tili bilan o'zini qozoq, qirg'iz va tojik xalqidan ajratib turadi.

Qiyos: tilning birlashtiruvchilik vazifasi.

TILNING IJTIMOIIY FARQLANISHI Jamiyatning turli ijtimoiy qatlamga mansub bo'lgan, har xil ijtimoiy maqom va

rolda harakat qiladigan, turlicha kasb-kordagi kishilarning tilni qo'llash, undan foydalanishi bilan bog'liq har xilligi. Bu haqda ilk bor Boduen Kurtene ishlarida tilga olingan. Masalan, o'qituvchilar qatlamining faol so'zlari tadbirkorlar qatlamining faol leksikasidan farq qiladi. Diniy soha vakillarining nutqi diniy bo'lmagan soha vakillarining nutqidan farqlanishi ham bunga misol bo'ladi. Shu ma'noda sotsial va hududiy dialektlar turli ijtimoiy guruhlarining maslak, kasb-kor va hududiy kelib chiqishga ko'ra tildan foydalanish tarzlaridir.

Qarang: tilning ijtimoiy shartlanganligi.

TILNING IJTIMOIIY QATLAMLANISHI Tilning umumxalq tili, adabiy til, dialekt, sheva, sotsiolekt tarzida yuqoridan pastga iyerarxik qatlamlarga ajralishi, har qanday tilning shunday iyerarxik tuzilishi. Tilning ijtimoiy qatlamlanishi nafaqat lisoniy jarayon, ijtimoiy madaniyat, tafakkur va mavqe ifodasi hamdir. Bu farqlanishlar tilni tirik va moslashuvchan tizimga aylantiradi.

Qiyos: tilning yashash shakllari.

TILNING IJTIMOIIY TABIATI Tilning jamiyatda yashashi va mavjud bo'lishi, jamiyat a'zolari o'rtasida fikr almashuvni ta'minlashi, umuman, ijtimoiy hayotdagi o'rni, insonlararo munosabatlarni tashkil qilishi bilan bog'liq jihati. Uning bunday xususiyati ijtimoiy o'zgarishlarga ta'sirchanligi, jamiyatdagi o'zgarishlarning tilda, tildagi o'zgarishlarning ijtimoiy hayotda sezilishi, qolaversa, muayyan til tarixining qabila, xalq, millat tarixi bilan bog'liqligi kabilar bilan belgilanadigan jihati.

Qarang: tilning ijtimoiy vazifalari.

TILNING IJTIMOIIY-TARIXIIY TIPI Jamiyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichi – urug'-qabilachilik, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va boshqa davrlarda amal qilgan lison turi. Masalan, urug'-qabilachilik davrida qabila dialekti ijtimoiy-tarixiy til tipi bo'lgan va bir urug'ga mansublik kishilarni lisoniy jamoaga birlashtirgan. Quldorlik davrida urug'-qabilachilik davridagi til ijtimoiy-tarixiy

tipi dialektlik darajasidan chiqib, bir necha dialektlardan shakllangan, og‘zaki va yozma tarzda amal qiladigan mustaqil tilga – alohida til ijtimoiy-tarixiy tipiga aylangan, kishilarni bir jamiyat yoki bir davlatga mansublik lisoniy jamoaga birlashtirgan. Jamiyat taraqqiyoti natijasida tilning ijtimoiy-tarixiy tiplari ham o‘zgarib borgan.

Qiyos: tilning yashash shakllari.

TILNING IJTIMOY VARIANTI Jamiyatning turli ijtimoiy kelib chiqish, turli ijtimoiy qatlam, turli kasb-korga mansub a‘zolari tomonidan doimiy qo‘llanish jarayonida paydo bo‘ladigan til shakli, ijtimoiy dialekt, sotsiolekt. Tilning ijtimoiy varianti akrolekt, bazilekt, mezolekt ko‘rinishida ham amal qiladi. Til va jamiyat munosabati, til va jamiyat ta’sirlashuvi tilning ijtimoiy variantlarida juda aniq namoyon bo‘ladi. Tilning ijtimoiy variantlari jamiyatda turli toifalar, turli yosh, kasb va jinsdagi kishilar mavjud bo‘lgani, har bir guruh o‘zining ijtimoiy tajribasiga mos til shaklini ishlab chiqqani sababli yuzaga keladi.

Qiyos: tilning hududiy varianti, akrolekt, bazilekt, mezolekt.

TILNING IJTIMOY VAZIFASI 1. Tilning inson va inson, inson va ijtimoiy institutlar munosabatida yuzaga chiqadigan, hududiy va diniy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, jinsi, ma’lumotlilik darajasi har xil bo‘lgan kishilarni bir jamoa sifatida uyushtirish, bir xalq sifatida birlashtirish, bir jamiyat sifatida tutib turishdan iborat xizmati. Tilning ushbu funksiyalari uning kommunikativ vazifasi asosida amalga oshadi, til aloqa vositasi bo‘lib xizmat qilar ekan, ijtimoiy vazifa bajarishda davom etadi. Til qo‘llanish doiralari va tarzlarining ko‘payishi bilan ijtimoiy vazifalari kengayib boradi.

Qiyos: tilning nominativ vazifasi.

2. Tilning shaxs faoliyati, jamiyat hayoti, xalq xo‘jaligining turli sohalarida ishlashi. Masalan, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari, ishlab chiqarish, transport, sud-tergov ishi va boshqalarda ish yuritish tili sifatida xizmat qilishi.

Umumadabiy me'yorlari, vazifaviy uslublari shakllanishi bilan til bunday vazifalarni bajarishga qodirlasha boshlaydi. Tilning ijtimoiy vazifalari uning tuzilishi, undagi tizimli munosabatlar, rivojlanish qonuniyatlariga bog'liq amalga oshadi.

Qiyos: tilning etnosial vazifasi.

TILNING IJTIMOIIY SHARTLANGANLIGI

Tilning jamiyatdagina mavjud bo'lishi, jamiyatgina tilni tarkib toptirishi va tilning faqat leksik-grammatik tizim emas, jamoa lisoniy ehtiyojlarini ifodalash orqali jamiyatga xizmat qilishi bilan bog'liq xususiyati. Ayni paytda tilning yashashi, rivojlanishi, unutilishining inson va jamiyat omili bilan bog'liqligi, doimo ijtimoiy omillar ta'sirida turishi ham tilning ijtimoiy shartlanganligi ko'rsatadi. Bu jarayon tilning shakllanishi, rivojlanishi, ishlatilishi va o'zgarishi jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, ehtiyojlari va munosabatlariga bog'liq holda yuz berishini bildiradi. Masalan, o'zbek tilida siz va sen olmoshlari faqat tinglovchi shaxsga ishora qilmaydi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy masofani ham ifodalaydi.

Qarang: tilning ijtimoiy tabiati.

TILNING KOGNITIV VAZIFASI Tilning borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni bilish va bilinganlar haqida tafakkurda muayyan tushunchalarni shakllantirish funksiyasi. Tilning olamni idrok qilishdagi ushbu vazifasi tilning kommunikativ vazifasidan farqli ravishda inson va borliq, inson va dunyoni anglash munosabatida namoyon bo'ladi. Mazkur vazifa inson bilimi va ong faoliyatini boshqarish, tafakkur jarayonini tartibga solish imkonini beradi. Shuningdek, atrofimizdagi olamni tasniflash, hodisalarni guruhlash, tushunchalarni vujudga keltirish, bilimlarni shakllantirishda ham shu vazifa ishga tushadi.

Qiyos: tilning estetik vazifasi.

TILNING KOMMUNIKATIV VAZIFASI Tilning kishilar (xalqlar) o'rtasida muloqotni ta'minlash, fikr angla-

tish va almashishdan iborat asosiy funksiyalaridan biri. Til tadqiqining ibtidosidayoq aniqlangan ayni vazifa uning ijtimoiy, hissiy ta'sir, estetik kabi vazifalarida ham aks etadi. Tilning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan mazkur vazifa jamiyat a'zolarining biriga o'z fikrini ifodalash, boshqasiga suhbatdoshi fikrini bilish, javob qaytarish imkoniyatini beradi. Til ushbu vazifasi yordamida ijtimoiy hayotni, jamiyatdagi hamkorlik va o'zaro aloqa jarayonlarini boshqaradi.

Qiyos: tilning hissiy ta'sir etish vazifasi.

TILNING KUMULYATIV VAZIFASI Tilning olam va odam haqidagi barcha bilimlarni, ijtimoiy-tarixiy tajribalarni muayyan nomlar ostida to'plash, saqlash bilan bog'liq vazifasi. Tilning kumulyativ quvvati yozuvning paydo bo'lishi, kitob bosishning rivojlanishi bilan sezilarli darajada oshadi, aynan matnlar xilma-xil bilimlarni to'liq va kengaytirilgan shaklda saqlaydi. Har xil turdagi lug'atlar, ayniqsa, izohli lug'atlarda olam va odam haqidagi bilimlarni ixcham va tartiblangan holda saqlash tilning kumulyatorlik rolining ahamiyatini ko'rsatadi. Tilning ushbu vazifasi nafaqat lingvistik jarayon, shu bilan birga, madaniy taraqqiyot va milliy o'ziga xoslikni saqlashda ham muhim jihatdir.

Qiyos: tilning nomlash vazifasi.

TILNING METALINGVISTIK VAZIFASI Muayyan tilning tabiatini tavsiflashda, til birliklariga xos xususiyatlarni tushuntirishda, umuman, tilni tadqiq qilishda yuzaga chiqadigan funktsiya. Masalan, tadqiqotchi biror lisoniy hodisa haqida yozganda yoki professor so'z ma'nosi bo'yicha ma'ruza o'qiganda til metalingvistik vazifada namoyon bo'ladi. Tilning bunday vazifaga qodirlashishi shu tilning ilm-fan tili sifatidagi darajasiga, masalan, ilmiy terminologiyaning shakllanganligiga bog'liq.

Qiyos: tilning nomlash vazifasi.

TILNING MILLIY VARIANTI Muayyan til egalarining turli hududlarga tarqalishi va o'sha hududlarda doimiy

istiqomat qilib qolishi natijasida ular soʻzlashib kelgan tilning turli sharoitlarda rivojlanishi, oʻsha hududdagi davlat organlari faoliyatida qoʻllanishi natijasida farqli shakllangan koʻrinishi. Masalan, bir-biriga bogʻliq boʻlmagan holda shakllangan Kanada fransuz tili, Belgiya fransuz tili variantlari yoki Germaniya va Avstriyadagi nemis tili, Angliya va AQShdagi ingliz tili kabilar.

Qiyos: tilning hududiy varianti.

TILNING NOMLASH VAZIFASI Tilning tafakkur yordamida anglangan tushunchalarga muayyan nomlarni berish, tushunchani tegishli nomga biriktirib qoʻyishdek vazifasi. Masalan, inson “churq-churq” deb ovoz chiqargan qushni koʻrganda unga *chumchuq* deb nom bergandagi yoki “elektron qurilmani ishlatadigan programma”ni *dastur* atashida tilning nominativ vazifasi yuzaga chiqadi. Tilning eng dastlabki funksiyalaridan biri hisoblanadigan mazkur vazifa inson va borliq munosabatida yuzaga chiqadi va bunda leksema asosiy nomlovchi birlik boʻladi. Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat va harakat-holatlariga nom berish jarayoni jamiyatda oʻrnashgan ijtimoiy tutilarga binoan ham amalga oshadi.

Qiyos: tilning estetik vazifasi.

TILNING QOʻLLANISH KOʻLAMI Muayyan tilning unda soʻzlashuvchi kishilar, xalqlar, mamlakatlarning soni, shuningdek, tilning har bir davlatda qoʻllanayotgan sohalari miqdoriga qarab belgilanadigan muloqot hajmi, tilning fikr ifodalash, axborot almashish vositasi sifatida qoʻllanish miqyosi. Bu jihatdan dunyo tillari (BMTning olti rasmiy, ishchi tili), xalqaro tillar (Janubiy Amerika va Afrika davlatlarida millarlararo muloqot tili sifatida qoʻllanadigan portugal, ispan kabi tillar), davlat tillari (davlat yoki rasmiy til maqomiga ega boʻlgan har qanday til), regional tillar (davlat yoki rasmiy til maqomini olmagan, ammo millatlararo muloqot tili sifatida qoʻllana oladigan tillar), mahalliy tillarga boʻlinadi. Vashington universiteti

(AQSh, 1995-yil) ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi eng keng tarqalgan 13 ta tilda Yer sayyorasidagi 5 milliard aholining 75 %i so'zlashgan, 25 ta tilda esa 90 %dan ko'prog'i gaplashgan.

Qarang: tilning demografik quvvati, tilning funksional quvvati

TILNING RASMIYLASHUVI Muayyan til yoki til shaklining jamiyatda rasmiy maqomga ega bo'lishi, huquqiy jihatdan tan olinishi va ijtimoiy-siyosiy tizimda asosiy aloqa vositasiga aylanishi jarayoni. Masalan, tegishli qonunchilik hujjatlari asosida "davlat tili", "rasmiy til" maqomini olishi, davlat, qonun va rasmiy muassasalarda ishlatiladigan darajaga ko'tarilishi. Til alohida rasmiy maqomga ega bo'lishi bilan tegishli hududda tegishli muloqot sohalarida majburiy qo'llanish huquqini qo'lga kiritadi. Odatda bunday maqom mamlakatdagi titul millat tiliga beriladi. Dunyo bo'yicha 200 ga yaqin tilga rasmiy til maqomi berilgan. Ko'p millatli davlatlarda bir til ham, bir necha til ham rasmiylashuvi mumkin.

Qarang: davlat tili, titul millat tili.

TILNING SIMVOLIK VAZIFASI Muayyan rasmiy tilning umumdavlat tili sifatidagi vazifalarini amalda bajara olmay qolishi, umummilliy tillik maqomini yo'qotishi natijasida faqat davlat ramzi vazifasini bajarishi. Masalan, malay tili Singapurning rasmiy tili hisoblanadi va faqat ramziy vazifa bajaradi – unda davlat madhiyasi ijro etiladi. Asosiy muloqot vositasi sifatida ingliz, tamil tillari amal qiladi. Bunday til asosiy muloqot vositasiga aylansa, birlashtiruvchilik vazifasini bajara boshlaydi.

Qarang: etnosotsial vazifa.

TILNING SOTSIOLINGVISTIK MAQOMI Muayyan tilning huquqiy maqomli/huquqiy maqomsizligi, o'z yozuviga egaligi/o'z yozuviga ega emasligi, ommaviy axborot vositalari tili ekanligi/ommaviy axborot vositalari tili emasligi, ta'lim tili ekanligi/ta'lim tili emasligi,

standartlashganligi/standartlashmaganligi, din (ibodat) tili ekanligi/din (ibodat) tili emasligiga ko‘ra mavjud mavqeyi. Umuman, biror til yoki til varianti jamiyatda egallagan ijtimoiy mavqe, ya’ni u qanday kontekstlarda, kimlar tomonidan, qanday sohalarida va qanday ijtimoiy nufuz bilan ishlatilishini bildiradi.

Qiyos: tilning funksional maqomi.

TILNING SOTSIOLINGVISTIK PORTRETI Til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tavsiflovchi tushuncha. U tilning huquqiy maqomi, ijtimoiy vazifalari, tarqalish doirasi, variantlari, boshqa tillar bilan o‘zaro aloqasi hamda jamiyatdagi nufuzi kabi ko‘plab omillarni qamrab oladi. Masalan, o‘zbek tilining sotsiolingvistik portreti uning O‘zbekiston Respublikasining davlat tili hisoblanishi, 30 milliiondan ortiq inson uchun ona tili sanalishi, rasmiy hujjatlar, ta’lim, siyosiy hayot va OAVda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilishi, biroq ayrim ilmiy-texnik sohalarida rus va ingliz tillari ham kuchli pozitsiyani egallab turishi ham nazarda tutiladi. Qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalari o‘zbek tilining tarixiy shakllarini belgilashi, ammo adabiy til yagona me’yor sifatida umumxalq muloqotini ta’minlashi uning sotsiolingvistik portretida o‘rin tutadi. O‘zbek tilining obro‘si mustaqillikdan keyin sezilarli darajada oshgan bo‘lsa-da, ko‘ptillilik sharoitida uning boshqa tillar bilan (rus, tojik, qoraqalpoq, qozoq) o‘zaro ta’siri davom etmoqda. Bu holat tilning sotsiolingvistik portreti orqali uning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotdagi o‘rnini ham ko‘rsatadi.

TILNING TARIXIY ME’YORLARI Muayyan tilning biron-bir tarixiy bosqichida amalda bo‘lgan fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik-uslubiy qoidalari, tilning tarixiy holatiga xos normalar. Har bir til tarixan rivojlanar ekan, uning me’yorlari ham o‘zgaradi. Masalan, o‘zbek tilida qarashlilik tushunchasini ifodalashning tarixiy hamda bugungi me’yorlari avval morfologik-sintaktik yo‘l bilan, hozirgi kunda morfologik shaklda ifodalanishiga ko‘ra farqlanadi. Yoki o‘tgan zamon to‘liqsiz fe’li avval *erdi* bo‘lgan, hozir *edi*.

Tilning bunday me'yorlari jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning tilga bo'lgan ta'sirini ham aks ettiradi.

Qiyos: tilning hozirgi me'yorlari.

TILNING TIKLANISHI 1. Unutilgan yoki o'lgan tilning davlat va jamiyat hayotida keng qo'llanishga o'tishi yoxud tirik til sifatida jamiyatda amal qila boshlashidan iborat jarayon. Masalan, XX asrning boshlarigacha qariyb o'lik til bo'lgan, faqat diniy matnlarda yashab kelgan ivrit tilining Isroilning davlat tili sifatida jonlanishi tilning tiklanishiga misol bo'ladi. Tilning tiklanishi faqat tilga oid harakat emas, balki madaniyat, tarix, o'zlik va jamiyat ongining qayta uyg'onishi hamdir. Muayyan tilni tiklash uchun faol til siyosati, jamoatchilik ishtiroki, ta'lim va texnologiya hamkorligi kerak.

Qiyos: tilning yuksalishi.

2. Muayyan ijtimoiy-siyosiy ta'sirlar natijasida qo'llanish doirasi g'oyat toraygan tilning keyingi ijtimoiy-siyosiy ta'sirlar tufayli qayta faollashuvga o'tish jarayoni. Masalan, Yangi Zelandiyadagi maoriy tili tiklanayotgan tildir. Bu tilda XIX asrda ko'pchilik so'zlashgan. XX asrda ingliz tili bosimi ostida qolgan, bolalar maktabda maoriy tilida gapirganlari uchun jazolangan. 1970–80-yillarda maoriy tili yo'qolish darajasiga kelib qolgan. 1987-yilda bu tilni rasmiy maqom berish bilan maoriy tilining tiklanishi boshlangan. Bolalar uchun faqat maoriy tilida ta'lim beriladigan maktabgacha ta'lim muassasalar, maktablar, maoriy teleradiokanallari tashkil qilingan, maoriy tilida rasmiy hujjatlar, yo'l belgilari yozila boshlagan. Hozirgi kunda maoriy tiliga milliy o'zlik, tarix va madaniyat belgisi sifatida qaraladi, yoshlarda o'rganishga qiziqish ortmoqda, ammo hali ham so'zlashuvchilar soni kam. 2025-yilgacha maoriy tilini kengroq joriy etish bo'yicha davlat strategiyasi mavjud.

Qiyos: tilning o'lishi.

TILNING USTDIALEKT SHAKLI Bir hududda yashab, turli dialektlar yoki tilning yashash shakllarida so'zlashuvchi kishilarning muloqotida qo'llanadigan til shakli. Til tarixining dastlabki bosqichlarida bunday ustdialekt shakli vazifasini

koynе bajaradi, keyinchalik adabiy til uni almashtiradi. Tilshunoslar muayyan tilning ustdialekt shakli – turli sheva vakillari uchun umumiy muloqot vositasining mavjud bo‘lmasligini umumtil standarti shakllanmagani sababli deb hisoblaydilar.

Qarang: koynе, adabiy til, tilning yashash shakllari.

TILNING VAZIFALARI Tilning jamiyatda mavjudligi va yashashining bosh sharti hisoblangan barcha funksiyalari. Tilning mohiyati uning aniq ijtimoiy-tarixiy sharoit va jamiyatda bajaradigan barcha vazifalarida namoyon bo‘ladi. Tilning vazifalari uni xarakterlovchi va boshqa ijtimoiy hodisalardan farqlovchi xususiyati sifatida yuzaga chiqadi, tilning nega va nima uchun mavjudligini ko‘rsatadi. Til ilmida unga bo‘lgan yondashuvning o‘zgarishi, tilshunoslikning rivojlanishi bilan tilning boshqa vazifalari aniqlashtiriladi.

Qarang: tilning fatik vazifasi, tilning kumulyativ vazifasi.

TILNING YASHASH SHAKLLARI Milliy tilning adabiy til, so‘zlashuv nutqi, sheva va lahjalar, sotsiolekt va etnolektlar, terminologik leksika va boshqalar shaklidagi ko‘rinishlari. Har qanday til zikr etilgan shakllarda mavjud bo‘ladi hamda voqelanadi. Tilning yashash shakllari bir-biri bilan pog‘onali, butun-qism munosabatida turadi. Tilning yashash shakllari bir necha xil bo‘lsa ham tilga xos vazifalarni bajarishida birlashadi. Ayrim adabiyotlarda pijin va koyneni ham tilning yashash shakllariga kiritiladi, ammo u tilning biz ko‘rsatgan iyerarxik tuzilishida turmaydi. Tilning yashash shakllarida ijtimoiy ehtiyojlar, demografik o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot, madaniy va iqtisodiy kuch, ta‘lim tizimi va albatta, til siyosati omillari ta‘sirida o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Qarang: adabiy til, sheva, lahja, sotsiolekt.

TILNING YASHASHI Aniq ijtimoiy-tarixiy sharoit va ma‘muriy-siyosiy makonda muayyan tilning bir yoki bir necha yashash shakllari vositasida kognitiv, kumulyativ, kommunikativ, nominativ va boshqa vazifalarda amal qilishi. Masalan, O‘zbekiston sharoitida o‘zbek, tojik, qoraqalpoq kabi

tillarning muloqot vositasi, olamni bilish, bilimlarni yaratish, to‘plash, uzatish vositasi sifatida mavjud bo‘lishi. Har qanday tabiiy til yashashi uchun ona tilida ta’lim berilishi, ajdodlardan avlodlarga o‘tib turishi, egalarining ijtimoiy ishonchi bo‘lishi, OAVda qo‘llanishi, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘un yashashi, texnologik qo‘llab-quvvatlanishi, huquqiy maqom olishi zarur.

Qarang: tilning yashash shakllari.

TILNING YASHOVCHANLIGI Muayyan tilning turli tarixiy davrlar, ijtimoiy o‘zgarishlar va madaniy bosqichlarda barqaror yashab qolish, o‘zligini yo‘qotmasdan rivojlanish, zamonaviy ehtiyojlarga moslashish va yangi avlodlar tomonidan faol, uzluksiz qo‘llanish qobiliyati. Til yashovchan bo‘lishi uchun yangi so‘zlarni o‘zlashtirish, yangicha uslub va vositalarni ishlab chiqish, zamon talablariga javob bera olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Masalan, o‘zbek tilining yashovchanligini zamonaviy texnologiyalar sohasida yangi atamalar – “kompyuter”, “internet”, “sun’iy intellekt” kabi so‘zlarni o‘zlashtirgani orqali ko‘rish mumkin. Shuningdek, adabiy til, shevalar, bolalar tili, kasbiy jargonlar, internet tilidagi yangi ifodalar orqali til doimiy ravishda boyib, yangilanadi va keng muloqot maydonida faol ishlatiladi. Agar til yangi vaziyatlarga moslasha olmasa, masalan, ayrim qadimgi tillar singari faqat tarixiy yodgorliklarda qolib ketsa, u so‘nadi yoki o‘lik tilga aylanadi. Shu bois til yashovchanligi – bu uning hayotiy kuchi, zamon bilan hamnafas bo‘lish qobiliyati demakdir.

Qarang: tilning tiklanishi.

TILNING YORDAMCHI VAZIFALARI Tilning asosiy vazifalari bilan birgalikda yuzaga chiqadigan vazifalari, masalan, kommunikativ, kognitiv, nomlash vazifalaridan tashqari, ijtimoiy, madaniy, hissiy va texnik sohalarida bajarayotgan qo‘shimcha funksiyalari. Emotiv, kumulyativ, estetik, fatik va yana shu singari funksiyalar. Masalan, tilning emotiv, estetik, fatik vazifalari, asosan, kommunikativ vazifa bilan birga yuzaga chiqadi, tilning kumulyativ vazifasi kognitiv funksiyasi bilan birga namoyon bo‘lishi mumkin.

Tilning yordamchi vazifalari muloqotni boyitadi. Mazkur vazifalar Y.Lotman, R.Yakobson, K.Byuler kabi olimlar asarlarida o'rganilgan.

Qiyos: tilning asosiy vazifalari.

TILNING YUKSALISHI Muayyan tilning ijtimoiy, madaniy va funksional rivojlanishi natijasida uning mavqeyi, ifoda va istifoda imkoniyatlari va nufuzining ortish jarayoni. Til yuksalganda u nafaqat rasmiy sohalarda – ta'lim, siyosat, fan, huquq tizimi va ommaviy axborot vositalarida keng qo'llana boshlaydi, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilishi mumkin. Masalan, mustaqillikdan keyin o'zbek tilining yuksalishi uning davlat tili maqomiga ega bo'lishi, ta'lim va hujjat yuritishda asosiy til sifatida qo'llanishi, ilmiy-texnik terminologiya bazasining boyitilishi va xalqaro hamkorlik doirasida tanilishi orqali namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, tilning yuksalishi adabiyot, san'at va ilm-fan sohasida yangi asar va tadqiqotlarning yuzaga kelishi, til ichki imkoniyatlarining kengayishi, leksik va uslubiy jihatdan boyishida ham ko'zga tashlanadi. Tilning yuksalishi jamiyatning aqliy, madaniy salohiyatiga ham bog'liq.

Qiyos: tilning boyishi.

TILNING ZAMONAVIY ME'YORLARI Muayyan tilning hozirgi rivojlanish davriga xos bo'lgan, tilning hozirgi bosqichida qo'llanishi qoidalashgan fonetik-fonologik, leksik-semantik, grammatik-uslubiy qoidalari. Masalan, o'zbek tilining hozirgi me'yorlari XX asrning boshlaridan shakllana boshlagan. Vaqt o'tishi bilan tilning hozirgi me'yorlarida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bunday me'yorlar nafaqat grammatik qoidalar, balki jamiyatda tilning izchil, tushunarli, madaniy va teng huquqli ishlatilishini ta'minlovchi ijtimoiy vosita hamdir. Tilning zamonaviy me'yorlari jamiyatdagi til o'zgarishlarini boshqaradi, ijtimoiy toifalararo aloqani yengillashtiradi va milliy tilning zamonaviy hayotga moslashuvini ta'minlaydi. Sotsiologiyistikada bu kabi holatlar lisoniy liberallashuv bilan bog'liq masalalar doirasida o'rganiladi.

Qiyos: tilning tarixiy me'yorlari. **Qarang:** lisoniy liberallashuv.

TILNING O‘LISHI Muayyan tilda so‘zlashuvchi kishilarning qolmasligi, muloqot vositasi sifatida amal qilishdan to‘xtashi. Ma’lum bir tilda so‘zlashadigan so‘nggi kishining vafoti bilan til o‘lgan hisoblanadi. Masalan, lotin tilida yoki qadimgi sanskrit tilida gaplashadigan odam qolmaganligi uchun o‘lik tilga aylangan. Shuningdek, til egalarining yalpi boshqa tilda so‘zlashishga o‘tishi natijasida ham tilning o‘lish jarayoni boshlanadi. Qadimgi shumer, akkad, xett, got tillarining o‘lishiga shu omil sabab bo‘lgan.

Qiyos: tilning tiklanishi.

TILSHUNOSLIKDA SOTSIOLOGIK YO‘NALISH

Fransuz tilshunosligi bag‘rida Ferdinand de Sossyur g‘oyalari asosida shakllangan yo‘nalish bo‘lib, unda tildagi har bir o‘zgarish jamiyatdagi o‘zgarishga bog‘lanadi, til strukturasi dagi yangilanishlarning sababi jamiyatdagi o‘zgarishlardan izlanadi, tilga sotsial faktning bir ko‘rinishi sifatida qaraladi, ijtimoiy shart-sharoit til hodisalarini belgilaydi, deb tushuniladi. Bu yo‘nalishning mashhur vakillaridan biri – fransuz tilshunosi Antuan Meye.

Qarang: lingvosotsiologiya.

TIRIK TIL Hozirgi kunda so‘zlashuvchilari bor bo‘lgan, ona tili yoki milliy til sifatida yashayotgan, faol tarzda og‘zaki va yozma muloqotda ishlatilayotgan til. Bunday til zamona-viy ilm-fan yutuqlari, globallasuv davri tushunchalarini ifodalovchi atamalar bilan boyib boradi. Shuningdek, sotsiolingvistikada doimiy rivojlanishda bo‘lmagan, ma’lum ma’noda rivojlanishdan to‘xtagan tillar ham shartli ravishda tirik tillar sirasiga kiritiladi va bunda tilning hali o‘lik tilga aylanmaganligi hisobga olinadi. Tirik tillarni demografik quvvati va funksional kuchiga ko‘ra, jahon tili va qabila til, sog‘lom, turg‘unlashgan, yarim xasta va xasta tillarga ajratish mumkin. Tirik tillar o‘lish xavfi ostida qolgan bo‘lishi ham mumkin.

Qiyos: o‘lik til.

TITUL MILLAT Asli mamlakatining nomi etnonimidan kelib chiqqan xalq, ko‘p millatli mamlakatda ijtimoiy-demografik jihatdan asosiy bo‘lgan, siyosiy-huquqiy hamda

tarixiy jihatdan davlatga nom bergan millat. O'zbekistonda o'zbeklar, Fransiyada fransuzlar titul millat vakillari hisoblanadi. Chunki davlat nomi xalq nomi bilan bog'liq, rasmiy til shu xalq tili, millat madaniyati ham shu xalqqa tegishli.

Qarang: majoritar xalq.

TITUL MILLAT TILI Etnik nomi mamlakat nomi bilan ataladigan xalqning tili. Bunday til ko'p millatli mamlakatdagi asosiy etnik birlik tomonidan asosiy muloqot vositasi sifatida ishlatiladi. Titul millat tili davlat siyosati, ta'lim, ommaviy axborot, huquqiy va ijtimoiy hayotda, shuningdek, boshqa tillar bilan aloqada, raqobatda ko'pincha ustuvor mavqega ega bo'ladi. Titul millat tili milliy o'zlik, siyosiy identitetlik va ijtimoiy nufuzning asosiy belgisi hisoblanadi, turli etnik guruhlarni yagona millat sifatida birlashtirish va davlatchilikni shakllantirishda asosiy omillardan biri sifatida ishtirok etadi, bunday tillarning aksariyati davlat tili yoki rasmiy til maqomini oladi.

Qarang: majoritar til.

TIYIB TURISH Ko'p millatli mamlakatlarda vakolatli davlat tashkilotlarining aralashuvi bilan muayyan majoritar tilning rivojlanishi yoki funksiyalarini sun'iy cheklash, uni rasmiy qo'llanishdan chiqarish, huquqiy maqomini bekor qilish yoki ijtimoiy sohalarda qo'llanish doiralarini toraytirish kabilardan iborat jarayon. Bunday ta'sir choralari qisqa va uzoq muddatli bo'ladi hamda biror milliy tilning qo'llanilish doiralarini kengaytirib olish, endi davlat yoki boshqa rasmiy maqomga ega bo'lgan tilni amalda ham davlat tili yoxud rasmiy tilga aylantirish maqsadida tatbiq qilinadi.

Qarang: lisoniy kamsitish.

TIYILGAN TIL 1. Ko'p tilli mamlakatda vertikal ta'sir choralari yordamida qo'llanish doirasi cheklab qo'yilgan, rivojlanishi susaytirilgan, huquqiy maqomi bekor qilingan yoki ijtimoiy sohalarda qo'llanish doiralari sun'iy toraytirilgan majoritar til. Ko'pincha milliy respublikalar mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin huquqiy maqom olgan milliy tilni rivojlantirish, ijtimoiy vazifalarini kengaytirish,

nufuzini oshirish maqsadida o'sha davlatda amal qilib kelgan mustamlakachilar tili ma'lum bir choralarni ko'rish orqali tiyib turiladi.

Qiyos: rag'batlantirilayotgan til.

2. Noxolis til siyosati sharoitida davlatning vakolatli tashkilotlari tomonidan aholining asosiy qismi so'zlashadigan, ijtimoiy vazifalari kengaygan, vazifaviy uslublari yetarlicha shakllangan tilning o'rnini egallamasligi, ish yuritish tili sifatida ommalashib ketmasligi uchun qo'llanishda cheklovga uchragan til. Masalan, Markaziy Osiyo yoki Boltiqbo'yidagi milliy respublikalarning tillaridan xalq turmushida faol va keng foydalansa ham, rus tilidan nufuzi ortib ketishining oldini olish maqsadida milliy tillarga rasmiy doiralarda qo'llanish imkoni berilmagan.

Qiyos: davlat tili, rasmiy til, ishchi til.

TRASYANKA [трэцын – past sifatli pichan] Rus va belarus ikkitililigi sharoitida bu tillarni yaxshi bilmaydigan til egalari qo'llaydigan til ko'rinishi, ayni tillardagi qorishiq nutq. Grammatikasi, asosan, belaruscha, leksikasi ruscha bo'lgan og'zaki so'zlashuv shakli. Asosan, qishloqdan shahar yoki industrial markazlarga ko'chgan belaruslar orasida tarqalgan. Trasyanka ma'lum bir jihatlari bilan surjikka o'xshab ketadi, ammo unda so'zlovchilarning bilimsiz bo'lishi va ularning ona tili boshqa ekanligi bilan farqlanadi. Keyinchalik "yomon aralashma" ma'nosida tilshunoslik terminiga o'tgan. Sotsiolingvistikada trasyankaning ruslashtirish siyosati ta'siri hisoblanadi.

Qarang: koyne, pijin, kreol til.

TUBJOY AHOLI Muayyan ma'muriy-siyosiy makonda tug'ilib, o'sha yerda yashab kelayotgan, shu hududning tarixiy, etnik va milliy shakllanishida asosiy ishtirokchi bo'lgan xalq. Bunday aholi o'ziga xos til, madaniyat, e'tiqod va turmush tarziga ega bo'ladi. Tubjoy aholi vakillari bir millatga mansub bo'lishi ham, mansub bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, Samarqand shahri tub aholisi o'zbek, tojik va eroni xalqlari bo'lsa, Chirchiq shahri tub aholisi o'zbek va qozoq xalqlaridir.

Qarang: tubjoy aholi tili.

TUBJOY AHOLI TILI Muayyan ma'muriy-siyosiy makonda tug'ilib o'sgan va o'sha yerda yashayotgan millat va elat vakillari so'zlashadigan asosiy til. Bunday til o'sha hududda ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bo'ladi, ayni paytda, aholining olamni ko'rish tarzi, madaniy merosi, tarixiy o'zligi, urf-odatlarini ifodalaydi. Tubjoy aholi tili o'sha hudud aholisining milliy mansubligi yoki etnolisoniy vaziyatdan kelib chiqib, bir til ham, bir necha til ham bo'lishi mumkin. Masalan, Qo'qon shahrida tubjoy aholi tili faqat o'zbek tilidir. Rishton tumanida o'zbek va tojik xalqlari yashagani uchun u yerda o'zbek va tojik tillari tubjoy aholi tili hisoblanadi.

Qarang: tubjoy aholi.

TURG'UN LISONIY ALOQA Sotsiolingvistikada o'zaro muntazam yaqin munosabatdagi shaxslarning yozishmalari, og'zaki xabarlashuvlarini anglatadigan atama. Masalan, turg'un lisoniy aloqaga ona va bola, er va xotin, sotuvchi va mijoz yoki qo'ni-qo'shni va hamkasblarning o'rtasidagi fikr almashuv jarayonini ko'rsatish mumkin. Ayni shaxslar o'rtasida elektron qurilmalar orqali qilingan muloqot ham turg'un lisoniy aloqa hisoblanadi. Turg'un lisoniy aloqada ishtirokchilar bir-birini yaxshi biladi, muloqot mavzusi avvaldan yetarlicha ma'lum bo'ladi.

Qiyos: muvaqqat lisoniy aloqalar.

TURG'UNLIKDAGI TILLAR Funktsional jihatdan raqobatbardosh, qo'llanish doirasini kengaytirmayotgan, biroq tarixiy ijtimoiy mavqeyini saqlab qolishga urinayotgan, so'zlashuvchilar soni o'zgarishsiz qolayotgan, katta tillarning muntazam salbiy ta'siriga tushmagan, o'zining ichki qonuniyatlari asosida amal qilayotgan til. Turg'unlikdagi tillarning ijtimoiy mavqeyi va qo'llanish doirasi kengayishdan to'xtagan bo'ladi, ammo jamiyat hayotida muammosiz amal qiladi. Masalan, rivojlanayotgan davlatlarning tillari. Umuman, rivojlanishi, yangilanishi sekinlashgan, zamonaviy jarayonlarga moslashishi, leksik-uslubiy boyishi faol bo'lmagan til. Tilning turg'unlashuviga til siyosati ham ta'sir qiladi.

Qarang: rivojlanmagan tillar.

TO‘LIQ KALKA O‘zga tilning leksik-frazeologik birliklarini boshqa tilga to‘liq qismma-qism nusxa olish yo‘li bilan hosil qilingan lisoniy birlik. U til taraqqiyotining tabiiy qismi sifatida yangi tushunchalarni ona tilining ichki imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib ifodalash demakdir. Masalan, “мировоззрение” – dunyoqarash, “железная дорога” – temiryo‘l kabilar. Odatda o‘zbek tilidagi to‘liq kalkalar rus va ingliz tillaridan qilingan. To‘liq kalkada lisoniy birlik tashqi ko‘rinishi jihatidan milliydek ko‘rinsa ham, ma‘no yoki tushuncha xorijiy tilniki bo‘ladi. Shu jihati bilan to‘liq kalkalar siyosiy-madaniy ta’sir, zamonaviylik bilan til mustaqilligi o‘rtasidagi muvozanat mezoni hisoblanadi.

Qiyos: yarim kalka.

TO‘LIQ LISONIY BIRXILLIK Muayyan mamlakat hududida yagona til yoki uning bitta yashash shaklining olamni bilish, fikr va munosabat ifodalash, ish yuritish vositasi sifatida amal qilishi. Bunday til vaziyati bugungi globallashgan dunyoda juda siyrak kuzatiladi va bunday hududlarda til bilan bog‘liq vaziyat mo‘tadil, lisoniy ixtiloflar kuzatilmaydi, jamiyat a’zolarining til huquqlari qariyb buzilmaydi. Mutaxassislar Islandiyani to‘liq lisoniy birxillik mavjud mamlakat sifatida ko‘rsatadilar.

Qiyos: lisoniy harxillik, qisman lisoniy birxillik.

TO‘LIQ LISONIY HARXILLIK Muayyan mamlakatda til tizimlarining maksimal darajada ko‘p va xilma-xil shakllarda mavjud bo‘lishi, jamiyat ichida bir nechta tillar yoki turli ijtimoiy qatlamlarga oid nutq shakllari bir vaqtda amal qilishi. Masalan, Hindiston, Nigeriya yoki Indoneziya kabi davlatlarda bu holat juda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu mamlakatlar aholisi turli ijtimoiy-maishiy munosabatlarda bir necha tildan yalpi foydalanadi. To‘liq lisoniy harxillik jamiyatning ochiqligi, bag‘rikengligi, o‘z navbatida, madaniy qatlamlarining murakkabligini aks ettiradi.

Qiyos: qisman lisoniy harxillik.

U

UMUMMAJBURIY TIL Ijtimoiy, diniy, etnik kelib chiqishi, shuningdek, yoshi va jinsidan qat’i nazar, barcha uchun ta’lim, qonunchilik, rasmiy hujjatlar, davlat boshqaruvi kabi sohalarda qo’llanishi, foydalanilishi majburiylashtirilgan til. Ko’pincha davlat tili yoki rasmiy til bilan bog’liq bu tushuncha adabiy tilni zo’rlab singdirish, adabiy tilda so’zlash va ish yuritishga majbur qilish ma’nosida emas, ma’muriy, huquqiy, ta’limiy va boshqa rasmiy sohalarda ishlatilishi shartligini, amal qilinishi zarurligini bildiradi. O’zbekistonda o’zbek tili, Fransiyada fransuz tili, Rossiyada rus tili zikr etilgan sohalarning umummajburiy tili hisoblanadi. Umummajburiy tilni joriy etish – til siyosatining markaziy obyekti va u fuqarolarning davlat bilan samarali muloqot qilishiga imkon beradi.

Qiyos: davlat tili, rasmiy til.

UMUMMILLIY KO’PTILLILIK Bir mamlakat yoki millat ichida bir necha tillarning bir vaqtning o’zida faol ravishda qo’llanishi, birgalikda amal qilishi, bir necha tilning ijtimoiy, madaniy, rasmiy yoki kundalik hayotda turli vazifalarga ega bo’lishi. Bunday ko’ptillilik odatda turli etnik yoki madaniy guruhlar o’rtasida til farqlari mavjud jamiyatlarda uchraydi. Ko’p tilli jamiyatlarda tillarning o’zaro munosabatlari, maqomlari va funksiyalarini namoyon etadi. Umummilliy ko’ptillilik mamlakatning til siyosati, milliy o’zlik va ijtimoiy integratsiya bilan chambarchas bog’liq.

UMUMTIL ME’YORLARI Tilning barcha ko’rinishlarida amal qiladigan me’yorlar yig’indisi, bir jamiyat yoki davlatda keng qo’llanadigan va barcha uchun mos bo’lgan til qoidalari yoki standartlar. U jamiyatda kommunikatsiya, bilim almashinuvi va ta’limda samarali anglashuvni ta’minlash maqsadida tilshunos-mutaxassislar

tomonidan shakllantiriladi. Umumtil me'yorlari til xususiy me'yorlarini shakllantirsa ham, uning mohiyati boshqa tillar umumnormalari bilan qiyoslanganda aniqroq anglanadi. Bu ma'noda "umummajburiy me'yorlar" tushunchasiga teng. Til me'yorlari konservativ tabiatli bo'lgani sababli lisoniy an'analarni o'zgarishsiz saqlashga xizmat qiladi.

Qiyos: xususiy me'yorlar.

UMUMXALQ TILI Ma'lum bir xalqning turli ijtimoiy, hududiy, yosh, jins guruhlariga mansub vakillari tomonidan o'zaro muloqotda og'zaki va yozma shakllarda qo'llanadigan, ular uchun umumiy va tushunarli bo'lgan, shu tilning barcha mahalliy ko'rinishlarini o'zida jamlagan til. Bunday til, odatda, davlatning rasmiy tiliga mos keladi va keng jamoatchilik uchun birorta alohida guruhga yoki regionga xos bo'lmagan til sifatida xizmat qiladi. Umumxalq tili *milliy til* ham deyiladi, ammo *milliy til* terminida millatga oidlik ifodasi kuchli. Umumxalq tili sotsiolingvistik jihatdan xalqning til birligini ta'minlovchi, madaniy va milliy o'zlikni ifodalovchi omildir. U til evolyutsiyasida oraliq bosqich bo'lib, keyinchalik adabiy tilning shakllanishiga xizmat qiladi. Umumxalq tili jamiyatda milliy birlikni mustahkamlash, iqtisodiy va madaniy rivojlanishga yordam beradi.

Qiyos: davlat tili.

UNIVERSAL TIL 1. Dunyoning ko'p mamlakatlarida ishlatiladigan, turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasida global darajada kommunikatsiya o'rnatishga imkon beradigan, chegaralanmagan qo'llanish sohasiga ega til. Bunday tilning universalligi millatlararo muloqotda til to'siqlarini kamaytiruvchi (yoki yo'qotuvchi), ko'ptillilik va madaniy xilma-xillik sharoitida kommunikatsiyani yengillashtiruvchi ekanligini bilan ham belgilanadi. Bunday til tabiiy yoki sun'iy bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tili bugungi kunda global aloqa, ilmfan, texnologiya va diplomatiya sohalarida amalda universal til sifatida xizmat qilmoqda. Tilning universal maqomga ega bo'lishi siyosiy, iqtisodiy va madaniy kuch bilan bog'liq, shu

bois bu tushuncha ostida biror tilning rasmiy huquqiy maqomi emas, balki qo‘llanish kengligi tushuniladi.

Qiyos: global til, jahon tili.

2. Etnik va diniy mansubligidan qat’i nazar butun insoniyat fikr almashishi uchun mo‘ljallab yaratilgan sun’iy til. Umuminsoniyat tilini yaratish g‘oyasi qadim davrlardayoq paydo bo‘lgan, o‘rta asrlarda bunday tilni yaratish istagida g‘arblik G.Leybnits, T.Kampanela, F.Bekon, R.Dekart, B.Paskal singari faylasuf-olimlar izlanish olib borganlar. Sotsiolingvistik jihatdan bunday universal til biror millatniki bo‘lmaganligi sababli xalqaro tinchlik, hamkorlik va anglashuvni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Qarang: sun’iy til, esperanto, volapyuk.

USLUBIY ME’YORLAR Til egalarining lisoniy birliklardan nutqning kommunikativ sifatlarini buzmaganda to‘g‘ri va maqsadga muvofiq foydalanishini ta‘minlaydigan, tilning muayyan sohada qo‘llanishini belgilaydigan qoidalar. Bunday me‘yorlar kim bilan qayerda, qanday holatda qanday til birliklarini ishlatish kerakligini belgilaydi. Jamiyatda tilni samarali, madaniy va vaziyatga mos tarzda ishlatish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlardan iborat bo‘ladi. Uslubiy me‘yorlarning barqarorligi va ranginligi tilning rivojlanganlik, tartibga solinganlik darajasini ko‘rsatadi. Bunday me‘yorlarni bilish, ulardan nutqda maqsadga muvofiq foydalanish kishini madaniy nutqqa sohib qiladi.

Qiyos: leksik me‘yorlar, grammatik me‘yorlar.

USLUBIY SILJISH Muayyan matn yoki nutq davomida so‘zlovchining atay yoki g‘ayriixtiyoriy tarzda uslubdan uslubga o‘tishi, masalan, rasmiy uslubdan so‘zlashuv uslubiga, ilmiy uslubdan badiiy yoki publitsistik uslubga ko‘chish jarayoni. Bu ko‘pincha kommunikativ maqsad, auditoriyaga moslashish, hissiy ifoda kuchayishi yoki ijtimoiy vaziyatga qarab yuz beradi. Masalan, rasmiy chiqish davomida birdaniga so‘zlashuv iboralarini ishlatish uslubiy siljishga misol bo‘ladi.

Uslubiy siljish sotsiolingvistik jihatdan til egasining stilistik moslashuv qobiliyatini ko'rsatadi, biroq noto'g'ri yoki noo'rin uslubiy siljish muloqotni samarasiz qiladi.

Qarang: vazifaviy uslublar, sotsiolekt, ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol.

UYUSHTIRILGAN LISONIY NIZO Turli etnik guruhlar o'rtasida bir guruh siyosatchilar yoki hukmron qatlam vakillari tomonidan muayyan tilni qo'llash yoki qo'llamaslik bilan bog'liq masalalarda rejalashtirilgan yoki qo'zg'atilgan ixtilof, ziddiyat, to'qnashuv. Bunday nizoning markazida til, til siyosati yoki til huquqlari turadi. Muayyan tilni bilganlarga atay qulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoit yaratilishi, bilmaganlarga imtiyozlar berilmasligi, til huquqlarining cheklanishi sabab bo'ladi. Masalan, Bombeydagi ba'zi siyosiy tashkilotlar marathi tilini bilmaydiganlarni shahardan chiqarib yuborishni, bu tilni biladiganlarni ishga olishni talab qilishi ziddiyatga sabab bo'lgan. Uyushtirilgan lisoniy nizolar jamiyatda ijtimoiy bo'linish va adovatni kuchaytiradi, millatlararo ishonchni yo'qotadi, siyosiy beqarorlik va noroziliklarga sabab bo'ladi, qolaversa, tillar va madaniyatlarining yo'qolishiga olib keladi.

Qiyos: lisoniy ixtilof.

UZOQ QARINDOSH TILLAR Qadimda bir til oilasining turli guruhlariga mansub bo'lgan, ammo ming yillar davomida alohida yo'nalishda rivojlangani sababli fonetik, leksik va grammatik jihatdan jiddiy farqlanuvchi tillar; umumiy ildizga ega bo'lsa ham qadimda ajralib ketganligi bois o'zaro o'xshashlik darajasi past bo'lgan tillar va ularning qarindoshligi ko'proq tarixiy yoki ilmiy asosga ega bo'ladi. Masalan: o'zbek va chuvash, uyg'ur va tofalar, fransuz va ukrain tillari. Sotsiolingvistik jihatdan bunday tillarni o'rganish til o'zgarishining uzoq muddatli jarayonlarini tahlil qilishda muhim. Uzoq qarindosh tillar egalari tarixan bir elat bo'lgan bo'lsa ham etnik yaqinlikni sezmasligi mumkin. Masalan, chuvashlar ko'pincha o'z tillarini turkiy til sifatida qabul

qilishmaydi, chunki boshqa turkiy tillar bilan o'xshashlikni sezishmaydi.

Qiyos: yaqin qarindosh tillar.

UZOQ QARINDOSH TILLAR IKKITILLILIGI

Bir mamlakatda bir til oilasining turli guruhlariga mansub tillarning o'zaro muloqot vositasi sifatida qo'llanishi, jamiyatda bir-biriga genetik jihatdan yaqin, ammo uzoq qarindosh hisoblangan ikki tilni birgalikda o'zlashtirish va qo'llash holati. Bu holatda tillar bir oilaga mansub bo'lsa-da, ularning farqlari juda katta bo'ladi, shu sababli bu murakkab ikkitillilik turi sanaladi va juda shartli xarakterda uchraydi. Masalan, Belgiyada fransuz tili (roman tillari guruhi) va golland tili (german tillari guruhi)ning, Finlyandiyada fin tili (fin-ugor tillari guruhi) va shved tili (german tillari guruhi)-ning o'zaro muloqot vositasi sifatida qo'llanishi.

Qiyos: yaqin qarindosh tillar ikkitilliligi.

UCHTILLILIK 1. Shaxsning o'z muloqot ehtiyojlari doirasida uch tilda so'zlashish, o'qib tushunish malakasini egallaganligidan iborat individual ko'ptillilik ko'rinishi. Masalan, O'zbekistonda yashovchi qozoq kishining ona tili, davlat tili va ingliz tilini bilishi. Sotsiolingvistik jihatdan uchtililik lisoniy layoqat, kommunikativ moslashuvchanlik natijasi deb baholanadi. Uchtililik til o'rganishda ko'nikmalarni boyitadi, ammo noto'g'ri yo'naltirilishi asosiy til malakasining pasayishiga olib keladi.

Qarang: individual ikkitillilik, individual ko'ptillilik.

2. Muayyan ma'muriy-siyosiy hudud (viloyat, shahar, tuman, qishloq) doirasida uch tilning amal qilishi. Bunday til vaziyatida uch til birdek ijtimoiy vazifa bajarmaydi, turli funksiyalarda ishlatiladi: ona tili, mintaqaviy til va xalqaro til kabi. Ya'ni biri oilaviy va boshqa maishiy munosabatlarda, biri ta'lim va ish yuritishda, yana biri ilm-fan tili sifatida amal qilishi mumkin. Masalan, Dog'istondagi Gunzib hududida gunzib, avar va rus tillari qo'llanadi. Gunzib tili oilaviy va kundalik muloqotda, avar tili boshlang'ich ta'limda, rus tili o'rta va oliy ta'limda, rasmiy ish yuritishda qo'llanadi.

Qiyos: birtillilik, ikkitillilik.

V

VAHIY TILI Paygʻambarlarga farishtalar orqali Alloh taoloning buyruq va koʻrsatmalari, muayyan diniy taʼlimot yetkazilgan til. Bunday tillar sifatida ibroniy tili, mumtoz arab tili, qadimgi slavyan tilini koʻrsatish mumkin. Sotsiolingvistikada mazkur tushuncha *bashorat tili*, *xabar tili* ham deyiladi va vedalar tili misol qilib keltiriladi. Shu jihatdan islom dini mumtoz arab tilida Muhammad alayhissalomga nozil qilingan. Yoki xristianlik dini Iso alayhissalomga qadimgi ivrit tilida vahiy qilingan. Vahiy tili ilohiy maʼlumotlarni yetkazish, umumiy eʼtiqod va qadriyatlarni mustahkamlash, qadimiy matnlar va anʼanalarni asrash vazifasini ham bajaradi.

Qiyos: din tili.

VARIATIV SOTSIOLINGVISTIKA Kishilarning ijtimoiy mansubligi, maʼlumotlilik darajasi, yoshi, jinsi, kasb-kori kabi omillarga bogʻliq holda tildan foydalanish tarzlarini oʻrganadigan sotsiolingvistika boʻlimi; tilning ichki tizimida mavjud boʻlgan fonetik, leksik, grammatik va uslubiy variantlarning qanday ijtimoiy guruhlar, hududlar yoki vaziyatlarga qarab qoʻllanishini U.Labov boshlagan empirik tahlilga asosan tadqiq qiladigan sotsiolingvistik yondashuv. Variativ sotsiolingvistika deyilishiga shaxs zikr etilgan xususiyatlaridan kelib chiqib tilning yashash shakllaridan birini tanlashi, bir soʻzni yoshlar va kattalar yosh xususiyatidan kelib chiqib farqli talaffuz qilishi yoki ayollar va erkaklarning tildan turlicha foydalanishini oʻrganishi sabab boʻlgan. Bunday yondashuv orqali tilning faqat grammatik emas, balki ijtimoiy funktsiya va statusga bogʻliq kommunikatsion vosita ekanligi aniqlanadi.

Qarang: zamonaviy sotsiolingvistika.

VARVARIZM [*qad. yun.* barbaros – yunon boʻlmagan, boshqa yerlik; varvar] Ona tilida muqobili boʻlgani holda

o‘rinsiz ishlatiladigan, ko‘pincha globallashuv ta‘siri, madaniy taqlid, modaga ergashish, til glamuri sababli keng tarqalgan chet so‘z, ibora. Masalan, hozirgi o‘zbek tilining so‘zlashuv nutqida *ok, vau, top, top-model, KPI* kabilar. Varvarizm ko‘pincha xatarli ijtimoiy qatlamlar, tilni to‘liq bilmagan yoki til madaniyati past kishilar va yoshlar nutqiga xos. Til egalarining lisoniy madaniyati o‘sishi bilan varvaristik qo‘llashlar kamaydi. Varvarizmlar sotsiolingvistik jihatdan til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab, ayni paytda, noto‘g‘ri munosabatlar natijasidir.

Qarang: qo‘llanishi chegaralangan leksika.

VAZIFAVIY USLUBLAR Muayyan tilning yashash shakllari bo‘lib, u so‘zlashuv, rasmiy, ilmiy, publitsistik, diniy va badiiy uslublar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Tillar ayni yashash shakllarining to‘liq yoki qisman rivojlanganligiga ko‘ra farqlanadi. Ayniqsa, rasmiy uslubning shakllanishida ijtimoiy-siyosiy ta‘sirilar muhim o‘rin tutadi. Vazifaviy uslublar shaxsning ijtimoiy roli va tajribasiga mos tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, keksalar nutqi uchun an‘anaviy hikoyaviy yoki diniy uslub xos.

Qarang: til vazifalari.

VA‘Z TILI Musulmon mamlakatlarida diniy ulamo, imom-xatib tomonidan juma, taroveh va janoza namozlari o‘qilishidan oldin, aqiqa, nikoh to‘yi, ehson kabi marosimlarda qilinadigan ma‘ruzalarda foydalaniladigan til. O‘ziga xos leksikasi (diniy terminlar, arxaik so‘zlar), ritorik uslubi, an‘anaviy iboralari va murakkab sintaktik tuzilmalariga ega. Bunday til diniy qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar va ma‘naviy yo‘l-yo‘riqlarni yetkazishga xizmat qiladi, unda tinglovchilarni ma‘naviy uyg‘otish, e‘tiqodini tarbiyalashga diqqat qaratiladi. Va‘z tili vazifasini qavmning asosiy qismi tushunadigan til bajaradi.

Qiyos: din tili 1, 2.

VOLAPYUK 1879-yilda germaniyalik olim Yoxan Martin Shleyer tomonidan yaratilgan sun‘iy til. U xalqaro yordamchi til sifatida turli mamlakatlardagi odamlar o‘rtasida muloqotni osonlashtirish uchun mo‘ljallangan. “Volapük” nomi volapyuk

tilidagi “dunyo” (vol) va “til” (pük) soʻzlaridan kelib chiqqan, maʼnosi “dunyo tili” demakdir. Volapyukning leksikasi nemis, ingliz, fransuz, lotin tillari soʻzlari asosida shakllantirilgan, orfografik meʼyorlari fonetik tamoyilga asoslangan sunʼiy tillardan biri, grammatikasi murakkab. Volapyukni ommalashtirish harakati 1879–1889-yillarda kuchaygan, keyin esa pasaygan. Bunga qisman undan-da mukammalroq esperanto tilining ixtiro qilinganligi sabab boʻlgan.

Qiyos: esperanto, tokipona.

VOSITACHI TIL 1. Turli tillarda soʻzlashadigan xalqlar oʻrtasida aloqa vositasi vazifasini bajaruvchi til. Bunday til bir mamlakat ichida har xil millat vakillari oʻrtasida aloqa vositasi vazifasini bajarsa, kichik vositachi til hisoblanadi. Agar mamlakat tashqarisida turli xalqlar oʻrtasida aloqa vositasi vazifasini bajarsa, katta vositachi til boʻladi. Har ikkala holatda ham “vositachi til” tushunchasi “millatlararo muloqot tili” tushunchasiga yaqinlashadi. Bunday vazifadagi til tomonlarning milliy tili boʻlmaydi. Sunʼiy tillar ham vositachi til vazifasini bajarishi mumkin.

Qiyos: millatlararo muloqot tili.

2. BMTning ishchi tili maqomiga ega boʻlgan ingliz, arab, ispan, xitoy, rus, fransuz tillaridan biri. Mazkur tillar koʻproq xalqaro munosabatlarda, diplomatik yozishmalarda amal qilishi bilan boshqa tillardan farq qiladi.

Qiyos: xalqaro til.

3. Amaliy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasida shartli A tildan shartli B tilga tarjima qilishda foydalaniladigan mantiqiy raqamli til. Bu maʼnodagi *vositachi til* atamasi keyingi 30–40 yil davomida qoʻllanishga oʻtgan.

Qiyos: sunʼiy til.

VULGARIZM [*lot.* vulgaris – oddiy, sodda] Asosan, ijtimoiy-axloqiy jihatdan yaxshi tarbiyalanmagan jamiyat aʼzolari nutqida qoʻllanadigan soʻkish yoki qargʻish maʼnoli soʻz va iboralar. Oʻzbek tilida oʻzbekcha vulgarizmlar ham koʻp: xumpar, zangʻar, qistaloq, bachchagʻar, haromi, yer

yutkur, juvonmarg bo'lgur kabi. Jamiyat hayotining muayyan davrlarida alohida vulgar so'z va iboralar qatlami shakllanadi. Masalan, sobiq ittifoq davrida rus tili ta'sirida o'zbek nutqida o'nlab qo'pol mazmunli vulgarizmlar paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda ingliz tili ta'sirida paydo bo'lgan vulgaristik qo'llanishlar uchraydi. Odatda axloqiy-madaniy nomaqbulligi, noxush qabul qilinishi sababli odamlar o'rtasida munosabatni buzadi.

Qarang: qo'llanishi chegaralangan leksika.

X

XALQ RUHI Alohida shaxslarning ruhiy o'xshashliklardan shakllanadigan, xalqning axloqi, dini, tili, adabiyoti, madaniyatida yaqqol ko'rinadigan o'ziga xos psixologiyasi. Xalq ruhi millatning tarixiy tajribalari, urf-odatlari, milliy-madaniy an'analari, qadriyatlar va hayot tarziga asoslangan hissiy va aqliy holatlarni o'z ichiga oladi. U xalqning ijtimoiy va siyosiy vaziyatiga, madaniy o'zgarishlarga qarab shakllanadi, davlatning tashqi siyosati, boshqa xalqlarning ta'siri xalq ruhini o'zgartirishi mumkin. Masalan, keyingi yillarda rus va ukrain xalqining ruhi jiddiy o'zgarishga uchradi. Vilgelem fon Gumboldt va uning izdoshlari tilni xalq ruhini aks ettiradigan vosita hisoblagan. Bugungi antroposentrik tilshunoslikning mazmun-mohiyatida ham "til – xalqning ruhi" degan g'oya ustuvor.

Qarang: milliy til, ona tili, etnik til, sheva, dialekt, etnografizm.

XALQ SO'ZLASHUV TILI Butun mamlakat miqyosida kundalik og'zaki muloqotda foydalaniladigan, noadabiy unsurlarga boyligi bilan ajralib turadigan milliy til yashash shakllaridan biri. Unda ko'pincha oddiy, sodda grammatik tuzilmalar ishlatiladi. Xalq so'zlashuv tili ham ijtimoiy o'zgarishlarga muvofiq o'zgaradi: yangi so'zlar, iboralar, jumlar paydo bo'ladi. O'zbekistonda o'zbek xalq so'zlashuv tili har bir viloyatda, hatto har bir shahar yoki qishloqda o'ziga xos: Toshkentda yoki Qo'qonda ishlatiladigan iboralar boshqa hududlaridan farq qilishi mumkin. Sotsiolingvistik talqinlarda hududiy dialektlar va oddiy so'zlashuv tili xalq so'zlashuv tilidan farqlanadi, u tilning alohida, mustaqil yashash shakli hisoblanadi.

Qiyos: hududiy so'zlashuv tili.

XALQ TILI 1. Ma'lum bir xalqqa tegishli bo'lgan til. Ayni atama bu ma'noda tilning u yoki bu yashash shaklini anglatmaydi, balki barcha yashash shakllari bilan birgalikda mavjud bo'lgan, millatning ajdodlardan qolgan ma'naviy mulkini bildiradi. U xalq so'zlashuv tilidan ko'ra kengroq, ya'ni xalqning madaniyati, an'analari va urf-odatlarini ifodalovchi lisoniy tizimni anglatadi, yozuv tizimini ham ichiga oladi. Masalan, o'zbek xalq tili o'zbek millatining barcha lisoniy imkoniyatlarini, hududiy shevalarini, so'zlashuv va adabiy tilini o'zida birlashtiradi.

Qiyos: etnik til. **Qarang:** umumxalq tili.

2. Xalq og'zaki ijodiyoti yaratiladigan va ifodalanadigan til ko'rinishi. U, bir tomondan, dialektal xususiyatlarning ko'pligi, boshqa tomondan, og'zaki xususiyatlarga asoslanganligi bilan tilning boshqa yashash shakllaridan ajralib turadi. Xalq og'zaki ijodiyotida eng ko'p uchraydigan va xalqning estetik yuksakliklarini ifodalovchi til ko'rinishi she'riy va lirik tildir. U alliteratsiya, onomatopeyaga boy bo'ladi, bu til xalq og'zaki ijodining jangovar ruhini aks ettiradi. Nasriy tilda maqol-matallar ko'p uchraydi, sajdan foydalaniladi.

Qiyos: adabiy til, xalq so'zlashuv tili.

XALQARO LISONIY IXTILOF Asosan, siyosiy omillar sababli bir necha davlatlar hududida muayyan til(lar)ning qo'llanishiga nisbatan o'sha mamlakatlar aholisi o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchilik, norozilik kayfiyati. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Ukrainaga bostirib kirishi natijasida Yevropaning bir qator mamlakatlari, xususan, Ukraina, Boltiqbo'yi davlatlarida yashovchi titul millat vakillarida rus tilining qo'llanishiga nisbatan toqatsizlik, norozilik kayfiyati shakllandi. Bu Latviyada 2026-yildan maktablarda rus tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitilishini cheklashga sabab bo'ldi.

Qiyos: milliy lisoniy ixtilof, millatlararo lisoniy ixtilof.

XALQARO ONA TILI KUNI 2000-yildan boshlab har yili 21-fevralda dunyo bo'ylab milliy tillarni qo'llab-

quvvatlash, unutilib ketishi mumkin bo‘lgan tillarni saqlab qolish, lisoniy xilma-xillikni asrab-avaylash maqsadida YUNESKO belgilagan tarixiy sana. Xalqaro ona tili kunining mazmun-mohiyatida har bir xalqning o‘z milliy tafakkuri, ma’naviyati, ruhiyatining o‘zagini tashkil etadigan ona tiliga alohida munosabat, ehtirom aks topadi. Bu sana Bangladeshda 1952-yildagi qonli voqealarni xotirlash kuni sifatida nishonlanadigan bengal tili harakati kuniga to‘g‘ri keladi.

Qarang: etnik ozchilik tili festivali.

XALQARO SUDLOV TILI Birlashgan Millatlar Tashkilotining oltita asosiy organidan biri bo‘lgan BMT Xalqaro Sudi faoliyatida amal qiladigan, bu sud hujjatlari shakllantiriladigan, e‘lon qilinadigan til. BMT nizomiga ko‘ra, ingliz va fransuz tillariga xalqaro sudlov tili huquqi berilgan. Shu bilan birga, sud har qanday tomonning iltimosiga binoan unga fransuz va ingliz tillaridan tashqari boshqa tildan foydalanish huquqini berishi qoidalashtirilgan. Sudlovning bunday muvaqqat tilidan tomonlar o‘z vakillari yordamida ham foydalanishlari mumkin.

Qiyos: tergov tili.

XALQARO TIL QONUNCHILIGI Shaxsning dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, uning tilga oid huquq va erkinliklarini himoya qilish, tiklashga yo‘naldirilgan, asosan, xalqaro shartnoma, deklaratsiya, kelishuv, xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalari ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan huquqiy hujjatlar majmuyi. Masalan, BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (1948), Yevropa Kengashining “Regional yoki ozchilik tillar xartiyasi” (1992), “Milliy ozchiliklar huquqlari bo‘yicha BMT deklaratsiyasi” kabilar bevosita va bilvosita xalqaro til qonunchiligini tashkil qiladi. Xalqaro til qonunchiligining ishlashini, masalan, til bilan bog‘liq huquqlarni himoya qilish yoki tiklash bo‘yicha xalqaro sudlarning ajrimlarida ko‘rish mumkin.

Qiyos: milliy til qonunchiligi.

XALQARO TILLAR Turli davlatlar, xalqlar,

madaniyatlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan tillar. Bunday til, ayni paytda, muayyan millat vakillarining ona tili bo'ladi. Keyinchalik shu til qo'llanadigan davlatning dunyo iqtisodiyoti, siyosati, ilm-fani va boshqa sohalarida yetakchiga aylanishi natijasida bir mamlakat doirasidan chiqib, davlatlararo aloqa vositasini bajarishga o'tadi. Tilning xalqaroqlik maqomi o'zgarib turadi. Masalan, qadim davrlarda Uzoq Sharq xalqlari uchun venyan – qadimgi xitoy tili xalqaro til vazifasini bajargan. Til amaliy qo'llanishi natijasida yoki rasmiy ravishda xalqarolashadi. Masalan, ingliz tili bunday xususiyatga amaliy qo'llanishi natijasida ega bo'lgan.

Qiyos: mahalliy til, minoritar til, millatlararo muloqot tili.

XALQCHIL BO'LMAGAN YOZUV 1. Keng aholi ommasi, ayniqsa, yoshi katta kishilar tomonidan o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan, harflarning asosiy shakliga yoki uning osti va ustiga turli diakritik belgilar qo'yib yoziladigan yozuv ko'rinishi. Bunday yozuv xalq tilining tabiiy rivoji, talaffuzi yoki ifoda uslubiga zid tarzda tanlangan yoki joriy etilganda yuzuga keladi. Masalan, murakkab grammatika qoidalari, ortiqcha arabcha yoki ruscha so'zlar, sun'iy terminlar bilan to'ldirilgan matnlar ko'plab o'quvchilarga tushunarsiz bo'lishi mumkin. Bunday yozuv xalq bilan aloqa uzilishi, tilga begonalik hissini kuchaytiradi.

Qiyos: xalqchil yozuv.

2. Keng omma uchun mo'ljallanmagan, muayyan ijtimoiy guruh, yuqori qatlam vakillari, mutaxassislar yoki maxsus maqsadlar (masalan, ilmiy, huquqiy, diniy yoki ma'muriy) uchun ishlatiladigan yozma til shakli. Bunday yozuv yuqori darajadagi rasmiylik, maxsus terminologiya, arxaik yoki chet tilidan olingan leksika uchun mo'ljallangan bo'ladi, unda murakkab sintaktik tuzilmalar ham ko'p uchraydi.

Qiyos: akrolekt.

XALQCHIL YOZUV Yoshi va bilim darajasidan qat'i nazar, keng aholi ommasi o'zlashtirishi oson, oddiy va

tushunarli grafik vositalardan foydalaniladigan, kundalik muloqot yoki xalqona nutq uslubiga yaqin, osti va ustida maxsus diakritik belgilari bo‘lmagan, shu bilan birga, yozuv amaliyoti uchun qulay hisoblanadigan yozuv ko‘rinishi. Alifbodagi sanoqli harfni yozishda noqulaylikning mavjud bo‘lishi ham uning xalqchilligini yo‘qotadi. Xalqchil yozuv xalqning madaniy o‘zligini, an’anaviy qadriyatlarini aks ettirish va keng jamoatchilik bilan samarali muloqot qilish uchun xizmat qiladi. Dunyo miqyosida keng tarqalgan yozuvlar xalqchil yozuvdir.

Qiyos: xalqchil bo‘lmagan yozuv.

XASTA TIL FunkSIONAL jihatdan zaiflashgan, ijtimoiy mavqeyi pasayishga yuz tutgan, qo‘llanish doirasi toraygan, so‘zlashuvchilar soni keskin kamaygan, katta tillarning muntazam salbiy ta’siri ostida qolgan, unutilish yoki yo‘qolib ketish xavfi bor bo‘lgan til. A.Kibrikning fikricha, “kasallanish” darajasi tanqidiy darajaga yetganda, tilning mavjudligiga tahdid paydo bo‘ladi. Xasta til keksalar yoki muayyan kichik jamoalarda o‘ziga xos leksikasi va grammatik tuzilishini saqlab qoladi. Bunday til milliy o‘zlikni saqlashda muhim, ammo zamonaviy sohalarida kam foydalanilishi uni unutilish xavfiga qo‘yadi. Xasta tilni saqlab qolish uchun ham maxsus choralar talab qilinadi.

Qiyos: sog‘lom til.

XOLIS TIL QONUNCHILIGI Ko‘p millatli mamlakatda mavjud tillarning jamiyat hayotining turli sohalarida hech bir to‘siqsiz qo‘llanishi, kishilarning tildan qonunda ko‘zda tutilgan tarzda moneliksiz foydalanishi, ta’lim tilini erkin tanlashi kabilarning alohida me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilanganligi. Masalan, bunda kishiga muayyan tilni rasmiy muloqot yoki ish yuritishda qo‘llash, shaxsning o‘ziga qulay bo‘lgan tilda davlat idoralariga murojaat qilish huquqi beriladi. Umuman, til bilan bog‘liq munosabatlarda tarafkashlik sezilmaydigan huquqiy tizim.

Qiyos: noxolis til qonunchiligi.

XOLIS TIL SIYOSATI Muayyan ma'muriy-siyosiy makonda barcha milliy tillarning teng qo'llanishini ta'minlash, fuqarolarga o'z ona tillarida so'zlashish imkonini berish, bu tillarning rivoji uchun yetarli sharoit yaratish, ta'lim tilini mutlaqlashtirmaslik – bir necha tilda ta'lim berilishini standartlashtirish, sudlov jarayoni va yuqori tashkilotlarga bir necha tilda murojaat qilish huquqini berish, umuman, xalqaro huquqiy me'yorlarga muvofiq keladigan til bilan bog'liq chora-tadbirlar majmuyi. U ko'p tilli muhitda davlat yoki jamiyat tomonidan tillarga nisbatan teng huquqli, adolatli va hech bir tilni boshqasidan ustun qo'ymaydigan yondashuvda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan O'zbekistondagi til siyosatini xolis deyish mumkin.

Qiyos: noxolis til siyosati.

XORIJIY TIL ayn. chet tili.

XRONOLEKT [*yun.* xronos – vaqt, davr + lektus – tanlangan] 1. Vaqt omili bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlariga ko'ra ajralib turadigan til ko'rinishi, tilni muayyan tarixiy davrga xos bo'lgan shakli. Masalan, til rivojining muayyan bir tarixiy bosqichi xronolekt bo'lishi mumkin: qadimgi turkiy til, eski o'zbek tili, hozirgi o'zbek tili, globallashuv davri tili kabilar. Xronolektda davrning lisoniy ta'mi sezilib turadi. Sotsiologiyistikada ko'pincha sotsiolekt, etnolekt yoki geolektaga qarama-qarshi hodisa sifatida baholanadi.

Qarang: sotsiolekt, etnolekt, geolekt.

2. Bir tilda so'zlashuvchi va bir xil yoshdagi kishilar qo'llaydigan nutq shakli, til ko'rinishi. Bunda muayyan yoshdagi til egalarning tildan foydalanish tarzlari umumiy bo'lishi, umumiy yoki o'xshash lug'at tarkibidan foydalanilishi nazarda tutiladi. Masalan, bolalar tili, yoshlar tili, keksalar tili kabi.

Qarang: bolalar tili, yoshlar tili, keksalar tili.

XUSUSIY ME'YORLAR 1. Muayyan tilning vazifaviy shakllaridan biriga yoki umumadabiy tilning umumiy normalari doirasida alohida, nozik va sohaning o'ziga xosliklariga mos

keladigan, shu tilning biror vazifaviy shakli yoxud adabiy tildagina amal qilishi majburiylashgan lisoniy normalar; individual me'yorlar ham deyiladi. Xususiyy me'yorlar birlashib, umumtil adabiy me'yorlarini shakllantiradi. Masalan, ilmiy uslubdagi atamalarning ishlatilishi, publitsistik uslubdagi ahdmonand, qasamyodmonand jaranglaydigan jumlar ("Biz jim qarab tura olmaymiz!", "Barchamiz birgalikda bu muammoni yengamiz!", "Kelajak – o'z qo'limizda!") xususiyy me'yorlarning sohaviy nutqda namoyon bo'lishidir.

Qiyos: umumtil me'yorlari, adabiy me'yorlar.

2. Muayyan ijtimoiy guruh, kasb yoki soha, mintaqa yoki submadaniyat ichida qabul qilingan va faqat shu kontekstda amal qiladigan til qoidalari, uslublari yoki aniq ijtimoiy sharoitda amal qiladigan tilni qo'llash tartiblari. Umummilliy til me'yoridan farqli o'laroq, guruhning o'ziga xos leksikasi, sotsialemalari, jargonlari, fonetik xususiyyatlari yoki maxsus terminologiyasini tartibga solib turadi, guruh identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qiyos: dialektal me'yorlar.

Y

YAGONA RASMIY TILLILIK Muayyan mamlakatda bitta tilning rasmiy yoki davlat tili maqomida amal qilishi, ish yuritish tili sifatida yashashi. Masalan, Fransiyada fransuz tilining yagona davlat tili sifatida qoʻllanishi yoki AQSHda ingliz tilining yagona rasmiy til sifatida ishlatilishi, aholining ana shu tillarda ish yuritishi, qonun hujjatlarining shu tillarda yozilishi va tarqatilishi. Shu bilan birga, yagona rasmiy tillilik rasmiy boʻlmagan tillarning jamiyat hayotining boshqa sohalarida, masalan, taʼlim yoki fan tili sifatida yashashini cheklamaydi.

Qiyos: qoʻsh rasmiy tillilik, koʻp rasmiy tillilik.

YAQIN QARINDOSH TILLAR bir til oilasining bitta guruhiga kiruvchi yoki til oilasi ichida bir-biriga fonetik, leksik va grammatik jihatdan eng yaqin boʻlgan tillar. Masalan: oʻzbek va uygʻur, qozoq va qirgʻiz, rus va belarus tillari. Bir-biriga nisbatan yaqin qarindosh tillar oʻrtasida sotsiologiyistik chegara har doim qatʼiy boʻlmaydi, oʻzaro tushunish yaxshi yoki yuqori darajada boʻlishi mumkin, ammo bu har doim ikki tomon bir-birini toʻliq tushunishini anglatmaydi. Masalan, oʻzbek tili egasi turk tilini qisman tushunadi, ammo toʻliq anglash uchun maxsus oʻrganish zarur. Bunday tillarning sotsiologiyistik oʻziga xosligi shundaki, ular bir-birini siqib chiqarishi yoki koʻptillilik muhitida bir-birini boyitishi mumkin.

Qiyos: uzoq qarindosh tillar.

YAQIN QARINDOSH TILLAR IKKITILLILIGI Bit-ta davlatda bir til oilasining bitta guruhiga mansub tillarning oʻzaro muloqot vositasi sifatida qoʻllanishi. Bu hodisa hind-yevropa til oilasiga mansub slavyan yoki roman tillari orasida keng tarqalgan. Masalan, Chexiya va

Slovakiyada chex va slovak, Belarus Respublikasida belarus va rus, Litvada latish va latgal tillarining amal qilishi “yaqin qarindosh tillar ko‘p tilliligi”ni shakllantirgan. Bunda ikki til o‘rtasidagi grammatik, fonetik va leksik o‘xshashliklar tufayli ikkitillilik tez shakllanadi va kamroq kuch sarflanadi. Ikkitillilik holatlari ham ko‘pincha tabiiy, kundalik muloqotlar jarayonida shakllanadi.

Qiyos: uzoq qarindosh tillar ikkitilliligi.

YARIM KALKA O‘zga tilning leksik-frazeologik birliklarini boshqa tilga qisman qismma-qism nusxa olish yo‘li bilan hosil qilingan lisoniy birlik. Bunda har ikki til unsurlaridan foydalaniladi. Masalan, “полуавтомат” – yarimavtomat, “антитеррор” – aksilterror, “магнитное поле” – magnit maydoni kabi. Yarim kalkalar sotsiolingvistik jihatdan tilga tashqi madaniy yoki iqtisodiy-siyosiy ta’sirlar natijasida kirib keladigan, notabiiy leksik birliklar hisoblanadi. Ular ko‘pincha xalqaro tillar, masalan, o‘zbek tili misolida ingliz va rus tillarining ta’siri kuchli bo‘lgan jamiyatlarda paydo bo‘ladi.

Qiyos: to‘liq kalka.

YARIM KALKALASH O‘zga tilning leksik va frazeologik birliklarini boshqa tilga qisman qismma-qism nusxa olish. Bunda boshqa tildagi birikmaning tuzilishi yoki ma’nosi to‘liq emas, faqat ayrim unsurlari tarjima qilinadi, natijada notabiiy, aralash birlik hosil bo‘ladi. Bu jarayonda odatda ma’no va shakl o‘rtasida to‘liq moslik buziladi, natijada, yangi ibora asl til tizimi uchun begona bo‘lib qoladi. Ayniqsa, OAV, reklama va ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p uchraydi. Yarim kalkalash kommunikativ qulaylikni oshirmaydi, ko‘pincha ifodaning sun‘iylashuvi, adabiy til me’yoridan chekinish sifatida baholanadi. Shu bois tilni me’yorlashtirishda bunday birliklardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim.

Qiyos: to‘liq kalkalash.

YARIM DIALEKT Har jihatdan adabiy tilga yaqinlashayotgan, umumadabiy me’yorlar ta’sirida sof shevaviy xususiyatlarini yo‘qotayotgan, qo‘llanish

doirasini avvalgi mahalliy chegarasidan kengaytirayotgan, adabiy til va sheva oʻrtasidagi ogʻzaki til shakli. Masalan, katta shaharlarga oʻqish va ish taqozosi bilan koʻchib kelganlar koʻpincha shunday til shaklidan foydalanadilar. Sotsiolingvistik jihatdan yarimdialektlar til oʻzgarishlari, migratsiya, shahar va qishloq madaniyati tutashuvi natijasida shakllanadi. Ular oʻtish davridagi til holatini – avlodlar oʻrtasidagi til farqlarini koʻrsatadi va koʻpincha oʻzgaruvchan, norasmiy kommunikatsiyada uchraydi.

Qiyos: sheva, dialekt, lahja.

YARIMDIALEKTLASHUV Tarixan dialekt sifatida amal qilib kelgan tilning keyingi ijtimoiy-lisoniy jarayonlar taʼsirida adabiy tilga xos xususiyatlarga ham ega boʻlishi va oʻz navbatida, avvalgi shevaviy xususiyatlarini yoʻqotishga yuz tutishidan iborat jarayon, til oʻzgarishidagi muhim bosqich. Yarimdialektlashuvda kishilar nutqida adabiy til bilan mahalliy sheva elementlarining aralashuvi orqali oraliq nutq shakli shakllanadi. Natijada, na toʻliq shevaga, na toʻliq adabiy tilga tegishli boʻlgan oraliq (gibrid) nutq shakli yuzaga keladi. Ayniqsa, shahar atrofidagi aholi, adabiy tilni oʻrganayotgan talabalar yoki mass-media ichidagi insonlar orasida keng tarqalgan. Hozirgi kunda oʻzbek tilidagi turli podkastlarda nutqning yarimdialektlashuvi koʻp kuzatilmoqda.

Qiyos: regiolektlashuv.

YARIMXASTA TILLAR FunkSIONAL quvvati zaiflashish bosqichida turgan, qoʻllanish doirasi torayishga yuz tutayotgan, soʻzlashuvchilar soni yaqin yillarda kamayishi taxmin qilingan, katta tillarning taʼsiriga beriluvchan boʻlib qolgan, ammo oʻz ichki qonuniyatlari asosida rivojlanishga harakat qilayotgan til. Bu tillar odatda faqat uyda, keksalar orasida yoki diniy marosimlarda ishlatiladi, maktabda, ommaviy axborot vositalarida yoki rasmiy idoralarda qoʻllanmaydi. Masalan, ayrim kichik millatlarning tillari (masalan, Sibir, Janubi-sharqiy Osiyo yoki Amazonkada yashovchi xalqlarning tillari) shunday holatga tushib qolgan. Yarimxasta tillar assimilyatsiya,

til siyosatining sustligi yoki yoʻqligi, globallashuv va ijtimoiy-madaniy bosimlar taʼsirida paydo boʻladi.

Qiyos: sogʻlom til.

YANGI YOZUVLI TILLAR Yaqin yillarda oʻz yozuv tizimiga ega boʻlgan tillar. Sotsiolingvistikada yangi yozuvli tillar sifatida avval mutlaqo yozma anʼanalari boʻlmagan, faqat keyingi chorak asr davomida yozuv tizimini yaratgan tillar tushuniladi. Masalan, XX asrning 90-yillaridan Krasnoyarsk oʻlkasidagi enetsk, dolgan, ket, nganasan; Xabarovsk oʻlkasidagi ulch; Irkutsk viloyatidagi tofalar; Dogʻistondagi rutul, agul tillari yozma anʼanalarini yarata boshlagan. Dastlab oilada qoʻllanishni boshlagan ayni yozuvlar keyincha ishlab chiqarish va taʼlim jarayoniga tatbiq qilingan. Shu asnoda ularning imloviy meʼyorlari shakllanadi, OAV, ish yuritishda faollashuvi bilan takomillashadi.

Qiyos: qadim yozuvli til, eski yozuvli til.

YETAKCHI TIL Ikki va undan ortiq til muloqot vositasi sifatida amal qiladigan lisoniy muhitda boshqa tillarga qaraganda katta ijtimoiy-kommunikativ vazifani bajaradigan, jamiyatning asosiy qismi tomonidan ana shunday vazifada foydalaniladigan birlamchi til; jamiyat, davlat yoki xalqaro maydonda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy jihatdan dominantlik qiluvchi, rasmiy muloqot, taʼlim, OAVda asosiy vosita sifatida keng qoʻllanadigan til. Koʻpincha bunday til vazifasini funksional jihatdan rivojlangan til bajaradi va davlat tili yoki rasmiy til maqomini olgan boʻladi. Masalan, Oʻzbekistonda oʻzbek tili, Rossiya Federatsiyasida rus tili yetakchi til hisoblanadi.

Qiyos: qoʻshimcha til. **Qarang:** dominant til, asosiy til.

YEVROPATSENTRIZM Alohida mamlakatlar yoki umuman, jamiyat rivojini Gʻarbiy Yevropa taraqqiyot modellari asosiga qurish, barcha ijtimoiy-iqtisodiy kuchlarni shunday taraqqiyot tarziga yoʻnaltirish; Gʻarbiy Yevropada shakllangan ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, axloqiy va estetik qarashlarni boshqa qitʼalar va xalqlarga yoyish. Tilshunoslikda koʻplab tillarning terminologik tizimlarini faqat Yevropa xalqlari tillari (avval yunon va lotin tillari, hozirgi kunda ingliz tili) asosida

boyitish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Umuman, tilda va tilshunoslikda yevropacha til tajribasini yagona to'g'ri mezon deb bilishdan iborat yondashuv.

Qarang: jahon tili.

YIRIK MILLAT Muayyan mamlakat hududida juda katta miqdorni tashkil qiladigan xalq, mamlakatning asosiy qism aholisi mansub, katta madaniyat sohibi bo'lgan etnos. Tilning demografik quvvati ayni shu jihatga – aholi soniga bog'liq. Yirik millatlarning tillari kichik millatlarning tillariga qaraganda ijtimoiy vazifalari sezilarli darajada kengaygan va albatta, “davlat tili” yoki “rasmiiy til” maqomini olgan bo'ladi. Ayrim yirik millatlarning tillari global tillar sifatida geosiyosiy va iqtisodiy qudrat ramzi o'laroq boshqa tillarga kuchli ta'sir o'tkazadi.

Qiyos: minoritar xalq.

YIRIK TIL Keng geografik hududda katta miqdordagi aholining tili sifatida ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy yoki siyosiy jihatdan muhim ta'sirga ega bo'lgan, demografik quvvati bir necha o'n million bilan o'lchanadigan til. Masalan, bugungi ingliz, ispan, arab, xitoy, hindiy, rus, turk, o'zbek kabi tillar yirik tillar hisoblanadi. Bunday tillar ko'pincha milliy miqyos kasb etadi, boy leksika, standartlashgan grammatika va keng qamrovli sotsialemalar, jargonlar hamda terminologiyaga ega bo'ladi, turli ijtimoiy sharoitlarda, masalan, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va rasmiy muloqotda asosiy vosita sifatida ishlatiladi.

Qiyos: minoritar til.

YORDAMCHI TIL 1. Ikkitililik yoki ko'ptililik muhitida yashaydigan shaxs kam foydalanadigan, masalan, yo o'qish, yo ish, yo maishiy munosabatlardan birida qo'llaydigan til. Bunday til vazifasini sharoitga qarab, etnik til ham, ikkinchi til ham yoki keyin o'zlashtirilgan boshqa til ham bajaradi. *Yordamchi til* atamasida “funktional jihatdan ikkilamchi til” ifodasi ustuvor. Bunday til ko'pincha yetakchi yoki yirik til sifatida emas, balki ikkinchi darajali vosita sifa-

tida qoʻllanadi va maxsus leksika, sotsialemalarni oʻz ichiga oladi.

Qiyos: asosiy til, ona tili, birinchi til.

2. Turli tillarda gaplashadigan kishilar oʻrtasida aloqa vositasi vazifasini bajaruvchi til. Bunday til vazifasini, asosan, sunʼiy tillar (esperanto, volapyuk kabi) bajaradi. Shu bilan birga, lingvofranka maqomidagi tillar, professional faoliyatda axborot almashish uchun xizmat qiladigan shartli belgili tillar ham yordamchi til vazifasida qoʻllanadi. Bu maʼnodagi yordamchi til migratsiya, taʼlim yoki kasbiy sohalarda ijtimoiy integratsiyani qoʻllab-quvvatlash, turli tilli guruhlar oʻrtasida koʻprik vazifasini bajarish va lisoniy oʻzlikni saqlagan holda moslashuvchan muloqotni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Qiyos: asosiy til, ona tili, birinchi til.

YOZMA ADABIY TIL Muayyan mamlakatda yozma adabiy meʼyor va qoidalarga asoslangan holda amal qiladigan, ommaviy axborot vositalari (gazeta va jurnal)-da keng foydalaniladigan, qoʻllanishi rasman tartibga solib turiladigan milliy til yashash shakllaridan biri, subkod. U sotsiolingvistik jihatdan muayyan millat yoki jamiyatning rasmiy, standartlashgan va adabiy normalarga asoslangan yozma til shaklini anglatadi, milliy oʻzlikni mustahkamlash, madaniy merosni saqlash va ijtimoiy muloqotda aniqlik va estetikani taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Qiyos: ogʻzaki adabiy til.

YOZUV ISLOHOTI Vakolatli davlat tashkilotlari tashabbusi, koʻmagi va boshchiligida davlat miqyosida foydalanib kelayotgan alifbo va yozuv tizimini almashtirish, imlo yoki yozuv meʼyorlarini tubdan yoki qisman oʻzgartirish bilan bogʻliq chora-tadbirlar. Yozuv islohoti davlat til siyosatining koʻrinishi sifatida namoyon boʻladi, til islohotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yozuv islohoti ijtimoiy hayotning til bilan bogʻliq tomonida katta oʻzgarishlar boshlanganda yoki amaldagi yozuv tizimi jamiyat ehtiyojlarini ifodalay olmay

qolganda o‘tkaziladi. Bunday islohot ko‘pincha jamiyatda norozilik bilan qabul qilinadi.

Qiyos: til islohoti, yozuvni almashtirish.

YOZUVLI TIL Muayyan yozuv sistemasi va yozma an‘analariga ega bo‘lgan til. Til egalari o‘z tillari uchun tanlagan yozuv shu til uchun yaratilgan bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, arman yozuvi arman tili uchun yaratilgan. Ayrim tillarning yozuvi aslida boshqa til uchun yaratilgan bo‘ladi, biroq xalq o‘sha yozuvni o‘z tilining fonologik imkoniyatlariga moslashtiradi. Masalan, lotin yozuvi aslida qadim lotin xalqlarining tiliga mo‘ljallab yaratilgan, ammo keyinchalik boshqa xalqlar bu yozuvni o‘z milliy tillariga moslashtirgan. Yozuvli tillar qadim yozuvli, eski yozuvli, yosh yozuvli va yangi yozuvli tillarga ajraladi.

Qiyos: yozuvsiz til.

YOZUVSIZ TIL O‘z tarixiy taraqqiyoti davomida muayyan yozuv tizimiga ega bo‘lmagan, faqat og‘zaki shaklda amal qilib kelgan til. Barcha tillar o‘z taraqqiyotining dastlabki davrlarida yozuviga ega bo‘lmagan. Yozuvsiz tillar avvaldan yozuv madaniyatiga ega bo‘lmagan bo‘lishi yoki tilning keyingi taraqqiyot bosqichlarida turli ijtimoiy-siyosiy ta‘sirler sababli o‘z yozuvini yo‘qotishi mumkin. Masalan, Afrika qit‘asidagi qabila darajasidagi tillarning yozuv tizimi yo‘q. Bunday til muayyan ijtimoiy guruh yoki jamoa tomonidan kundalik nutq, an‘anaviy hikoyalar, folklor yoki boshqa og‘zaki shakllar orqali saqlanadi va jamoaviy yoki hududiy o‘zlikni aks ettiradi, ammo yozuvining yo‘qligi sababli unga hamisha xasta tilga aylanish xavf solib turadi.

Qiyos: yozuvli til.

YOSH YOZUVLI TILLAR Sotsiolingvistikada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida milliy yozuv tizimiga ega bo‘lgan, o‘z alifbosini ishlab chiqqan, yozma an‘analarini shakllantirgan tillar tushuniladi. Yosh yozuvli tillar ham yangi yozuvli tillar kabi o‘z tarixiy taraqqiyotida

yozuv tizimiga ega bo'lmaydi. Rus sotsiolingvistlari XX asrning boshlarida sobiq ittifoq hududidagi 50 dan ortiq til (masalan, Dog'istondagi abxaz, abazin, lak, darg'in kabi tillar) o'z yozuv ega bo'lmaganligini qayd qiladilar. Yosh yozuvli tillar milliy o'zlikni mustahkamlash, ijtimoiy birlashuvni ta'minlash va madaniy merosni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ayni paytda imloni standartlashtirish jarayonida chet til ta'siri yoki ichki sheva farqlari sababli muammolar yuzaga chiqadi.

Qiyos: qadim yozuvli til, eski yozuvli til.

YOSHLAR TILI Asosan, 17–25 yoshli yigit-qizlar tomonidan norasmiy va qisqa muddatli qo'llanishi, noadabiy qurilishi bilan ajralib turadigan til shakli. Bu tur xronolektda ularning ijtimoiy muhit, submadaniyat va zamonaviy madaniy tendensiyalar ta'sirida shakllangan o'ziga xos leksika, sleng va zamonaviy iboralar, boshqa noadabiy qo'llashlar ko'p bo'lgani, ijtimoiy media ta'sirida shakllangan nutq uslublari bilan xarakterlangani sababli boshqalarga ko'p ham tushunarli bo'lmaydi. Sotsiolingvistik jihatdan yoshlar xronolekti ijtimoiy dinamika, global ta'sirlar va mahalliy madaniyatning sintezi sifatida namoyon bo'ladi, yoshlarning lisoniy o'zligini zamonaviy kontekstda ifodalaydi. Masalan, o'tgan asrning 90-yillari yoshlar tili va globallashuv davri yoshlar tili jiddiy farqlanadi.

Qiyos: kattalar tili.

YUMSHOQ TIL SIYOSATI Muayyan tilni qo'llash hamda rivojlantirish ishlarini zo'rlik yoki majburiy choralar bilan emas, balki ta'lim, madaniyat va ijtimoiy tashviqot yuritish singari usullar orqali til hayotiga aralashuv. Bunday siyosat aholiga qat'iy majburiyatlar yuklamagan holda tilning nufuzini oshirish, uni o'qitish va ommalashtirishga xizmat qiladi. Masalan, buni o'zbek tilining davlat tili sifatida maqomini mustahkamlash, uni ta'lim tizimida kengroq qo'llash, adabiyot va ommaviy axborot vositalarida faol targ'ib qilish bilan bog'liq xatti-harakatlarda ko'rish mumkin.

Qiyos: majburiy til siyosati.

Z

ZAMONAVIY SOTSIOLINGVISTIKA Til va jamiyat ta'sirlashuvi bilan bog'liq jarayonlarni ular rivojlanishining hozirgi davrga munosabatiga ko'ra o'rganadigan sotsiolingvistika bo'limi. Uning tadqiqot doirasiga makrosotsiolingvistik muammolar, masalan, til vaziyati, lisoniy ijtimoiylashuv, davlatning til siyosati, rasmiy va mahalliy tillarning o'zaro munosabati, tilning yashash shakllariga ijtimoiy omillarning ta'siri va boshqalar kiradi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, internet va sun'iy intellekt ta'sirida til qanday o'zgarayotganini kuzatish, til orqali ijtimoiy tengsizliklarni aniqlash, lisoniy kamsitishlarni ochib berish, tillarni saqlash va tiklash masalalari bugungi sotsiolingvistikaning eng ilg'or yo'nalishlaridan biridir. Uning kuchli jihati til bilan bog'liq masalalarni antropologiya, sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik va hatto iqtisodiyot bilan bog'likda tahlil qilishidir.

Qiyos: tarixiy sotsiolingvistika.

ZAMONAVIY TILLAR Dunyo tillari taraqqiyotining hozirgi davrida mavjud bo'lgan, fonetik-fonologik, leksik-semantik hamda uslubiy-grammatik jihatdan takomillashgan, turli ijtimoiy vazifalarni bajarish, yangi ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalashga qodirlashgan, internet va kompyuter tili sifatida foydalanilayotgan tillar. Masalan, xalqlar taraqqiyotining keyingi davrlarida bobotillardan rivojlangan ingliz, ispan, rus, fransuz, arab, xitoy, o'zbek va boshqa tillar zamonaviy tillardir. Ular o'z leksik va grammatik tizimini zamon talablariga moslashtirib, internet, ommaviy madaniyat, axborot texnologiyalari orqali global miqyosda tarqalmoqda. Bunday tillarning o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligi va dinamik rivojlanishi ularni tashqi

ta'sirlarga ochiqligini, shu bilan birga, ichki tuzilishining bardoshli ekanligini bildiradi.

Qiyos: qadimiy tillar.

ZAMONAVIY YOZUVLAR Tarixan qadim va eski yozuvlardan keyin mavjud yozuvlar asosida shakllantirilgan zamonaviy yozuv tizimlari. Masalan, qadim lotin yozuvi asosida shakllantirilgan milliy lotin yozuvlari. Ular soddaligi, fonetik mosligi va tarqalish sohasi bilan qadim va eski yozuvlardan ajralib turadi. Zamonaviy yozuvlar sifatida o'zbek-kirill va keyingi o'zbek-lotin yozuvini ko'rsatish mumkin. Sotsiologiyaviy jihatdan yangi yozuvlar davlat siyosatiga asoslangan, ommaviy savodxonlikni ta'minlashga qaratilgan va maktab tizimi orqali keng tarqalgan yozuvlardir, ular tilni jamiyatga yaqinlashtirgan. Ya'ni xalqda eski yozuvlardan ko'ra zamonaviy yozuvlardan kengroq va ko'proq foydalanish imkoni bo'lgan.

Qiyos: qadim yozuvlar, eski yozuvlar.

ZIYOLILAR TILI Jamiyatning o'qimishli qatlami vakillari qo'llaydigan, yuqori darajada rasmiylikka, boy leksika, murakkab sintaktik tuzilmalar va maxsus terminologiyaga ega til shakli. Asosan, milliy adabiy til ko'rinishida, ilmiy, badiiy, publitsistik uslubda yuzaga chiqadi. Masalan, O'zbekiston sharoitida ziyolilar tili sifatida o'zbek adabiy tili amal qiladi, qolaversa, bu til davlat tili hamdir. Ziyolilar tili aholining boshqa qatlamlari qo'llaydigan til shaklidan adabiy me'yorlarga amal qilinishi, iqtisodiy-madaniy tushunchalarni ifodalovchi atamalarning ko'p bo'lishi bilan farqlanadi. Ziyolilar tili lisoniy o'zlikni mustahkamlash, intellektual identifikatsiyani ta'minlash va madaniy merosni saqlashda muhim o'rin tutadi.

Qarang: akrolekt, regiolekt.

O'

O'LIK TIL Hozirgi kunda so'zlashuvchilari qolmagan, ona tili sifatida ham, ikkinchi til sifatida ham amal qilmayotgan, faqat yozma manbalar, tarixiy hujjatlar yoki diniy matnlarda saqlanib qolgan til. Masalan, lotin tili, qadimgi hind tili yoki sanskrit, qadimgi slavyan tili, qadimgi xorazmiy tili va boshqalar. Bunday tillar hozir qo'llanmayotgan bo'lsa ham zamonaviy tillarning shakllanishi uchun asos bo'lgan. Ayrim hollarda bu tillarni qayta jonlantirishga harakat qilinadi (masalan, ibroniy tili holatida). YUNESKO zaiflashgan tillarni "xavf ostidagi", "jiddiy xavfdagi", "kritik xavfdagi" va "yo'qolgan" tillar sifatida ajratadi.

Qiyos: tirik til.

O'LAYOTGAN TIL Ijtimoiy vazifasi, qo'llanish doirasi va darajasi keskin qisqarib ketgan, til egalarining ijtimoiy-madaniy hayotida ahamiyatini yo'qotgan, faqat katta avlod vakillari foydalanayotgan til. Mutaxassislar Rossiyadagi vod, udi, koryak tillari, Erondagi tat tili, Alyaskadagi yupik tilini o'layotgan tillar sirasiga kiritadi. Kuchli tillar raqobati ta'sirida yengilgan bunday tillar o'z egalari tomonidan ona tili sifatida egallanmayotgan va yaqin kelajakda unutilish xavfi ostida qolgan bo'ladi. O'layotgan tilni saqlab qolish choralari ko'rilmasa – ijtimoiy, siyosiy va pedagogik harakatlar qilinmasa, bir-ikki avlod o'tgandan keyin to'liq o'lik tilga aylanadi.

Qarang: tilning yashovchanligi, til vazifalarining kengayishi.

O'RGANILAYOTGAN TIL Alohida shaxs yoki guruh tomonidan aniq maqsadda (masalan, ta'lim, ish, ko'chib o'tish, madaniyatga qiziqish yoki kommunikativ zarurat

sababli) maxsus o‘zlashtirilayotgan ona tilidan boshqa til. Masalan, o‘zbek bolasi ingliz tilini maktabda o‘rganayotgan bo‘lsa, ingliz tili u uchun o‘rganilayotgan til hisoblanadi. Bunday til ko‘pincha insonning ikkinchi yoki uchinchi tili bo‘ladi. O‘rganilayotgan til mustaqil va o‘qituvchi yordamida o‘rganilishi, ijtimoiy ta‘siriga ko‘ra farqlanadi. O‘zbekiston sharoitida hozirgi kunda ingliz, xitoy, rus va arab tillari ko‘pchilik uchun o‘rganilayotgan til hisoblanadi.

Qiyos: o‘zlashtirilgan til.

O‘RGANILGAN TIL Alohida shaxs yoki guruh tomonidan ta‘lim muassasalarida yoki mustaqil ravishda maxsus dasturlar orqali egallangan ona tilidan boshqa til. Bunday til shaxsiy ehtiyoj, ijtimoiy-iqtisodiy talab yoki qiziqish sabab o‘rganiladi. O‘zbekistonda ingliz tilini o‘rganib, chet elda ishlayotgan o‘zbek uchun ingliz tili yoki fransuz maktabini bitirgan arab bola uchun fransuz tili ham o‘rganilgan tildir. Ko‘ptillilik muhitida o‘rganilgan til ikkinchi til ham, uchinchi til ham bo‘lishi mumkin. Bunday til ona tili bo‘lmasa ham unda erkin so‘zlashuv darajasiga yetish mumkin. O‘rganilgan til ko‘ptillilik, global muloqot va shaxsiy til kompetensiyasining natijasidir, uning rivoji jamiyatning til siyosati, ta‘lim sifati va kommunikativ ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq.

Qiyos: o‘zlashtirilgan til.

O‘RTA ETNOLEKT Migratsiya sharoitida tug‘ilib, voyaga yetgan etnik guruh vakillari so‘zlashadigan til ko‘rinishi. U ilk etnolekt asosida shakllanadi, ammo leksikasining kengligi, ommaviy axborot vositalari tili sifatida amal qilishga o‘tganligi bilan farq qiladi. Sotsiolingvistik adabiyotlarda “Kanak sprak”, “Türkenslang”, “Türkendeutsch”, “Balkandeutsch” kabilar Germaniya sharoitida o‘rta etnolekt sifatida ko‘rsatiladi.

Qiyos: ilk etnolekt, so‘nggi etnolekt.

O‘RTA IJTIMOIIY GURUH Muayyan hududiy jamoa sifatida uyushgan kishilar yoki biror korxonatashkilot darajasida birlashgan xodimlar jamoasi, ishlab chiqarish

uyushmalari. Ishlab chiqarish uyushmalari ma'lum bir maqsadga erishish uchun tashkil etiladi hamda tarkibi va o'zaro munosabatlarini hokimiyatning iyerarxik tuzilmasi, rasmiylashtirilgan muloqot shakllari, qaror qabul qilish usullari yordamida tartibga soladi. Hududiy jamoa esa tarixan shakllanadi. Masalan, biror zavod yoki yirik kompaniya xodimlari, bir qishloq, shahar yoki tuman aholisi.

Qiyos: katta ijtimoiy guruh, kichik ijtimoiy guruh.

O'RTA IJTIMOYILASHUV DAVRI Odatda maktab davri (taxminan 7–14 yosh)ga to'g'ri keladigan, asosan ijtimoiy-axloqiy ko'nikmalar shaxsiy sifatga aylanadigan o'smirlilik vaqti. Ijtimoiy til malakalari ham shu davrda shakllanadi, o'smir ta'lim muassasalari, do'stlar davrasi, o'qituvchilar, ommaviy axborot vositalari kabi ijtimoiy institutlar bilan faol muloqotga kirishadi. Bola rasmiy va norasmiy nutq, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotdagi farqni tushuna boshlaydi, rasmiy adabiy til va terminologiya bilan tanishuv kuchayadi, vaziyatga mos so'zlar va iboralarni tanlab qo'llashni o'rganadi. Bu bosqichda bolaning muloqot xulqi va leksikasidagi o'zgarishlar (masalan, chet so'z, iboralar) ko'p jihatdan sinfdoshlari yoki do'stlari ta'sirida paydo bo'ladi.

Qiyos: ilk ijtimoiylashuv davri, keyingi ijtimoiylashuv davri.

O'ZLASHMA SO'Z Boshqa tillardan tarixiy, siyosiy, madaniy, savdo yoki diniy aloqalar natijasida qabul qilingan va til egalari tomonidan tan olingan, uzuallashgan, ma'lum darajada shu tilning fonetik, grammatik va uslubiy me'yorlariga moslashgan leksik birlik. Odatda o'zlashma so'zlar yangi tushunchaning ifodasi sifatida boshqa tilga qabul qilinganda jamiyatning ziyoli qatlamida ham, keng aholi qatlamida ham e'tiroz uyg'otmaydi. O'zlashma so'zlar tilni boyitadi, madaniy aloqalarni ko'rsatadi va xalqaro tushunchalarni oson o'zlashtirishga xizmat qiladi, ammo ularning me'yoriy

miqdordan oshib ketishi ona tilining tabiiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qiyos: o'z so'z.

O'ZLASHTIRILGAN TIL Shaxs tabiiy ravishda oilada yoki chet tilida so'zlashadigan muhitda jonli muloqot orqali egallagan ona tilidan boshqa til. Sotsiolingvistikada bunday til ana shu jihati bilan maktab yoki boshqa joyda o'qituvchi yordamida egallangan "o'rganilgan til" tushunchasidan farqlanadi. Masalan, o'zbekistonlik migrantlarning Rossiya Federatsiyasidagi rus tilli muhitda bu tilni o'zlashtirishi yoki Amerikaga ko'chib ketgan o'zbeklarning ingliz tilini egallashi bunga misol bo'ladi.

Qiyos: o'rganilgan til.

O'ZLASHTIRISH Jamiyat hayotining turli jabhalarida lisoniy ehtiyojlar sababli bir tildan ikkinchi tilga nutq tovushlari, qo'shimchalar, so'z (asosan) va iboralarni o'z til tizimiga moslashtirib qabul qilinishidan iborat lisoniy jarayon. O'zlashtirish orqali til boyiydi, xalqaro tushunchalarni ifodalay olish salohiyatiga ega bo'ladi, ammo haddan ortiq o'zlashtirish tilning milliy xususiyatlariga zarar yetkazadi. Har ikki holatda ham tillararo aloqalar shu tillar egalarining hamkorligidan boshlanadi.

Qarang: aynan o'zlashtirish, kalkalab o'zlashtirish.

Sh

SHAHAR DIALEKTI Milliy tilning shaharlik tubjoy aholi soʻzlashadigan, boshqa dialektlardan fonetik-fonologik, leksik-semantik va boshqa jihatlari bilan farqlanadigan hududiy xoslangan shakli. Masalan, Toshkent shahri dialekti, Fargʻona shahri dialekti kabi. Oʻzbek tili tarixida shahar dialekti kasbiy atamalarga boyligi bilan qishloq dialektidan farqlangan, unda, ayniqsa, leksik-semantik oʻzgarishlar sezilarli darajada tez boʻlgan. Masalan, Qoʻqon shahri dialektida umumadabiy soʻzlar bilan birga kelib chiqishi tojikcha boʻlgan kasb-kor soʻzlari koʻp boʻlgan, ammo hozir ularning katta qismi arxaiklashgan. Umuman, shahar dialektida mahalliy shevalar, boshqa etnik guruhlar tillari va adabiy til unsurlari qorishiq uchraydi.

Qiyos: shahar tili.

SHAHAR KOYNESI Milliy va ijtimoiy kelib chiqishi har xil boʻlgan shahar aholisining doimiy muloqot vositasi sifatida shakllangan ogʻzaki tili. Bu til koʻrinishi shahar muhitining madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy dinamikasini aks ettiradi, mahalliy shevalar, jargonlar va baʼzan xalqaro tillarning taʼsirini oʻz ichiga oladi, shu bilan birga, milliy til normasidan farqlanadi. Masalan, *koʻrishamiz, gap yoʻq, ishlavor, sekin gapirasizmi, zapravka, tok yoʻq, xolodilnik* kabi ifodalar faol qoʻllanadi. Bu til shakli turli hududlardan shaharga koʻchib kelgan odamlar, turli millat vakillari, shuningdek, OAV va ijtimoiy tarmoqlar taʼsirida doimiy oʻzgarib, yangilanib boradi.

Qiyos: mintaqa koynesi.

SHAHAR TILI Asosan, shahar aholisi nutqida voqelanadigan, lugʻaviy tarkibida professional leksika va jargonlar, texnik-texnologik terminlar, yangi oʻzlashma va olinmalar koʻp uchrashi bilan ajralib turadigan til shakli.

Shahar tili o'zida bu ma'muriy-siyosiy hududning lisoniy qiyofasini namoyon etadi. Shahar tili xususiyatlari dastlab unga yaqin hududlar aholisi tiliga, keyinchalik markazdan uzoq hududlar aholisi tiliga o'zlashadi. Sotsiolingvistikada bu termin ijtimoiy mansubligi, kasb-kori va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadigan ayrim sotsial guruhlar qo'laydigan til ko'rinishi sifatida shahar nutqidan farqlash uchun ishlatiladi. "Shahar tili" tushunchasi "shahar dialekti" va "shahar koynesi" tushunchalarini o'zida birlashtiradigan umumiy tushuncha.

Qiyos: shahar dialekti, regiolekt.

SHARTLI TIL Turli yopiq ijtimoiy guruhlar (masalan, savdogarlar, tilanchilar, ovchilar, o'g'rilar) tomonidan qo'llanadigan, shu ijtimoiy guruhlar a'zolaridan boshqaga tushunarli bo'lmagan yashirin til ko'rinishi. Bunday til ko'rinishlarining leksikasi uncha katta bo'lmaydi, chegaralangan miqdordagi so'z va iboralardan shakillanadi. Bunday lisoniy birliklarning aksariyati o'ziga xos tarzda yasaladi, sun'iyliги sezilib turadi, unda oldindan kelishilgan ishoralar bo'ladi. Argo, jargon kabilarning qisqa, aniq, shifrlanganlik xususiyatlari shartli tilning maqsadga yo'naltirilgan ekanligini bildiradi.

Qarang: argo, jargon.

SHARTNOMA TILI Muayyan shartnomani tuzuvchi tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra tanlanadigan, shartnoma matni tuziladigan til. Shartnoma tili vazifasini bir til ham, birdan ortiq til ham bajarishi mumkin. Shartnoma tomonlarning kelishuviga binoan birdan ortiq tilda tuzilgan taqdirda o'zaro shartlashuvga ko'ra bitta til asosiy til sifatida belgilanadi. Fors-major holatlar yuzaga kelganda asosiy tildagi matn birlamchi shartnoma tili bo'lib xizmat qiladi.

Qarang: ishchi til.

SHIBBOLET [*ibron.* shbl̥ū – bug'doy yoki javdar boshog'i] Bir umumiy tilda so'zlashadigan jamiyatdagi bir jamoa, biror hudud vakillarini boshqa jamoa, boshqa hudud vakillaridan ajratib turadigan o'ziga xos lisoniy ifodalarning

jami, o'sha ijtimoiy guruh vakillarigagina xos bo'lgan talaffuz shakllari. Masalan, o'zbek tilida muayyan so'zlar yoki iboralarni talaffuz qilish tarzi kishining qaysi hududdan ekanligini ko'rsatishi mumkin (masalan, Toshkent shevasida "q" tovushining so'z oxirida unlidan keyin kelgandagi talaffuzi).

Qarang: lisoniy jamoa, ijtimoiy guruh, sotsiolekt.

JWX2678

JWX2678

Ch

JWX2678

CHEGARALANGAN NUTQ KODI *Ingliz* psixologi B.Bernshteyn turli qatlamga mansub (ammo intellektual teng rivojlangan) ikki guruh o'smirlarning nutqini tahlil qilish asosida chegaralangan va chegaralanmagan nutq kodlari farazini ilgari surgan. Bunga ko'ra, kishilarning o'rta yoki quyi qatlamga mansubligi ularning tildan foydalanish tarzini belgilaydi. Masalan, oddiy ishchilar sinfi vakillari va qishloq aholisi chegaralangan nutq kodidan foydalanadi. Bu nutq tipi leksik jihatdan tor, sintaktik sodda tuzilganligi bilan tavsiflanadi. Masalan, "O'sha narsa borgan joyda bo'ladi", "Bilasan-ku!", "Ana u gapni aytma endi" kabilar. Hozirgi kunda bir-birini yaxshi tushunadigan ijtimoiy guruhlar orasida shakllangan, qisqartirilgan, soddalashtirilgan va kontekstga bog'liq tarzda ifodalanadigan til shakli ham tushuniladi.

Qiyos: chegaralanmagan nutq kodi.

CHEGARALANMAGAN NUTQ KODI Bu tip nutqiy kod taxminli xulosalarning kamligi va murakkab sintaktik tuzilishi bilan ajralib turadi. Jamiyatning yuqori va o'rta qatlami vakillari shunday nutq kodlaridan foydalanganligi uchun ularning nutqi leksik jihatdan rang-barang, murakkab sintaktik tuzilishli bo'ladi. B.Bernshteyning ushbu farazi dalillarining bo'shligi, haqiqiy lisoniy holatni aks ettira olmasligi sababli tanqid qilingan.

Qiyos: chegaralangan nutq kodi.

CHET TILI Shaxsning milliy identifikatsiyasiga xos bo'lmagan, uning aniq maqsad asosida mustaqil yoki ta'lim muassasalarida o'rgangan tili, kishining ona tili yoki birinchi tili bo'lmagan til. Masalan, o'zbek xalqi uchun xitoy tili ham, ingliz tili ham chet tili hisoblanadi. Chet tili kishining ijtimoiy harakatchanligi, mutaxassis sifatida raqobatbardoshligi va madaniyatlararo muloqot imkoniyatini

kengaytiradi. Ba'zan bunday tilga til imperializmi yoki ona tilining siqib chiqarilishiga olib keluvchi omil sifatida ham qaraladi.

Qiyos: ona tili, milliy til.

2. Muayyan tilda so'zlashuvchilar yashaydigan mamlakatdan tashqarida qo'llanadigan, shaxs o'zi va o'zi kabilarga yot deb hisoblaydigan til. Bu ma'noda shaxs o'zi yashaydigan mamlakatda amal qiladigan til *o'z til*, o'zga mamlakatda amal qiladigan til *o'zga til* deyiladi, "begona til", "yot til" tushunchalariga teng keladi.

Qarang: begona til, yot til.

CHIKANO [*isp.* Mejicano – Meksika] 1. Kelib chiqishi meksikalik bo'lgan AQSh fuqarolariga nisbatan oq tanli amerikaliklar tomonidan ularni sinfiy va irqiy kamsitish maqsadida aytiladigan haqorat mazmunli so'z hamda iboralar. Bu ma'noda chikano jins nuqtayi nazaridan farqlanadi. Masalan, *chikana* shakli meksikalik ayollarga qarata ishlatiladi. Bu atama o'tgan asrning 60-yillarida meksikalik-amerikaliklarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'ziga xosligini, shuningdek, ularning tubjoy xalqlar (masalan, nahuatl) bilan bog'liqligini ham ta'kidlaydi.

Qarang: vulgarizm.

2. Amerika Qo'shma Shtatlarida yashovchi meksikaliklar qo'llaydigan lahja. Bu til shakli ularning etnik identifikatsiyasini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu etnolisoniy jamoa o'z tilini ijtimoiy muloqotda, ayniqsa, diaspora ichida saqlashga intiladi, ammo yoshlar orasida ingliz tilining ta'siri tufayli ayni tilning saqlanish darajasi pasayadi.

Qiyos: lingvofranka. **Qarang:** pijin, kreol til.

3. Kelib chiqishi meksikalik bo'lgan amerikaliklar tomonidan yaratilgan va Amerika submadaniyatini tavsiflovchi atama. Bu atama dastlab Meksikaga qarashli hududlar (AQSHning hozirgi Texas, Arizona, Nyu-Meksiko, Kolorado, Yuta va Kaliforniya shtatlari)da yashagan odamlarning etnomadaniy o'ziga xosligini umumlashtirib ifodalaydi.

Qiyos: tilning etnoijtimoiy xususiyati.

“SOTSIOLINGVISTIKA ATAMALARINING IZOHLI LUG‘ATI” SO‘ZLIGI

Adabiy til	Aynan o‘zlashtirish
Adabiy til me‘yorlari	Ayollar nutqi
Adabiy tilni xalqchillashtirish	Badiiy uslub
Adabiy tilning barqarorlashganligi	Baholash
Adabiy tilning me‘yorlashganligi	Barqaror lisoniy jamoa
Adabiy tilning umummajburiyligi	Baynalmilal til siyosati
Adabiy tilning universalligi	Bazilekt
Adgerent sotsiolingvistika	Begona til
Adresant	Bevosita kuzatish usuli
Adresat	Bevosita ta‘sirlashuv
Adstrat	Beysik-ingliz
Aholining etnik tarkibi	Bidialektizm
Aholining ijtimoiy tarkibi	Bilingv
Aholining lisoniy tarkibi	Bilingvizm
Akademik jargon	Bilingvlashuv
Akkomodatsiya	Bilvosita ta‘sirlashuv
Akrolekt	Bir etnolektlilik
Akrolekt egasi	Bir millatli davlat
Aksent	Bir millatli jamoa
Aksitil	Bir tilli jamoa
Alifboni almashtirish	Bir tilli lisoniy vaziyat
Alifboni takomillashtirish	Birinchi til
Alloetnonim	Birtillilik
Allolekt	Birtomonlama bilingvizm
Allotoponim	Birtomonlama ta‘sirlashuv
Amaliy sotsiolingvistika	Biryozuvlilik
Amboglossiya	Biznes jargoni
Amerika sotsiolingvistikasi	Bobo til
Antropologik lingvistika	Bola nutqi
Antroposentrik tilshunoslik	Bolalar tili
Aralash ikkitillilik	Bolqon tillari
Aralash lisoniy jamoa	Bolqon tillari ittifoqi
Aralash til	Boshlang‘ich ikkitillilik
Aralash sheva	Boshqariladigan muloqot sohalari
Areal tillar	Boshqarilmaydigan muloqot sohalari
Areal tilshunoslik	Dasturlash tili
Argo	Davlat boshqaruvi tili
Argotizm	Davlat tili
Asos til	Davlat tili talablari
Asosiy muloqot sohalari	Davlatlararo muloqot
Asosiy til	Davlatning tilga munosabati
Avtotoponim	

Demografik ko'rsatkich
Demografik noteng til vaziyati
Demografik teng til vaziyati
Demokratik til siyosati
Destruktiv til siyosati
Dialekt
Dialektal areal
Dialektal kontinuum
Dialektal markaz
Dialektal me'yorlar
Dialektal muhit
Dialektizm
Dialektologiya
Diaspora
Diaspora tili
Diaxron sotsiolingvistik tahlil
Diffuziya
Diglossiya
Din tili
Diniy tabu
Diniy til
Diplomatik til
Diplomatiya tili
Disfemiya
Disfemizm
Diskurs
Divergeniya
Dualingvizm
Dunyo tili
Dunyo tillari
Egallangan ikkitillik
Ekolingvistik monitoring
Ekolingvistik muvozanat
Ekolingvistika
Eksperimental sotsiolingvistika
Ekzoetnonim
Ekzotik leksika
Ekzotizm
Ekzotoponim
Elita tili
Ekzogloss vaziyat
Endoetnonim
Endogloss vaziyat
Endotoponim
Erkaklar nutqi

Eski yozuvlar
Eski yozuvli tillar
Esperanto
Etnik birlik
Etnik guruh
Etnik ko'pchilik
Etnik ko'pchilik tili
Etnik mansubiyat
Etnik ozchilik
Etnik ozchilik tili
Etnik ozchilik tili festivali
Etnik stereotiplar
Etnik tabu
Etnik til
Etnik o'zlik
Etnik o'zlikni anglash
Etnogenez
Etnografik guruh
Etnografiya
Etnografizm
Etnolekt
Etnolema
Etnolingvistika
Etnolisoniy assimilyatsiya
Etnolisoniy jamoa
Etnomatn
Etnonim
Etnonimika
Etnos
Etnosentrizm
Etnotsid
Evfemiya
Evfemizm
Fan tili
Faol
Faol kalka
Filogenez
Fonetik-fonologik interferensiya
Frankofoniya
Fransuz-giti kreoli
Fransuz sotsial tilshunoslik maktabi
Frazeologik kalka
Funksional faol til
Funksional ikkitillilik
Funksional konvergeniya

FunkSIONAL nisbiylik nazariyasi
 FunkSIONAL nofaol til
 FunkSIONAL sotsiolingvistika
 Geterogen lisoniy jamoa
 Geterogen til vaziyati
 Geteromorf til vaziyati
 Global til
 Globallashuv
 Glottofagiya
 Glottogonik konvergensiya
 Gomogen lisoniy jamoa
 Gomogen til vaziyati
 Gomomorf til vaziyati
 Grafizatsiya
 Grammatik interferensiya
 Grammatik me'yorlar
 Guruhlararo ikkitillilik
 Harbiy jargon
 Harbiy til
 Hududiy dialekt
 Huquqiy jargon
 Hududiy ikkitillilik
 Hududiy rasmiy tillilik
 Hududiy so'zlashuv tili
 Huquqiy maqomli til
 Huquqiy maqomsiz til
 Ibodat tili
 Ibtidoiy tabu
 Idiolekt
 Idiom
 Ijjobiy ijtimoiy bog'liqlik
 Ijtimoiy axloq
 Ijtimoiy bosim
 Ijtimoiy dialekt
 Ijtimoiy dialektologiya
 Ijtimoiy guruh
 Ijtimoiy harakatchanlik
 Ijtimoiy ifoda
 Ijtimoiy izolyatsiyalash
 Ijtimoiy kelishuv nazariyasi
 Ijtimoiy-kommunikativ tizim
 Ijtimoiy konnotatsiya
 Ijtimoiy-lisoniy arxistema
 Ijtimoiy mansubiyat
 Ijtimoiy maqom
 Ijtimoiy muhit
 Ijtimoiy nutqiy qoliplar
 Ijtimoiy omillar
 Ijtimoiy qatlamlanish
 Ijtimoiy qoidalar
 Ijtimoiy rol
 Ijtimoiy sema
 Ijtimoiy substrat
 Ijtimoiy tabu
 Ijtimoiy tartib
 Ijtimoiy variativlik
 Ijtimoiy xoslangan til variantlari
 Ijtimoiy o'zlik
 Ijtimoiy o'zlikni anglash
 Ijtimoiylashuv
 Ijtimoiylashuv tili
 Ilk ijtimoiylashuv davri
 Ilk ijtimoiylashuv tili
 Ikki tilli jamoa
 Ikkitomonlama bilingvizm
 Ikkitomonlama ta'sirlashuv
 Ikkidialektlilik
 Ikkinchi ona tili
 Ikkinchi til
 Ikkitillilik
 Ilk etnolekt
 Ilmiy uslub
 Individual ikkitillilik
 Individual ksenolekt
 Individual ko'ptillilik
 Ikkitillilik komponentlari
 Imo-ishora tili
 Individual diglossiya
 Interdialekt
 Interferensiya
 Interlingvistika
 Internatsionalizmlar
 Internet qatlami
 Intervyu usuli
 Ispan-nauatl kreoli
 Izoglossa
 Izolyatsionizm
 Izolyatsiyalangan til/dialekt
 Ish yuritish tili
 Ishchi til

Jahon tillari	Ko'pdialektlilik
Jamiyat	Ko'petnolektlilik
Jamiyatning ijtimoiy tarkibi	Ko'p millatli davlat
Jamiyatning lisoniy manzarasi	Ko'p millatli jamoa
Jamiyatning lisoniy tarkibi	Ko'p rasmiy tillilik
Jamiyatshunoslik	Ko'p tilli jamoa
Jamoaviy diglossiya	Ko'ptillilik
Jamoaviy ikkitillilik	Ko'cha tili
Jamoaviy ksenolekt	Lahja
Jamoaviy ko'ptillilik	Leksifikator til
Jargon	Leksik me'yorlar
Jargonizm	Leksik-semantik interferensiya
Jo'n til vaziyati	Lingvist-ekspert
Kajun	Lingvistik ekspertiza
Kakofemiya	Lingvistik ekspertiza obyekt
Kakofemizm	Lingvistik ekspertiza talablari
Kalka	Lingvistik geografiya
Kalkalash	Lingvistik konfliktologiya
Kanselyarizm	Lingvistik ta'minot
Kattalar tili	Lingvofranka
Keksalar tili	Lingvosotsiologiya
Keyingi ijtimoiylashuv davri	Lisoniy aloqalar
Keyingi ijtimoiylashuv tili	Lisoniy ambitsiya
Kengaytirilgan diglossiya	Lisoniy an'analar
Kengaytirilgan kod	Lisoniy areal
Kokolik	Lisoniy bag'rikenglik
Kommunikativ vazifa	Lisoniy birxillashtirish
Konstruktiv til siyosati	Lisoniy birxillik
Kontakt til	Lisoniy boshboshdoqlik
Kontrastiv tilshunoslik	Lisoniy bunyodkorlik
Konvergensiya	Lisoniy bo'linish
Korrelyativ tahlil usuli	Lisoniy ekstremizm
Koynе	Lisoniy hamjamiyat
Koynelashish	Lisoniy harxillik
Kreol til	Lisoniy hayot
Kreol til yaratuvchisi	Lisoniy ijtimoiylashuv
Kreollashish	Lisoniy imperiyachilik
Kreolsizlashish	Lisoniy individuallashuv
Kreolshunoslik	Lisoniy integratsiya
Kriptografiya	Lisoniy ixtilof
Ksenofobiya	Lisoniy izolyatsiyalash
Ksenolekt	Lisoniy jamoa
Ksenolekt egasi	Lisoniy kamsitish
Ksenolektik qo'llanish	Lisoniy konservativizm
Kuzatuv usuli	Lisoniy kontinuum

Lisoniy layoqatlilik	Markazlashmagan til siyosati
Lisoniy liberallashuv	Maslahatchi
Lisoniy mansubiyat	Maxfiy til
Lisoniy migratsiya	Maxsus leksika
Lisoniy muhit	Maxsus til
Lisoniy nigilizm	Ma'noviy kalka
Lisoniy nizo	Ma'muriyat tili
Lisoniy noqulaylik	Mentalitet
Lisoniy mo'ljallash	Metrolekt
Lisoniy qatlamlanish	Mezolekt
Lisoniy qobiliyat	Me'yorlashgan til
Lisoniy qulaylik	Mikrosotsiolingvistika
Lisoniy qurshov	Millatlararo lisoniy ixtilof
Lisoniy qo'rquv	Millatlararo muloqot
Lisoniy reallikni tartibga solish	Millatlararo muloqot madaniyati
Lisoniy rejalashtirish	Millatlararo muloqot tili
Lisoniy sodiqlik	Millatparastlik
Lisoniy tabu	Millatparvarlik
Lisoniy tarafkashlik	Millatchilik
Lisoniy taranglik	Milliy alohidalanish
Lisoniy tashabbuskorlik	Milliy bo'linish
Lisoniy tiyilish	Milliy iftixor
Lisoniy tonish	Milliy ikkitillilik
Lisoniy to'siq	Milliy lisoniy ixtilof
Lisoniy unitarizm	Milliy lisoniy munosabat
Lisoniy xolislik	Milliy kalondimog'lik
Lisoniy yakkalanish	Milliy mentalitet
Lisoniy o'zgarish	Milliy nigilizm
Lisoniy o'zlik	Milliy ong
Lisoniy o'zlikni anglash	Milliy konsolidatsiya
Loglan	Milliy murosasizlik
Lotinlashtirish	Milliy siyosat
Lug'aviy kalka	Milliy sudlov tili
Madaniy o'zlikni anglash	Milliy til
Mahalliy aholi	Milliy til qonunchiligi
Mahalliy til	Milliy til siyosati
Mahbuslar jargoni	Milliy xudbinlik
Maishiy til	Milliy yo'nalgan til siyosati
Majoritar til	Milliy o'ziga xoslik
Majoritar xalq	Milliy o'zlik
Makroetnonim	Milliy o'zlikni anglash
Makrosotsiolingvistika	Milliy g'urur
Marginal til	Minoritar til
Marginal shaxs	Minoritar xalq
Markazlashgan til siyosati	Mintaqa koynesi

Mintaqa tili	Nutqning ijtimoiy farqlanishi
Monolingv	Nutqning yosh bo'yicha darajala-
Moslashuv	nishi
Moshkichiri nutq	Oddiy so'zlashuv
Muloqot	Oilaviy-maishiy til
Muloqot muhiti	Olinma so'z
Muloqot sohalari	Olamning dialektal manzarasi
Muloqot xulqi	Olamning lisoniy manzarasi
Muloqot xulqi stereotiplari	Ommalashtirilayotgan til
Muntazam ta'sirlashuv	OAV tili
Muqobilsiz leksema	Ommaviy ikkitillilik
Muqobilsiz leksika	Ona tili
Murakkab til vaziyati	Ontogenez
Murojaat tili	Oraliq til
Mustamlakachilar tili	Orfoepik me'yorlar
Mutanosib ikkitillilik	Orfografik me'yorlar
Mutanosib til vaziyati	Ortbilim
Muvaqqat lisoniy aloqa	Og'zaki adabiy til
Nazariy sotsiolingvistika	Og'zaki nutq
Nobarqaror lisoniy jamoa	Perspektiv til siyosati
Nodemokratik til siyosati	Pijin
Nofaol ikkitillilik	Pijin yaratuvchisi
Nofaol kalka	Pijinlashish
Nomuntazam ta'sirlashuv	Pijinsizlashish
Nomutanosib ikkitillilik	Pijinshunos
Nomutanosib til vaziyati	Pijinshunoslik
Noqarindosh tillar	Real lisoniy jamoa
Noqarindosh tillar ikkitilliligi	Postkreol kontinuumi
Noqarindosh tillar ko'ptilliligi	Potensial lisoniy jamoa
Norasmiy ikkitillilik	Professional leksika
Norasmiy kichik ijtimoiy guruh	Professionalizm
Norasmiy muloqot sohalari	Progressiv ikkitillilik
Normativ til	Prospektiv sotsiolingvistika
Nostandart til	Publitsistik uslub
Noxolis til qonunchiligi	Puristik til siyosati
Noxolis til siyosati	Purizm
Nutq akti	Qabila tili
Nutq etnografiyasi	Qabilaviy til
Nutq kodi	Qadim yozuvlar
Nutq vaziyati	Qadim yozuvli tillar
Nutqiy odat	Qadimiy tillar
Nutqiy variativlik	Qamoq tili
Nutq jamoasi	Qarindosh tillar
	Qarindosh tillar ikkitilliligi
	Qarindosh tillar ko'ptilliligi

Qattiq til siyosati
 Qayta sotsiolingvistik talqin
 Qisman ikkitillilik
 Qisman lisoniy birxillik
 Qisman lisoniy harxillik
 Qoldiq ikkitillilik
 Qonun tili
 Qonunchilik tili
 Qorishiq nutq
 Qorishiq tilli jamoa
 Qo'llanishi chegaralangan leksika
 Qo'llanishi chegaralanmagan lek-
 sika
 Qo'sh rasmiy tillilik
 Qo'shyozuvlilik
 Raqamlash tili
 Raqamli til
 Rasmiy ikkitillilik
 Rasmiy kichik ijtimoiy guruh
 Rasmiy muloqot sohalari
 Rasmiy til
 Rasmiy uslub
 Rag'batlantirilayotgan til
 Real lisoniy jamoa
 Regiolekt
 Regiolektlashuv
 Regionalizm
 Regional va minoritar tillar Yevropa
 xartiyasi
 Registr
 Regressiv ikki tillilik
 Retrospektiv til siyosati
 Rivojlanayotgan til
 Rivojlangan til
 Rivojlanmagan til
 Rol konflikt
 Rolli muloqot
 Salbiy ijtimoiy bog'liqlik
 Sanoat jargoni
 Sinfy dialekt
 Situativ variativlik
 Situolekt
 Sleng
 Sof til
 Sotsiofonetika
 Sotsiolekt
 Sotsialemma
 Sotsiolingvistik areal
 Sotsiolingvistik arxisistema
 Sotsiolingvistik baholash
 Sotsiolingvistik bog'liqlik
 Sotsiolingvistik ko'rsatkich
 Sotsiolingvistik layoqat
 Sotsiolingvistik layoqatlilik
 Sotsiolingvistik makon
 Sotsiolingvistik ma'lumot yig'ish
 usullari
 Sotsiolingvistik ma'lumotlar
 Sotsiolingvistik me'yor
 Sotsiolingvistik monitoring
 Sotsiolingvistik muvozanat
 Sotsiolingvistik muvozanatning bu-
 zilishi
 Sotsiolingvistik tadqiqot usullari
 Sotsiolingvistik tahlil
 Sotsiolingvistik tajriba
 Sotsiolingvistik talqin
 Sotsiolingvistik tipologiya
 Sotsiolingvistik vaziyat
 Sotsiolingvistik o'zgaruvchi
 Sotsiolingvistik
 Sotsiolingvistik bo'limlari
 Sotsiolingvistik obyekt
 Sotsiomadaniy omillar
 Sotsiopragsmatika
 Sotsiopsixolingvistik
 Sotsiosemantika
 Sotsiostilistika
 Sog'lom til
 Standart til
 Subetnonim
 Submadaniyat
 Substrat
 Substrat etnonim
 Substrat toponim
 Sudlov tili
 Suhbat tahlili
 Sun'iy til
 Sun'iy xalqaro tillar
 Superstrat

Surjik
 So'rovnoma usuli
 So'z o'zlashtirish
 So'nggi etnolekt
 Tabaqaviy variativlik
 Tabiiy ikkitalilik
 Tabiiy til
 Tabiiy xalqaro tillar
 Tabu
 Talabalar jargoni
 Tarixiy sotsiologvistika
 Tarixiy-struktur konvergensiya
 Tashqi ta'sirlanish
 Ta'lim tili
 Ta'lim tilini erkinlashtirish
 Ta'lim tilini mutlaqlashtirish
 Tergov tili
 Terminologiyani milliyashtirish
 Terminologiyaning baynalmilalligi
 Terminologiyaning milliyligi
 Terminologiyaning g'ayrimilliyliigi
 Ters jargon
 Ters til o'zgarishi
 Test
 Tibbiyot jargoni
 Tibbiyot tili
 Til
 Til almashuvi
 Til amaliyoti
 Til amaliyotini tartibga solish
 Til bilish
 Til bosqini
 Til egasi
 Til ekologiyasi
 Til evolyutsiyasi
 Til faollari
 Til globallashuvi
 Til holati
 Til huquqi
 Til huquqining buzilishi
 Til huquqining kafolatlanganligi
 Til huquqining kafolatlanmaganligi
 Til ijodkorligi
 Til ijtimoiy vazifalarining kengayishi
 Til ijtimoiy vazifalarining torayishi
 Til islohi
 Til islohoti
 Til landshafti
 Til makroevolyutsiyasi
 Til maqomi
 Til mavjudligi maktabi
 Til me'yorlari
 Til me'yorlarining yemirilishi
 Til makroevolyutsiyasi
 Til mustaqilligi
 Til paydo bo'lishining sotsiologvistik aspekti
 Til qonunchiligi
 Til qonunchiligining umumiy normalari
 Til qonunchiligining xususiy normalari
 Til qonunchiligining vazifalari
 Til sinfiyligi
 Til siyosati
 Til siyosati obyekt
 Til siyosati subyekti
 Til sotsiologiyasi
 Til tanqisligi
 Til tanqisligi gipotezasi
 Til taraqqiyoti
 Til uzusi
 Til va jamiyat
 Til varianti
 Til variativligi
 Til vazifalarining kengayishi
 Til vazifalarining torayishi
 Til vaziyati
 Tilda gender farqlanishi
 Tilda vaqt uzluksizligi
 Tilga maqsadli aralashuv
 Tilga vertikal ta'sir
 Tilga gorizontal ta'sir
 Tillar distributsiyasi
 Tillar hamkorligi
 Tillar ittifoqi
 Tillar ta'sirlashuvi
 Tillar tenghuquqliligi
 Tillar yaqinlashuvi

Tillar chatishuvi
 Tillarni himoyalash
 Tillarning ajralib chiqishi
 Tillarning aralashishi
 Tillarning funksional notengligi
 Tillarning funksional tengligi
 Tillarning funksional-tipologik tasnifi
 Tillarning kommunikativ darajasi
 Tillarning sotsiologik tasnifi
 Tilni me'yorlashtirish
 Tilni saqlab qolish
 Tilni siqib chiqarish
 Tilni standartlashtirish
 Tilni yo'qotish
 Tilni o'zlashtirish
 Tilning ajratuvchilik vazifasi
 Tilning asosiy vazifalari
 Tilning birlashtiruvchilik vazifasi
 Tilning boyishi
 Tilning bo'linishi
 Tilning demografik ko'rsatkichi
 Tilning demografik quvvati
 Tilning dialektal bo'linishi
 Tilning emotsional-ekspressiv vazifasi
 Tilning estetik vazifasi
 Tilning etnik varianti
 Tilning etnik substrati
 Tilning etnojtimoiy vazifasi
 Tilning etnoramziy vazifasi
 Tilning fatik vazifasi
 Tilning funksional ko'rinishlari
 Tilning funksional maqomi
 Tilning funksional quvvati
 Tilning funksional rivojlanganligi
 Tilning funksional-uslubiy farqlanishi
 Tilning funksional yuklamasi
 Tilning hududiy varianti
 Tilning huquqiy maqomi
 Tilning identifikatsiyalash vazifasi
 Tilning ijtimoiy farqlanishi
 Tilning ijtimoiy qatlamlanishi
 Tilning ijtimoiy tabiati
 Tilning ijtimoiy-tarixiy tipi
 Tilning ijtimoiy varianti
 Tilning ijtimoiy vazifasi
 Tilning ijtimoiy shartlanganligi
 Tilning kognitiv vazifasi
 Tilning kommunikativ vazifasi
 Tilning kumulyativ vazifasi
 Tilning metalingvistik vazifasi
 Tilning milliy varianti
 Tilning nomlash vazifasi
 Tilning qo'llanish ko'lami
 Tilning rasmiylashuvi
 Tilning simvolik vazifasi
 Tilning sotsiolingvistik maqomi
 Tilning sotsiolingvistik portreti
 Tilning tarixiy me'yorlari
 Tilning tiklanishi
 Tilning ustdialekt shakli
 Tilning vazifalari
 Tilning yashash shakllari
 Tilning yashashi
 Tilning yashovchanligi
 Tilning yordamchi vazifalari
 Tilning yuksalishi
 Tilning zamonaviy me'yorlari
 Tilning o'lishi
 Tilshunoslikda sotsiologik yo'nalish
 Tirik til
 Titul millat
 Titul millat tili
 Tiyib turish
 Tiyilgan til
 Trasyanka
 Tubjoy aholi
 Tubjoy aholi tili
 Turg'un lisoniy aloqa
 Turg'unlikdagi tillar
 To'liq kalka
 To'liq lisoniy birxillik
 To'liq lisoniy harxillik
 Umummajburiy til
 Umummilliy ko'ptililik
 Umumtil me'yorlari
 Umumxalq tili

Universal til
 Uslubiy me'yorlar
 Uslubiy siljish
 Uyushtirilgan lisoniy nizo
 Uzoq qarindosh tillar
 Uzoq qarindosh tillar ikkitilliligi
 Uchtillilik
 Vahiy tili
 Variativ sotsiolingvistika
 Varvarizm
 Vazifaviy uslublar
 Va'z tili
 Volapyuk
 Vositachi til
 Vulgarizm
 Xalq ruhi
 Xalq so'zlashuv tili
 Xalq tili
 Xalqaro lisoniy ixtilof
 Xalqaro ona tili kuni
 Xalqaro sudlov tili
 Xalqaro til qonunchiligi
 Xalqaro tillar
 Xalqchil bo'lmagan yozuv
 Xalqchil yozuv
 Xasta til
 Xolis til qonunchiligi
 Xolis til siyosati
 Xorijiy til
 Xronolekt
 Xususiy me'yorlar
 Yagona rasmiy tillilik
 Yaqin qarindosh tillar
 Yaqin qarindosh tillar ikkitilliligi
 Yarim kalka
 Yarim kalkalash
 Yarimdialekt
 Yarimdialektlashuv
 Yarimxasta tillar
 Yangi yozuvli tillar
 Yetakchi til
 Yevropatsentrizm
 Yirik millat
 Yirik til
 Yordamchi til
 Yozma adabiy til
 Yozuv islohoti
 Yozuvli til
 Yozuvsiz til
 Yosh yozuvli tillar
 Yoshlar tili
 Yumshoq til siyosati
 Zamonaviy sotsiolingvistika
 Zamonaviy tillar
 Zamonaviy yozuvlar
 Ziyolilar tili
 O'lik til
 O'layotgan til
 O'rganilayotgan til
 O'rganilgan til
 O'rta etnolekt
 O'rta ijtimoiy guruh
 O'rta ijtimoiylashuv davri
 O'zlashma so'z
 O'zlashtirilgan til
 O'zlashtirish
 Shahar dialekti
 Shahar koynesi
 Shahar tili
 Shartli til
 Shartnoma tili
 Shibbolet
 Chegaralangan nutq kodi
 Chegaralanmagan nutq kodi
 Chet tili
 Chikano

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
A	13
B	31
D	43
E	57
F	74
G	81
H	86
I	89
J	111
K	116
L	130
M	154
N	178
O	188
P	194
Q	200
R	208
S	216
T	236
U	298
V	303
X	307
Y	314
Z	322
O‘	324
Sh	328
Ch	331
“Sotsiolingvistika atamalarining izohli lug‘ati” so‘zligi	333

YORQINJON ODILOV

SOTSIOLINGVISTIKA
ATAMALARINING
IZOHLI LUG‘ATI

Toshkent: – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2025

Muharrir: H.Zokirova
Texnik muharrir: M.Tursunov
Musavvir: Sh.Zoxidova
Musahhih: S.Muratova
Kompyuterda
sahifalovchi: A.Ismailov

E-mail: innovatsiya.nashriyot@mail.ru. Tel.: +99897705-90-35
Nashr lits. № 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 20.08.2025.

Bichimi 84x108 1/32. «Times New Roman» garniturasida.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i: 22,0. Nashriyot bosma tabog‘i 21,5.

Adadi: 1000. Buyurtma № 147.

«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent shahri Olmazor tumani
Ziyo MFY Talabalar ko‘chasi 96-1-uy

JWX2678

JWX2678

JWX2678

JWX2678

JWX2678

